


**Б.Х. RAXIMOV,
S.T. KASIMOVA,
SH. SHADJALILOV**

SHAHAR INJENERLIK INSHOOTLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI

**B.X. RAXIMOV
S.T. KASIMOVA
SH. SHADJALILOV**

**SHAHAR INJENERLIK
INSHOOTLARI**

DARSLIK

5340300 – Shahar qurilishi va xo'jaligi

5111000 – Kasb ta'limi (ShQX)

*5310900 – Metrologiya, standartlashtirish va
mahsulot sifati menejmenti (qurilish)*

**TOSHKENT
«NOSHIR»**

2019

UO'K 624(075.8)

KBK 38.5ya73

Taqrizchilar:

R.K.Mamajonov,

"O'zog 'irsanoatloyiha" OAJ ilmiy ishlar

direktor o'rinnbosari, t.f.d., professor

S.A.Xodjaev,

Toshkent arxitektura qurilish instituti professori, t.f.d.

R-29

Raximov, Bori Xafizovich.

Shahar injenerlik inshootlari: darslik / B.X.Raximov, S.T.Kasimova,

Sh. Shadjalilov. - Toshkent: «Noshir» nashriyoti, 2019. - 436 b.

ISBN 978-9943-5485-4-1

UO'K 624(075.8)

KBK 38.5ya73

Darslik qurilish oliv o'quv yurtlari talabalari uchun yozllgan bo'lib, ularda injenerlik inshootlarning konstruksiyalari, transport inshootlari, shahardagi daryo bo'yлari, garajlar va avtomobil to'xtash joylari, minora, machta-lar, sport inshootlari, rezervuarlar, bozorlar va boshqa injenerlik obyektlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Mazkur darslikda murakkab tizimli va katta oraliqli ko'priklar, ularni hisob-kitob qilish xususiyatlari, yirik tunnellar va sport inshootlari kabi shahar muhandislik inshootlarining eng ommaviy turlarining konstruktiv xususiyatlari yanada mufassal bayon etilgan.

Darslik 5340300 – “Shahar qurillshi va xo‘jaligi”, 5111000 – Kasb ta’limi (Shahar qurilishi va xo‘jaligi) va 5310900 – Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (qurilish) yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Darslikdan shu sohadagi mutaxassislar va malaka oshirish institutlari tinglovchillari ham foydalanishi mumkin.

ISBN 978-9943-5485-4-1

© B.X. Raximov va boshqalar, 2019.

© «Noshir» nashriyoti 2019.

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha sohalarida ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuvi material, mehnat sarfining kamayishiga, yonilg‘i energiya resurslarining tejalishiga va, pirovardida, aholi farovonligining yuksalishiga imkon beradi.

Shahar injenerlik inshootlarini loyihalashtirish, qurish va foydalanish shahar qurilishi va xo‘jaligida alohida o‘rinni egallaydi. Bu tarkibiy tashkil etuvchilarning, tashkilotlarning butun faoliyati shu omiliarga bog‘liq ekanligi bilan ifodalanadi.

Darslik qurilish oliy o‘quv yurtlari talabalarini uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular injenerlik inshootlarning konstruksiyalari, transport inshootlari, shahardagi daryo bo‘ylari, garajlar va avtomobil to‘xtash joylari, minoralar, machtalar, sport inshootlari, rezervuarlar, bozorlar va boshqa injenerlik obyektlar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishlari; loyihalash uslublarini, ularni qurish va foydalamishni bilishlari kerak. Shularni hisobga olgan holda mualliflar materiallar bakalavrлarni tayyorlash talablarini qoniqtiradigan darajada bo‘lishiga intilishdi.

Mazkur darslikda murakkab tizimli va katta oraliqli ko‘priklar, ularni hisob-kitob qilish xususiyatlari, yirik tunnellar va sport inshootlari kabi shahar muhandislik inshootlarining eng ommaviy turlarining konstruktiv xususiyatlari yanada inufassal bayon etilgan.

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasi shaharlarida mamlakatimiz va jahon standartlariga javob beruvchl turli darajalardagi, transport va yo‘lovchilar kesishuvlari, ko‘priklar, yo‘l ko‘priklar va estakadalar, sport inshootlari, zamonaviy bozorlar va juda yirik savdo majmualari qurilishi jadal sur’atlarda amalga oshiriladi. Shaharlarda bunday inshootlarni loyihalash, qurish va foydalanish hali ham adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan. Shuning uchun mazkur darslikda shahar qurilishi va xo‘jaligi sohasida mavjud bo‘lgan mamlakatimiz va chet el tajribasini umumlashtirishga harakat qllindi.

Mualliflar taqrizchilarga bildirilgan qimmatli tavsiyalar va foydali maslahatlar uchun chuqur minnatdorliklarini izhor etadilar.

KIRISH

Shahar aholisining o'sib borishi yangi shaharlar qurish va eskilarini kengaytirish asoslarining bosh omillaridan biridir. Shahar hududiga nisbatan aholining tezroq ko'payishi shaharsozlikda odamlarning mehnat qilishi, turmushi va dam olishi uchun eng yaxshi sharoitlarni ta'minlovchi ishlab chiqarish korxonalari, turarjoylar, jamoat va madaniy muassasalar, transport, injenerlik qurilmalari va energetikam oqilona kompleks tashkil etishni nazarda tutish majburiyatini yuklaydi. Bu masalani hal qilish ko'p darajada aholisini joylashtirish, shaharning rivojlanishi, aholining mehnat qilish va dam olish sharoitlarini yaxshilashning xususiyatini belgilab beradi.

Jahondagi yirik shaharlar egallagan hududlar ancha katta o'lchamlarni, xususan, Karachi – 3530 km² ni, Istanbul – 1970 km², Shanxay – 1600 km², London – 1580 km², Dehli – 1400 km², Pekin – 1370 km², Nyu-York – 1214 km², Moskva – 1080 km² maydonni tashkil etadi. Bu shaharlarning ma'muriy chegaralaridagi, aholisining ko'pchilik qismi shaharlar bilan bog'liq bo'lgan shahar atrofi hududlarida yashashi hisobga olinmagan maydonlardir.

Shaharlarning o'sishi, aholining shahar atrofi bilan mehnat va madaniy-maishiy aloqaлari, shuningdek, shahar atrofi hududlarining dam olish uchun foydalanilishi aholining va transport vositalarining keng rivojlanishiga olib keldi. Keyingi yillarda ayniqsa yyengil avtomobil transporti juda tez rivojlandi, u uzoq masofalarga borishning, harakatlanish va qulaylik tezligini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, quyidagi zaruriyatlarini qo'yadi:

- shahar, shahar atrofi hududi va shahar atrofidagi avtomobil yo'llarining eng muhim qismlari orasida eng qulay aloqani tashkil etish, shuningdek, piyodalarining xavfsiz va qulay harakatlanishlari uchun mos sharoitlar yaratish maqsadida yuk tashish va yo'lovchilar transportining uzuksiz va xavfsiz harakatlanishini ta'minlash;

- turarjoy dahalariga va jamoat binolariga olib boradigan qulay kiring yo'llari va yo'lakchalarini barpo qillsh;

- shaxsiy avtomashinalar uchun garaj xo‘jaligini va avtomashinalarning uzoq vaqt va vaqtincha turishi uchun avtomobillar to‘xash joylarini tashkil etish va bosliqa ko‘pgina ishlar.

Shaharlarda avtomobil parki aholi somiga qaraganda ancha tez sur’atlar bilan o‘smaqdida. Shahar rivojlanishining ma’lum bir bosqichida ko‘cha tarmog‘ining transport vositalari bilan o’ta ko‘payib ketishi yuzaga keladi. Bunday sharoit ma’lum bir paytda ko‘cha harakatining falaj holatga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin, bunday vaziyatlar jahondagi yirik shaharlarda odatiy hol bo‘lib qolgan.

Chorrahalar yaqinida transport vositalarining tez-tez to‘xtashiari yo‘llarning yedirilishini tezlashtiradi va ularning buzilishiga sababchi bo‘ladi (bunda yo‘l sirtining siljishlari va to‘lqinsimon qatlamlar hosil bo‘ladi). Transport vositalari chorrahada to‘xtaganda va harakatlanishini boshlagan vaqtida shahar havosini zaharovchi katta miqdorda tutunli gazlar ajratib chiqaradi. Shuning uchun shahar harakatini oqilona tashkil etish masalasi ko‘cha tarmog‘ining holatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqidir, bu esa yangi shaharlarda ko‘chalarning maqsadga muvofiq qarashda va rejalashtirishda sifat jihatidan yangi qarorlar qabul qilishni talab etadi. Vujudga kelgan vaziyatdan chiqishning yo‘li turli daramadagi shahar magistrallari kesishuvlarini barpo etish, ko‘priklari o‘tish yo‘llarini, yo‘l ko‘priklarim qurish hisoblanib, ular harakatlanish tezligini va xavfsizligini hamda yo‘l uzoqligini qisqartirishni ta’minlaydi.

Shahar transport inshootlarining umumiy majniuida yerosti avtomobil to‘xtab turish joylari va garajlari, transport, yo‘lovchilar va kollektor tunnellari muhim o‘rinni egallaydi, ana shulsarsiz zamonaliv yirik shaharning hayotini tasavvur etish qiyin. Bir-biri bilan bog‘liq bo‘limgan ayrim yerosti inshootlari qatori uzun (davomli) tunnellar tarmog‘i bilan o‘zaro birlashtirilgan yirik yerosti transport va ko‘p vazifani bajaruvchi majmualar barpo etilmoqda. Ko‘pgina shaharlarda katta uzunlikdagi ko‘chadan tashqari yerosti avtomagrallari nazarda tutilmoqda. Transportning yangi tezkor turlari uchun ham katta miqdordagi tunnellar va yerosti inshootlarini qurish kerak bo‘ladi.

Zamonaviy shahrlar yerusti va yerosti makonidan foydalangan holda faqat gorizontal emas, balki vertikal jihatdan ham kengayib bormoqda. Vertikal zonalashtirish transport va piyodalar oqimlarini, tranzit va mahalliy, tezkor va oddiygina transportni ajratishga imkon beradi. Bunda transport magistrallari va piyoda yo'llari joylashuvining turli xil variantlari, xususan, yer sathida, uning ustida yoki yer ostida bo'lishi mumkin.

Shahar transport muammolarini muvaffaqiyatlil hal qilishga yeroshti makonini kompleks o'zlashtirish va foydalaniш, ya'ni transportni o'tkazish va injenerlik kommunikatsiyalarini yotqizish, avtomobilarni vaqtincha va doimiy saqlash, injenerlik qurilmalarini, savdo korxonalarini, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini, turli xil obyektlar va inshootlarni yer ostida joylashtirishga imkon beradi.

Shaharning daryo bo'yи hududlarini rejalashtirish va qurish, qirg'oq chizig'iga rejada, profilda (kesimda) va uning me'moriy bezatilishida ma'lum yo'nalish berilishini talab qiladi. Qirg'oq bo'ylarimning hajmiy-kompozitsion yechimlariga bog'liq bo'lgan mikrorayonlardan tabiiy yoki sun'iy suv havzalari akvatoriallariga erkin chiqishni ta'minlashi kerak. Shaharning markaziy qismlarida ular shahar me'moriy kompozitsiyasining bosh fasndlari (old qismlari) hisoblanadi.

Xalq xo'jaligi, shaharlarni joylashtirish tizimlarining doimiy rivojlamishi munosabati bilan yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalari miqdori ortib boradi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, avtomobillar sonining ko'payishi bir qator noqulay oqibatlarni keltirib chiqaradi, ular orasidan quyidagilarni alohida ta'kidlash lozim:

- joylashtirish xususiyatining o'zgarishi, harakatlamish masofalari ning ortishi;
- ko'p miqdorda yoniлg'i iste'mol qilinishi tufayli atrof muhitning yuqori darajada ifloslanishi;
- jamoat transporti ahamiyatining pasayishi;
- ko'cha va yo'l tarmoqlarida transport vositalarining tirbandlanib to'xtab qolishi, ularni qayta qurish, rivojlantirishga katta xarajatlar qilinishi;

- zinch joylashgan turarjoylarda, avtomobillar to‘planadigan punktlarda ularning to‘xtab turish joyining yetishmasligi.

Aytib o‘tilgan muammolarning oxirgisi borgan sari dolzarb bo‘lib bormoqda. Transportning rivojlanishini yo‘naltirishda avtomobil-lash-tirishning o‘sishi bilan bog‘liq masalalar, shu jumladan, ularning to‘xtash joylarini loyihalash va joylashtirish hech bir qiyinchiliksiz va asosli istiqbol bilan hal etish zaruriyati paydo bo‘ladi.

Transport tizimining jadal rivojlanishi bir qator masalalarni, shu jumladan, mamlakatni tezkor avtomobiliashtirish sharoitida transportning to‘xtab turish joyi muammosini hal qilish yo‘llarini izlashni taqozzo etadi. Transportning barcha turlari uchun to‘xtab turish joylari va garajlari muammosini hal qilish shaharsozlik siyosatining tarkibiy qisimidir.

Darslik yuqorida bayon qilinganlardan tashqari sport inshootlarini, minora va machtalar, EUL tayanchlari kabi baland inshootlar, rezervuarlar va suv bosimi minoralari, shuningdek, ochiq va yopiq bozorlarni loyihalash, qurish va foydalanish bilan bog‘liq masalalar doirasini o‘z ichiga qamrab oladi. Unda shu inshootlar bo‘yicha nazariya va amaliyotning zamонавији yutuqlari aks ettirilgan bo‘lib, ularni talabalar bilishlari zarur. Darslik shahar qurilishi hamda xo‘jaligi sohasida mashg‘ul bo‘lgan mutaxassislarga ham foydali bo‘lishi mumkin.

1. TRANSPORT INSHOOTLARI

1.1. Transport inshootlari tasnifi

Har yili avtomobil transportida yo'lovchi va yuk tashish hajmlari ortib bormoqda, binobarin, shaharlarda harakatlanish sur'ati borgan sari jadallahshmoqda. Avtomobillar soni va ularda yuk tashish hajmlarining ortishi harakatlanish tezligi va yo'llarning o'tkazish qobiliyatini oshirishni talab etadi. Harakatlanishning tirbandlashuvi avtomobillarning turli darajalarda to'siqsiz o'tib ketishini ta'minlovchi maxsus injenerlik inshootlari zarurlligini taqozo etadi. Bunday inshootlar atrofdagi shahar qurilishi ko'chalar tarmog'ida avtomobil va yo'lovchilarining katta oqimlari to'planadigan sharoitda ayniqla zarurdir.

Transport ehtiyojlarini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi barcha sun'iy inshootlarni to'rtta asosiy guruhga ajratish mumkin:

- joylardagi tabiiy to'siqlarni kesib o'tish uchun mo'ljallangan;
- avtomobillar va piyodalarining harakatlanishini jadallashtirish va sharoitlarini yaxshilash uchun mo'ljallangan;
- transport vositalarining maxsus turlarini o'tkazishni ta'minlovchi;
- avtomobillarning to'xtab turishi uchun mo'ljallangan.

Birinchi guruhga ko'priklar va viaduklar kiradi. Ko'prik suv to'sig'i (daryo, ko'l, dengiz qo'ltig'i yoki bo'g'ozi) ustidan barpo etiladi, viaduk esa, chuqur jarlik, tog' darasi orqali o'tkaziladi. Ko'prik va viaduk yo'l bo'ylab avtomobil va piyodalar harakatini ta'minlaydi. Ularning konstruksiyasi ko'p darajada tabiiy to'siqning turi (daryo yoki jarlikning chuqurligi, suv oqimining tezligi, kema qatnovi, poydevorlar asosidagi tuproqlar) bilan belgilanadi.

Ikkinci, uchinchi va to'rtinchi guruhdagi inshootlar asosan konstruksiyalarning mustaqil turiga ajralib, ular, avvalo, transport harakatining tashkil etish talablariga amal qilgan holda barpo etiladi. Ular avtomobil yo'llaridagi oddiy ko'priklar va viaduklardan farqli ravishda shartli holda transport inshootlari deb atalgan.

Ikkinci guruh transport inshootlari deb yo'l ko'priklar va estakadalarni aytish mumkin.

Yo'l ko'pri deb bir transport magistralini boshqasi ustidan turli sathlarda o'tkazish uchun xizmat qiluvchi inshootga aytildi. Transport magistrali ustida faqat piyodalarni o'tkazish uchun foydalilaniladigan piyoda yo'lko'priklari deb atash lozim edi, lekin ularni odatda piyoda ko'priklari deb ataladi.

Yer sirti ustidan avtomobil transportini to'siqsiz o'tkazish uchun xizmat qiluvchi inshoot **estakada** deb ataladi. Biroq yo'l ko'priklar faqat transport magistrallari kesishgan joylardagina barpo etiladi, estakadalarning qo'llamish sohasi va vazifasi ancha kengdir. Estakadalar:

- ikki va undan ortiq transport magistrallari kesishgan joylarda;
- ko'chalar tarmog'iga bog'liq bo'limgan holda shahar qurilishi ustidan tezkor avtomagistrallarni o'tkazish uchun;
- katta ko'priklarga yaqinlashganda baland to'kmalar o'rniغا;
- ko'p miqdorda avtomohillar to'planadigan manzil (vokzallar, aerodromlar, mehmonxonalar, stadionlar va h.k.)ga yaqin joylarda;
- qirg'oqqa yaqin yo'llarni kengaytirish va daryo bo'ylab harakatni tashkil etish uchun;
- qiyaliklar, botqoqliklar va boshqa murakkab sharoitlarda to'kma va tirkak devorlar o'rniда qo'llaniladi.

Estakadalarning oraliqli qurilmalari temir beton va metalldan tayyorlanadi.

Rejada joylashtirilishiga ko'ra estakadalar quyidagicha farqlanadi:

- to'g'ri chiziqli;
- egri chiziqli;
- tarmoqlanuvchi;
- halqali;
- spiralsimon.

Harakatlanish sathlari soniga ko'ra estakadalar:

- bir yarusli;
- ko'p yarusli turlarga ajratiladi.

Estakadalar avtomobil va boshqa shahar transport vositalari (avtobus, tramvay, trolleybus)ni o'tkazish uchun mo'ljallanadi. Ular bo'ylab ba'zida piyodalar harakati ham amalga oshiriladi. O'zining ish turiga ko'ra estakadalar uzoq muddatga harakatni ta'minlovchi doimiy va vaqtinchalik (yig'iluvchi-ajraluvchi) bo'lishi mumkin.

Murakkab transport kesishuvlari estakadalarga xos bo‘lgan obyektlar: ko‘p yarusli, rejada o‘ziga xos shakldagi va harakatlanishning turli yo‘nalishlariga mo‘ljallangan turlarga taalluqlidir. Bunday qurilish majmualari ko‘chalar tarmog‘i murakkab va harakat jadal bo‘lgan sharlarda ham, avtomobil yo‘llari kesishgan joyda yoki tezkor harakat amalga oshiriluvchi magistrallarda ham keng tarqalgan (1.1-rasm).



1.1-rasm. Los-Anjelesda (AQSh) tezkor harakatni avtomagistral bilan kesishish joylaridagi estakadalar

Mavjud ko‘cha yoki avtomobil yo‘li soni ko‘payib ketgan transportni zarur o‘tkazish qobiliyatini ta’minlay olmagan hollarda, ular yonida bir yoki bir necha harakatlanish sathlariga ega bo‘lgan estakadalar quriladi. Shahar ko‘chalarida bu, odatda, binolarni buzib tashlamasdan

harakat jadalligini oshirishning yagona yo‘lidir. Avtomobil yo‘llarida bunday yechim tuproq sharoitlari noqulay bo‘lgan joylarda yoki atrof tabiiy muhitini saqlab qolish uchun ham a’lo hisoblanadi. Shahar ko‘chasi bo‘ylab estakada qurish uning yo‘nalishini takrorlaydi. Biroq, bir qator holatlarda, mavjud ko‘cha tarmoqlari bilan mos tushmaydigan biror-bir yo‘nalishda katta miqdordagi transport oqimlarini o‘tkazish zaruriyati paydo bo‘ladi, bunday holda harakatni shahar qurilishlari ustidan kerakli yo‘nalishda o‘tuvchi estakada tranzit bo‘lishi yoki kesib o‘tilayotgan hududdagi ko‘chalar bilan aloqa bog‘lash uchun tarmoqlanishlarga ega bo‘lishi mumkin.


Ko‘pincha shaliarlar katta va chuqur daryolar qirg‘oqlarida, ay-niqla, ularning o‘zami yaqinida joylashadi. Bunday daryolardan den-giz va okean kemalarining o‘tishi mumkin va ular ustidan o‘tkazilgan ko‘priklar bo‘ylab harakatlamish sathini katta balandlikka ko‘tarishga to‘g‘ri keladi. Yaqin ko‘chalar tarmog‘i bilan tutashishi uchun bunday ko‘priklarga yaqinlashish joylarida murakkab tarmoqlangan va ko‘p yarusli estakadalar quriladi.

Dengiz portlarida yo‘lovchilar pirlari bo‘ylab va ularga yaqin joylarda kemaning turli palubalariga yoki ulardan bir vaqtida yo‘lovchilarni o‘tkazish va yuklarini ortib jo‘natish yoki tushirish uchun estakadalar bir necha yarusli qilib quriladi. Xuddi shunga o‘xshash, vokzallar, stadionlar, mehmonxonalarning turli qavatlariga xizmat ko‘rsatiladi. Bu inshootlar yaqinidagi estakadalar yetarlicha murakkab shaklga ega va ularning umumiy me’moriy qiyofasiga mos bo‘lishi kerak (*1.2-rasm*).

Avtomobil harakati jadal bo‘lgan shaharlarda qo‘srimcha transport yo‘llarini barpo etish uchun keng yoki uncha katta bo‘limgan daryo qirg‘oqlaridan foydalilanildi. Agar kemalar qatnoviga xalal bermasa, katta daryolar qirg‘oqlari bo‘ylab yo‘llarni kengaytiruvchi estakadalar quriladi. Shahar uchun ahamiyatli bo‘limgan kichik ariqlar estakada bilan to‘la yopilib ketadi.

Juda baland-past yoki tog‘li hududlarda joylashgan shaharlarda tog‘ yonbag‘irlari bo‘ylab estakadalar qurish mumkin. Avtomobil yo‘llarida ham shunday qaror qabul qilinadi. Birinchi holatda shahar

qurillshi saqlab qolinadi, ikkinchi holda tabiiy relyef va keskim tog' yonbag'irlarining barqarorlik sharoitlari buzilmaydi.



1.2.- rasm. Toshkent aeroporti yaqinidagi estakada

Ikkinci guruh inshootlariga shahardagi daryo qirg'oqlarining tirgak devorlarini ham kiritish mumkin, chunki ular bir vaqtda dar-yoni tartibga soluvchi inshootlar va shaharning me'moriy ansambl elementlari bo'lgani holda daryo qirg'oq bo'ylab transport harakatini ta'minlaydi.

Transport inshootlarining **uchinchi** guruhiga shaharlarda monorelsli (bir izli) yo'llar estakadalarini kiritish mumkin. Monorelsli yerusti yo'llari temirbeton yoki metall estakadalarda qurilib, ular bo'ylab vagonlar harakatlanadi. **Uchinchi** guruhga shartli ravishda shahar markazini uning atrofidagi obyektlar bilan (masalan, aeroport bilan) tezkor bog'lash uchun vertolyot maydonchalarini ham kiritish mumkin. Maydonchalarni har doim ham yer sirtida joylashtirib bo'lmaydi, chunki bunga shovqm darajasi yoki rejalashtirish shartlari bo'yicha yo'l qo'yib bo'lmaydi. Vertolyotlar qo'nishi uchun maxsus konstruksiyalarni barpo etish yoki buning uchun baland binolarning tomlarini moslashtirish maqsadga muvofiq.

Va, nihoyat, shaharlarda avtomobilarning ko'pligi ular turadigan joylarni tashkil etishni talab etadi. Shaharning markaziy qismlaridagi yo'lning avtomobillar bilan to'lishi, ularning o'tkazish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Ko'pgina holatlarda **to'rtinchi** guruh insho-otlarini – ko'p qavatli yer ustida qurish iqtisodiy jihatdan foydalidir. Bunday to'xtash joylari odatdagи garajlardan avtomobilarning uncha uzoq bo'lmasligi muddat turishi uchun xizmat qilishi, texnik xizmat ko'rsatish punktlariga ega bo'lmasligi va tez hamda to'siqsiz kirish va chiqishmi ta'minlashi bilan farq qiladi. Ko'p qavatli to'xtash joylari avtomobilarning katta miqdori to'plangan joylarda va shaharning markaziy qismidagi obyektlardan piyoda borish chegarasida yoki ma'muriy, madaniy yoki maishiy vazifani bajaruvchi katta binolar yaqinida (masalan, yirik mehmonxonalar, universal magazinlar yaqinida) joylashtirilishi mumkin.

Shunday qilib, transport inshootlari o'zining tuzilishiga ko'ra juda xilma-xildir. Ularni shaharlarda va avtomobil yo'llarida transportning samarali ishslashini ta'minlash vazifasi birlashtirib turadi.

1.2. Shahar ko'priklariga bo'lgan asosiy talablar

Shahar ko'prigi mas'uliyatli injenerlik inshooti bo'lib, ma'lum talablar majmuasini qanoatlantrishi kerak.

Ishlab chiqarish ekspluatatsiya talablari shundan iboratki, bunda ko'prik bo'ylab harakat qulay va xavfsiz bo'lishi kerak. Ko'prik ma'lum sharoitlarda daryodagi kemalarning o'tishiga xalal bermasligi lozim. Ko'prikning konstruksiyasi barpo qilishda oqilona va foydalanishda qulay bo'lishi talab etiladi.

Hisoblash-konstruktiv talablar ko'priknинг barcha inshootlari va uning ayrim qismlari butun xizmat qilish muddati mobaynida talab etiladigan barqarorlik, bikrlik va mustahkamlikni ta'minlashi, shuningdek, tabiiy sharoitlar, suv, muz va suvdagi hamda havodagi zararli aralashmalar ta'siriga chidamli bo'lishidan iborat.


Iqtisodiy talablar loyihalashda ekspluatatsion-texnik ko'rsatkichlarga bo'lgan talablarni ta'minlash bilan bir vaqtda ishlarning qiyinli-

gi imkonи boricha kam bo'lishi, qurish va foydalanishga mablag' va materiallar xarajatlarini tejamkorligini talab etuvchi qarorni qabul qilish zarurligidan iborat.

Shahar ko'priklari uchun **me'moriy-rejaviy talablar** alohida xususiyatlarga ega. Ko'prikning me'moriy qiyofasi atrofdagi shahar qurilishi bllan uyg'unlashib ketishi kerak bo'lib, u ko'pincha ko'prikning ko'rinishini va, hatto, tizimini ham belgilab beradi. Shahar ko'priklari, odatda, ustidan yuriladigan qilib quriladi. Ko'prikning pastidan yuri-luvchi tamoilda qurishga faqat alohida holatlardagina ruxsat etiladi. Rejaviy talablar ham vertikal profil bo'yicha, ham o'tish rejasi bo'yicha juda muhimdir.

Ularning asosiyлари quyidagilardir:

- shahar ko'prigi ko'pchilik hollarda qirg'oqlar bilan to'silgan dar-yo (ariq, kanal) orqali barpo qilinib, undagi harakatni hisobga olish zarur; ko'prik tayanchlari yoki qirg'oqlarning tirkak devorlari bilan bir chiziqdagi joylashishi, yoki ulardan qirg'oqlar asoslari tuproqlari-dagi kuchlanganlik holatining o'zgarmasligini ta'minlovchi masofada bo'lishi kerak;
- daryodagi suv sathlari va daryoda yuradigan kemalarning balandligi bilan belgilanadigan ko'prikning to'liq balandligi iloji boricha kam bo'lishi kerak, chunki shaharlarda uzun o'tishlarni qurish juda murakkab (1.3-rasm); shu sababli kemalar qatnovi juda ko'p bo'limganda ko'pincha ochiladigan (ko'tariladigan) ko'priklar quriladi;
- ko'prikning joylashtirilishi shaharning bosh rejasi va unga yaqin



1.3.-rasm Ko'prikning to'liq
balandligi

tumanlar rejasi bilan bog'lanishi kerak. Ko'prikka keladigan yo'llar yaqin ko'chalar bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Shahar ko'prikning joylashish joyini tanlash ko'pincha gidrogeologik sharoitlar bilan emas, balki unga keladigan transport oqimlarining miqdori va jadalligi bilan belgilanadi;

- shahar ko'prigi ko'pincha katta piyodalar oqimini o'tkazadi, bu esa keng trotuarlar, velosiped yo'laklarini qurishni talab etadi va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha muammolarni vujudga keltiradi. Shu bilan birga, uzun ko'priklardan odatda piyodalar kam foydalananadi va ularda trotuarlar kichik o'Ichamda bo'lishi mumkin;

- shahar ko'prining konstruksiyasida shahar yerosti tarmoqlari (elektr kabellar, vodoprovod va h.) o'tkaziladi, shuning uchun ko'pri ni rejalashtirishda ba'zida ularning joylashish rejasi ham hisobga olinadi.


Ko'priking joylashish o'rmini tanlash va unga o'tish yo'llarini rejalashtirishga bo'lgan talablarmi yanada mufassal ko'rib chiqamiz.

Agar ko'prikkka olib keladigan yo'llar ham daryoga perpendikulyar bo'lsa katta daryo ustiga quriladigan ko'priki daryoga perpendikulyar ravishda joylashtirish maqsadga muvofiq. Ko'prikkka tomon harakatning asosiy oqimi daryoga qiya bo'lib keladigan ko'cha bo'ylab yo'nalgan holda ko'priki ham qiya qilib joylashtirish kerak. Bunda ko'priking tayanch o'qlarini daryo oqimi yo'nalishi bo'yicha yo'naltirilgan holda qoldirish maqsadga muvofiq. Uncha katta bo'limgan daryolarni kesib o'tuvchi ko'priklarni transport harakati tashkil etish sharoitlariga to'liq bo'ysundirib, ularni rejada qiya, egri chiziqli yoki istagan boshqa shaklda qilinadi.

Ko'priklarning kengligi va sonini hisoblash orqali aniqlanadi va harakatlanish jadalligiga va boshqa omillariga (iqtisodiy, transport, ekspluatatsion xarajatlar va h.ga) bog'liq bo'ladi. Faqat bitta ko'pri qurilayotgan holda uning kengligi avtomobil va yo'lovchilar harakatining kutilayotgan jadalligi bilan belgilanib, bunda ularning istiqbolda o'sishi hisobga olinadi. Agar ko'pri bir ko'chaning davomini tashkil etib va uncha keng bo'limgan daryoni kesib o'tsa, uning kengligi ko'chuning kengligiga teng qilib belgilanadi.

Kengligi va harakat jadalligi har xil bo'lgan ko'prikkka o'tishni turli xil usullar bilan tashkil etish mumkin. Ularning eng soddasи, bu - ko'pri oldida halqali harakat qilinadigan maydonni tashkil etishdir (*1.4.- a rasm*). Bunday rejalashtirish harakat jadalligi uncha katta bo'limganda maqsadga muvofiqdir. Harakatni ancha mukammal tashkil

etish – turli sathlardagi qirg‘oqlarning ulardan tushish yo‘llari bilan kesishidir. Ko‘prikkka o‘tish yo‘llari tirkak devorlardagi to‘kmalar yoki estakadalar ko‘rinishida barpo etiladi (*1.4-b rasm*).



1.4.-rasm. Ko‘prikkka oldi maydonida harakatni tashkil etish sxemasi
1-daryo; 2-shahardagi qurilish; 3-ko‘chalar va maydonlar; 4-ko‘prikk.

Estakada ostidagi bo‘shliq ko‘pincha yopiq garajlar yoki ochiq avtomobillar to‘xtab turish joylari tarzida foydalaniladi. Harakatni tashkil etishning bu sxemalari transport oqimlarining kesishuvlarini barta-rif etgan holda yondashuvning murakkab tizimlari orqali topiladi.


Katta ko‘priklarga yaqinlashishda transport bo‘g‘inlarining sxemalari rejalahtirishning mahalliy sharoitlariga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘prikkka yaqinlashganda harakatni tashkil etishning o‘ziga xos sifatlaridan uchta holini ajratib ko‘rsatish mumkin: ko‘priknинг balandligi uncha katta bo‘limganda, qirg‘og‘i perpendikulyar holda o‘tuvchi ko‘pri (*1.5.-a rasm*) va ko‘pri balandligi ancha katta bo‘limganda spiralsimon estakadani qurib perpendikulyar sohil va ko‘pri o‘qi bo‘ylab asosiy ko‘chasi bo‘lgan (*1.5.-b rasm*); ko‘prikkka yaqin kelganda birlashuvchi harakat tarmoqlangan ko‘chalar (*1.5-v rasm*). Ko‘prikkka yaqinlashish yo‘llarining o‘tkazish yig‘ma qobiliyati ko‘priknинг o‘tkazish qobiliyatidan kam bo‘lmasligi kerak.

Shahar ko‘priklarining bo‘ylama va ko‘ndalang qiyaliklari vertikal va gorizontal egri chiziqlarining radiuslari, mashina qatnaydigan

qismining va trotuarlarning kengligi avtomobil yo'llari ko'priklarining umumiy me'yorlariga ko'ra belgilanadi.

Shahar ko'prigi bo'ylab ikki yo'lli tramvay harakatini o'tkazish uchun unga eni 6,6-6,8 m bo'lgan maxsus yo'l ajratilib, uni ko'priknинг o'qi bo'ylab ham, uning chetiga tomon siljigan holda ham joylashtirish mumkin.

Ba'zida shahar ko'priklari avtomobillar harakati va metropoliten bilan qo'shilgan holda ham bo'ladi. Chuqur daryolar yoki dengiz qo'iltilqlari orqali yirik va qimmatbaho ko'priklarda shahar va temir yo'l harakatining barcha turlarini birga qo'shibshumumkin (*1.5.-rasm*).



1.5.-rasm. Shahar ko'priklariga yaqin joyda estakadalardan foydalangan holda harakatni tashkil etish sxemasi

1 - daryo; 2 - shahardagi qurilish; 3 - ko'chalar va maydonlar;
4 - ko'prik oldidagi estakadalar; 5 - ko'prik.

1.3. Estakada, yo'l ko'prik va murakkab transport kesishuvlariga bo'lgan talablar

Estakada, yo'l ko'priklari va transport kesishuvlariga qo'yiladigan umumiy, ishlab chiqarish ekspluatatsion, hisob-konstruktiv, me'moriy-rejalashtiruv va iqtisodiy talablar avtomobil yo'llari va shahar ko'priklariga qo'yiladigan talablar bilan bir xil. Bundan tashqari, ular

inshootlarning har bir turi uchun o'ziga xos bo'lgan bir qator qo'shimcha talablarni ham qanoatlantirishi kerak.

Shahar estakadalariga qo'yiladigan qo'shimcha talablar asosan quyidagilardan iborat:

1. Ko'chalar kesishgan joyda qurilgan estakada oraliqlarining uzunligi bu ko'chalar kengligining faqat uning butun uzunligining uncha katta bo'limgan qismida aniqlanadi. Qolgan uzunlikda va boshqa turdag'i estakadalar uchun oraliqlar uzunligi me'moriy talablarni hisobga olgan holda butun inshootning eng kichik qiymati sharoitlaridan aniqlanishi kerak.

2. Estakadalarning oraliqli qurilmalari qurilish balandligi iloji boricha kichik bo'lishi kerak, chunki bu uning umumiyligi uzunligini va yaqinidagi ko'tarmalar uzunligini kamaytiradi, bu esa shahar hududida juda muhimdir.

3. Estakadaning umumiyligi qiyofasi va, ayniqsa, uning tayanchlari yyengil bo'lishi va atrof-hudud hamda qurilish bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Tayanch sirtlari va oraliq qurilmalarini padozlash yuqori sifat bilan bajarilishi va chiroyli tashqi ko'rinishga ega bo'lishi kerak.

4. Estakada tayanchlarining joylashishi va poydevor turini tanlash mayjud shahar yerosti tarmoqlarini joylashtirish bilan kelishtirilishi va ularni o'zgartirish ishlari imkonli boricha kamaytirilishi kerak.

5. Estakadalar bo'ylab harakatlanish xavfsizligiga talablar ancha qat'iy bo'lishi kerak, chunki shaharda avariya yuz berishi, shahar tashqarisidagi inshootlarga qaraganda ancha og'ir oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Qoplama sirti yilning barcha fasllarida avtomobilarning g'ildiraklari bilan yaxshi tarmashishi kerak. Transport qatnaydigan qism chegaralari bo'ylab avtomobillar zarbi va bosimidan himoya qilish uchun ishonchli to'siqlar o'rnatilishi kerak.

6. Estakadalarni atrof muhitni ifloslanishdan himoyalash talablariga muvofiq karkalab tekshirish lozim. Estakada qurilishlar orasida shunday joylashtirilish kerakki, bunda atrof hududdagi estakadaga yaqin turgan uylarda shovqin va gazlanganlik darajasi bo'yicha me'yorlar buzilmasligi kerak.

7. Estakadaning yoritilishi atrofdagi uylarda yashovchi odamlarga xalaqit bermasligi kerak.

8. Shahar estakadalaridan suvlarni chiqarish, tabiiy suv oqizib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik uchun shahar suv oqizish tarmog'iga ulanishi kerak.

Tarmoqlangan estakadalar va estakadalardan tashkil topgan murakkab ko'p yarusli kesishuvlar estakadalarga qo'yiladigan barcha talablarni qanoatlanadirishi va qo'shimcha tarzda quyidagi talablarni ham qoniqtirishi kerak:

- kesishuvlarni rejalashtirish, yaruslar soni, burilishlarning radiuslari va yaqinlashishlar uzunligi atrofdagi shahar bilan bog'liq holda bo'lishi va kesishishiga ajratilgan shahar hududining qiymatini hisobga olish lozim;

- transport kesishuvining shakli asosan kesishuvchi transport oqimlarining yo'nalishi va jadalligi hamda ularni biriktirish turi bilan aniqlanishi kerak.

Avtomobil yo'llaridagi yo'lko'priklarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Yo'lko'priklarning oraliqlari va ularning balandliklari keshayotgan yo'lning kengligi, u bo'ylab harakatlanish o'lchovi va yo'lko'prik ostidagi yo'l bo'ylab ko'rinishi sharoitlari bilan aniqlanishi kerak;

2. Yo'lko'prik ostida avtomobil harakati uchun xavfsizlik sharoitlariga amal qilinishi, ayniqsa, avtomobilarning tayanchlarga va yo'lko'prik oraliq qurilmalarining past qismiga urilishi dan himoyalash shartlariga amal qilinishi lozim;

3. Yo'lko'prik bo'yicha bosh yo'l ustidan ikkinchi darajali yo'l o'tganda yo'lko'prik kesib o'tayotgan bosh yo'lni loyihalash shartlariga bo'ysunishi va uning o'qiga perpendikulyar ravishda joylashishi kerak.

Yo'lko'prik bo'ylab bosh yo'l ikkinchi darajali yo'l ustidan o'tganda bosh yo'l ko'priknинг ko'rinishi va konstruksiyasini to'la belgilab beradi.

Estakadalarning yoki yo'lko'priklarning kengligi o'tkazilayotgan harakat jadalligiga bog'liq. Bitta harakatlamish yo'lining kengligi 3,5-

3,75 m. ni tashkil etadi, bir jinsli avtomobil harakatida bitta yo'lning o'tkazish qobiliyati soatiga $I_p = 1000 \div 1500$ transport birligini tashkil etadi. Agar ko'priq (estakada) bo'ylab nazarda tutiladigan harakatlanish tarkibi ma'lum bo'lsa, keltirilgan jadallikni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$I = \sum k_i I_i \quad (1.1)$$

Bunda: I_i – i – turidagi transportning jadalligi, k_i – bir jinsli yyengil mashinalar harakatiga keltirish koefitsienti.

Keltirish koefitsientlarini turli xil avtomobillar uchun quyidagi qiymatlarga teng deb qabul qilinadi: yyengil avtomobillar – 1; 3t gacha bo'lgan yuk avtomobillari – 1,5; 3 dan 5t gacha bo'lgan yuk avtomobillari – 2; 5t dan yuqori yuk avtomobillari yoki avtobuslar – 2,5; trolleybuslar – 4; mototsikllar – 0,5; velosipedlar – 0,3.

Harakatlanish polosalari soni n ni ketma-ket urinishlar orqali quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$n = \frac{I}{I_p(k_{p1} + k_{p2} + \dots + k_{pn})} \quad (1.2)$$

bu yerda: I (1.1) formuladan olib o'rniqa qo'yiladi; k_{pi} – yo'nalishdagi harakatni taqsimlash koefitsientlari, ular quyidagilarga teng deb qabul qilinadi: $k_{p1} = 1$; $k_{p2} = 0,85$; $k_{p3} = 0,7$; $k_{p4} = k_{p5} = \dots = k_{pn} = 0,5$

I_p – bir jinsli yyengil harakatda bir polosaning o'tkazish qobiliyati – soatiga transport birligi.

Agar estakada yoki yo'lko'priqda piyoda harakat mavjud bo'lsa, trotuarning kengligi T, piyoda harakat intensivligi I_{pt} bo'yicha aniqlanadi. Bu holda $0,75m$ kenglikda bitta yo'lakcha $I_{pt} = 600 \div 800$ odam/soat intensivlikdagi piyodalar oqimini o'tkazadi deb hisoblasak, u holda

$$T = 0,75 \frac{I_{psh}}{Int} \quad (1.3)$$

n va T ning qiymatlariga ko'ra, transport qatnaydigan qismning eng yaqin me'yoriy o'lchovi va trotuarlarning eni qabul qilinadi.

Estakadalar va yo'lko'priklar ko'pincha gorizontal egri chiziqlarda joylashtiriladi. Bu holda har bir harakatlanish polosasini gorizontal egri chiziqning R radiusiga bog'liq holda Δ kattalikka kengaytirish tavsiya etiladi:

R, m...	750-550	550-400	400-300	300-200	200-125	125-90	90-60
Δ, m	0,2	0,25	0,3	0,35	0,5	0,6	0,7

Mahalliy sharoitlarga bog'liq holda estakadaning oraliqli qurilmalarining umumiy o'lchovlari va kengligini turlicha belgilash mumkin. Estakadaning to'liq kengligim me'moriy nuqtai nazardan ham, ko'ndalang temperatura deformatsiyalarini cheklash sharoitlaridan ham $30\pm40m$ dan ortiq qilish maqsadga muvofiq emas. Bunday estakadalarini eni $15\pm20m$ dan bo'lgan ikkita mustaqil oraliqli qurilmalarga ajratish ma'qul. Agar estakada atrofi qurilishlar bilan siqilgan bo'lsa, u holda oraliqli qurilmalar orasida bo'linish polosasi bo'ylab bo'ylama chok qilinadi. Agar bunday siqib qo'yish bo'lmasa, oraliqli qurilmalar bir biridan $3-10m$ masofada joylashtiriladi, bu ulardan istalganini qurishda qulaylikni ta'minlaydi. Har bir bunday oraliqli qurilma odatda bir yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallanadi.

Asosiy estakadaga tarmoqlarning estakadalarini qo'shilganda o'tuvchi polosalarni qisman transport harakatlanadigan qismning yon tomonlari bo'yicha ehtiyyot polosalar kengligi hisobiga qilish mumkin bo'lib, bunda oxirgilarining kengligini kamida $0,75m$ qilib qoldirish kerak.

Estakadalarni vertikal rejalashtirish avtomobil yo'llari va shahar ko'priklari me'yorlariga ko'ra bajariladi. Bo'ylama qiyaliklar $4-5\%$ dan oshmasligi kerak, ular iqlimni va transport harakatlanadigan qismning qoplama turini hisobga olib belgilanadi. Ko'chalalar kesishadigan yoki avtomobillar o'tadigan joylarda estakada ostining balandligi piyodalarining erkin o'tishini ta'minlash maqsadida kamida $2,5$ m balandlikda avtomobil harakatining gabariti bilan aniqlanadi.

Murakkab transport kesishuvlari uchun ularni rejalashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shaharning ikki magistralini transport kesishuvlarining bir necha turlari yoki transport oqimlari kesishgan harakatni to‘la tashkil etilgan avtomobil yo‘llarini qarab chiqamiz. “Beda yaprog‘i” turidagi ikki sathdagi oddiy kesishish taxminan 6-7 ga maydonni egallaydi. Yo‘Ining transport yuradigan qismini hisobga olmagan holda va transport yuradigan qismning gorizontal egri chiziqlari radiuslarini o‘zgarmas deb hisoblab (1.6.-a rasm), quyidagi formula bo‘yicha kesishish egallaydigan maydonning F_1 yuzini hosil qilamiz

$$\left. \begin{aligned} R_1 &= \frac{R(1+\sqrt{2})}{\sqrt{2}-1} = 5,83 R; \\ F_1 &= 4(R_1^2 - \frac{\pi R^2}{4}) = 0,86 R_1^2 \approx 29,2 R^2 \end{aligned} \right\} \quad (1.4)$$

bu yerda: R - ichki aylanib chiqish gorizontal egri chizig‘i radiusi.

Harakatlanishning uchta sathi (1.6.-b rasm) dan iborat va ikkinchi sathi halqali estakada joylashgan transport kesishivi kichikroq maydonni egallaydi, uning F_2 kattaligini quyidagi formuladan aniqlash mumkin:


$$R = R_1(\sqrt{2} - 1) = 0,41 R_1; F_2 = 4R_1^2(1-\pi/4) = 0,86 R_1^2 = 5,1 R^2; \quad (1.5)$$

bu yerda: R – halqali estakadaning radiusi.

Harakatlanish to‘rt sathli bo‘lgan (1.6.-v rasm) va o‘ngga ketadigan estakadalarda chapga burilish uchun yurish yo‘llari joylashtirilgan bilan transport kesishivi F_3 maydonni egallaydi.

$$R_1 = 2R; \quad F_3 = 0,86 R_1^2 = 3,44 R^2 \quad (1.6)$$

Bu yerda: R – chapga burilish uchun estakada o‘rta qismining gorizontal egri chizig‘i radiusi.



1.6.-rasm. Turli sathlardagi murakkab transport kesishuvlari sxemalari
1 – 4 – harakatlanishning tegishli sathlari (birinchisi – yer sirti bo'yicha).

Bu kesishuvlarda estakadalar konstruksiyalarning uzunligi (taxminan) transport harakati qismining sathi halandligiga va kirish yo'llari qiyalikligiga bog'liq. Har bir harakatlanish yo'naliishi uchun estakadalar uzunligini hisobga olib, bu kesishuvlardagi estakadalarning yig'indi uzunliklari L_1 , L_2 , L_3 ni ifodalardan hosil qilamiz

$$\left. \begin{aligned} L_1 &\approx 4\left(\frac{H}{i} - \frac{h_H}{i}\right); \\ L_2 &\approx 8\left(\frac{H}{i} - \frac{h_H}{i}\right) + 2\pi R + 4\left(\frac{2H}{i} - \frac{h_H}{i}\right) = 16\frac{H}{i} + 2\pi R - 12\frac{h_H}{i}; \\ L_3 &\approx 4\left(\frac{H}{i} - \frac{h_H}{i}\right) + 4\left(\frac{2H}{i} - \frac{h_H}{i}\right) + 4\left(\frac{3H}{i} - \frac{h_H}{i}\right) = 24\frac{H}{i} - 12\frac{h_H}{i} \end{aligned} \right\} (1.7)$$

bunda: H – avtomobil yo‘li gabariti balandligi va estakada oraliqli qurilmasi qurilish balandligi yig‘indisiga teng harakatlanishning bitta sathi balandligi; h_H – estakada boshlangan joydagি ko‘tarma balandligi; i – estakadalarda qabul qilingan bo‘ylama qiyalik.

Harakatlanish sathining taxminiy balandligini $H=6 \div 7m$ deb qabul qilish mumkin.

Kiraverishdagi ko‘tarmalarsiz ko‘p yarusli transport kesishuvining umumiy qiymati quyidagi ko‘rinishda baholanishi mumkin.

$$C = C_r F + \sum C_e L_i B_i \quad (1.8)$$

bunda C_r – shahar yuzasi birligining o‘rtacha qiymati bo‘lib, u binolarni buzish qiymatini yerosti tarmoqlarini o‘tkazishni, hududni rejalashtirishni va injenerlik tayyorgarligini va h.larni hisobga oladi;

C_e – oraliqli qurilmalar, tayanchlar qiymatini va ularni barpo qilishga xarajatlarni hisobga olgan holda bitta harakat yo‘nalishi uchun estakadaning transport harakatlanadigan qismi yuzasi (maydoni) birligining o‘rtacha keltirilgan qiymati;

B_i – bitta harakatlanish yo‘nalishi uchun estakadaning kengligi

Transport kesishuvining haqiqiy qiymatini aniqlash uchun (1.4)-(1.8) formulalar yetarlicha aniq emas, lekin rejaviy echimlarning variantlarini taqqoslash uchun xizmat qilishi mumkin. Transport kesishuvlarining boshqa turlari uchun xuddi shunga o‘xshash formulalarni olish mumkin.

Shahar estakadalarini gorizontal egri chiziqlarining minimal radiuslari 100-300 m. ni tashkil etadi. Joy tig‘iz bo‘lgan holatlarda tushish joylarida va harakatlanish kam bo‘lgan tarmoqlanishlarda ular 20-30m gacha kamaytirilishi mumkin.

Masalan, harakatlanish tezligi 30-40km/soat uchun gorizontal egri chiziqlar radiuslarini 1.6- rasm bo‘yicha $R = 50m$ qilib qabul qilish mumkin. U holda $F_1 = 7,5ga$, $F_2 = 1,3ga$, $F \approx 0,9ga$, ya’ni kesishish turiga bog‘liq holda uning yuzi 8 marta o‘zgarishi mumkin. $H=6m$, $h_H = 3,5m$ va $i=0,03$ bo‘lganda estakadalarning yig‘indi uzunligi $L_1 \approx 330m$, $L_2 \approx 2100m$, $L_3 \approx 3400m$ teng F_1 va L_1 qilona nisbat C_1 va C_2 qiymatlari ning nisbatiga va B_i kenglikka bog‘liq bo‘ladi.

1.4. Temirbeton estakadalarning, oraliq qurilmalari, tayanchlarining asosiy tizimlari va turlari

Temirbeton estakadalar shaharlarda va avtomobil yo'llarida eng ko'p tarqalgan. Ularni, odatda, to'sinli yoki romli tizimda barpo etiladi.

To'sinli estakadalar qirqimli (oddiy) yoki qirqimsiz va juda kam xollarda konsolli qilib barpo etiladi.

To'sinli qirqimli estakadalar oraliqli inshootlarning ikkita tayanch qismlaridan tushadigan vertikal bosimlarning va tormoz yoki markazdan qochma kuchlardan tushadigan gorizontal kuchianishlar ni zaminga uzatilishini ta'minlovchi tayanchiarga ega bo'lishi kerak. Qirqimli to'sinli oraliqli inshootlar o'tib ketayotgan avtomobillarda turkilarni vujudga keltiradi, shuning uchun bir qator hollarda harorati-qirqimsiz oraliqli inshootlar qilinadi, ya'ni oddiy to'sinli va transport qatnaydigan qismi qirqimli va qirqimsiz tizimlar o'rtaida oraliq holatni egallaydi.

To'sinli qirqimsiz estakadalar foydalanishda ancha qulay, material sarflanishiga ko'ra ancha tejamkor bo'lib, ingichka oraliq tayanchlarga ega bo'lishi mumkin. Harorat deformatsiyalari va gorizontal kuchlar ularda chetki tayanch-tirgaklarga uzatiladi, bularni yetarlicha zalvorli qilish mumkin. Qirqimsiz estakadaning katta umumiy uzunligida oraliqli inshootlar 50-60 m uzunlikdagi ba'zida undan ham ortiq alohida ko'p oraliqli qirqimsiz seksiyalarga bo'linadi, ularni uchlari bo'ylab deformatsiya choklari va yanada kuchli yoki juftlangan tayanchlar quriladi.

Ko'pincha qirqimsiz oraliqli inshootlar tayanchlarning uchi bilan bikr biriktirilib, konstruksiyani ko'p oraliqli romlar qirqimsiz to'sinlariga o'xshash holda seksiyalarga ajratiladi. Tayanchlarning sxemalari va tuproq sharoitlariga bog'liq holda romlar poydevor bilan sharnirli yoki bikr holda biriktirilishi mumkin.

Konstruksiyasining turiga ko'ra, estakadalarning oraliqli inshootlarini: plitali, qovurg'ali va qutisimonlarga ajratish mumkin. Plitali oraliqli inshootlar balandligi o'zgarmas yoki o'zgaruvchan, bo'ylama va ko'ndalang bo'shliqli yaxlit kesimli qilib quriladi. Qovurg'ali ora-

liqli inshootlarning ko'ndalang kesimida o'zgarmas yoki o'zgaruvchan qalinlikdagi bir necha qovurg'aga ega bo'ladi. Qutisimon oraliqli inshootlar ko'ndalang kesimi bir konturli yoki ko'p konturli bo'lishi mumkin. Shuningdek, qurilish balandligi pasaytirilgan keng ko'p konturli oraliqli inshootlar ham qo'llaniladi.

Temirbeton estakadalarning tayanchlarini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: tirkaklar, ustunlar (yaxlit va tarmoqlangan), romlar va devorlar (yaxlit va tarmoqlangan).

O'lchamlari uncha katta bo'limgan to'g'ri to'rtburchak yoki ko'p bo'shliqli **tayanch-tirkaklar** uchlarida: sharnirli yoki bikr tayanishga ega. Estakadaning ko'ndalang kesimida bunday ustunlardan bitta yoki bir nechta joylashtirilishi mumkin. Ustunlar umumiy rigel bilan biriktirilmaydi, balki bevosita oraliqli inshootni ushlab turadi. Ular odatta, qirqimsiz tizimi estakadalarda qo'llaniladi.

Tayanch-ustunlar, odatta, estakadaning ko'ndalang kesimida bittadan o'rnatiladi. Ustunlar yaxlit yoki ichi bo'sh, oraliqli inshootlar va poydevor bilan bikr yoki sharnirli biriktirilgan bo'lishi mumkin. Ko'ndalang kesimida ustunlarga dumaloq, ellips yoki boshqacha shakl beriladi, balandlikda esa ularni silindrik yoki konusli qilib qo'yiladi. Ba'zida ustunlarning yuqori qismi alohida tirkakli tarmoqlagichlarga bo'linadi. Ustunli tayanchlarni romli estakadalarda qo'llagan ma'qul, bunda oraliqli inshootlarni to'rtta nuqtasiga tirab, fazoviy bikrlik vujudga keltiriladi.

Rigel bilan bikr biriktirilgan ustunlar estakadaning ko'ndalang kesimida rom tayanchlarini hosil qiladi. Ustun-oyoqlarni poydevorga bikr mahkamlangan holda yoki sharnirli tiragan holda vertikal yoki og'ma qilinadi. Romning rigeli oraliqli inshoot ostida joylashtirilishi mumkin. Rom tayanchlarining konstruksiyasi estakadanani rejalashtirishning mahalliy sharoitlariga ko'p jihatdan bog'liq. Ba'zida ularni nonsimetrik, katta konsollar bilan yoki boshqa noodatiy shaklda qilishga to'g'ri keladi.

Tayanch-devorlarning eni ancha katta, qalinligi ham kattagina bo'lib, u oraliqli inshootlar va poydevorlar bilan sharnirli yoki bikr ravishda biriktirilishi mumkin. Ko'pincha sharnirli tayanishga

devorlar bikr berkitilgan hollarda ham, ularning qaliningi, kichikligi va estakadaning oraliqlari bo'ylab moslashuvchanligi hisobiga tayanch-devorlarni ikki nuqtada tayantirgan holda to'g'ri to'rtburc-hakli, trapetsiyasimon qilinadi. Ular konsolli va tarmoqlanmaydigan oraliqli inshootlar ostida qo'llaniladi. Tayanchlarning boshqa turlari ham bo'lishi mumkin bo'lib, ularning ikki va undan ortiq asosiy turli aralash ishlataladi.

Estakadalarning asosi temirbetonli tirkak devorlar ko'rinishida ishlataladi va ularning konstruksiyasi avtomobil yo'llari ko'priklarining asoslaridan jiddiy farq qilmaydi. Temirbeton estakadaning konstruksiyasini tanlashda umi qurishda qabul qilingan usul katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ko'pincha qabul qilingan konstruksiyadagi estakadalarni qurish uchun yaxshi ishlab chiqilgan texnologiya va kompleks qurilma, ularning kamroq material sarfiga ega, ammo tayyorlanishi ancha sermehnat bo'lganlariga nisbatan qo'llanilishining iqtisodiy maqsadga muvofiqligini belgilaydi.

Qurilish turiga ko'ra estakadalarning konstruksiyalarini yaxlit quyma, yig'ma-yaxlit quyma va yig'ma turlarga ajratish mumkin. Yaxlit quyma estakadalar qurilish joyida bevosita qolipga joylanadigan betondan barpo etiladi. Yig'ma-yaxlit quyma estakadalar oldindan tayyorlangan yig'ma elementlardan barpo etilgan konstruksiya, yig'ma qism bilan yagona butunga birlashtirilgan yaxlit quyma betondan iborat bo'ladi. Bunday konstruksiyalarda yig'ma va yaxlit quyma betonning hajmlari bo'yicha bir-biriga yaqin bo'ladi. Yig'ma estakadalar to'la ravishda oldindan tayyorlangan elementlardan quriladi. Yaxlit-quyma beton bu holda ham choclar, birikish joylari va h.larni to'ldirish uchun loyda lanishi mumkin, lekin uming hajmi yig'ma betonnikidan bir necha marta kam bo'ladi.

Ba'zida estakadaning oraliqli inshootlari va tayanchlarini qurish usullari turlicha qilib belgilanadi. Masalan, oraliqli inshootlar to'liq holda yig'ma bo'lganda tayanchlar yaxlit-quyma qilib ishlanishi mumkin.

Ishlarni amalga oshirish usulini tanlash estakadani rejalashtirishning mahalliy sharoitlariga, yig'ma temirbeton zavodlari va qurilish

jihozlarining mavjudligiga, qurilish amalga oshirilayotgan hududning iqlim sharoitlariga va boshqa omillarga bog‘liq.

1.5. Shahar ko‘priklari va transport inshootlari arxitekturasi

Shahar ko‘priklari – muhim arxitektura obyektlari, binolar, bog‘larning qadimiylari va zamonaviy me’moriy ansamblari qatori shaharning umumiyligi qiyofasini yaratib faqat unga xos bo‘lgan xususiyatlarni va o‘ziga xoslikni beradi. Ko‘prik yaratadigan estetik tasavvur uning me’moriy xususiyatlariga va ko‘prikin qiyofasi atrof muhit bilan qanday uyg‘unlashishiga bog‘liq bo‘ladi.

Inshootning me’moriy xossalariiga ta’sir qiluvchi omillarning xilma-xilligi biror xil andozalarni yaratish mumkin emasligini va u yoki bu echimni tanlash ham konstruksiyaning, ham uni loyihalashtrilayotgan odamlarning shaxsiy xususiyatlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan bir vaqtida ayrim umumiyligi qoidalarmi ajratib ko‘rsatish mumkinki, ularni shahar ko‘priklari va transport inshootlari injener quruvchisi bilishi zarur.


Shahar ko‘prigining umumiyligi qiyofasini tanlashda unga daryo tomondan va unga yaqin joylardan ko‘rinishi katta ahamiyatga ega. Ko‘prikni qancha ko‘p nuqtadan kuzatish mumkin bo‘lsa, inshoot shunchalik xilma-xil va qiziqarli ko‘rinadi. Loyihalashda bu barcha mumkin bo‘lgan resurslarni ko‘prikni o‘rab turgan binolar bilan birgalikda ko‘rib chiqish zarur. Shuningdek ko‘prikdan turib shaharning atrofdagi hududlarining va daryoning ko‘rinishini hisobga olish va atrofdagi qiziqarli detallarni konstruksiyalar bilan to‘sib qo‘ymaslik kerak.

Ko‘prikka uzodidan nazar tashlaganda uning silueti va umumiyligi shallari asosiy taassurot yaratadi. Arxitekturada konstruksiya va material ishining badiiy ifodasi tektonika deb ataladi. “Yengil”, “og‘ir”, “massiv” va h. tushunchalar inshootning tektonik xususiyatlarini ko‘rib idrok qilishning natijasi hisoblanadi. Inshootning tektonikasi ko‘prikin kuchlari va konstruktiv xususiyatlari kuchlarining haqiqiy o‘yinini va mahalliy sharoitlar yoki umumiyligi kompozitsion g‘oya tufayli inshootga konstruksiyaning o‘zi ega bo‘lmagan ko‘rinish (ma-

salan, ichi bo'sh romni ark ko'rinishida tasavvur qilish) beriladigan hissiyotni ta'kidlovchi real vosita bo'lishi mumkin.

Inshootni tektonik idrok qilish uchun massalarni oraliqli inshootlarda va tayanchlarda taqsimlash asosiy ahamiyatga ega. Bu turli xil kuchi omillari ta'sir qilganda ko'priknинг konstruktiv elementlarining ishlashiga ham taalluqlidir.

Ko'prikká yaqin masofaga yaqinlashganda uni ko'rib idrok qilishda me'moriy detallari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ular injenerlik imshootining ancha katta o'lchamlaridan odam bilan o'chovdosh elementlariga o'tishni yuzaga keltiradi. Me'moriy detallar, karnizlar, parapetlar, zinapoya, tutqichli to'siqlar, yoritish ustunlari, haykallar va h.lar ko'prik bo'ylab yoki daryo sohilidan o'tib borayotgan odamlar uchun ko'prik kompozitsiyasining o'ziga xosligini vujudga keltiradi (1.7.-rasm).



**1.7.-rasm. Toshkent shahar "Paxtakor" stadioni yaqinidagi
Anxor sohilidagi shahar ko'prigi**

Ko‘prik ustidan transport vositalarida o‘tib borayotgan yo‘lovchilar uchun u shahar avtomagistrallining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, ko‘prik maydon singari, shahar ko‘chasida eng muhim o‘rinni egallaydi, shuning uchun ko‘prikni uzunligi bo‘yicha kompozitsion ajratish kerak. Bunday ajratishga me’moriy detallar – ko‘prikning biror nuqtalarini qayd qiluvchi fazoviy mo‘ljallar, masalan, uning boshlanishi va oxiri, tayanchlar, oraliqlarning o‘rtalari va h.lar orqali erishiladi. Bu detallarning ko‘prik bo‘ylab o‘tishida, ayniqsa uzun ko‘priklarda, monoton takrorlanmasligi uchun turli intervallar (oraliqlar) bilan bajarish maqsadga muvofiq. Ularni xaddan ortiq tez-tez joylashtirish ham kerak emas, chunki katta harakat tezliklarida ular bir-biriga qo‘silib ketgandek ko‘rinadi. Yo‘lovchi ikkita asosiy kesishuvchi yo‘nalish ko‘prik va daryoni aniq sezib turishi kerak.

Ko‘prik konstruksiyasi atrofdagi shahar me’moriy ansambliga organik tarzda kirishib ketishi kerak. Bunday qo‘silihishga turli xil usullar bilan erishilishi mumkin. Ko‘prik, ayniqsa, uning tayanchlari va asoslari tashqi qismining material va uning xususiyatiga ko‘ra, sohil-dagi konstruksiyalar bilan uyg‘unlashishi kerak. Ko‘prik sirtlarining materiallari yoki fakturalarining atrofdagi binolarning materiallari bilan birligini ta’minalash maqsadga muvofiq.

Shumingdek, ko‘prikning va atrofdagi binolarning masshtabiari birligiga amal qilishga intilish zarur. Ko‘prikning ko‘rinishi qo‘shti qurilishlarni to‘sib qo‘yuvchi, bezor qiladigan bo‘lmasligi kerak.

Konstruksiyalarda qiziqish uyg‘otmaydigan, bir xil ko‘rimishdagi taassurot qoldiruvchi oddiy monoton ritmlardan qochish kerak.

Xuddi shunga o‘xhash me’moriy talablar shahar estakadalariga nisbatan ham qo‘yiladi. Estakada bo‘ylab o‘tayotganlar uchun atrofdagi binolarni, kesishuvchi ko‘chalarni va maydonlarni to‘sish kerak emas, shuning uchun transport harakatlanadigan qism ustida, iloji boricha kamroq konstruktiv va yordamchi elementlarni chiqarish kerak. Tutqichli to‘silalar va ayniqsa ularni yoritib turish uchun ustunlarni oddiy va yyengil qilish kerak. Yoritish ustunlarim oraliqli inshootlarda ulardan biri vaziyatga ko‘ra oraliqning o‘rtasi bilan mos tushadigan qilib joylashtirmaslik kerak.

Estakadaning chetdan ko'rinishi inshootning yyengilligi to'g'risida tasavvur hosil qilishi kerak. Buning uchun oraliqli inshootlarning qurilishi balandligini konstruktiv va ko'rish nuqtai nazaridan kumaytirishga harakat qilinadi: tutqichlarni siyrak joylashgan ustunlar va po'latdan, yoki alyuminiydan bo'ylama elementlar bilan qilinadi, transport qatnaydigan qismning chetlariga tutash xavfsizlik to'sinlarini imkonli boricha qo'llanilmaydi, chetki to'sinlarda trotuar konsollari beriladi, ulardan tushayotgan soya go'yoki to'sinlar balandligini kamaytirish uchun to'sinlari balandligi kichik bo'lgan plitali yoki qutisimon oraliqli inshootlar va h.lar qo'llaniladi.

Piyodalar uchun estakadaning pastdan ko'rinishi katta ahamiyatga ega. Bu yerda tayanchlarning turi, tayanchlar sirtlarining va oraliqli inshootlar pastki qismining fakturasi, rangi va ularni belgilovchi omillar hisoblanadi. Tayanchlarni imkonli boricha ancha yyengil, estakada ostidagi fazoni to'sib qo'ymaydigan qilish kerak. Ko'p ustunli yoki devorli tayanchlar bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Oraliqli inshootlarning pastki qismi silliq to'g'ri chiziqli yoki bir tekis bukilgan sirlarda ancha qulay ko'rinishga ega bo'ladi. Shaharlarda ko'p qovurg'ali oraliqli qurilmalar uncha oqilona einas. Pastki sirlarni yog'och opalubka izlari bo'lgan betonli qilib qoldirish, pardozlash, silliqlash yoki bo'yash mumkin.

Oraliqli inshootlar va tayanchlarni ularning konstruktiv birligini ta'kidlash uchun bitta rangga bo'yash yoki oraliqli inshootni tayanchlardan ajratib, farqlantiruvchi ranglarga bo'yash mumkin. Oraliqli inshootlar och rangda bo'lгanda, tayanchlarning to'q rangda bo'lishi tayanchlarning yyengilligini va o'lchamlari kichik ekanligini ta'kidlaydi. Ba'zida estakadalarning pastki sirtida yoritqichiar joylashtiriladi.

Estakadalarning oraliqli inshootlari va shakli uyg'unlashishi kerak. Oraliqli inshootlarning tekis, dumaloqlangan shaklida tayanchlarni ham shunday shaklda tayyorlash maqsadga muvofiqdır. Ba'zida tayanchlar o'z shakliga ko'ra oraliqli inshootlarni go'yoki davomi bo'lishi mumkin. Oraliqli inshootlarning burchakli, keskin shakldor bo'lishi xuddi shunday burchaksimon tayanchlarning qo'llanilishiga

yo'l qo'yadi. Xuddi shuni estakadalarning tarmoqlanish shaklida ham aytish mumkin. Oraliqli inshootlarni barcha o'tkir uchlarimi dumaloqlab, tekis qilib yoyish yoki akkarkasa, tarmoqlanishlarning keskinligini ta'kidlash mumkin.

Uzun estakadalarning tayanchlarini har xil qilish maqsadga muvofig. Bunga oraliqlarning kattaliklarini, tayanchiarning shaklini yoki ularning ko'ndalang yo'nalishida sonini o'zgartirish orqali erishish mumkin. Ba'zida tayanch ustunlarini shaxmat shaklida joylashtirish ham mumkin. Yangi shahar tumanlarida buni bajarish oson, chunki zamonaviy turarjoy va jamoat binolari estakadalarning yyengil va jadal shakllari bilan yaxshi uyg'unlashadi, estakadalarni eski qurilgan ko'chalar va maydonlarga moslashtirish ancha murakkab. Bu yerda qurilish uslubi bilan uyg'unlashuvchi me'moriy detallarni, sirtlar fakturasini va tayanchlar shaklini kengroq qo'llanish maqsadga muvofiqdir.

Piyoda ko'priklari ko'pincha shahardagi bog'larda (parklarda) yoki dam olish hududlarida quriladi. Ularning arxitekturasi bu huddlarning umumiy kompozitsion g'oyasi bilan uyg'unlashishi kerak. Sohillarning tirkak devorlari atrofni o'rabi turgan binolarning materiali bilan bezatiladi. Odatda bu tosh bilan pardozlash, ba'zan esa beton sirtlarda ko'rindi. Agar daryo sohili estakada konstruksiyasi bilan kengaytirilsa, bunda estakadaning tayanchlarini va oraliqli inshootlar ostidagi qorong'u fazoni yopib turuvchi dekorativ devorlarni nazarda tutish kerak. Sohillarning panjara-to'siqlari ularning umumiy me'moriy qiyofasi uchun katta ahamiyatga ega. Yaxlit tosh panjara-to'siqlar ancha oddiydir, lekin ular past yyengil avtomobillarda sohil bo'ylab o'tib ketayotgan yo'lovchilarga daryo manzarasini berkitib qo'yadi, daryo tomonidan esa binolarning pastki qavatlarining ko'rinasligiga sabab bo'ladi. Shuning uchun yangi qurilayotgan sohillarga orasi ochiq panjara-to'siqlar o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

Sohillarda davriy ravishda daryoga tushadigan zinapoyali yo'llar qurish kerak. Ular piyodalarga suv sathi yoniga bevosita yaqin borishga imkon beradi va uncha katta bo'limgan sayr qilish kemalari (qa'yiplari) uchun mo'ljalangan bandargohlar bilan qo'shib olib borilishi mumkin. 180° dan katta burchak tashkil etuvchi sohillarning chiziqlari

uzilgan joylarda suhbatxona-rovondali tomosha qilish maydonchalarini tashkil etish yaxshi bo‘ladi. Daryo bo‘yida joylashgan mahobatli binolar yaqinida sohillarni binomi o‘rab turgan maydonning umumiy me’moriy bezagiga kiritish muunkin.

Katta binolarga olib boruvchi shahar transport inshootlari va ularga xizmat ko‘rsatuvchilar o‘z arxitekturasida bu binolarning kompozitsiyasiga bo‘ysunadi.

Nazorat savollari:

1. Sun‘iy inshootlarni qanday asosiy guruhlarga ajratish mumkin?
2. Ko‘priklar va viaduk qayerda barpo etiladi?
3. Yo‘lko‘priklar va estakadalar qanday guruhlarga bo‘linadi?
4. Yo‘lko‘priklar estakadadan nima bilan farq qiladi?
5. Estakadalar qayerda qo‘llaniladi?
6. Murakkab transport kesishuvlari qayerda barpo etiladi?
7. Murakkab tarmoqlanishlar va ko‘p yarusli estakadalar qanday maqsadlar da quriladi?
8. Qanday inshootlar II guruh transport inshootlariga kiradi?
9. Transport inshootlarining umumiy vazifasi nimadan iborat?
10. Shahar ko‘priklariga qanday talablar qo‘yiladi?
11. Hududlarning vertikal profili va o‘tish rejasi bo‘yicha qanday asosiy talablar qo‘yiladi?
12. Kirish estakadalarini qanday joylashtiriladi?
13. Shahar ko‘prigida ikki yo‘lli tramvay qanday o‘tkaziladi?
14. Qanday ko‘priklar shahar va temir yo‘l harakatining barcha turlarini qo‘shib olib borishi muunkin?
15. Avtomobil yo‘llarida shahar estakadalarini va yo‘l ko‘priklarga qanday talablar qo‘yiladi?
16. Estakadalar va yo‘lko‘priklarning kengligi nimaga bog‘liq?
17. Estakadalarning oraliqli inshootlari kengligi qanday belgilanadi?
18. Temirbeton estakadalar qanday konstruktiv tizimlarga ega?
19. Qanday holatlarda harorat qirqimsiz oraliqli inshootlar quriladi?
20. Temirbeton estakadalarning tayanchlarini shartli ravishda qanday turlarga ajratish mumkin?
21. Qurilish turiga ko‘ra estakadalarni qanday turlarga ajratish mumkin?
22. Arxitekturada tektomika deb nimaga aytildi?
23. Shahar ko‘priklari va estakadalariga qanday me’inoriy talablar qo‘yiladi?
24. Sohillardagi panjara-to‘sinqular qanday bo‘lishi kerak?

2. SHAHAR KO'PRIKLARI

2.1. Umumiy ma'lumotlar

Yo'Ining va undan o'tayotgan transport vositalarining turiga ko'ra ko'priklar quyidagilarga bo'linadi:


- avtomobil yo'llari uchun – avtomobil yo'llari bo'yicha barcha turdag'i transport vositalari va piyodalarni o'tkazish uchun;
- temir yo'l – temir yo'l poyezdlarini o'tkazish uchun;
- shahar – barcha turdag'i shahar transporti (avtomobillar, trolleybuslar, tramvaylar, avtobuslar)ni va piyodalarni o'tkazish uchun:
- piyodalar – faqat piyodalar o'tishi uchun;
- aralash – bir vaqtida avtomobillar va temir yo'l poyezdlarini o'tkazish uchun;
- maxsus – quvuro'tkazgichiar, kabellar va boshqa shahar tarmoqlarini o'tkazish uchun.

Daryoni kesib o'tishda bunyod etiladigan inshootlar majmui **ko'priqli o'tishni** ifoda etadi. Uning tarkibiga ko'priklar, unga olib boradigan yo'llar, suv oqimi yo'nalishini tartibga solish inshootlari, shuningdek, qirg'oqni mustahkamlovchi, to'suvchi va boshqa qurilmalar kiradi.

Ko'priqli o'tish majmuiga kiruvchi va yuqori suv toshqinlari, kemalar, va yilning ayrim vaqtida yog'och oqizishni o'tkazuvchi ko'priklar **yuqori suvli ko'priklar** deyiladi (*2.1.- a,b rasm*). Suv toshqini paytlari suv bosadigan ko'priklar **past suvli ko'priklar** deyiladi va doimiy ko'priknii qurish vaqtida va boshqa sharoitda qirg'oqlar orasida qisqa muddatli aloqa uchun qo'llaniladi.

Ajraladigan va suzuvchi ko'priklar oraliq holatni egallaydi. Ajraladigan ko'priklar ostidan kemalar o'tishi mumkin bo'Imagan darajada qo'llaniladi. Shuning uchun ko'priknинг bir qismini (ochiluvchi oraliq inshootini) yuqoriga yoki bir tomonga ochiladigan qilinadi (*2.1.- v rasm*). Ajraladigan ko'priklarda ko'prik ochilgan holatda transport vositalari harakatida yoki daryo bo'yicha ko'prik yopilgan holatda tanaf-fus bo'lishi muqarrar.

Oraliq inshootlari tayyorlangan materialiga ko'ra ko'priklar metall (po'latdan), temirbeton, beton, yog'och va toshli turlarga bo'linadi. Ba'zida bitta ko'prika ham metall, ham temirbeton oraliq inshootlari uchraydi.



2.1.- rasm. Ko'priklarning asosiy turlari

1- ko'pri oldi ko'tarmasi; 2- ko'tarma konusi; 3- chekka tayanch; 4- ustidan yuriladigan oraliqli inshoot; 5- pastidan yuriladigan oraliqli inshoot; 6- oraliq tayanch (buqucha); 7- tayanch poydevori; 8- qatnov o'rtasida bo'lgan oraliqli inshoot; 9- ajraluvchi oraliqli inshoot; 10- suzuvchi tayanch.

Oraliq inshootlarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalari statik sxemasiga ko'ra ko'priklar to'sinli, arkali, romli, osma va shu kabi boshqa tizimlarga bo'linadi. Shuningdek, ikki yoki bir nechta oddiy, masalan,

to'sinli va arkali tizimlarning qo'shilishi ko'rinishidagi omixta tizimli ko'priklar, ba'zan esa tirdgovuchlar tiralgan to'sin ko'rinishidagi tirdgakli tizim ham qo'llanlladi.

Suzuvchi ko'priklar suvda suzuvchi va undan o'tuvchi ko'priklar konstruksiyasini ko'tarib turuvchi pontonlarda yoki barjalarda o'rnatiladi. (2.1.- g rasm). Bunday ko'priklar yuqori suvli ko'prikn qurish juda qimmat bo'lganda va ko'priklar bo'ylab kutilayotgan harakat o'zini oqlamaydigan holatda keng va chuqur daryolarda qo'llaniladi. Kemalarini o'tkazib yuborish uchun, chiqaruvchi seksiyalar ko'zda tutiladi. Muz ko'chishi vaqtida, ba'zida muz turishining butun davrida suzuvchi ko'priklar yig'ib olinadi. Ko'priklar yoki boshqa ko'priklar inshooti (yo'lko'priklar, viaduk, estakada) oraliqli inshootlardan va tayanchlardan iborat (2.1.- a rasm). Oraliqli inshoot, bu – ko'priklar konstruksiysi bo'lib, tayanchlar orasidagi fazoni qoplab, ko'priklardan o'tayotgan barcha yuklanishlarni ko'tarib turadi va ham ularning, ham o'zining og'irligini tayanchlarga uzatadi. Tayanchiar oraliqli inshootdan tus-hayotgan yuklanishlarni qabul qiladi va uni asos gruntiga uzatadi. Ko'prikkal kirish ko'tarmalariga yondashgan tayanch chekka tayanchlar deyiladi, massiv oraliq tayanchlar buqachalar deb aytildi. Oraliqli inshoot yuk ko'taruvchi konstruksiyadan (to'sinlar, fermalar, arkalar va h.) va transport qatnaydigan yo'l qismining trotuar va boshqa barcha yordamchi elementlari bo'lgan konstruksiyadan iborat. Agar transport qatnaydigan yo'l qismi oraliqli inshoot ustida bo'lsa, u holda **ko'prikn yuqoridan yuriladigan ko'priklar** (2.1.-a rasm, 4), agar yo'lning transport qatnaydigan qismi oraliqli inshoot tagida ho'lgan holda **pastidan yuriladigan ko'priklar** deyiladi (2.1.- a rasm, 5). Yurishi pasaytirilgan yoki o'rtasi bo'ylab yuriladigan ko'priklarning transport qatnaydigan qismi oraliqli inshootlar halandligi chegarasida bo'ladi (2.1.- rasm, 8).

Yuqori suvli ko'priklar toshqin suvlarini uzlusiz o'tkazishni ta'minlashi kerak, shuning uchun ko'priknning oraliqli inshootlarining pastki qismini yuqori suv sathi (YuSS)dan. 0,5-1m yuqorida joylashtirish kerak. Yuqori suvlar sathi – bu daryoda ko'priklardan o'tish joyidagi suvning eng baland sathi gidrologik kuzatish ma'lumotlariga ko'ra meyor-

Iorda belgilanganidan ham yuqori darajaning paydo bo'lish ehtimoli bo'lmaydigan shartdan aniqlanadi. Agar daryoda kema qatnovi mavjud bo'lsa, u holda oraliq inshootlarining pastki qismining hisobdag'i sat-hi, mazkur daryo uchun kema yurishi gabariti balandligidan kattaroq balandlikka ko'tarilgan bo'lishi kerak. Hisobdag'i kema yurishi daraja-si (sathi) – bu kema yuradigan davrda daryodagi suvning eng yuqori sathi bo'lib, u odatda YuSSdan biroz past bo'ladi. Suv toshqinlaridan keyingi davrdagi suvning o'rtacha sathi mejen suvlar sathi (MSS) yoki mejen sathi deyiladi.

Ko'priklar, yo'lko'priklar yoki estakada to'siqni asosan to'g'ri burchak ostida kesib o'tishi mumkin. Agar kesishish burchagi to'g'ri burchakli bo'lmasa, u holda ko'priklar qiya bo'ladi. Ba'zan ko'priklar o'qi rejada egri chiziqli bo'lishi ham mumkin.

Ko'prikkal yaqin ko'tarmaga yondosh asoslarning qirrali orasidagi ko'priklar o'qi bo'yicha L uzunlikka ko'priklar uzunligi deyiladi. $L \leq L \leq 25\text{ m}$ uzunlikdagi ko'priklar kichik, $25\text{ m} < L \leq 100\text{ m}$ uzunlikdagi ko'priklar o'rtacha, va $L > 100\text{ m}$ uzunlikdagi ko'priklar katta ko'priklar deb hisoblanadi. Ko'priknинг qo'shni tayanchlari orasidagi masofa oraliq deyiladi. Uzunligi $L > 100\text{ m}$, lekin oraliqlaridan biri 60m dan ortiq bo'lgan ko'priklar ham katta ko'priklar qatoriga kiritiladi.

Ko'priklar va uning elementlarining boshqa asosiy ko'rsatkichlari qu-yidagilardan iborat:

- **ko'priklar teshigi**, u ko'priklar ostidagi suv ko'zgusi erkin eniga yuqori suvlar sathi bo'yicha teng $L_{00} = \sum l_{oi}$; bunda l_{oi} – yorug'likdagi tayanchlari qirralari orasidagi masofa;

- **ko'priklar balandligi** H – transport qatnov qismi sirtidan mejen suvlar sathigacha bo'lgan masofa;

- **ko'priklar ostidagi erkin balandlik** H_o – oraliq inshootlarning pastki qismi bilan yuqori suvlar sathi yoki hisobiy kema qatnovi sathi (agar kema qatnovi bo'lsa) oralig'i;

- **qurilish balandligi** h – transport qatnov qismidan oraliq inshootning eng pastki qismlarigacha bo'lgan masofa;

- **hisobiy oraliq** ℓ – orallqli inshootning qo'shni tayanchlarga taya-nish o'qlari orasidagi masofa.

Ko'priknинг асосиј о'лчамлари ко'прикнинг vazifasini va mahalliy sharoitlarning butun majmuini hisobga olingan holda, uni loyihalash jarayonida belgilanadi.

Sun'iy inshootlar – yo'lning muhim va qimmathaho elementlari hisoblanadi. Avtomobil yo'llarida, shahar ko'chalarida ularni barpo qilish xarajatlari shahar ko'chalari yoki avtomobil yo'li qiymatining taxminan 10% ini tashkil etadi.

2.2. YOG‘OCH KO‘PRIKLAR

2.2.1. Yog‘och ko‘priklarning xususiyatlari

Ko'priklar qurishda yog‘ochdan qadimdan foydalanib kelindi. Avval qurilgan ko'priklarning katta qismi yog‘ochdan barpo etilgan.

XIX asrning boshida dastlabki temir yo'llar paydo bo'ldi. Ular katta oraliqli yuqori tayanchlarga ega ko'priklarni talab qiluvchi bir qator yirik daryolarni kesib o'tgani uchun to'sinli oraliqli inshootlarning yangi tizimlariga zaruriyat paydo bo'ldi. Bunday tizimlardan biri AQSh da 1820-yilda arxitektor Taun tomonidan taklif etildi. Taunning oraliqli inshootlari yog‘och nagellarida biriktirilgan taxtalardan iborat ko'p panjaralari fermalardan iborat edi.

XIX asrning 40-yillarida yana AQShda injener Gau tomonidan yaratilgan boshqa bir tizim fermalarning elementlari bruslardan va faqat ustunlari metall tortqichlardan iborat edi. Bu tizimni rus injeneri D.I.Juravskiy (1821–1891) chuqur o'rganib, uning konstruksiyasiga bir qator yangiliklar kiritdi, hisoblash usulini ishlab chiqdi va buning natijasida tizim yirik yog‘och ko'priklarni qurish uchun qo'llandi. Yog‘och ko'priklarni qurishda katta yutuqlar XIX asrning boshida kuzatildi. Yog‘och ko'priklar avtomobil yo'llarida va shaharlarda ayniqsa keng qo'llanila boshlandi.

Hozirgi davrda metall va temirbeton ko'priklarning keng tarqalishi munosabati bilan yog‘och ko'priklarni qurish ham texnik, ham iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmay qoldi.

Shu bilan birga foydalanilayotgan yog'och ko'priklarning xizmat muddatini orttirish uchun ularni chirishdan muhofaza qilish choralarini ko'rish zarurligini ham ta'kidlash lozim.

Material


Yog'och yaxshl qurilish materiali bo'lib, o'ttacha solishtirma og'irligining kichikligi, ishlov berish osonligi va nisbatan mustahkam ekanligi bilan ajralib turadi. Yog'ochning qurilish materiali sifatida asosan davriy ravishda namlanishi va qurishl sharoitida chirishi xavflidir.

Yog'och ko'priklar uchun ignabargli va yaproqbargli daraxt yog'ochlari qo'llaniladi. Qurilish materiali sifatida ignabargli daraxtlar yaxshiroqdir, chunki ular to'g'ri tekis tanaga ega bo'lib, kam ko'zli, ancha yumshoq, qatronli va elastik yog'ochdir. Ignabargli turdag'i yog'ochlardan ko'pincha qarag'ay, archa, tilog'och, kedr va pixta, yaproqli daraxtlardan – eman, buk, grab, yasen, tol, terak, chinordan foydalaniladi. Tabiiy sharoitda daraxtning tanasi bo'ylama bukilish bilan siqilishga, shuningdek, ko'ndalang bukilishga ishlaydi. Shuning uchun yog'och materiallar bunday turdag'i kuch ta'sirlariga ko'proq moslashgan. Yog'ochning tuzilishi bir jinsli emas. Tanasining kesimi-ga ko'ra o'zak qismi eng kam mustahkainlikka ega; po'stlog'iga yaqin qatlamida yog'ochning mustahkamligi ortadi.

Daraxt tanasi uzunligi bo'ylab yo'g'on tarafidan ingichka tarafi tomon tabiiy konuslikka ega. Bunday konuslik taxminan 1% ni tashkil etadi.

Agar yog'och tanasi silindrik shakl bilan ishlov berilsa, bu holda yog'ochning eng mustahkam qismi olib tashlanadi va bundan tashqari, daraxtning konus yasovchilari bo'ylab yo'nalgan tolalarining katta qismi qirqilib ketadi (*2.2.- a rasm*).

Yog'och tanasini brusga yoki taxtaga arralanganda yog'och yana ko'proq mustahkamligini yo'qotadi (*2.2.- b rasm*). Shuning uchun yog'och tanasining tabiiy konusligini imkonli boricha saqlash maqsadga muvofiqdir. Silindr shakliga keltirilgan yog'och, bundan tashqari, sermehnat qo'lida ishlov berishni talab etadi.



2.2.- rasm. Silindrik va arralangan yog'och materiali sxemalari

Ko'priklar konstruksiyalarida yog'ochning eng mustahkam va chidamlari po'stlog'iga yaqin qatlamlaridan xoli ravishda arralangan yog'ochdan foydalilaniganda konstruksiyalarni chirishdan himoya qilishiga alohida e'tibor berish kerak. Daraxtning mexanik sifatlari yog'och prizmalarini siqilishiga va g'o'lachalarni ko'ndalang egilishiga sinab tekshiriladi. Qarag'ay yog'ochini mustahkamlik chegaralari namligi 15% bo'lgan kichik standart namunalarini sinashda quyidagi qiymatlardan past bo'lmasligi kerak:

- tolalar bo'yicha siqilishga 13,0 MPa
- tolalarga ko'ndalang siqilishva ezilishga 1,8MPa
- egilishga 13,0MPa

Sun'iy inshootlarni hisoblashda qabul qilinadigan yog'ochning o'rtacha solishtirma zichligi:

- qarag'ay, archa, kedr, pixta (antiseptik shimdirligmagan).....6KN/m³
- ularning o'zi, antiseptik shimdirligmagan 7 KN/m³
- antiseptik shimdirligmagan dub, buk, shumtol, grab, tilog'och..... 8 KN/m³
- ularning o'zi, antiseptik shimdirligmagan 9 KN/m³

Yog'ochning namligi W (%) hisobida) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$W=100(Q_1 - Q)/Q \quad (2,1)$$

bunda Q_1 - tekshirilayotgan yog'och namunasining og'irligi; Q - 100°C haroratda doimiy og'irlikkacha quritilgandan keyingi og'irligi.

Yangi kesilgan daraxtda namlik odatda 50-70% bo'ladi. Namlik oshishi bilan yog'ochning mustahkamligi kamayadi.

Quriganda yog'och o'lchamlari kamayadi. Yog'ochning tolalari bo'ylab qurishi uncha katta emas; eng katta qurish yillik halqalar bo'yicha ro'y beradi. Radial yo'naliшhda va yillik halqalar bo'yicha turlicha qurish, shuningdek, qurishning bir tekisda bo'lmasligi sababli, yog'och qiyshayadi va yoriladi. Ayniqsa, yupqa yog'och materiali kuchli shakl o'zgartiradi, bunda yog'ochlar yillik halqalar qabariqligi tomoniga qiyshayadi (2.2.- v rasm). Qurishda yoriqlar yillik halqalarga radial holda vujudga keladi (2.2.- g rasm).

Ko'priklar uchun namligi 25% dan ortiq bo'lмагan, yarimquruq deb atalgan yog'och talab etiladi. Tilingan yog'och taxtalarning namligi 20% dan ortiq bo'lmasligi kerak. Yog'ochli fermalar va konstruksiyaning mayda detallari uchun namligi 15% dan ortiq bo'lмагan (havoda quritilgan) yog'ochdan foydalanish kerak.

Chirishga qarshi antiseptik bilan ishlov berilgan, yaxshi yog'och materialidan ishlangan ko'priklar yaxshi nazorat qilib turilganda 25-30 yil va undan ko'proq xizmat qiladi. Antiseptik ishlov berilmagan yog'och ko'priklarning xizmat qilish muddati o'rtaча faqat 12-15 yilni tashkil etadi xolos.

2.1.2. Yog'och ko'priklarning konstruktiv tizimlari

Yog'ochko'prik tizimini va konstruksiyasini tanlash qurilish balandligi, hisobdagи vaqtincha yuklanish, vertikal rejalashtirish shartlari bo'yicha mavjud oraliqlar kattaligi, shuningdek, mahalliy sharoitlarga bog'liq.


Uncha katta bo'lмагan daryolarni va jarliklarni kesib o'tishda, shuningdek, yo'lko'priklar qurishda oddiy to'sinli tizim qo'llaniladi.

(2.3.- a rasm). Oddiy to'sinli tizim bilan $\ell=8\div10\text{m}$ oraliqlar, tarhibiy yoki elimlangan to'sinlar qo'llanilganda – $10\div24\text{m}$ gacha oraliqlar uchun ishlatish mumkin. Bir oraliqli to'sinli ko'priklarda odatda

$\ell=4\div6$ m bo'ldi. Eng oddiy to'sinli tizimdag'i ko'priklar nisbatan unc-ha katta bo'ligan qurilish balandligiga ega bo'ldi.

8-10m dan 20m gacha bo'lgan oraliqlar uchun ko'priklarning tir-gakli tizimlari qo'llanilgan edi (2.3.- b rasm). Hozirgi vaqtida sermeh-nat duradgorlik ishlari tufayli ular qurilmayapti, lekin 16-20m dan 40-50m gacha bo'lgan oraliqlarni yopish uchun turlicha ko'rinishdagi panjaralari fermali to'sinli oraliqli inshootlar qo'llaniladi. Bunday ora-liqlar juda ko'p hollarda dumaloq yog'ochdan tayyorlangan Gau-Ju-ravskiy fermali oraliqli qurilmalar yoki kamdan-kam hollarda metall tortqich ko'rinishidagi ustunli g'o'lachalardan iborat konstruksiya bi-lan yopiladi (2.3.- v rasm).

Ishonchliligi katta bo'lishi va xizmat ko'rsatish muddatini oshirish uchun ham pastki, ham yuqorida kamar metalldan tayyorlanishi mumkin. Gau-Juravskiy fermalarini zavodda tayyorlangan bloklardan montaj qilish mumkin. Shuningdek, mix bilan biriktirilgan yog'och fermali ko'priklar ham qo'llaniladi (2.3.- g rasm). Yog'och fermalar tayyorlashda qulay, lekin ularning umrboqiyligi kam, shuning uchun ular asosan xizmat muddati cheklangan ko'priklar uchun maqsadga muvofiqdir. Yog'och fermalar ham zavodlarda tayyorlangan blok-lardan yig'ma bo'lishi mumkin. 50-60m atrofidagi oraliqlarmi yopish uchun faqat arkali kamar bilan kuchaytirilgan panjaralari fermalardan iborat aralash tizim qo'llamilishi mumkin. (2.3.- d rasm) Biroq bunday konstruksiya murakkab va qo'poldir.




2.3.- rasm. Yog'och ko'priklarning asosiy konstruktiv tizimlari

2.3 . Tosh va betonli ko‘priklar

Tabbiy va sun’iy tosh (g‘isht, beton tosh-bloklar)dan yoki betondan qurilgan ko‘priklar toshko‘prik deyiladi. Toshko‘priklarning asosiy yuk ko‘taruvchi elementi qubba hisoblanadi (2.4.- rasm). Qubba o‘qining tasviri parabola, ellips, shuningdek, qubba o‘qi hisobdagi yuklanishlar bosimi egri chizig‘iga iloji boricha yaqin bo‘ladigan shartga yaxshiroq javob beruvchi, boshqa yanada murakkab egri chiziqlar bo‘yicha qabul qilinadi.

Qubbadagi kuchlanishlarga qubbani ko‘tarish o‘qining qiymati f katta ta’sir ko‘rsatadi. f ning qubba ko‘tarilishi deb ataluvchi qubba oraliq‘iga nisbati f/ℓ qancha katta bo‘lsa, qubbaning tirkagi shuncha kichik bo‘ladi $f/\ell = 1/4 \div 1/7$.



2.4.- rasm. Toshko‘priklar qubbasi

Toshko‘priklar boshqa materiallardan qurilgan ko‘priklarga qarangunda quyidagi asosiy afzalliliklarga ega:

- xizmat ko‘rsatish muddatining kattaligi;
- toshko‘priklarning vazndorligi tufayli ularga dinamik ta’sir ko‘rnatuvchi vaqtincha yuklanishlarning kam ta’sir etishi;
- tashqi ko‘rinishi va me’moriy imkoniyatlarining kengligi;

Asosiy kamchiligi – murakkabligi va qurishda sermehnatligi, asosda mustahkam grunt bo‘lishi zarurligi.

Beton ko‘priklar toshko‘priklarning boshqa bir turi bo‘lib, ularning qubbasi yaxlit quyma temirbetondan qurilgan, bu esa ishiarni mexanizatsiyalashga imkon beradi. Betonning kirishish va elastiklik moduli E ning hamda chiziqli kengayish koefitsientining qiymati katta ekanligi, ularda qo‘shimcha kuchlanishlarni hosil bo‘lishga olib keladi.

Toshko‘priklarni tabiiy toshga boy bo‘lgan va mustahkam gruntlarga ega hududlarda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

2.4.TEMIRBETON KO‘PRIKLAR

2.4.1. Materiallar va ularning tavsiflari

Temirbeton birgalikda ishlaydigan beton va po‘latdan tashkil topgan materialdan iborat. Beton siqilishiga qanchalik yaxshi ishlasa, cho‘zilishga shuncha yomon ishiaydi, shuning uchun po‘lat armaturani betonda cho‘zuvchil kuchlar hosil bo‘luvchi zonaga joylashtiriladi.

Beton bilan po‘lat armatura o‘rtasidagi tarmashuv yaxshi bo‘lgani, shuningdek, ularning harorat ta’siridagi kengayishlari deyarli bir xil bo‘lgani tufayli plita, to‘sin, ustun, arka ko‘rinishdagi temirbeton elementlar qurilish konstruksiyalarida yaxshi ishlaydi. Bundan tashqari, po‘lat armatura beton ichida zanglamaydi. Zamonaviy temirbeton ko‘priklarda armaturalashning ikki turi qo‘llaniladi. Beton jismiga sterjenlar bior boshiang‘ich kuchlanishlar bermasdan o‘rnatalishi mumkin. Bunday armaturali temirbeton esa armaturasi zo‘riqtirilmagan temirbeton yoki oddiy temirbeton deyiladi. Armatura dastlabki cho‘zilishga duchor qilinishi mumkin. Bu holda beton zo‘riqvchi armatura kuchlanishlari bilan siqiladi. Bunday armatura-zo‘riqtiruvchi, shunday armaturali temirbeton esa oldindan zo‘riqtirilgan temirbeton deyiladi.

Beton. Temirbeton ko‘priklarda portlandsement, sulfat bardoshli portlandsement, glinozem sement (tuproq tarkibida alyumin oksidi) va h.lar qo‘shilgan beton ishlatiladi. Portlandsement eng muhim inshotlarda, sulfatbardoshli portlandsement va glinozemli sement-dengiz.

nunnerallangan suv yoki boshqa tajovuzkor ta'sirlar ostida bo'ladigan konstruksiyalarda qo'llaniladi. Sementning sifati uning markasi yoki faolligi bilan belgilanadi. Sementning markasi bu sement qorishmasi namunasining 28 sutkalikda siqilishga bo'lgan mustahkamlik chegarasidir. Ko'priklarda odatda mustahkamligi 30dan 60MPa gacha bo'lgan sementlar qo'llaniladi.

Ko'pri konstruksiyalari uchun betonni mustahkamligi, sovuqqa bar-doshliligi, ayrim hollarda esa suvgaga chidamliligi va suv o'tkazmasligining tanlab etiladigan shartlariga bog'liq holda tanlab olinadi. Bunda inshootning o'chovlari, mustahkamligi va ahamiyati hisobga olinishi kerak.

Ko'pri konstruksiyalarida siqilishga mustahkamligi bo'yicha B15; B20; B22,5; B25; B30; B35; B40; B45; B50; B55; B60 sinflari betonlar qo'llaniladi. Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalarida qo'llaniladigan armatura turiga bog'liq holda, siqilishga mustahkamlik sinfi V25- V35 dan past bo'lмаган beton qo'llaniladi. Betonning oldindan zo'riqtirilgan armatura bilan siqilish paytidagi mustahkamligi konstruksiya uchun qabul qilingan beton markasidan qat'i nazar 30MPa dan kam bo'lmasligi kerak.

Betonning sovuqqa chidamlilik bo'yicha loyihaviy markasi nav-binti bilan muzlatish-eritish siklining soni bo'lib, ulardan so'ng uning siqilishga mustahkamligi ko'pi bilan 10-15% ga kamayishi mumkin. Temirbeton ko'priklarning konstruksiyalari uchun sovuqqa chidamlilik bo'yicha betonning A-I, A-II, A-III, A-IV markalari, juda og'ir sharoitlarda esa A-V va A-VI markalari ishlataladi. Sovuqqa chidamlilik bo'yicha betonning loyihaviy markasi konstruksiyaning ko'rib chiqilayotgan qismini barpo qilish va joylashish hududida: suvosti sathi o'zgaruvchi joylarda suvosti, doimiy muzlik hududida va h.da eng sovuq oydagisi havonning o'rtacha oylik haroratiga bog'liq ravishda belgilanadi.

Suv o'tkazmaslik bo'yicha betonning loyihadagi markasi maxsus rejim bo'yicha sinalgan, 28 sutkalik namuna orqali suvning sizib kiriishi kuzatilmaydigan suv bosimiga (kgs/sm^2) mos keladi. Bu marka suvosti va yerosti qismlarida W4 dan past bo'lmasligi va suv o'tkazadigan quvurlarda, transport qatnaydigan qismining yo'l ustki qatlamaida va boshqa elementlarda W6 dan past bo'lmasligi kerak.

Ko'priklarning konstruksiyalari qum va shag'al yoki tabiiy jinsli chaqiq toshdan iborat to'ldirgichli o'rtacha zichlikdagi (kg/m^3) D 2300 markali og'ir, zichlashtirilgan betondan barpo etiladi. Odadta, temirbetonning o'rtacha zichligi $2450 \text{ kg}/\text{m}^3$ atrofida bo'ladi. Maxsus me'yorlarga ko'ra keramzit yoki boshqa materiallardan iborat to'ldirgichli yyengil betonni qo'llashga ham ruxsat etiladi; bunday betonlarning g'ovakli to'ldirgichli betonlarning o'rtacha zichligi taxminan $1800 \text{ kg}/\text{m}^3$ ni tashkil etadi.

Betonning sinflari va markalari

Temirbeton konstruksiyalarning vazifasi va foydalanimish sharotlariga bog'liq holda betonning sifat ko'rsatkichlari belgilanadi, ularning asosiyлари quyidagilar hisoblanadi:

- siqilishga mustahkamlik sinfi V; loyihada asosiy tavsif sifatida barcha hollarda ko'rsatiladi;
- o'q bo'yicha cho'zilishga mustahkamlik sinfi V; bu tavsif asosiy ahamiyatga ega bo'lganda va ishlab chiqarishni nazorat qilinayotgan hollarda belgilanadi;
- sovuqqa chidamlilik bo'yicha marka F; namlangan holatda muzlash va erishning almashinishi ta'sirida bo'ladigan konstruksiyalar uchun belgilanadi;
- suv o'tkazmaslik bo'yicha marka W; suv o'tkazmaslik bo'yicha cheklangan talablar qo'yiladigan konstruksiyalar uchun belgilanadi;
- o'rtacha zichlik bo'yicha marka D; mustahkamlikka qo'yiladigan talablardan tashqari issiqlik izolyatsiyali talablari ham qo'yiladigan va ishlab chiqarishda nazorat qilinadigan konstruksiyalar uchun belgilanadi.

Betonning o'q bo'yicha siqilishga ho'lgan mustahkamligi bo'yicha sinfi V (MPa) deb statik o'zgaruvchanligini hisohga olgan holat $20\pm 1^\circ\text{C}$ haroratida standartga muvofiq, qirrasi 150 mm o'lchamli beton kublarning 28 sutka saqlangandan so'ng sinalgandagi siqilishga vaqtincha qarshiligiga aytildi.

Betonning kerakli sinfini beton qorishmasi tarkibini tegishlicha tanlab olib, keyin nazorat namunalarini sinash orqali aniqlanadi. Uning

mustahkamligi va zichligiga sementning miqdori va faolligi, shuningdek, (W/S) deb ataluvchi suv massasining sement massasiga nisbati eng ko'p ta'sir qiladi. Qo'llanilayotgan sementning faolligi odatda betonning siqilishga bo'lgan loyihaviy markasidan 1,3-1,8 marta katta bo'ladidi. 1m³ betonga sement sarfi kamida 250kg, suvgaga tegib turadigan konstruksiyalarda esa 270 kg dan kam bo'lmasligi kerak. Sementning ortiqchasi miqdori tob tashlash va kirishishda katta deformatsiyalarini vujudga keltirib, betonga zararli ta'sir ko'rsatish va darzlar hosil bo'lishiga sababchi bo'lishi mumkin. W/S ning kattalashishi betonning mustahkamligini kamaytiradi, shuning uchun uni aralashtirishda suv miqdori kam bo'lganda qorishma qattiq bo'lib chiqadi va umi joylashtirish hamda zichlashtirish qiyinlashadi. Ko'priklar uchun odatda suv sement nisbati 0,6-0,65 dan ortiq bo'lmanan beton qorishmalari qo'llaniladi. Beton qorishmasi uzoq vibratsiya bilan zichlashtirilganda W/S=0,3 bo'lgan bikr qorishmalar qo'llanilishi mumkin. Beton qorishmasining plastikligini (harakatchanligini), uni quyishda oshirish uchun unga maxsus qo'shimchasi plastifikatorlar qo'shiladi.

Beton elastiklikning oddiy qonunlariga bo'y sunmaydigan material hisoblanadi. Jumladan, betonning elastiklik moduli kuchianishlar ortishi bilan o'zgaradi (kamayadi). Siqilishga va cho'zilishga bo'lgan elastiklik modullari har xildir. Elastiklik modulining kattaligi betonning sinfiga bog'liq. Vaqt o'tishi bilan betonning mustahkamligi oshgani uchun elastiklik moduli ham o'zgaradi. Temirbeton konstruksiyalarni loyihalashda betonning haqiqiy elastiklik xossalalarini aniq hisobga olib bo'lmaydi va hisoblab chiqish uchun elastiklik moduli E_y ning siqilishiga ko'ra o'rtacha shartli qiymatlari qabul qilinadi:

Betonning siqilishga bo'lgan mustahkamlik, sinfi	B15	B20	B25	B30	B35	B40	B45	B50	B55	B60
E _y , MPa	23000	27000	30000	32500	34500	36000	37500	39000	39500	40000

Betonning ayrim o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab o'tish zarur:

- beton va armaturaning chiziqli kengayish koeffisienti bir xil bo'lib, 0,00001 1/grad ga teng hisoblanadi.

- beton qotayotganda hajmi o'zgaradi, havoda hajmi kamayadi – betonning kirishishi yuz beradi, suvda esa u shishadi. Betonda sement miqdori va W/C kattaligi qancha ko'p bo'lsa, betonning kirishishi shuncha ko'p bo'ladi. Tez qotuvchi va o'ta mustahkam sementlarning qo'llanilishi kirishishini orttiradi. Qotayotgan betonni namlash uning sirti qurishini sekinlashtirishi tufayli kirishishini kamaytiradi. Beton qota boshlashi paytdan boshlab bir yil mobaymda uning kirishishi darajasi yuqori bo'lib, keyinchalik esa sekinlashadi. Kirishish erkin rivojlanib borganda nisbiy kirishishning kattaligi 0,0003/0,0004 ni tashkil etishi mumkin. Armatura beton kirishishining rivojlanishini to'xtatib turadi, bunda armaturada siquvchi kuchianishlar, betonda esa cho'zuvchi kuchlanishlar vujudga keladi. Bu kuchlamishlar betonda kirishish deb ataluvchi darzlarni hosil qilishi mumkin;

- betonga uzoq vaqt ta'sir qiluvchi yuklanishlar ta'sirida tob tashlash deformatsiyalari deb nomlanuvchi elastik bo'lma-gan deformatsiyalarga ega bo'lishi mumkin. Yuklanish qancha uzoq vaqt ta'sir qilsa, betonda tob tashlash deformatsiyasi shun-chaga bo'ladi. Tob tashlash yosh betonda eski betonga qaraganda kuchliroq namoyon bo'ladi. Tob tashlash deformatsiyasi beton uzoq vaqt ta'sir qiluvchi yuklanish bilan yuklangan paytdan bir-ikki yil mobaynida jadal sur'atda oshib boradi. Keyinchalik tob tashlash deformatsiyasi sekinlashadi. Beton tob tashlashning to'liq nisbiy deformatsiyasi uch-to'rt yildan so'ng shartli che-garaviy kattaligiga erishish mumkin. Betonning mustahkamligi oshishi, undagi sement miqdorining va suv/segment nisbatining kamayishi bilan betondagi tob tashlash kamayadi. Tob tashlash deformatsiyasi konstruksiyaning egilishini sezilarli darajada os-hirishi mumkin.

Armatura. Temirbeton ko'priklarda armaturalarning quyidagi turlari qo'llaniladi:

- diametri 6 dan 40mm gacha bo'lgan, VS_T3 SP2, VS_T 3 nc2 va VST3GPS2 markalaridagi yoki diametri 6-10 mm bo'lgan, S_T3S_p3, C_T3pc3, S_T3_{Kp}3, VS_T3kp2 markalaridagi A1 sinfidagi issiq yumalayotgan tekis doirasimon kesimli sterjenlar. Diametri 6-40mm, markasi 25G2S va 35GS bo'lgan, AIII sinfidagi, 10-22mm diametrlı, 20XG 2S va 80S markali AIV sinfidagi va diametri 10-22mm, 23X2G2T markali AV sinfidagi issiq yumalatilgan davriy profilli sterjenlar;

- diametri 10-25mm, A_T-IV, AT-V va AT-VI sinfidagi davriy profilli (kesimli) termik mustahkamlangan sterjenlar;

- diametri 3-8mm, A_T-II sinfidagi davriy kesimli sovuq tortilgan yuqori mustahkamlikdagi sim;

- diametri 9-15mm, K-7 sinfidagi (etti simli o'ramlar) yuqori mustahkamlikka ega simdan tayyorlangan armatura arqonlari;

- spiralsimon, qo'sh o'raklı yoki berk sim arqonlar.

Issiq yumalatilgan doirasimon kesimli sterjenlar uglerodli marten va kislorod-konvertor po'latidan tayyorlanadi.

Davriy profilli issiq yumalatilgan sterjenlar beton bilan tarmashuvvi orttiruvchi maxsus chiqiqlarga ega. Beton bilan yaxshi tarmashuv armaturada o'rab turgan betonning katta cho'zuvchi kuchlanishlarga yo'l qo'yish imkonini beradi. Shuning uchun davriy profilli armatura mustahkamligi yuqoriroq bo'lgan uglerodli po'latdan tayyorlanadi. Diametri 12mm dan ortiq sterjenlarning uzunligi 6-12m ni (18m gacha) tashkil etadi. Diametri 12mm dan kamroq armatura o'ramlarda keltiriladi.

Sovuq tortilgan sim yuqori mustahkamlik chegarasiga ega bo'ladi (1600-1900 MPa gacha), bunda simning diametri qanchalik kichik bo'lsa, uning mustahkamligi shunchalik yuqori bo'ladi.

A-I dan A-IV sinfigacha bo'lgan sterjenlar armaturani oldindan zo'riqtirilnagan armaturani konstruksiyalarda qo'llaniladi. A-IV, A_T-IV dan to A_T-VI gacha sinfdagi sterjenlar, yuqori mustahkamlikka ega simlar, o'ramlar va simarqonlar oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalarda qo'llaniladi.

2.4.2. Temirbeton ko‘priklarning afzalliklari

Temirbeton ko‘priklar – to‘g‘ri loyihalashtirilganda va qurilish ishlari sifatli bajarilganda atmosfera ta’sirlariga yuqori darajada chidamlikka ega va po‘lat ko‘priklar kabi davriy bo‘yab turishni talab etmaydigan kapital inshootdir. Temirbeton ko‘priklarni ishlatishga bo‘lgan sarflar po‘lat ko‘priklarga nisbatan kam. Temirbeton ko‘priklarning alohida afzalligi po‘lat ko‘priklarga qaraganda ancha kam miqdorda metall sarflanishidir.

Temirbeton ko‘priklarning tizimlari va konstruksiyalari juda xilma-xildir. Ularning asosiyлари to‘sинli, romli, arkli, aralash konstruksiyalar hisoblanadi. To‘sинli ko‘priklarga oddiy, qirqimsiz va konsolli to‘sинli ko‘priklar kiradi. Romli ko‘priklar romli-qirqimsiz, romli-konsolli, romli-osmali tizimda bo‘lishi mumkin. Temirbeton ochiq ferma konstruksiyalarida, shuningdek, osma va vantli ko‘priklarda qo‘llaniлади.

Temirbeton va ayniqsa oldindan zo‘riqtirilgan temirbeton ko‘prik konstruksiyalarining va ularni qurish usullarining rivojlanishi avtomobil yo‘llari va shahar ko‘priklarida po‘lat konstruksiyalar bilan teng ravishda (400m dan kattaroq oraliqlardan tashqari) qoplash imkonini berdi.


Shuni nazarda tutish zarurki, temirbeton ko‘priklarning qiymati va ularni barpo etish muddatlari zavodda tayyorlanganda, yanada to‘liqroq unifikatsiyalanganda va montaj qilish usullari takomillashtirilganda ancha kamayadi.

2.4.3. Temirbeton ko‘priklarning asosiy tizimlari.

Temirbeton ko‘priklarning konstruksiyalari ma’lum darajada inshootning tanlangan tizimiga bog‘liq bo‘ladi. To‘sинli qirqimsiz, qirqimli va konsolli ko‘priklar tizimi eng ko‘p tarqalgan hisoblanadi. Plitali oraliq inshootli oddiy to‘sинli ko‘priklarning oraliqlari odatda 3-18m bo‘ladi.

To'sinli qirqimli tizimlardan (2.5.- a rasm) 6-8m dan to 30-40m gacha oraliqlarni qoplashda foydalaniлади. To'sinlarning uchlari sharnirli qo'zg' almas va sharnirli-qo'zg' aluvchi tayanch qismlarga tayanaди, buning natijasida vertikal yuklanishlarda to'sin tayanchlarga faqat vertikal reaksiyalarni uzatadi. To'sinli qirqimli ko'priklarga eguvchi momentlarning bir qiymatli epyurasi xosdir. To'sinli qirqimsiz ko'pri tayanchlari asosidagi grunt yetarlicha mustahkam bo'lganda oraliqlari 30-40m dan 100-150m gacha bo'lganda qo'llaniladi. (2.5.-b rasm). Qirqimsiz to'sinlarning tayanchlari asosan vertikal kuchlanishlarni qabul qiladi, to'sindagi momentlar epyurasi esa oraliq tayanchlar ustidagi manfiy uchastkalar bilan ikki ishorali bo'ladi. Qirqimsiz to'sinlarda tayanchlarning cho'kishi qo'shimcha kuchlanishlar paydo qilish mumkin.

Konsolli tizimlarda (2.5.- g rasm) statik aniqlik tufayli tayanchlarning cho'kishi qo'shimcha kuchlanishlarni paydo qilmaydi. Konsol to'sinli inshootlarda osma oraliqli inshootlar ℓ_1 oraliq bilan asosiy oraliqli inshootlarning ℓ_2 konsollariga tayanadi.



2.5.- rasm. Temirbeton ko'priklarning to'sinli (a, b, g) va romli (v, d) tizimlari hamda eguvchi momentlarning epyuralari

Kuchlanishlarning taqsimlanishiga ko'ra konsolli tizimlar qirqimsiz tizimlarga yaqin bo'ladi, biroq bikrligi kamroq bo'lib, yuklanish ostida osma oraliqli inshootlarning konsollar bilan tutashgan joyidagi egilish chizig'ida uzilish (sinish)ni beradi.

Romli tizimlar (2.5.-v rasm) $\ell=30\div60m$ bo'lganda maqsadga muvofiqdir. Ular shu bilan tavsiflanadiki, bunda romlarning ustunlarida eguvchi momentlar vujudga keladi, tayanchlarga esa ham vertikal, ham gorizontal kuchlanishlar uzatiladi. Romli ustunlari egilishga ishlab, rigel yukini yyengillashtiradi. Ustunlari og'ma bo'lgan romli ko'priklar keng tarqalgan (2.5.-d rasm).

Romli to'sinli tizimlar (2.6.- a rasm) romlarning konsollarga sharnirli tayangan, T-simon romlar va osma oraliqli inshootlarning qo'shilishidan iborat. Bunday tizimlarning oraliqlari 40-60m dan 80-150m gacha chegaralarda bo'lishl mumkin. Vertikal yuk ta'sirida rom tayanchlari asosga vertikal kuchni va eguvchi momentni uzatadi; gorizontal tayanch reaksiyasi esa, odatda kichik. Romlarning rigellarda faqat manfiy eguvchi momentlar vujudga keladi, osma qirqimli oraliqli inshootlarda faqat musbat momentlar paydo bo'ladi. Romli tizimning boshqa turi bir-biri bilan sharnirli biriktirilgan T-simon romlardan iborat konstruksiya hisoblanadi (2.6.- b rasm). Bunday romlar 60m dan 120-160m gacha oraliqlar uchun qo'llaniladi. Oldingi tizimdan farqli ravishda tayanchlar asosga gorizontal kuchni ham uzatadi. Keyingi vaqtarda romlarning uchlarini sharnirsiz yaxlit quyma betondan qilish boshlandi.


Tayanchlar asosi mustahkam gruntu dan iborat bo'lganda, ko'pincha arkli tizimlar maqsadga muvofiqdir (2.7.- a rasm). Temirbeton ko'priklar arkli 50-60m dan to 200-300m li oraliqlarni yopish mumkin, ammo arklarning og'ma tayanch bosimlarini qabul qiluvchi va ularni gruntu uzatuvchi poydevorlarning rivojlantirilishini talab etadi. Arklar asosan siqilishiga ishlaydi. Arkaning ust qismi qurilmasi qurilish transport qatnaydigan qism to'sinlari va siqilgan ustunlardan iborat.

Bir qator qurilgan ko'priklarda konsolli-arkli tizim qo'llanilgan bo'lib, uning har bir / oralig'i transport qatnaydigan qism sathida joylashgan yuqori tortqich bilan bog'langan ikki yarim arkdan iborat


(2.7.- b rasm). Buning natijasida tayanchlarga ko'p jihatdan vertikal kuchlanishlar uzatiladi, tayanch reaksiyalarining gorizontal tashkil etuvchilari kamayadi. Bunday tizimlarning oraliqlari $90 \div 120$ m ni tashkil etadi.

Vantli tizimlar tayanchlarning vertikal pilonlari uchiga mahkamlangan og'ma vantlar bilan tutib turiluvchi qirqimsiz to'sinlardan iborat (2.7.- v rasm). Vantlar to'sin uchun qo'shimcha tayanchlar yaratadi, bu uning ishini yyengillashtiradi; ular faqat cho'zuvchi kuchlanishlarni qabul qiladi. Pilonlar asosan markaziy siqillshga ishlaydi. Bunday tizimning oraliqlari 50-80m dan to 150-300m gacha bo'llishi mumkin.

Ayrim hollarda temirbeton ko'priklarning boshqa tizimlari ham qo'llanilishi mumkin.



2.6.- rasm. Romli-to'sinli (a) va romli-konsolli (b) ko'priklar tizimi va eguvchi momentlarning epyuralari




2.7.- rasm. Temirbeton ko‘priklarning arkali (a va b) va vantli (v) tizimlari

2.4.4. To‘sinli ko‘priklar. Plitali ko‘priklar

Uncha katta bo‘limgan oraliqlarni qoplash uchun qo‘llaniladigan to‘sinli ko‘priklarning eng oddiy turi plitali oraliqli inshooti bo‘lgan ko‘priklar hisoblanadi. O‘zining statik sxemasiga ko‘ra ular qirqimli, qirqimsiz va konsolli bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha armaturasi zo‘riqtirilmaydigan yoki zo‘riqtiriladigan qirqimli plitali oraliqli inshootlar qo‘llaniladi.

Armaturasi zo‘riqtirilmaydigan plitali oraliqli inshootlarning balandligini oraliqning $1/12 - 1/25$ atrofida belgilanadi, armaturasi zo‘riqtiriladigan esa oraliqning $- 1/18 - 1/25$ atrofda belgilanadi. Oraliqli inshootlar yaxlit quyma yokl yig‘ma bo‘lishi mumkin. (2.8.- a, b, v rasm).

Yaxlit quyma betonli plitalar silliq armatura, davriy profilli sterjenerlar yoki payvand to‘rlari bilan armaturalanadi (2.8.- a rasm). Bo‘ylama ishchi armaturaning bir qismini oraliqning butun uzunligiga o’tkaziladi, ikkinchisini bosh cho‘zuvchi kuchlanishlarmi qabul qilish uchun tayanchlar oldida bukiladi. Ko‘ndalang yo‘nalishda diametri uncha katta bo‘limgan taqsimlash armaturasi o‘rnatiladi.



2.8.- rasm. Plitali ko'priklaring asosiy turlari

a- yaxlit quyma, b- v- yig'ma va h.k., 1- yaxlit quyma plita; 2- asosning yig'ma devori; 3- ko'ndalang kuchlantiriladigan armatura; 4- tirkak; 5- oraliq inshootning yig'ma bloki (armoelementi); 6- monolitlanadigan beton; 7- yig'ma bloklarni va qirqimsiz to'sinni birlashtiruvchi tayanchning monolit rigel tayanchi.


Plitali oraliqli inshootlarning ko'ndalang kesimlarini to'g'ri to'rtburchakli (tekis, yassi) qilinadi yoki ularning yuqori sirtiga tro-tuarlarga tomon ikki nishabli qiyaliklar qilinadi. Birinchi holda plitada suv oqib ketiladigan uchburchak qurilib, unga gidroizolyatsiya yotqiziladi; ikkinchi holda – gidroizolyatsiya ostiga yupqa tekislov-chi sinfi V 15 dan kam bo'lмаган qalinligi 4 sm qorishma qatlami va uning ustidan 5-6sm qalinlikda asfalt-betonli qoplama yotqiziladi.

Trotuar konsollarining oraliqli inshoot bilan birga egilishga ishlash-hida qo'shimcha kuchlanishiar vujudga kelmasligi uchun ular odatda oraliq inshooti plitasining yuqorisigacha yetadigan bir necha ko'ndalang choklar bilan qirqiladi.

Yaxlit quyma betonli plitali ko'priklarning tayanch va chekka tir-gaklarni ham monolit betondan harpo qilinadi (*2.8.- a rasm*).

Yig'ma plitali oraliq inshootlar bir-biriga parallel yotqizilgan va birgalikda ishlashini ta'minlash uchun ko'ndalang yo'nalishda birlash-tirilgan bloklar qatoridan iborat. Uncha katta bo'lмаган bir bir oraliqli yig'ma ko'priklarda oraliqli inshoot asosga ta'sir ko'rsatuvchi, grunting gorizontal bosimini qabul qiluvchi tirkak bo'lib xizmat qiluvchi konstruksiyalarni qo'llash foydalidir (*2.8.- b rasm*). Asoslarning pastki qismida ko'pincha tirkaklar o'rnatiladi. Bunda asoslarning ishi ancha yyengillashadi va ular yupqa devorlar ko'rinishida bajarilishi mumkin.

Yig'ma ko'priklarning oraliq inshootlari bloklarning kengligi 0,5 – 1,5m qilib belgilanadi. Ularning ko'ndalang kesimi yaxlit yoki bo'shliqli qilib ishlanadi. Ko'pincha davriy profilli alohida yuqori mustahkamlikka ega sterjenlardan iborat to'g'ri chiziqli zo'riqtirilgan armaturali bo'shliqli bloklar qo'llaniladi. Armaturada xech qanday ankerli mahkamlagichlar o'rnatilmaydi va zo'riqtirishning barcha kuchlamishlar tarmashish kuchlari hisobiga betonga uzatiladi. Oraliqlar 6-9m bo'lгanda oraliqli inshootlar bloklarini silindrik bo'shliqli qilinadi (*2.9.- b rasm*), oraliqlar 12-18m bo'lгanda esa oval bo'shliqli qilinadi (*2.9.- g rasm*).



2.9.- rasm. Plitali oraliqli inshootlarning ko'ndalang kesimlari

a- yig'ma bloklarni monolit qilish uchun bo'shlqlar; b- armatura to'ri;
 v- monolit betoni; g- sim tor taxtalar; d- diafragmalarda ko'ndalang zo'rqtiriladigan armatura; 1- monolitlash uchun maxsus bo'shlqlar; 2- beton qorishmasi qatlami; 3- konstruksiyani bitta butunga birlashtiruvchi; 4- element; 5- yig'ma yuk ko'taruvchi plitalar;

5- ko'ndalang armaturalar.

Yettita simli o'ramdan yoki davriy profilli 5mm diametrli qo'shilgan simlardan tayyorlanagan zo'riqtirilgan armaturali oraliqlari 6, 9, 12, 15 va 18m bo'lgan plitali ko'priklar uchun yig'ma elementlarning bir xil shaklga keltirilgan konstruksiyalari keng qo'llaniladi (*2.9.-g. rasm*) elementlarning eni – 1m. Plitali ko'priklar qatoriga tayanchlari birikib yaxlit plitalarni tashkil etuvchi oldindan zo'riqtirilgan ikki tavrli elementlardan tashkil topgan konstruksiyalarni ham kiritish mumkin (*2.9.-d rasm*).

Maxsus pazuxlari bo'lgan orasidagi bo'ylama choklarni monolit-lash orqali, (*2.9.-b, g rasm*), yoki diafragmalarda ko'ndalang armaturalarni tortish bilan yig'ma bloklar yaxlit oraliqli inshootga birlashtiriladi.

Ayrim hollarda oraliqli inshootlarning yig'ma-monolit konstruksiyalari qo'llaniladi (*2.9.-v rasm*), ularda yig'ma oldindan zo'riqtirilgan element (armoelement) bilan birga konstruksiyani bitta butunga birlashtiruvchi beton qorishmasi qatlami joyida yotqiziladi.

Ayrim hollarda to'sinli bloklandigan yig'ma bloklar (armoelementlar) qo'llaniladi, joyida yotqizilagan beton bilan esa ularni faqat ko'ndalang yo'nalishda, birlashtiribgina qolmay, balki yagona qirqimsiz konstruksiyani yaratiladi (*2.8.-g rasm*). Yo'lko'priklar uchun maqsadga muvofiq bo'lgan bunday inshootlar ingichka ustunli tayanchlarga suyanishi mumkin. Plitali ko'priklarning tayanchlari sisfatida ko'pincha yig'ma yoki monolit rostverk bo'lgan temirbeton qoziqyoqlar qo'llaniladi (*2.8.-v rasm*).

2.4.5. Qovurg'ali oraliq inshootli ko'priklar


6-8m dan ortiq oraliqlarni zo'riqtirilmagan armaturali konstruksiyalar bilan va 15-18m dan ortiq oraliqlarni zo'riqtirilgan armaturali konstruksiyalar bilan yopish (qoplash) uchun qovurg'ali to'sinli oraliq inshootlari qo'llaniladi. Ular oraliqni qoplab turuvchi bosh to'sinlar (qovurg'alar)dan va transport qatnaydigan qismning ularni tutib turuvchi plitasidan iborat. Transport qatnaydigan qismning plitasi bir vaqt-

ning o‘zida bosh to‘sirlarning egilishiga ishlab, siqiq hudud bo‘lib xizmat qiladi. O‘zining statik sxemasiga ko‘ra qovurg‘ali to‘sinli oraliq inshootlar qirqimli, qirqimsiz va konsolli bo‘lishi mumkin.

Yaxlit quyma qirqimli qovurg‘ali oraliq inshootlarida (2.10.- a rasm) bosh to‘sirlar orasidagi masofa 2-3m ni tashkil etadi (2.10.- v rasm). Bosh to‘sirlar bir-biri bilan odatda o‘zaro $a=4\div6m$ masofada joylashadigan ko‘ndalang to‘sirlar (diafragmalar) bilan bog‘lanadi (2.10.- a rasm). Ba’zida bosh to‘sirlar orasiga plitaning oralig‘ini kamaytiruvchi ikkinchi darajali bo‘ylama to‘sirlar o‘rnataladi (2.10.- e rasm). Bu holda bosh to‘sirlar orasidagi masofa 4-6m gacha bo‘lishi mumkin.

Yig‘ma oraliq inshootlari konstruksiyalarini tayyorlash, tashish va montaj sharoitlarini hisobga olgan holda tayinlanadigan va ularni tashkil etuvchi binolar bilan belgilanadi. Avtomobil yo‘llari ko‘priklarida oraliq inshootlarini bloklarga ajratishning turli xil usullari va bu bloklarning turli xil kesimlari qo‘llaniladi.

Yarim diafragmali tavrsimon kesimli bloklardan (to‘sirlardan) iborat oraliqli qurilmalar ko‘priklarda ancha keng tarqalgan (2.10.- v rasm). Bloklar armaturali chiqiqlar yoki metall quyilma detallarni payvandlash yo‘li bilan, yarimdiafragmalarni uchma-uch tutashtirib birlashtiriladi. Qo‘shmi bioklar plitasi odatda uchma-uch tutashtirilmaydi, shuning uchun u konsol tarzida ko‘ndalang yo‘nalishda ishlaydi. Oraliqli qurilmalar P-simon kesimga ega to‘sirlardan tashkil etilishi mumkin (2.10.- g rasm). To‘sirlar orasidagi choclar beton yoki qorishma bilan to‘ldiriladi. Bunday bloklarning eng yaxshi birikmasi ko‘ndalang armatura chiqiqlarini yoki to‘sirlarda qo‘yilgan po‘lat quyilma qismlarini payvandlash bilan, yoki yuqori mustahkamlikka ega boltlар bilan tortib erishiladi. Oraliqli qurilmalarning yig‘ma-yaxlit quyma konstruksiyalari ham qo‘llaniladi (2.10.- d rasm). Ularda yig‘ma to‘sirlar bir-birlari bilan joyida betonlanadigan qatnov qismi plitasi diafragmalar bilan biriktiriladi. Bir-biri bilan o‘tish qismining plitasi bo‘yicha uchma-uch tutashtiriladigan tavrli (2.10.- j rasm) yoki qo‘sh tavrli to‘sirlardan iborat diafragmasiz oraliqli qurilmalar ancha keng qo‘llanilmoqda.



2.10.- rasm. To'sinli qovurg'ali ko'priklarning asosiy turlari

1- yig'ma to'sinlar; 2- o'tish yo'li qismining monolit plitasi;

3- birgalikda ishlovchi monolit plita bilan birlashtiriladigan yig'ma to'sinlar.

4- yig'ma diafragma; 5- o'tish yo'lidagi yig'ma plita; 6- osma oraliqli qurilmalarning konsollarga sharnirligi tiralishlari; 7- posangi.

a, b, v, ..., H, n belgilari matn bo'yicha izohlangan

Bu yerda diafragmalar yo bo'lmaydi, yoki ular yig'ma qilinib, faqat oraliq qurilma uchlariga quriladi. Ayrim hollarda V-simon to'sinlardan iborat oraliqli qurilmalar uchraydi, ularga o'tish yo'llarining yig'ma plitalari yotqiziladi (2.10.- z rasm).

Zamonaviy transport va ko'taruvchi vositalar uzunligi 33m gacha bo'lgan yaxlit oraliqli to'sinli bloklarning qo'llanilishiga imkon beradi. Oraliqlar katta bo'lganda har bir to'sinning massasi ancha katta bo'ladi va ularni yetkazib berisli qiyinlashadi. Bunday hollarda to'sinlar obyekt yaqinidagi poligonlarda tayyorlanadi yoki uzunligi bo'yicha ajratilgan to'sinlar konstruksiyalari qo'llaniladi. Bunday ajratilgan (bloklangan) to'sinlarni tashish uncha qiyinchilik tug'dirmaydigan alohida bloklardan barpo etib qurilish joyida yig'iladi.

Yaxlit quyma betonli qirqimli oraliq qurilmalarning bosh to'sinlari $1/8 \div 1/12$ oraliq balandligiga, yig'ma oraliqli qurilmalar to'sinlari esa $1/12 \div 1/20$ va undan kam balandlikka ega.

Oraliq kattalashishi bilan bosh to'sinlarning o'lchamlari ham kattalashadi va oraliqlar 30-40m bo'lganda juda katta bo'ladi. Shuning uchun oraliqlar 30m dan kattaroq bo'lganda qirqimsiz yoki konsolli tizimdagи oraliq qurilmalar maqsadga muvofiq. Biroq ayrim hollarda to'sinli qirqimli ko'priklarning oraliqlari 60-70m gacha bo'lishi ham mumkin.

Qirqimsiz to'sinli oraliqli qurilmalar (2.10.- i rasm) oraliq tayanchlari ustidagi salbiy momentlarning yyengillashtiruvchi ta'siri tufayli oraliqlar o'rtaсидаги qiymati bosh to'singa qaraganda kichikroq bo'ladi, bu esa konstruksiyadagi temirbeton hajmini kamaytiradi. Qirqimsiz tizim tayanchlar hajmida ham tejamkorlik beradi, chunki ularning har birida qirqimli tizimdagи ikki tayanch qismi o'rniga faqat bitta tayanch qismi zarur bo'ladi. Bundan tashqari, chekka tayanch qismini o'rtta tayanch o'qi bo'yicha joylashtirish, uning bosimini markaziy uzatilishi ta'minlanadi. Qirqimsiz ko'pri to'sinlarining balandligi oraliq o'rta-sida $h = (1/15 \div 1/25)\ell$ ni, tayanchlar ustida $h_t = (1,5 \div 1,8)h$ ni tashkil etadi. Oraliqlar 50-60m gacha bo'lganda qirqimsiz bosh to'sinlar o'zgarmas balandlikda qilinadi. Oraliqlar 60m dan 100-150m gacha bo'lganda, odatda, egri chiziq shakldagi va ko'ndalang kesimi qirqilmay-

digan oraliq qurilmalari qo'llaniladi (*2.10.- k rasm*). Bunday to'sinlar ning oraliq o'rtasida balandligi $h=(1/30 \div 1/50) \ell$, tayanchlar oldida esa $h_1=(1/12 \div 1/17) \ell$, bo'ladi.

Qirqimsiz oraliq qurilmalari ko'pincha ikki, uch, to'rt va besh oraliqli qilib tayyorlanadi. Qirqimsiz oraliqlarning katta soni juda kani qo'llaniladi, chunki to'sinning katta uzlusiz uzunligida harorat o'zgarishi va betonning kirishishidan tayanchlarda ancha katta siljishlar yuzaga keladi. Ikki oraliqli qirqimsiz to'sinlarning oraliqlari odatda bir xil qilinadi. Oraliqlar soni katta bo'lganda chetki oraliqlarni biroz kichikroq $\ell_1=(0,6/0,8)\ell$ qilish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rta va chetki oraliqlarda eguvchi momentlarni tenglashtiradi.


Yig'ma ko'priklarni qurish texnikasi rivojlanishi va ularni barpo etishning yangi zamонавији usullari jiddiy iqtisodiy va ekspluatatsion afzallikkarga ega bo'lganligi ularni keng qo'llash imkoniyatini yaratib berdi.

To'sin konsol qovurg'ali oraliq qurilmalarda bosh to'sinlar tayanchlar ustida salbiy momentlarni vujudga keltiruvchi konsollar bilan yyengillashtiriladi (*2.10.- l, m rasm*). Konsol to'sinlarining balandligini o'shanday oraliqdagi qirqimsiz to'sinlardagi kabi qabul qilinadi. Konsol ko'priklar oraliqlari odatda 20-30m dan 60-80m gacha qilib, konsol qulochi $\ell_1=(0,2\div 0,3)\ell$, osma oraliq qurilmasi uzunligi $l_2=(0,3\div 0,6)\ell$ qilib olinadi. Uncha katta ho'limgan ko'priklarda va yo'l ko'priklarda bir oraliq ikki konsolli oraliq qurilmalar qo'llaniladi (*2.10.- n rasm*). Ularning konsollari ko'priknинг ustunlar qurishni tabab etmaydigan to'shama bilan oddiy qo'shilishini amalga oshirishga imkon beradi. To'sinning balandligini kamaytirish zarur bo'lganda konsollar uchlaridagi oraliqning o'rtasida to'sin yukini kamaytiruvchi posangilar o'rnatiladi. Odatda yupqa beton bilan yuklangan katta posangilar oraliq o'rtasida to'sinlarning balandligini $h=(1/30\div 1/40)\ell$ gacha kamaytirishga imkon beradi (*2.10.- n rasm*). Ammo tayanchda ularning balandligi $h_1=(2\div 3)h$ gacha bo'lishi mumkin (*2.10.- p rasm*).

To'sinli qovurg'ali temirbeton ko'priklarga materiallar sarfi yetarlicha katta chegaralarda o'zgaradi, chunki ular ko'pgina sabablarga bog'liq bo'ladi (*2.11.- rasm*).

Avtomobil yo'llari ko'priklarida yo'lning harakat qoplamasasi asfalt- beton yoki kamdan-kam hollarda semenbetonli qilinadi. Qalinligi 6-8sin bo'lgan bir vaqtning o'zida gidroizolyatsiya himoya qatlami bo'lib xizmat qiluvchi, asfalt-beton qoplamasasi siqilishga mustahkamligi V15 beton sinfidagi 3-4sm qalnlikdagi mayda donali beton qoplamisi ustiga yotqiziladi. Ayrim hollardagi yuqori mustahkamlidagi beton qatlami va maxsus qo'shimchalar qo'llanganda betonlarda butunlay gidroizolyatsiya qilinmaydi.

Gidroizolyatsiya qatlami oraliq qurilmani unga ko'priq sirtidan namlik singib kirishidan ishonchli himoya qilishi kerak. Gidroizolyatsiyani qorishma yoki betonning tekislovchi qatlami ustiga yotqiziladi. Yo'lning harakat qismi chetlari bo'ylab va deformatsiya choklari atrofidan namlik gidroizolyatsiya ostiga singib kira olmasligi uchun u bukiladi va trotuar yaqinidagi bordyur toshi orqasiga o'tkaziladi (2.12.- a rasm).




2.11.- rasm. Ko'priknинг $1m^2$ sirtiga taxminan sarflanadigan material

1- to'sinli qirqimli oraliq qurilmalarda temirbeton sarfi; 2- shuning o'zi, to'sinli-qirqimsiz va romli oraliqli qurilmalarda; 3- oraliqli qurilmalarda armaturaning yig'indi sarfi.

Trotuar bordyur toshi qo'yilmagan yig'ma bloklardan iborat bo'lisi, u holda gidroizolyatsiya trotuar boshlanadigan joyda yuqoriga qarab bukiladi (2.12.- b rasm). Suvni trotuar bloklari qovurg'alarida

o'rnatilgan teshiklar orqali chlqarib tashlanadi. Bu holda gidroizolyatsiyani oraliq qurilmaning chetlariga olib borish kerak. Odatda, trotuar yaqinida ko'priknинг harakat qismi va trotuardan tushayotgan suv voronkalar orqali bartaraf etiladi (*2.12.- a, b rasm*). Gidroizoliyatsiya voronkaning o'zi va unga o'rnatilgan stakan orasiga kiritiladi (*2.12.- g rasm*). Stakanning usti suv qabul qiluvchi teshiklari bo'lgan to'r bilan jihozlanadi. Yo'Ining transport yuradigan qismidan suvning oqib ketishini ta'minlash uchun u taxminan 1,5% li ko'ndalang qiyalik bilan quriladi. Yaxlit va yig'ma ko'priklarning trotuarlari odatda bloklardan barpo etiladi. Yig'ma ko'priklarda trotuarlarni ancha baland fasad to'sinlari hlsobiga o'rnatish mumkin (*2.12.- a rasm*). Trotuarlarning yig'ma bloklari bosh balkalarga o'rnatiladi, ular ko'pri to'sinlari ustidagi konsollar ko'rinishida bo'lishi mungkin (*2.12.- b rasm*). Trotuar bloklari to'sinlar bo'ylab yangi yotqizilgan betonga qo'yildi. Bloklarda suyanchiq ustunlarini mahkamlash uchun qovirg'alari bor. To'sin va plita orasidagi fazodan kabel, truboprovodlar va boshqalarni joylashtirish uchun foydalanish mumkin. Keyingi vaqtarda bevosita to'sinlarga o'rnatiladigan trotuar bloklari borgan sari ko'proq qo'llanilmoqda (*2.12.- v rasm*). Oraliq qurilmalari va ustunlar orasidagi deformatsiya choklari, shuningdek, ko'p oraliqli joylardagi qo'shni oraliq qurilmalari orasidagi deformatsiya choklari konstruksiyaning erkin ko'chishini ta'minlashi va suvni o'tkazmasligi kerak. Agar chokdagagi siljishlar 0,5-1sm gacha bo'lsa, u holda chok ustidagi yo'l qoplamasini uzilmaydi (*2.12.- d rasm*). Bunday hololarda elastik burina shaklda bukilgan yoki ruxlangan po'lat list bilan berkitiladi, u o'zining egiluvchanligi bilan chokdagagi deformatsiyalar o'rnini bosadi. Po'lat listning uchlari betonning tekislovchi qatlami-dagi maxsus bo'shliqqa kiritiladi. Gidroizolyatsiya burmaga ega va chok ustidan uzilishsiz o'tadi. Uning ustidan betonning himoya qatlami uzilgan joyda bitum mastikasi qatlami bilan qoplanadi. Chokning ikkala tomonida betonning himoya qatlami ustidan asfaltbetonni deformatsiya choki ustidagi yoriqlardan himoyalash uchun 1-1,5m uzunlikka tol qatlami yotqiziladi.



2.12.- rasm. Temirbeton ko‘priklarning trotuarlari va transport qatnaydi-gan qismining detailari

- 1- asfaltbeton; 2- betonning hilmoyalovchi qatlami; 3- gidroizolyatsiya;
 4- betonning tekislovchi qatlami yoki suv oqib chiqadigan uchburchak; 5- suvni
 chiqarib tashlovchi voronka; 6- trotuar bloki; 7- bordyur toshi; 8- panjara;
 9- stakan; 10- bitumli mastika; 11- oq tunukali kompensator; 12- metall taroq;
 13- chokni o‘rab turuvchi ugoloklar; 14- rezina kompensator.

Agar chokdag'i siljishlar 1,5-2sm dan oshsa, u holda qoplama qirqiladi va uni metall list bilan qoplanadi (2.12.- e rasm). Qo'shni oraliq qurilmalari plitalarining chetlariga burchaklar o'rnataladi. Chokni yopib turuvchi list yoki taroq bir tomondan oraliq qurilmalariiga yondashganlardan birini hoshiyalab turuvchi hurchaklar bilan payvandlanadi. Listning yoki taroqning ikkinchi tomomi qo'shni oraliq qurilmasini o'rabi turuvchil burchaklar bo'ylab sirpanadi. Chokka kelib tushadigan suvni toplash va chiqarib tashlash uchun shveller yoki maxsus bukilgan listlardan tayyorlangan suv chiqarib tashlovchi tarnov yasaladi. Key'mgi yillarda sintetik rezina bilan to'ldirilgan deformatsiya choklari qo'llanila boshlandi (2.12.- j rasm). Bunday choklar konstruksiyaning erkin deformatsiyasini ta'minlaydi va suvni o'tkazmaydi (2.12.- rasm).


Avtomobillar barakatining tezlashishi bilan deformatsiya choklari ni kamaytirish masalasi paydo bo'ldi, chunki ularning har biri o'tib borayotgan avtomobilda turtki zarblarni vujudga keltiradi. Shu munosabat bilan qirqimsiz yoki haroratli-qirqimsiz oraliqli qurilmalar ko'proq qo'llaniladigan bo'ldi. Haroratli-qirqimsiz oraliqli qurilmalar qirqimli qovurg'ali to'sinlardan iborat bo'lib, ularda ko'chaning transport harakatlanadigan qismi plitasi oraliq ustunlar (tayanchlar) ustidan deformatsiya choki bo'limgan yagona qirqimsiz konstruksiyaga biriktiriladi. Doimiy va vaqtincha yuklanishlarga bunday to'sinlar qirqimli tarzida ishlaydi, harorat o'zgarishining ta'siriga esa qirqimsiz tarzida ishlaydi. Tayanchlar ustidagi transport harakatlanadigan ko'cha qismining plitasi to'sinlar bilan birligida ishlashdan hosil bo'ladigan kuchlanishga va harorat kuchlanishlariga hisoblab armaturalanadi.

2.4.6. Zo'riqtirilmagan armaturali qirqimli to'sinli oraliq qurilmalarning konstruksiyalari

Oraliq qurilmalarning konstruksiyalari ko'p jihatdan armatura turiga va uni joylashtirish usuliga bog'liq. Zo'riqtirilgan armatura sifatida silliq yoki davriy profilga ega alohida sterjenlar, payvand to'rlari va armatura karkaslari qo'llaniladi.

Agar ko'priq konstruksiyani joyida havozalar qurmasdan betonlas-hni talab etuvchi sharoitlarda quriladigan bo'sa, u holda ko'taruvchi armatura qo'llanilishi mumkin. Ko'taruvchi armaturani yo dumaloq sterjenlardan payvand karkaslar yoki prokat to'sinlardan bikr armatura yoki profilli po'latdan panjarali fermalar ko'rinishida tayyorlana-di. Temirbeton ko'priklarda armatura atrofidagi beton bilan yaxshi bog'lanishga ega bo'lib, namlik va havo kirishidan ishchonchli muhofaza qilingan bo'lishi va konstruksiyani tayyorlashda beton qorishmasini yotqizishda xalaqit bermaydigan qilib joylashtirish kerak. Dumaloq (silliq) cho'zilgan armaturaning barcha ishchi sterjenlari uchiarida ichki diametri sterjen diametrining kamida 2,5 diametrli yarimdoiraviy ilgaklari bo'lishi kerak. Siqilgan hududda silliq sterjenlarning bo'sh uchlari, shuningdek, cho'zilish zonasidagi profilli armaturalar cho'zilgan to'g'ri ilgaklar bilan tugallanadi (*2.13.-a rasm*).

Payvand to'rlari (*2.13.-b rasm*) kesishuvchi sterjenlarni kontakt payvandlash bilan bog'lab, oldindan zavodlarda yoki poligonlarda tayyorlanadi va tayyor holda konstruksiyaga o'rnatiladi. Ulanish joylarida qo'shni to'rlar bir-birining ustiga to'r sterjenlarning kamida 30 ta diametriga teng uzunlikda va kamida 25sm ga o'tgan holda yotqiziladi. Armatura po'latinining ayrim sterjenlari butun konstruksiya (plitalar, to'sinlar) uzunligidan kichik, shuning uchun ularni payvandlashga to'g'ri keladi. Cho'zilgan armatura sterjenlari kontaktli elektr-payvandlash bilan eritish uslubida uchma-uch biriktiriladi. Bunda chokornida uncha katta bo'limgan yo'g'onlik hosil bo'ladi (*2.13.-v rasm*). Montaj sharoitida bajariladigan choklar vanna usulida, polosali po'latdan qilingan egilgan ostqo'ymadan foydalanib payvandaladi (*2.13.-g rasm*). Bu ostqo'yma (ostlik) eritilayotgan metallning oqib tushishidan tutib turuvchi va payvandlanayotgan sterjenlarning yanada chuqur erishiga imkon beruvchi "vanna" ni hosil qiladi. Ayrim hollarda armaturani yoyli payvandlash yordamida ustqo'ymalar bilan uchma-uch tutashtirilishiga ruxsat etiladi (*2.13.-d rasm*).



2.13.- rasm. Transport qatnov qism plitalari armatura detallari hamda bosh to'sinlarini armaturalash

1- po'lat ost qo'yma ("vanna"); 2- payvand choqlari; 3- ustqo'ymalar; 4- choc qo'yishda payvanlash yo'nalishi.

Odatda yo'lning transport harakatlanadigan qismining plitasi, bosh to'sinlari va diafragmalari (ko'ndalang to'sinlar) alohida

armaturalanadi. Temirbeton ko'priklarni transport qatnaydigan qismining asosiy ko'taruvchi elementi plitalar hisoblanadi. Yaxlit quyma ko'priklarda plitalar umi ushlab turuvchi bosh to'sinlarga va ko'ndalang diafragmalarga qisilgan bo'ladi (2.13. – e rasm). Uning oralig'i o'rtasida vaqtincha yuklamish ta'sirida to'sinlarda musbat plitalarini ushlab turuvchi balkalarda manfiy eguvchi momentlar vujudga keladi. Shu munosabat bilan plitaming tayanchiarida armaturani uning yuqori qismiga, oraliq o'rtasidagi armatura esa pastki qismida joylashtiriladi. Bunda tayyor payvand to'r ko'rinishidagi armatura afzaldir.


Transport qatnaydigan qismidagi plitaning qalinligi kamida 12sm yoki to'sinli plitalar uchun hisobdag'i oraliqning 1/25 tarzida va kontr bo'yicha tiralgan plitalar uchun 1/30 tarzida belgilanadi. Plitaming ishchi armaturalari sterjenlari shunday joylashtiriladiki, bunda himoyalovchi beton qatlami (beton sirti bilan sterjen uchi orasidagi masofa) kamida 2sm bo'lishi kerak. Ularning diametri kamida 10sm, qo'shni parallel sterjenlar orasidagi masofa 20 dan 5sm gachani tashkil etishi mumkin. Ishchi armaturaga perpendikulyar yo'nalishda konstruktiv joylashtiriladigan taqsimlash armaturasi sterjenlarining diametri kamida 6mm bo'lishi va plitaning 1m kengligida kamida 4 dona o'rnatilishi kerak.

Bundan tashqari taqsimlovchi armaturani ishchi armaturaning bukilgan barcha joylariga qo'yish kerak. Manfiy egiluvchi momentlar ta'sir qiluvchi uchastkalarda plita yuqorisidagi ishchi armaturani plita oraliq'ining 1/4-1/6 uzunligida yoki oraliq o'rtasida pastki armaturaning 1/4 uzunligida (kesim yuzi bo'yicha) o'rnatiladi, pastki ishchi armaturani esa plitaning 1m kengligiga kamida uchta sterjen miqdorida albatta tayanchgacha yetkaziladi.

Yig'ma P-simon to'sinlar plitasi monolit ko'priklarning transport qatnaydigan qismi plitasiga o'xshash holda ishlaydi (2.13.-j rasm). U to'sin qovurg'alari bilan qattiq siqib qo'yiladi. Qovurg'alari yaqinida armatura yuqori zonada joylashishi va qovurg'alarga kirib turishi, oraliq o'rtasida esa plitalar quy'i zonada joylashishi kerak. Transport qatnov qism plitasini to'sinlar orasida joylashgan yig'ma elementlardan

montaj qilingan va u bilan monolit qilinmagan konstruksiyalar ham uchraydi. Bunday plita musbat eguvchi momentlarga qirqimli kabi ishlaydi va uni faqat quyi zonada armaturalanadi (2.13.- z rasm). Yig'ma ko'priklarda transport qatnaydigan qism plitasi to'sinlar bilan yaxlit butunlikni tashkil etadi va ularning konstruksiyasiga bog'liq holda turlicha ishlaydi.

Diafragmali tavrsimon to'sinlarda (2.14.- rasm) plitani qo'shni to'sinlar plitasi bilan odatda tutashtirilmaydi; u qovurg'asi qisib qo'yilgan konsol tarzida ishlaydi va uni faqat cho'zilgan yuqori zonada armaturalanadi. Konsol plitaning uchidagi qalinlik kamida 8-10sm bo'lislil kerak.




2.14.- rasm. Yarim diafragmali yig'ma oraliqli qurilmaning ko'ndalang kesimi.

1- trotuar bloki; 2- transport qatnov qismidagi suv oqib ketadigan teshikli to'siq; 3- yo'l kiyimi qatlamlari; 4- yarim yaxlit quyma tutashuvi; 5- yig'ma to'sin; 6- yarimdiafragma.

Oraliqli qurilmalarning bosh to'sinlarini alohida sterjenlar yoki payvand karkaslari bilan armaturalash mumkin (2.15-rasm). To'sinlarning ishchi armaturalari diametrini kamida 12mm qilib, uning uchun himoya betoni qatlamini kamida 3sm va to'sin sirtining yon yoki pastki sirtlaridan ko'pi bilan 5sm gacha qabul qilinadi. Agar monolit to'sinlar alohida sterjenlar bilan armaturalansa, u holda ular orasidagi masofa vertikal va gorizontal yo'nalishlarda kamida 5sm bo'lishi kerak. Ishchi armatura sterjenlarini yuqori zonaga bukish mumkin. Xomutlar diametri kamida 8mm olinadi. Xomutlar va to'sinlarning yon yoki pastki sirtlari orasidagi betonning himoya qatlami 2sm dan kam bo'lmasligi kerak. To'sin bo'ylab qo'shni xo-

mutlar orasidagi masofa xomutning ko'pi bilan 20ta diametri yoki 20sm qilib belgilanadi.



2.15.- rasm. Zo'riqtirilmaydigan armaturali yig'ma to'sin konstruksiyasi

1- yarim diafragma; 2- armaturaning yarim diafragmadan chiqiqlari;

3- bog'lovchi (stropila) sirtmoq; 4- yig'ma to'sin.

Yig'ma to'sinlarda zo'riqtirilmagan armatura ko'p qatorli payvand karkaslar ko'rinishida ko'p tarqalgan (2.15 va 2.16-rasm). Ular sanoat sharoitida tayyorlanadi, montaj qilish oson, ular uzunligi 20m gacha bo'lган to'sinlarda qo'llaniladi.

Payvandlangan karkas bir-birining ustiga oraliqsiz taxlangan va bir-biri bilan kamida 4mm qalinlikdagi chocklar bilan payvandlangan bo'ylama ishchi armatura sterjenlari qatoridan iborat. Agar bitta vertikal qatorda uch-to'rttadan ko'proq sterjen qo'yilgan bo'lsa, u holda ular ustiga o'sha o'lchamdagini va diametri kamida oltitta diametrga teng qistirmalar o'rnatiladi, undan keyin yana uch-to'rtta sterjen zinch qilib qo'yiladi. Qistirmalar hosil qilgan oraliqlar (tirqishlar) beton bi-

Ian yaxshiroq tarmashuvimi ta'minlaydi. Qo'shni vertikal karkaslar orasidagi masofa kamida 5sm yoki ishchi armaturaning ikki diametri dan kam bo'lmasligi kerak. Betonning himoya qatlami alohida sterjennlar uchun qanday bo'lsa, shunday qalinlikda olinadi. Karkas bo'ylama armatusining ishchi sterjenlarini 30-60° burchak ostida bukish mumkin, lekin barcha karkaslarda kamida ikkita sterjenni tayanchgacha yetkazilishi kerak. Bukish radiusi davriy profildagi bukilayotgan sterjening kamida 12ta diametrida yoki silliq sterjen uchun 10 diametri miqdorida bo'lishi kerak (*2.13.-rasm*)


Qo'shimcha bukib qo'yilgan sterjenlarni asosiy armatura sterjenlari ga payvandlashga ruxsat etiladi. Bu holda har bir sterjenga diametri asosiy bo'ylama sterjenning diametridan ikki marta kichik ikkitadan ortiq bo'limgan qo'shimcha bukilgan sterjenlarni payvandlash tavsiya etiladi. Bunday bukilgan sterjenlar egilgan sterjenning kamida 12 diametri uzunligidagi payvand choklari bilan mahkamlanadi (bir tomonlama payvandlashda).

Bo'ylama sterjen va bukilmalarni payvandlashda karkasda ikki tomondan barcha payvand choklarining uzunligi ikki marta kamaytiriladi. Bukilmalarning joylashuvi hisoblash orqali aniqlanadi, lekin bukilmalar bo'lgan uchastkada to'sinning har bir vertikal ko'ndalang kesimiga juda bo'limganda bitta bukılma tushishi kerak. To'sinning yon devorlari bo'ylab balandlik bo'yicha 10-12 diametr masofalarida 8-14mm diametrlı davriy profilli bo'ylama armatura o'rnatiladi. Bu armatura betonni kirishish darzlari paydo bo'lishidan saqlaydi.

Ko'priknинг oraliqli qurilmasi yarimdiafragmalar chiqiqlarini "vannali" payvandlash bilan biriktirish, montaj qilinadigan joyda ularni beton bilan monolitlashtirib, yig'ma betonlardan montaj qilinadi (*2.15.-rasm*). Keyim trotuar bloklari va yo'l qoplama qatlamlari yotqiziladi.

Agar tavrli to'sinlarda yarimdiafragmalar bo'lmasa, ular oraliqli qurilmaga transport qatnaydigan qism plitalaridan armatura chiqiqlarini monolitlashtirish bilan birlashtiriladi (*2.16.-rasm A-A kesim*). Bu holda transport qatnaydigan qism plitasi qovurg'alarga elastik biriktilgan sifatdagina emas, balki vaqtinchalik yuklanish ostida ko'ndalang

yo'nalishda oraliqli qurilmaning umumiy ishida ham ishtirok etadi. chunki to'sinlar o'rtasida plitadan boshqa bog'lanish yo'q. Bunday plita da inusbat va manfiy eguvchi momentlar oraliqda ham, to'sinlar oldida uning tayanchiarida ham vujudga kelishi mumkin, shuning uchun plitaning ishchi armaturasini uzluksiz ravishda yuqori va quyi zonalarda joylashtiriladi. Qo'shni to'sinlar plitalari orasidagi chokda ilgak ko'rinishida ishchi armatura diametrining kamida 15 ta miqdoridagi uzunlikka ustma-ust kiritiladi va yaxshi bog'lanish uchun qo'shimcha konstruktiv armatura va xomutlar qo'yiladi (2.16.-rasm B-B kesim).



2.16.-rasm. Tekis payvandli karkaslardan iborat yig'ma to'sinning konstruksiysi

Transport qatnov qism plitasining ishchi armaturasi oraliqli inshootning bosh to'sinlari yo'nalishlariga doim ko'ndalang qilib joylashtiriladi. Bundan o'z konturiga qarab tayangan plitalar, ya'ni kuchlamishlarni bosh to'sinlarga ham, diafragmalarga ham uzatuvchi plitarlar bundan mustasno. Qo'shni diafragmalar orasidagi masofa qo'shni bosh to'simlar orasidagi masofaning ikki barobaridan kam bo'lganda plita konturi bo'yicha tayangan deb ataladi. Bu holda plitaning ishchi armaturasi (yuqori va quyi zonalarda) ikki perpendikulyar yo'nalishlarining ham ko'ndalang, ham bo'ylama yo'nalishlarida o'rnatiladi.

Yaxlit quyma va yig'ma to'sinlar diafragmalari yuqori va quyi bo'ylama ishchi armaturalari va xomutlari bilan o'zaklanadi. O'zaklashni soddalashtirish uchun diafragmalarda bukishlarni qilmaslikka harakat qilinadi.

2.14.-2.16-rasmarda keltirilgan oraliqli inshoot to'sinlari konstruksiyasi siqishga mustahkamligi bo'yicha V25 sinfidagi betondan va davriy profilli A-P sinfidagi po'latdan ishlangan.


2.4.7. Armaturasi zo'riqtiriladigan ko'priklarning to'simli bo'laklanadigan oraliqli inshootlari

Oldindan kuchlantirilgan temirbeton konstruksiylar ikki xil texnologiya bo'yicha tayyorlanishi mumkin: betonlangunga qadar va betonlangandan keyin zo'riqtiriluvchi.

Betonlanguncha zo'riqtiriladigan qirqimli-to'sinli oraliq inshootlar konstruksiylari. Ular maxsus statcionar (barqaror) yoki harakatdagi (ko'chma) stendlar tayyorlanadi. Tortilgan armatura atrofida opalubka o'rnatiladi va konstruksiya elementi betonlanadi. Beton belgllangan mustabkamlikka erishgandan so'ng tortilgan (cho'zillgan) armatura anker qurilmalardan ozod qilinadi va u qisqarib betonni siqadi. Bitta stendda biri ikkinchisining orqasidan joylashtirilgan bitta yoki bir necha to'sinni bir vaqtida tayyorlash mumkin. Armaturani turli xil usulda tortish (cho'zish) mumkin. Armaturani gidravlik domkratlar bilan cho'ziladigan stendlar eng ko'p tarqalgan (2.17.- a rasm). Bu holda stend armatura elementlari orasidan o'tkazilgan va ko'chma trovers-

larga mahkamlangan tırgaklarga ega bo'ladı. Tırgaklar va troverslar orasida joylashgan domkratlar batareyalari armaturani tortib troverslar dastlabki holatiga qaytaradi, qisqarayotgan armatura esa siqilishni beton to'singa beton bilan ilashish va maxsus ankerlar orqali uzatadi.

Ayrim hollarda armaturani elektr qizitish usuli bilan cho'zish mumkin (2.17.- b rasm). Armatura sterjenlari orqali tok o'tkazib ular uzaytırguncha qizdiriladi. Keyin ular kassetalarga o'rnatiladi va uchlari mahkamlanadi. Armaturalar sovib, uzunligi bo'yicha qisqaradi va tortiladi. Konstruksiya elementi kassetada betonlanadi. Beton qorishmasi qotgandan so'ng tortib qo'yilgan sterjenlarning uchlari bo'shatiladi, ular qisqarib betonni siqadi.



2.17.- rasm. Armaturani betonlashgacha cho'zish qurilmasining sxemalari

1- armatura mahkamlangan harkatlanuvchi trovers; 2-domkratlar batareyasi; 3- stend tayanchlari; 4- kuchlaniriladigan armatura; 5- tortqi; 6- betonlanadigan to'sin; 7- stend; 8- kasseta; 9- elektr toki bilan qizitiladigan armatura; 10- armaturani o'rovchi harakatlanuvchi rolik; 11- tortuvchi qurilma tomon ketuvchi kuchlaniruvchi armatura uchi; 12- armaturani o'rash uchun ankerlar; 13- kassetaning asosi.

Shuningdek armaturani uzlusiz o'rash usuli ham qo'llaniladi (2.17.-v rasm). Harakatlanuvchi rolik kassetaning umumiy asosida

joylashgan ankerlarga armaturani dumalatib keltiradi. Maxsus qurilma armaturada doimiy taranglikni tutib turadi. To'sinni betonlash tugatilib, beton zarur mustahkamlikka erishgandan keyin kasseta asosi ankerlar bilan olib tashlanadi va bo'shagan armatura betonni siqadi.

Zo'riqtiriladigan armaturaga egri chiziqli (poligonal) shakl berish uchun stendlar armaturani bukish joylarida mahkamlaydigan tortqichlar bilan ta'minlanadi (*2.17.- a rasm*).

To'sin oralig'i va stendning turiga qarab, zo'riqtiriladigan armatura va to'sinlarning konstruksiyasi har xil bo'lishi mumkin. Zo'riqtiriladigan armatusasining diametri 5-7mm li 15-24 tadan simdan iborat dasta ko'rinishidagi to'sinlar keng tarqalgan (*2.18.- a rasm*). Bunday dastada dastlabki zo'riqtirish kuchi betonga faqat tarmashuv bilangina uzatilishi mumkin emas, shuning uchun dastali armatura ankerlar bilan ta'minlanadi (*2.18.- rasm*). Betonni kuchaytirish uchun ankerlar oldiga oddiy armaturadan tayyorlangan spiral o'rnatiladi. Bunday armaturali to'sinlar oraliqlari 12-15m dan 40m gacha, ba'zida undan ham ortiq bo'lqanda qo'llaniladi. Zo'riqtiriladigan armatura to'sin cheti yaqinida joylashgan ankerlar bilan poligonal shaklga ega bo'lishi mumkin (*2.18.- a rasm*). Boshqa hollarda ankerlari to'sin oralig'inining uzunligi bo'yicha turli joylarida joylashgan armaturaning faqat to'g'ri chiziqli dastalari qo'llaniladi (*2.18.- b rasm*). Anker orqasidagi armaturani ish-dan chiqarish maqsadga muvofiq, buning uchun uni beton bilan tarmashuvidan bitum shimdirilgan kanop bilan yoki bitum surkalgan qog'oz o'rami bilan ajratiladi. Bunday izolyatsiya to'sinni tayanchlar yaqinida armatura bilan noxush siqilishidan saqlaydi. Zo'riqtiriladigan armatura dastalari odatda bir necha qator qilib joylashtiriladi, bunda vertikal bo'yicha qo'shni dastalar orasidagi yorug'likdagi masofa \leq 6 sm yoki dasta diametriga teng bo'lishi kerak. Betonning dastadan pastki yoki yon qirragacha himoya qatlami \leq 4 sm bo'lishi, yuqori qirrasidan \leq 3sm bo'lishi kerak.

Zo'riqtirilgan armaturadan tashqari to'sinlar konstruktiv bo'ylama sterjenlar, to'sin devoridagi xomutlar, transport qatnaydigan qism plitasidagi sterjen va diafragmalar ko'rinishidagi zo'riqtirilmagan armaturalarga ham ega bo'ladi. Xomutlar qadami 20sm dan ortiq bo'limgan

qiymatlarda bo'ladi. Tayanchlar yaqinida xomutlarning diametri kamida 10mm va qadami 10sm dan ortiq bo'lmasligi kerak. Agar to'sinda zo'riqtiriladigan xomutlar mavjud bo'lsa, u holda oddiy armaturadan iborat xomut oralig'i 30sm dan ortiq bo'lmasligi lozim. To'sinlarning zo'riqtiriladigan armatura joylashgan pastki belbog'ida kesim konturi bo'y lab $\varnothing \leq 8\text{mm}$ li va qadami 20sm dan ortiq bo'limgan xomutlar qo'yiladi.


Ba'zida zo'riqtiriladigan armatura sifatida davriy profilli yuqori mustahkamlikka ega sterjenlar qo'Haniladi. Sterjenlar oralig'i kamida 3sm yoki diametrning bir yarim barobaridagi masofada bir necha qator qilib joylanadi. To'sinning yuqori qismida transport qatnov qismining yig'ma to'sinlar o'rnatilgandan so'ng joyida betonlanadigan plitasi bilan monolit qilish uchun zarur chiqiq va xomutlarning chiqarilgan joylari bo'ladi (*2.18.- g rasm*).

Parallel simlardan iborat dasta armatura o'rniga davriy profilga ega ikki-yettita simdan to'qilgan o'ramlar qo'llanilishi mumkin. Dasta ana shunday o'ramlardan iborat bo'lishi mumkin (*2.18.- v rasm*).

Uncha katta bo'limgan oraliqli (8-15sm) to'sinlar uchun diametri 2-8mm bo'lgan alohida simlardan iborat yoki plitali ko'priklarning to'sinlari konstruksiyasiga o'xshash to'sinlarning yuqori va pastki tayanchlarida bukilmasdan joylashtirilgan o'ramlardan iborat zo'riqtiriladigan armatura qo'llaniladi (*2.9.- rasm*). To'sinning yuqori huduvida joylashgan zo'riqtiriladigan armaturaning uncha katta bo'limgan qismi uni pastki zo'riqtiriladigan armatura bilan siqish paytida, shuningdek, tashishda va montaj qilishda darzlar paydo bo'lishidan saqlaydi. Agar armatura silliq simlardan qilingan bo'lsa, u holda unda beton bilan tarmashuvini orttirish uchun ankerlar qilinishi mumkin (*2.18.- a rasm*). Qo'shni simlar orasidagi masofa kamida 1sm bo'lishi, o'ramlar orsidagi esa kamida 3 sm yoki o'ramning bir yarim diametri kattaligida bo'lishi kerak. Betonning himoya qatlami pastki qirradan kamida 3sm, yon va yuqori qirralardan kamida 2sm bo'lishi kerak.

Yig'ma to'sinlar oraliq inshootlariga diafragmalar bo'yicha tutashdirib, yoki xuddi zo'riqtirilmaydigan armaturali to'sinlar kabi yuqo-

ri tokchalarini monolitlash bilan biriktiriladi. (2.14.-2.16.-rasmlar) Ba'zida tutashtirish uchun transport qatnov qism plitasida yoki diafragmalarda joylashgan zo'riqtiriladigan armatura qo'llaniladi.



2.18.- rasm. Armaturasi betonlashgacha zo'riqtirilgan to'sinning konstruksiyasi

1- armatura spirali; 2- armaturaning betonga tarmashuvdan izolyatsiyalash.

Betonlangandan so'ng zo'riqtiriladigan armaturali oraliq inshootlar. Bunday oraliqli inshootlarda avval to'sin betonlanadi, keyin esa armatura zo'riqtiriladi. Turli konstruksiyalar va armaturalash usullaridan parallel simlar dastasi, simlar o'ramlaridan, yoki buralgan

simli arqonlar ko'rnishidagi konstruksiyalar eng ko'p qo'llanilmoqda.

Shuningdek katta diametrali, yuqori mustahkamlikka ega po'lat sterjenlardan iborat armatura ham qo'llaniladi. Armaturaning uchlari ankerlar bilan mahkamlanadi, ular orqall o'z kuchlanishini betonga uzatadi. Beton zarur mustahkamlikka ega bo'lidan so'ng armatura da domkratlar bilan zo'riqishi hosil qilinadi, bunda ularni tirash uchun bevosita zo'riqtirilayotgan detaldan foydalaniadi. Armatura ochiq joylashishi yoki konstruksiya betoni ichidan o'tuvchi kanallarda bo'lishi mumkin.

Oldindan zo'riqtirilgan armatura ankerlari uch xil bo'lishi mumkin. **Birinchi** turdag'i anker zo'riqtiriladigan armatura elementi bilan oldindan biriktirib qo'yiladi (*2.19.- a rasm*). Domkrat shu anerga mahkamlanadi va to'sin betoniga tiralib va uni siqib, armaturani tortadi (*2.20.- a rasm*). Hosil bo'lidan oraliqqa qistirmalar o'rnatiladi, ular domkratdagi kuchlanish olingandan so'ng uni betonga uzatadi.


Zo'riqtirishning xuddi shunga o'xshash usuli ankerlarning **ikkinchi** turida ham qo'llaniladi, ular armatura elementi odatda yuqori mustahkamlikka ega sterjen uchidagi rezbaga buraladi (*2.19.- b rasm*).

Domkrat gayka orqasidagi rezba orqali sterjenni tortadi, gayka esa oxirigacha burab kiritiladi, bunda hosil bo'lidan oraliq bartaraf etiladi. Domkratdagi kuchlanish olingandan so'ng, u betonga shu gayka orqali uzatiladi.


Uchinchi turdag'i ankerlar bilan zo'riqtirilayotgan armatura mahkamlanib, uni ankerda maxsus konus bilan o'rnatiladi (*2.19.- v rasm*). Bu usul eng ko'p tarqalgan, chunki zo'riqtirilayotgan armaturaning uchlariiga hech qanday ishlov berishni talab etmaydi. Ammo bunday ankerlarda armaturani cho'zish va mahkamlash uchun ikki taraflama hukkatlanuvchi maxsus domkratlar zarur.

Keyingi vaqtarda simlar dastasi uning uchlari yo'g'onliklarni kallaklar hosil qilish natijasida mahkamlangan ankerlar qo'llanilmoqda (*2.20.- b rasm*). Bu kallaklar maxsus stanokda sovuq holatda o'rnatiladi. Anker birinchi yoki ikkinchi turga tegishli. Uni markaziy tenlikka burab kiritiladigan domkrat tortib turadi. Armatura teshiklar orqali tortib cho'zilgandan so'ng konuslarda yoki ankerlarda konsol-

lariga sementli qorishma bosim bilan yuboriladi, u kanallarni butunlay to'ldiradi va armaturani zanglashdan saqlaydi.



2.19.- rasm. Betonlashdan keyin zo'riqtiriladigan armatura ankerlarining turlari. 1- anker; 2- qistirma; 3- zo'riqtiriladigan to'sin; 4- zo'riqtiriladigan armatura elementi; 5- anker gaykasi; 6- konus; 7- anker oboymasi.



2.20.- rasm. Uchlarida kallaklar chiqarilgan armatura va simlar dastasi ankerni cho'zish uchun domkratning sxemalari

1- domkrat; 2- porshen; 3- siqilgan moyli kamera; 4- tortuvchi shtok; 5- domkratni va armatura ankerlarining tutqichi; 6- zo'riqtiriladigan armatura; 7- siqiladigan to'sin; 8- ankerni taranglangan holda mahkamlash uchun gayka; 9- domkratning tortuvchi shtoki uchun ichki rezbali bo'shliq; 10- uchlarida kallaklari chiqarilgan armatura dastasi simlari; 11- sim uchidagi kallak.


Armaturalar beton mustahkamlik olganidan so'ng cho'zilgani uchun katta oraliq to'sinlarini tashish uchun qulay o'lcham va massaga ega alohida bloklardan uzunliklari bo'yicha tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bunday to'sinmi oraliqqa o'rnatish uchun uni maydonchada alohida bloklardan yig'iladi. Keyin to'sinlar orasidagi choklar beton qorishmasi bilan to'ldiriladi. Shuningdek, bloklarning chetlarini epoksid asosdagи maxsus elimlar bilan surtib chiqish ham mumkin. Armatura dastalari kanallariga bloklarni o'rnatish bilan surtib chiqishi ham mumkin. Armatura dastalari kanallarga bloklarni o'rnatish bilan bir vaqtda yoki butun to'sin yig'ib bo'limgandan so'ng o'rnatiladi. Choklardagi beton, qorishma yoki yelim talab qilingan qatqılıkka ega bo'lganda armatura dastalari tortiladi, shundan so'ng to'sin butun element tarzida ishlaydi.

Cho'zish uchun simlarning uchlari tortuvchi domkratning qis-qichlariga mahkamlanadi (*2.21.-a rasm*). Anker oboyma va konusdan iborat. Domkrat kamerasiga moyni bosim bilan yuborilganda tortuvchi silindr siljiydi va dasta simlarini tortadi.


Bunda domkrat ankerga tiraladi va kuchlamishni elementdagi betonga uni siqqan holda uzatadi. Simlarning hisobdagи cho'zilishi ga erishilgandan so'ng moy domkratning boshqa kamerasiga bosim bilan yuboriladi, bunda birinchi kameradagi bosim tushirilmaydi; shunda domkrat shtoki konusni anker oboymasiga presslaydi (*2.21.-b rasm*). Shundan so'ng bosimni pasaytirish va domkratni yechib olish mumkin. Dasta tortilgan va ankerda mahkamlangan holda qoladi.

Oboymasi po'latdan va konussimon teshikli ankerlar keng tarqalgan. Teshikka toblangan po'latdan tayyorlangan konus presslanadi. Ishqalanish kuchlari konus va oboyma orasiga siqib qo'yilgan tortilgan dasta simlarining o'ramlari uchun anker ham xuddi shunga o'xshash konstruksiyaga ega o'lchami va ko'p miqdorda bo'lishi bilan farq qiladi (*2.22.-b rasm*). Chet ellarda oboymasi mustahkamligi bo'yicha siqilishga V50 va konusi V50-V75 sinfidagi betondan bo'lgan ankerlar qo'llaniladi.



2.21.- rasm. Armaturani cho'zish uchun ikki taraflama ta'sir ko'rsatuvchi domkratning sxemasi


1- domkratni tortuvchi silindr; 2- armaturani cho'zish uchun siqilgan moyli kamera; 3- dasta simlari uchun qisqichlar; 4- anker konusini presslash uchun moyli kamera; 5- itaruvchi shtok; 6- ankeriga tiraluvchi domkrat oyog'i; 7- anker oboymasi; 8- siqladigan to'sin; 9- zo'riqtiriladigan armaturaning simlari; 10- ankerning konusi.



2.22.- rasm. Dastali va o'raklı zo'riqtiriladigan armaturaning konusli ankeri. 1- dasta simlari; 2- har biri yettita simdan iborat o'ramlar.

12-42m li oraliqlar uchun ko'priklarning oldindan zo'riqtirilgan oraliq inshootlarining na'munaviy bir xil shaklga keltirilgan kon-

struksiyalari keng qo'llanilmoqda (2.23.- a rasm). Oraliq inshootlari diafragmalarsiz; hosh to'sinlarni o'zaro transport qatnaydigan qism plitasi bo'yicha yoki xuddi zo'riqtirilmagan diafragmasiz to'sinlardiagi kabi (2.16.- rasm) yoki har bir to'sin plitasining cheti bo'ylab 1m qadam bilan joylashgan qo'yilma detallar (2.23. rasm I uzel) orqali biriktiriladi.



2.23.- rasm. Betonlangandan so'ng armaturani zo'riqtirilgan oraliqli inshootning ko'ndalang kesimi. 1- og'ma metall list; 2- biriktiruvchi ustqo'yma; 3- sterjen; 4- kichik anker; 5-armatura sterjenlari; 6-ko'ndalang zo'riqtiriladigan armaturani o'tkazuvchi kanal.


Diafragmasiz to'sinlarni transport qatnaydigan qism plitasiidan o'tadigan ko'ndalang armatura dastalarini taranglab ko'ndalang biriktirish mumkin (2.23.- b rasm). Bu holda zo'riqtiriladigan armatura maxsus kanallarda joylashtiriladi, qo'shni to'sinlarning plitalari bo'ylama choklari qum sementli aralashma yoki beton qorishmasi bilan to'ldiriladi.

Agar oraliq inshoot to'sinlarida diafragmalar bo'lsa (2.23.- v rasm), u holda ular ko'ndalang yo'nalishida biriktiriladi, yoki diafragmalar da ko'ndalang zo'riqtiriladigan armatura bilan, yoki diafragmalar ning oddiy armaturasini ular bilan biriktiriladi (2.15.-rasm). U holda harakat yo'li plitalari tutashtirilmaydi va u konsol sifatida ishlaydi.

Zo'riqtirilmaydigan armaturaga va betonning himoya qatlamlariiga qo'yiladigan talablar xuddi armaturani betonlashgacha zo'riqtiriladigan to'sinlarga qo'yiladigan talablar kabi, zo'riqtiriladigan armatura dastalari tekis siniq chiziq yoki egri chiziq bo'yicha bukiladi. Bukiш radiusi kamida 4m bo'lishi kerak. Zo'riqtirilayotgan armaturadan tashqari har bir yig'ma blok to'rlar va karkaslar ko'rinishida A-I yoki A-II sinfdagi zo'riqtirilmaydigan armaturalarning katta miqdori bilan armaturalanadi va uni hisoblash bo'yicha yoki konstruktiv talablarga muvofiq o'rnatiladi (2.24.- b rasm).

Karkaslar va to'rlarga bo'linishi ularning montaj qilishdan oldin qoliplarga qulay o'rnatilishini ta'minlaydi (2.24.- v rasm). To'sinlar ko'ndalang yo'nalishida plitalar chiqqlarini betonlash bilan monolitlanadi (2.24.- b rasm A-A kesim). Agar to'sinlar ko'ndalang zo'riqtiriladigan armatura bilan biriktirilsa, yig'ma bloklar plitasida umi o'tkazish uchun kanallar nazarda tutiladi (2.25.- a rasm).

Betonlangandan so'ng zo'riqtiriladigan barcha chetki to'sin bloklari, shuningdek, bloklarga ajratilmagan to'sinlarning qirralari yaqinida xomutlar, ko'ndalang sterjenlar va spirallar ko'rinishida kuchaytirilgan armatura qo'yiladi (2.25.- rasm). Bu armatura taranglangan dastalarning ankerlari yaqinida katta mahalliy kuchlanishlarni qabul qiladi. Ankerlar ostiga metall plitalar yotqiziladi (2.25-a rasm B ko'rinish). Armatura taranglangandan keyin ankerlar betonga monolitlanadi.




2.24.- rasm. Betonlangandan keyin zo'riqtiriladigan to'sin blokining konstruksiyasi

1- yig'ma blok; 2-limli chok.

Diametri 10mm dan ortiq bo'lgan o'ta mustahkam sterjenlar- dan tayyorlangan zo'riqtiriladigan armatura o'ta mustahkam simga qaraganda nisbatan kamroq mustahkamlikka ega bo'ladi. Bunday armaturali to'sinlar chet ellarda ham, bizning mamlakatimizda ham qo'llanilmoqda.

2.25.- b rasmida transport qatnov qismning monolit plitasi bilan birleshtiriladigan 14m oraliqli yig'ma to'sinining ko'ndalang kesimi keltirilgan. Zo'riqtiriladigan armatura sterjen uchlarida tishlari balandligi o'zgaruvchan dumalatish usuli bilan hosil qilingan rezbaga ega. Bunday rezba sterjenning kesimini kuchsizlantirmaydi va tortish kuchini

gaykaga, undan esa tayanch plita orqali konstruksiyaning betomiga tekis uzatishga imkon beradi.



2.25.- rasm. Betonlangandan keyin zo'rqtiriladigan to'sin konstruksiysi.

1- zo'rqtiriladigan armatura dastalari 2- dastalar uchun kanallar;

3- konstruksiya betoni; 4- tayanch plita; 5- armatura sterjeni uchun kanal;

6- gayka; 7- yumaloqlangan rezbali sterjen.

Tortuvchi donikrat sterjenning uchiga burab kiritiladi, keyin kerakli kuchlanishgacha tortiladi, ankerlashni esa gaykani tayancli plitaga tiralguncha burash orqali ta'minlanadi. Transport qatnov qismidagi plita bilan birga ishlovchi yig'nia to'sinlar uchun dastali yoki o'ramli zo'rqtiriladigan armaturalar ham qo'llaniladi. Ko'pchilik hollarda ular maqsadga muvofiq, chunki transport qatnov qism plitasidan keyinchalik ajratilishi sababli kichik massaga ega, oson montaj qilinadi.

2.4.8. Temirbeton romli ko'priklar

Romli temirbeton ko'priklar oraliq inshootlarining tayanchlari bilan biriktiriladi, bu esa oraliq inshootlarini (rom rigellarni) yyengillashtrish va ularning qurilish balandligini kamaytirishga imkon beradi. Romli ko'priklarning tayanchlari, akkarkasa, siuvchisi kuchlanishlarni


ham, ancha katta eguvchi momentlarni ham qabul qilib, ancha jadal ishlaydi.

Tayanch ustunlarimi jadal armaturalash ularni nisbatan uncha katta bo'lmagan kesimli qilish imkonini beradi, shuning uchun romli ko'priklar ko'pincha ko'prik ostidagi fazoni tayanchlar bilan iloji boricha kamroq to'sish kerak bo'ladigan yo'lko'prik va estakadalarda qo'llaniladi.

Ko'priklarning romlari odatda qo'sh sharnirli yoki sharnirsiz quriladi. Sharnirlar ustunlarning poydevorlar bilan tutashgan joylarida o'rnatiladi. Sharnirsiz romli ko'priklar poydevorlarning asosida grunt yaxshi bo'lganda, tayanchlarning cho'kish xavfi bo'lmagan holda qo'llaniladi. Shuning uchun zaif gruntlar bo'lganda tayanchlarning cho'kishidan kamroq ta'sirlanuvchi qo'sh sharnirli romlarga o'tiladi. Biroq sharnirlar konstruksiyani va ishlarni amalga oshirishni murakkablashtiradi, shuning uchun, agar grunt sharoitlari imkon bersa, doim romlarni sharnirsiz qilishga intiladilar. Romli ko'priklar ham yaxlit quyma, ham yig'ma elementlardan barpo etiladi. Yaxlit quyma ko'priklar uncha katta bo'lmagan $l = 15 \div 30$ m oraliqlarda rigelning balandligi $h = (1/12 \div 1/30) l$ va ustunlar kengligi $h_s = (1,8 \div 1/10) l$ bo'lganda qo'llaniladi (2.26.- a rasm). Bunday oraliqlar yig'ma qirqimli to'sinlar bilan oson yopilishi mumkin bo'lgani uchun, kichik oraliqli yaxlit quyma romli ko'priklar hozir nihoyatda kamdan-kam hollarda qurilmoqda.

Yaxlit quyma romli ko'priklar bir oraliqli va ko'p oraliqli bo'lishi mumkin. Bir oraliqli ko'priklarda ko'pincha qo'sh konsolli romlar qo'llaniladi (2.26.- a rasm). Konsollar bosh to'sinlarning yukini yengillashtiradi, ustunlarda eguvchi momentlarni kamaytiradi va ko'prikning ko'tarma bilan oddiy tutashuviga imkon beradi. Agar mahalliy sharoitlarga ko'ra ko'tarmalarning konuslarini ochiq qoldirish mumkin bo'lmagan holda, rom qiya holatlarga ega qovurg'ali tayanchlar turzida ishlanishi mumkin. Gruntlarning sifatiga ko'ra bunday romlar sharnirli) yoki bikr mahkamlanishi mumkin (2.26.- b, v rasm). Bikr (sharnirsiz) mahkamlash qutisimon asosni to'ldiruvchi grunt bilan tu'minlanadi.

Ko'poraliqli romli ko'priklar, yo'lko'priklar va estakadalar inshootning harorat deformatsiyasini hisobga olib quriladi. Uzun ko'priklarda atrof harorati o'zgarganda, deformatsiyalar tufayli katta kuchlanishlar vujudga keladi. Shuning uchun ko'p oraliqli romlar bir-biriga bog'liq holda deformatsiyalar uchun 50-70m uzunlikdagi qismlarga ajratiladi. Bunday ajratishni romlar orasiga (2.26.- g rasm) uzunligi $l_1 = (0,3 \div 0,6)$ l uzunlikda to'sinli osma oraliq inshootini qurish bilan yoki qo'shni seksiyalarning yaqinlashtirilgan tayanchlari orasida L uzunlikdagi choklarni qurish bilan ta'minlash mumkin (2.26.- d rasm).



2.26.- rasm. Yaxlit quyma romli ko'priklarning turlari

Ko'ndalang kesimda yaxlit quyma romli ko'priklar oraliqli inshoot bosh to'sinlarining miqdoriga ko'ra, ustunlar qatoriga ega bo'lgan tayanchlar bilan quriladi. Balandlik katta bo'lganda ustunlar ko'ndalang tirkaklar bilan biriktiriladi. Romli estakadalarda uning ostidagi fazoni

kamroq egallash uchun ustunlar soni minimal miqdor bo'lgan (bitta yoki ikkita) tayanchiar qurish maqsadga muvofiq. Bu holda oraliqli inshootda ustunlar bilan bevosita bog'lanmagan, bo'ylama to'sinlar quriladi (2.26.- a rasm).

Uncha katta bo'lman romli ko'priklar odatda zo'riqtirilmay-digan armatura bilan barpo etiladi. O'zining tuzilishiga ko'ra romli ko'priklarning oraliqli inshootlari to'sinli ko'priklarnikiga o'xshash bo'ladi. Ayrim xususiyatlar romlarning bosh to'sinlari (rigellari)ning ustunlar bilan tutashtirilishi uchungina xosdir.


Ravoqning ustun bilan tutashishi unga eguvchi momentlarning uza-tilishini ta'minlashi kerak. Buning uchun oraliq tayanchlar ustunlari armaturalari rigelga uning o'qi yuqorisidan kiritiladi (2.27.- a rasm). Rigelning chetki ustunlar bilan qo'shilishida rigel armaturasini ustun-ga tashqi sirti bo'ylab kiritiladi, ustun armaturasini rigelning yuqorigi armaturasigacha yetkaziladi (2.27.- b rasm).

Rom rigel armaturasi xuddi to'sinli qirqimsiz yoki konsolli ko'priklar oralig'inining o'rtasidagi asosiy ishchi armatura pastda, tayanchlar oldida esa yuqorida bo'ladi. Tayanchiar yaqinida armatura sterjenlari bukiladi va rigelning bu uchastkalarida katta ko'ndalang kuchlarni qabul qilish uchun xomutlarni bir-biriga yaqinroq o'rnatiladi. Poydevor bilan bikr tutashtiriladigan ustunlar armaturasi uning massiviga kiritiladi (2.27.- v, g, d, -rasmlar). Poydevor bilan sharnirli biriktirilganda ustun armaturasi uning qirrasida kuchaytiriladi.

Sharnirning eng oddiy konstruksiyasi ustunning qirrasi (cheti) va poydevorning sirti o'rtasidagi metall qistirma ko'rimishida qilinishi mumkin (2.27.- e rasm). Qistirmani odatda qalinligi 10-15mm bo'lgan po'lat listdan tayyorlanadi, lekin uni qo'rg'oshindan yoki rezinadan qilish maqsadga muvofiqroqdir. Gorizontal tirkakni qabul qilish uchun sharnir orqali undagi burilishlarga qarshilik ko'rsatmay-digan armatura sterjeni o'tkaziladi. Romli ko'priklarda simli sharnirlar ham qo'llaniladi, ular sharnirning markazidan o'tuvchi, qiya sterjenlar bilan armaturalangan temirbeton ustunlarning mahalliy torayishi ni ifoda etadi. (2.27.- j rasm). Ustun buralganda sharnir bo'ynidagi beton yorilib ketishi mumkin. Bu holda sharnirga ta'sir qiluvchi bar-

cha kuchlanishlarni armatura qabul qilishi kerak. Bu armaturani beton yorig'i orqali o'tadigan namlikdan saqlash uchun, uning atrofidagi suv o'tkazmaydigan materialdan qistirma qilinadi. Tayanch bosimlari katta bo'lganda romli ko'priklarning sharnirlari po'lat quymadan tayyorlanadi. Poydevorlar tayanchning hamma ustunlari ostida umumiy yoki alohida bo'lishi mumkin (2.26.- a rasm).

Mustahkam gruntlardagi tovonining eni uncha katta bo'limgan ($\alpha < 30^\circ$) poydevorlar betondan armatusiz bo'lishi mumkin (2.27.- v rasm). Agar poydevor tovonini kengaytirish ($\alpha > 30^\circ$) talab etilsa, u holda uni pastdan to'r bilan armaturalanadi (2.27.- g rasm), juda ham eni katta poydevorlarda esa bosh cho'zuvchi kuchlanishlarni qabul qilish uchun qiya sterjenlar ham o'rnatiladi (2.27.- d. rasm).




2.27.- rasm. Oraliqlari uncha katta bo'limgan romli ko'priklar konstruksiyalarining detallari

1- metall list yoki qo'rg'oshin qistirma; 2- elastik suv o'tkazmaydigan qistirma.

Katta oraliqli (60-150 m) romli ko'priklar fazoda yig'ish orqali yoki to'smli qirqimli yoki konsolli ko'priklar singari osma betonlash bilan barpo etiladi. Natijada tayanchi asosga bikr o'rnatilgan T-si-

mon romlar hosil bo'ladi. Konsollarning uchlari o'zaro yaxlit quyma qilinadi, (2.28.- a. rasm) yoki oraliqlar o'rtasida sharnirli qilib biriktiriladi (2.6.- d rasm), bunda romli-qirqimsiz yoki romli-konsolli tizim yaratiladi. Agar T-simon romlarning konsollari uchlariga to'sinli ilgakli oraliq inshootlar qo'yilsa, u holda statik aniq romli-to'sinli tizimni hosil qilinadi (2.6. a rasm). Romli-konsolli yoki romli-qirqimsiz tizimdag'i ko'priklarning oraliqlari o'rtasidagi to'sinlar balandligi ($1/40 \div 1/60$) ni tayanchda ($1/15 \div 1/20$) ni tashkll etadi, bu yerda: ℓ - tayanch o'qlari oralig'i. Romli-to'sinli tizimlar uchun ham shunga o'xshash nisbatlar saqlanadi (2.28.- b rasm). Ilgakli oraliqli inshootning balandligi uning ℓ uzunligiga bog'liq (qirqimli to'sinlardagi kabi).

Ko'ndalang kesimda uncha katta bo'Imagan romli-konsolli va romli-to'sinli ko'priklar ko'ndalang yo'nalishida diafragmalar va to'sinlarga yotqizilgan transport qatnov qismining yig'ma plitasi bilan biriktirilgan alohida qo'shtavrli bloklardan yig'ilishl mumkin (2.28.- v rasm). Ba'zida faqat kuchli diafragmalar va yig'ma plitasi bo'lgan faqat ikkita bosh to'sin quriladi (2.28.- d rasm).



2.28.- rasm. T-simon romli ko'priklarning sxemasi

Katta oraliqli ko'priklar qutisimon kesimli bloklardan yig'iladi. Ular orasiga transport qatnov qismining yig'ma plitasi yotqizzladi (2.28.- g rasm), yoki plita bloklarning yuqori tokchasi va konsollari

bilan hosil qilinadi (2.28.- e rasm). Romlarning qutisimon konsollarini ko'ndalang diafragmalar bilan birlashtirish mumkin.

T-simon romlarning konsollaridagi zo'riqtiriladigan arnatura-ni qirqimsiz oraliq inshootlari armaturasiga o'xshash qutisimon yoki qo'shtavrli bloklarning konsollari yoki bo'shliqlarining yuqori bel-bog'i bo'yicha joylashtiriladi. Armatura bloklarni muvozanatli montaj qilish jarayonida o'rnatiladi va taranglanadi. Uncha katta bo'linagan romli-osma oraliqli inshootlarda butun konsol blokini bitta montaj elementi ko'rinishida bajarish mu'mkin.

2.4.9. Arkasimon ko'priklar

Arka tizimdagi temirbeton ko'priklarda qubba'lар yoki arkalar asosiy ko'taruvchi elementlar bo'lib xizimat qiladi. Qubba egri chlziqli plitadan iborat bo'lib, uning eni qalinligidan ancha kattadir. Arka – ko'ndalang o'lchami odatda uning balandligidan kichik bo'lgan egri chorqirra g'o'ladir. Arkalar (qubbalar) asosan siqilishga ishlagani uchun ularda mustahkamlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan betonni qo'llash samaralidir.

Arkasimon ko'priklarning oraliq inshootlari to'sinli ko'priklarniga nisbatan doim yyengil va tejamliroq bo'ladi. Biroq tirkakni tayanchlarga uzatish, ularning o'lchamlarini, ayniqsa chetki tayanchlarning (ustunlarning) ancha miqdorga oshlirishini talab qiladi. Shuning uchun arkali ko'priklar odatda grunt yaxshi bo'lganda va tayanchlar balandligi nisbatan uncha katta bo'lmaganda maqsadga muvofiqdir. Temirbeton arkalar yoki qubbalar bilan 60:80m va undan ortiq oraliqlar qoplanadi, zamonaviy arkali ko'priklar 300m gacha oraliqlarni yopish imkoniga ega.

Arkasimon ko'priklarning asosiy tizimlari. Statik sxemaga ko'ra arkali temirbeton ko'priklarni tirkakli va tirkaksiz ko'priklarga ajratish mumkin. Tirkakli arkali ko'priklarda arkalar yoki qubba'lар tovonlari bilan tayanchlarga tayanadi va ularga vertikal bosimlarni va tirkakni uzatadi, tirkaksiz ko'priklarda tirkakni inshoot tortqichi qabul qilib tayanchlarga faqat vertikal bosimni uzatadi.


Arkasimon ko'priklar ustidan (2.29.- a rasm) yoki pastidan yurish yo'liga ega bo'ladi (2.29.- b rasm). Ayrim hollarda transport qatnov qismi arkaning tovoni sathida quriladi. Transport qatnov qismni joylashtirish, sathini tanlash ko'prikdan o'tishning bo'ylama profilini loyihalashtirish sharoitlari bilan belgilanadi. Yuqorida yurishda transport qatnov qism qubba yoki arkaga, arkausti ustunlari yordamida tiraladi, pastdan yurishda esa uni arkalarga ilgaklar bilan osib qo'yiladi.

Ko'priklarning arkalari (qubbalar) sharnirsiz, ikki sharnirli va uch sharnirli bo'lishi mumkin. Sharnirsiz arkalar (qubbalar) tuzilishlga ko'ra eng oddiydir. Biroq tayanchlar o'ta cho'kkanda va siljiganda, harorat o'zgarganda, beton kirishganda va siljuvchanligida, ularda qo'shimcha kuchlanishlar va kuchlar vujudga keladi. Shuning uchun sharnirsiz arkali ko'priklarni grunt bo'sh bo'lganda, shuningdek, harorat keskin o'zgaradigan hududlarda qo'llab bo'lmaydi. Ikki sharnirli arkalar qo'shimcha kuchlanishlarga kamroq darajada moyil bo'ladi-lar, lekin ularning konstruksiyalari sharnirlar mavjud bo'lgani uchun ancha murakkablashadi. Uch sharnirli arkalar na tayanchlarning deformatsiyasidan, na haroratning o'zgarishidan, na betonning cho'kishi va siljishidan, na qo'shimcha kuchianishlarni boshidan kechiradi. Shuning uchun ular tayanchlarning o'ta cho'kishi yoki siljishi mumkin bo'lganda, shuningdek, haroratning katta o'zgarishlari bo'lganda qo'llaniladi. Uch sharnirli tizim, shuningdek, yarim tayyor arkalardan montaj qilinadigan ko'priklarda ham qulaydir.

Temirbeton arkalarning shakllni hisobdagi yuklanishdan hosil bo'lgan bosim, egri chizig'iga iloji boricha yaqin qilib qabul qilinadi. Arkalarni ko'tarish o'qini mahalliy sharoitlarga bog'liq holda oraliqning 1/2- 1/3 dan 1/8-1/10 qismigacha qilib belgilanadi.

Tirgakli ko'priklarda tortqich faqat cho'zuvchi kuchlanishlar ni qabul qiladigan element ko'rinishida bo'lishi mumkin; arkalar esa siqilishga va egilishga ishlaydi. Bunday tizimni egiluvchan tortqichli bikr arka deyiladi (2.29.- v rasm). Boshqa ko'rinishda tortqichni egilishga ham ishlaydigan bikr to'sin ko'rinishida tayyorlanadi. Bu holda arka o'q bo'ylab siqilisliga ishlovchi egiluvchan element (egri chiziqli yoki poligonal) bo'lishi kerak; bunday tizimni bikr tortqichli egiluv-

chan arka deyiladi (2.29.- g rasm). Bikr arkali, egiluvchan tortqichli va og'ma ilgakli tizim qiziqarli bo'lib (2.29.- d rasm), ular arkadagi eguvchi momentlarni kamaytiradi va uni ancha yyengil qilishga imkon beradi. Tirkaksiz arkali ko'priklarni omuxta tizim deb ham ataladi.



2.29.-rasm. Temirbeton arkali ko'priklarning asosiy tizimlari


1- arkausti ustunlari; 2- arka; 3- transport qatnaydigan qismning konstruksiysi; 4- ilgak; 5- bikr arka; 6- egiluvchan tortqich; 7- egiluvchan arka; 8- bikr tortqich; 9- og'ma ilgaklar.

Qubba arkali ko'priklar. Yuqorisidan yuriladigan arkali ko'priklarda qubba ustidagi konstruksiyani tutib turuvchl bitta yoki bir nechta parallel qubbalar qo'llaniladi. Agar oraliq inshootida bitta qubba bo'lsa, u holda uning kengligini ko'priknинг to'liq eniga teng yoki biroz kichikroq qilinadi (2.30.- a rasm). Ikki yoki bir nechta parallel qubbalarini qo'llab, yana ham tejamli yechimni hosil qilish mumkin (2.30.- b rasm). Oraliqlar 60-80m bo'lganda qubbalar yaxlit kesimli qilinib, ular qubbaning shakliga mos holda bukilgan bo'ylama sterjenlarga perpendikulyar holda taqsimlovchi armatura qo'yiladi. Qubbaning yuqori va pastki armatura to'rlari xomutlar bilan bog'lanadi. (2.30.- a rasm). Yaxlit qubbalarining qalinligi ($1/50 \div 1/80$) l qilib olinadi. Oraliqlar katta bo'lganda (ichi bo'sh) qutisimon qubbalar qurish

ma'qul (2.30- b rasm). Materialni kesimning chetlariga toplash tufayli (yuqori va pastki plitalarda) qutisimon qubba egilishga yaxlit qubbaga qaraganda ratsionalroq ishlaydi. Qutisimon qubbalarning balandligini ($1/40 \div 1/60$) £ qilib qabul qilinadi. Qubba usti qurilmasi ko'ndalang devorlardan (2.30.- a rasm) yoki transport qatnov qismni ko'tarib turuvchi alohida qubbausti ustunlaridan iborat (2.30.- b rasm). Qubbausti devorlarini qurishda transport qatnov qismining plitasini bevosita ularga tirah qo'yish mumkin. Qubbausti ustunlarida, ular plitani bo'ylama va ko'ndalang to'sinlar yordamida tutib turadi. Tugun yaqinida transport qatnov qismi plitasi qubbaga qo'shiladi yoki u bilan tutashib ketadi; transport qatnov qismning yo'l qoplamasи tugun uchastkasi bevosita qubba bilan tutib turiladi.

O'ziga xos yengil konstruksiya qubbali arkali ko'priklarning boshqa bir turi arkali disklardan iborat ko'priklarni ifoda etadi (2.30.- v rasm). Arkali disklar transport qatnov yo'l qismining plitasi birgalikda ishlashi uchun pastki egri chiziqli plita va bo'ylama devorlar bilan yagona qutisimon kesim sifatida biriktiriladi. Uncha katta bo'lmasligi oraliqlarida pastki plita bo'lmasligi mumkin, bunda arka diskni oddiy qovurg'ali kesimga ega bo'ladi. Ko'pincha arka diskni oraliqnинг o'rta qismida qutisimon kesimga ega bo'ladi, tayanchlarga yaqin joyda esa transport qatnov qism birgalikda ishlashdan ajrab qoladi, disk esa pastki egri chiziqli plita bilan qirrali kesimga ega bo'ladi (2.30.- v rasm). Arkali disklardan ko'priklar harorat o'zgarishlari, tayanchlar deformatsiyasi, betonning cho'kishi va siljishi natijasidagi katta qo'shimcha kuchlanishlar bo'lmasligi uchun uch sharnirli qilinadi.

Alohida arkali ko'priklar. Bunday ko'priklarda asosiy yuk ko'taruvchi element arka hisoblanib, ularning kesimlari to'g'ri to'rtburchakli bo'ladi, juda katta oraliqlarda esa qo'shtavrli yoki qutisimon qilinadi. Arkalar kesimining balandligini £/40 dan £/60 gacha oraliqdagi qilib qabul qilinadi. Yuqorisidan yuriladigan ko'priklarda ko'ndalang kesimdagи arkalar soni ko'priknинг kengligiga bog'liq bo'ladi. Odatda, arkalar orasidagi masofa 2-3m dan 5-6m gacha bo'ladi. Past tomonidan harakatlanishda oraliq inshoot ikkita arkaga ega bo'ladi, ular orasidagi masofa ko'prik bo'ylab harakat gabaritining eni bilan belgilanadi.



2.30.- rasm. Qubbali temirbeton arkali ko'priklar

- 1- qubba; 2- qubbausti devori; 3- transport qatnaydigan qism plitasi;
 4- qubbaning ishchi armaturasi; 5- taqsimlovchi armatura; 6- xomutlar;
 7- qutisimon qubba; 8- qubbausti ustunlari; 9- arka disk.

Arkalar bir-biri bilan oraliq inshootning ko'ndalang yo'nalishida bikrliji va mustahkamligini ta'minlash uchun tortqichlar bilan bog'lanadi. (2.31.- a, v rasm). Arkalar ularning yuqori va quyi sirtlari bo'ylab ketuvchi bo'ylama sterjenlar bilan armaturalanadi. Bo'ylama armatura xomutlar bilan qamrab olinadi.


Alovida arkali ko'priklarning arkausti ustunlarida arkalar bilan birgalikda ishlashdan qo'shimcha kuchlanishlar paydo bo'lishini bartaraf etish uchun transport qatnov qismning konstruksiyasini arkalardan choclar orqali ajratish tavsiya etiladi. Bu ustunlarning uchlarida ko'pincha sharnirlar o'rnatiladi, bu ularni sharnirlar tufayli eguvchi momentlar ni qabul qillmaydigan tebranuvchi ustunlarga aylantiradi (2.31.- a rasm).

Chuqur jarliklar yoki oqimi tez daryolarni kesib o'tishda, arkalarni betonlash uchun havoza qurish mumkin bo'lmaganda, ba'zida metall arkali fermalar ko'rinishidagi bikr armatura qo'llaniladi. Bu fermalar osma holda yig'iladi, ularga opalubka o'rnatilib va betonlanadi. Beton mustahkamlik olgandan so'ng metall fermalar arka armaturasi vazifa-

sini bajaradi. Ikki va uch sharnirlar arkalarda sharnirlar odatda po'latdan yasaladi.

Oraliqlari uncha katta bo'limgan (30-50 m gacha) qo'shiluvchi qismlarning o'zaro burilishni ta'minlovchi po'lat listlardan yoki qo'rg'oshin qistirmalardan iborat oddiy sharmirlar qo'llanilishi mumkin (2.31.-b. rasm). Listlar yoki qistirmalarning kengligini arka kesimining taxminan $1/3 \div 1/4$ balandligida qabul qilinadi. Sharnir orqali ko'ndalang kuchlarni qabul qilish uchun xizmat qiluvchi bo'ylama sterjenlar o'tkaziladi. O'zaro sharnirlar qo'shiluvchi ikkita yostiq-balansirlardan iborat, po'lat quymali sharmirlar ancha mukammaldir (2.31.-g rasm). Sharnirlardan bosimlar uzatiladigan joylar beton to'rlar bilan kuchaytiriladi.

Arkali ko'priklarning oraliq inshootlarini to'liq yig'ma yoki yaxlit quyma arkali, yig'ma arkausti inshoot quriladi. To'la yig'ma arkali ko'priklarda arkalar tayyor bloklardan montaj qilinadi.




2.31.- rasm. Arkalari alohida bo'lgan konsolli yaxlit quyma ko'priklarning konstruksiyalari

1- transport qatnov qismidagi chok; 2- arkalar orasidagi tortqichlar; 3- arkausti ustunlaridagi sharnirlar; 4- arka; 5- arkausti ustunlari; 6- qo'rg'oshin list;

7- suv o'tkazmaydigan mastika; 8- sharnirning o'qli sterjeni;
9-po'lat-balansirlovchi sharnir.

Ikkita yarimarkalardan arkani montaj qilish qulay, ularmi tayyor holda oraliqqa yetkaziladi (2.32.- a rasm).

Yaxlit quymarkalar joyida havozalarda betonlanadi. Arkausti inshoot yig'ma tarzda transport qatnaydigan qismning elementlarini ushlab turuvchi ustunlar, ko'ndalang devorlar yoki romlardan barpo etiladi. Arkausti ustunlar bo'yicha konsollarini yotqizilib, ularga transport qatnov qismning plitali yoki qovurg'ali elementlari tiraladi. (2.32.-v rasm). Arkausti qismning ustunlari va konsollarini rom bloklariga birlashtirilishi mumkin (2.32.- b rasm). Shuningdek ustunlari bo'yicha bo'ylama to'sinlar yotqiziladigan, ular ustidan esa transport qatnov qismning bloklari joylashadigan arkausti inshooti ham qo'llaniladi (2.32.- g rasm). Yig'ma arkausti inshooti konstruksiyalarida doim oddiy to'sinli oraliq inshootlari elementlaridan foydalamanish maqsadga muvofiq.



2.32.-rasm. Yig'ma arkali ko'priklarning konstruktiv elementlari

1- tayyor blok yarimarka; 2- arkausti inshoot romlari; 3- transport qatnaydigan qismning yig'ma elementlari; 4- qubbausti devori; 5- rigel; 6- bloklar orasidagi choklar; 7- arka bloklari; 8- arka; 9- arkausti ustuni;

10- bo'ylama tayanch.


Tortqichli arkalar. Tortqichli arka oraliq inshootlari tayanchlarga tirkaklarni uzatmasdan katta oraliqlarni yopish talab etilgan hollarda qatnov pastdan ainalga oshlirladigan ko'priklarda qo'llaniladi. Bunday

ko'priklarda arka tırgakları tortqichlar qabul qiladi, umuman oraliq inshootlari esa to'sinli inshoot kabi ishləydi.

Egiluvchan tortqicibli arkali oraliq inshootlarda tortqich temirbeton yoki metalldan qilinadi. Avvalları temirbeton tortqichlar kuchlanishni oraliq inshootining qirralariga po'lat yostiqlar orqali uzatiladigan, uchlari ishonchli tarzda mustahkam mahkamlangan silliq po'lat sterjenler bilan amalga oshirilar edi. Zamonaviy konstruksiyalarda tortqichlarni oldindan zo'riqtirilgan yuqori darajada mustahkam po'lat simli dastalar yoki chiyralgan simarqonlar bilan ancha mukammal armaturalash usuli qo'llaniladi.

Metall tortqichlar qo'sh tavrli, qo'sh shvellerli yoki qutisimon kesimli profil metalldan, ilgaklar esa temirbetondan yoki ko'pincha dumaloq po'latdan tayyorlanadi.

Po'lat ilgaklarning uchiari arkalarga va transport qatnov qismining ko'ndalang to'sinlariga gaykalar va po'lat qistirmalar yordamida mahkamlanadi.




2.33.- rasm. Tortqichli arkalarning detallari

1- egiluvchan arka; 2- bikr tortqich; 3- ko'ndalang to'sin.

Bikr tortqichli arkali oraliq inshootlarda arkalarning vertikal tekislikdagi bikrliyi minimal bo'lishi va arkalarga oraliq inshootining umumiyl deformatsiyasidan jiddiy eguvchi momentlar uzatilmasiligi uchun arkalarga iloji boricha kichik kesim balandligi beriladi (2.33.-

rasm). Tortqichni bo'yylama kuchning eguvchi momentlar bilan birgalikdagi ta'siriga hisoblangan baland to'sin ko'rinishida tayyorlanadi. Bikrli to'sinning kesimi oraliqlar kichik bo'lganda to'g'ri to'rtburchak shaklda, katta oraliqlarda esa qo'shtavrli yoki qutisimon qilinadi (2.33.-v rasm). Bikrli to'sinlarda ikki xil ishorali eguvchi momentlar vujudga kelishi sababli, armaturani ham yuqoriga, ham pastga joylashtiriladi. Bosh cho'zuvchlari kuchlanishlarni qabul qilish uchun xomutlar va qiya sterjenlar qo'yiladi (2.33.-a rasm).

Arkali ko'priklarning tayanchlari. Tayanchlar faqat vertikal kuchlarnigina emas, balki arkalarning gorizontal tirkaklarini ham qabul qiladi. Shuning uchun ularni surilish yoki ag'darilishdan saqlash uchun yaxlit qilib barpo etiladi. Agar oraliq tayanchga tutashuvchi arkalar bir xil oraliqqa ega bo'lisa, u holda tayanch ham konstruksiyaga simmetrik bo'ladi (2.34.-a rasm).



2.34.- rasm. Arkali ko'priklarning tayanchlarining turlari:
1- arka; 2- oraliq tayanch; 3- asos.

Barcha tayanchlarni kattalashtirish zaruriyati bo'lmagan holda uning yuqori qismini ingichka ustunlardan yengillashtirilib tayyorlash mumkin (2.34.-b rasm). Oraliqlari bir xil bo'lmagan arkalar tutashgan tayanchlar katta arka tomonidan muvozanatlanmagan gorizontal tirkakning ta'siriga duch keladi. Bunday tayanchning shakli tirkakni

neytrallovchi, nosimmetrik bo'lishi mumkin (2.34.- v rasm).

Arkali ko'priklarning asoslari arkalardan ancha katta gorizontal kuchlarni qabul qiladi, shuning uchun ular uzunlashtirlladi. Asoslar bir paytda ko'prikká kirish ko'tarmasi gruntini ushlab tura oladi (2.34.- g rasm), yoki arka inshoot ustunlarini ko'tarib turishi mumkin (2.34.- d rasm).

Katta chuqurliklarda zaif gruntlarning mavjudligi arkali ko'prik tayanchlarining kuchli rivojlanishini talab etadi va ko'prik umuman iqtisodiy jihatdan foydali bo'lmaydi.


2.4.10. Vantli ko'priklar

Vantli tizimdagи temirbeton ko'priklar 300-350m gacha bo'lgan katta oraliqlarni qoplash uchun qo'llaniladi. Odatda ular tayanchlarni qurish qiyin va murakkab bo'lgan chuqur daryolar bilan kesishish joylarida, daryoning quyilish joylarida, dengiz ko'rfazi va bo'g'ozlarda barpo etiladi. Vantli ko'priklar, shuningdek, shaharlarda ham barpo etiladi, chunki ular yaxshi tashqi ko'rinishga ega.

Vantli ko'prik temirbeton tayanchlarga – pilonlarga ega bo'lib, unga simdastalardan iborat metall vantlar mahkamlanadi (2.35.- a rasm). Pilonlar asosan siqilishga, vantlar esa cho'zilishga ishlaydi. Vantli avtomobillar harakati amalga oshlirladigan bikrli temirbeton to'sinni ko'tarib turadi. Ko'pgina nuqtalarda bikrli ustunlarning vantlarga mahkamlamishi tufayli u kamroq eguvchi momentlarga ishlaydi va nisbatan kichik qurilish balandligi bilan bajarilishl mumkin.

Vantli ko'prik pilonlarining balandligi N ni $(1/5 \div 1/3)\ell$ ga teng qilib qabul qilinadi, bunda ℓ - ko'priknинг markaziy oralig'i (2.35.- rasm). Chekka oraliqlarda $(0,5 \div 0,8)\ell$ ga teng. Vantlarning bikrli to'singa mahkamlanish nuqtalari orasidagi masofa turli xil sxemalarda keng chegaralarda $a=5 \div 10\text{m}$ dan $a=50 \div 60\text{m}$ gacha o'zgarishi mumkin. Vantlarning joylashishi chastotasiga bog'liq holda bikrli to'sinining balandligi h o'zgaradi, uni deyarli har doim oratiq uzunligi bo'yicha o'zgarmas deb qabul qilinadi. Odatda $h=(1/15 \div 1/20)a$ yoki $h=(1/40 \div 1/100)\ell$ bo'ladi.

Vantlar gorizontal bo'yicha kamida 30° qiyalik burchagi ostida joylashtiriladi, aks holda ularda katta kuchlanishlar yuzaga kellshi, bikrliligi esa tez kamayishi mumkin. Vantlarning joylashish tizimi juda xilma-xildir. Vantlar pilonining bir nuqtasidan chiqishi (2.35.- a rasm) yoki pilonga turli balandlikda yondashib, parallel joylashishi mumkin (2.35.- b rasm).



2.35-rasm. Vantli ko'priklarning sxemalari

1-vantlar; 2-pilonlar; 3-bikrlik balkalari; 4-ko'ndalang tayanch balkasi

Vantlar bikrli to'sinning bir nuqtasidan chiqishi (2.35.- v rasm) yoki pilonning turli nuqtalaridan va turlicha qiyalik bilan chiqishi mumkin (2.35.- g rasm). Ba'zan vantli ko'priklar bitta nosimmetrik joylashgan pylon bilan ta'minlanadi (2.35.- d rasm). Bunday sxema ko'pincha katta shaharlarda ko'priklar qurishda afzalliliklarga ega. Bir pylonli ko'priking katta oralig'ida odatdag'i tayanchlar o'rnatilishi mumkin, bunda vantlarga eng yaqin tayanchni $a \approx (1 \div 2)a$ masofada joylashtirish maqsadiga muvofiqdir.

Vantli ko'priknинг piloni asosiy oraliq £ ning vantlaridan gorizontal kuchlanishlarning bir qismini o'ziga qabul qilish uchun vertikalga $\beta=10^\circ \div 20^\circ$ burchak ostida og'gan bo'lishi mumkin (2.35.- e rasm).

Vantli ko'priklarning ko'pchiligi qabul qilingan tirkakli tizim sifatida ishlab, bunda vantlardagi kuchlanishlarning gorizontal tashkil etuvchilari bikrli to'singa uzatiladi (2.35.-a, b rasm). Bu holda oraliqli inshoot tayanchlarga faqat vertikal kuchlanishlarmi uzatadi. Vantlar avtomobil yo'li ko'prining chekka tayanchiga, (ayniqsa bir pilonli sxemada) mahkamlanishi mumkin (2.35.- e rasm). Bu yerda bikrli to'sin asoslardan biriga tayanib, unga gorizontal kuchlanishlarni uzatadi. Vantli ko'priknинг bikrli to'sinni uning vaqtinchalik yuklanishlardan va shamol ta'sirida buralib ishlashini yaxshilash uchun qutisimon kesimli konstruksiyalardan tayyorlanadi. Bikrli to'sin alohida pilonlarga uchlari bo'yicha vantlarga osiladi (2.35.- rasm A-A kesim). Ko'ndalang yo'nalishida katta bikrlikka erishish uchun pilonlar romli konstruksiyada barpo etiladi (2.35. rasm V-V kesim).

2.5 METALL KO'PRIKLAR

2.5.1. Metall ko'priklarning asosiy tizimlari

Po'latlarning yuqori sifati, ularning barcha turdagи kuch ta'sirlarida yaxshi ishlashi, turlicha tizimdagi va konstruksiyalardagi ko'priklar tayorlash imkonini beradi. Shuning uchun hozirgi vaqtida qo'lliamladigan metall ko'prik tizimlari xilma-xil va juda ko'pdir.

Metall ko'priklarning tizimlari va konstruksiyalarining har xilli-gi tusayli ularni aniq tasniflash ancha qiyinchilik tug'diradi. Shunga qaramay, oraliqli inshootlarni bosh ko'taruvchi elementlarining statik sxemalariga ko'ra metall ko'priklar quyidagi asosiy tizimlarga bo'linishi mumkin: 1-to'sinli; 2-arkall; 3-osma.

Bundan tashqari, metall ko'priklar oddiy tizimlarni qo'shib olib borish yoki oddiy tizimlarga qo'shimcha elementlarni kiritish yo'li bilan hosil qilingan turlicha **omixta tizimlarda** qildinadi. Ba'zida metall ko'priklarni **romli tizimda** ham bajariladi.


Hozirgi paytda to'sinli ko'priklar juda keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy po'latlar to'sinli konstruksiyalar bilan o'rtacha va katta daryolar ustidan qurilgan ko'priklarda tez-tez uchrab turadigan faqat oddiy oraliqlarnigina emas, balki juda yirik daryolar va boshqa to'siqlar orqali nihoyatda katta oraliqlarni ham (300-500mgacha) qoplash imkonini beradi. To'sinli ko'priklarning o'ziga xos xususiyati oraliqli inshootlarning asosan (vertikal yuklanishlardan) faqat vertikal bosimlarni uzatish hisoblanadi. Bu tayanchlarning balandligi katta bo'lganda chuqur daryolar ustidan ko'priklar barpo qilishni yengllashtiradi. Bundan tashqari, to'sinli ko'priklarning tuzilishi uncha murakkab emas va ko'pchilik holatlarda boshqa tizimlardagi ko'priklarga qaraganda ancha oddiy usullarda barpo qilinishi mumkin. Statik sxemaga ko'ra to'sinli ko'priklar qirqimli, qirqimsiz va konsolli tizimlarda bo'lishi mumkin (2.36.-a, b, v. rasm).

Bosh yuk ko'taruvchi elementlarning tuzilishiga ko'ra to'sinli ko'priklar bosh to'sinlari yaxlit devorli ko'priklarga (2.36.- a, b, v rasm) va orasi ochiq fermali ko'priklarga bo'linadi (2.36.- g rasm).

Qirqimsiz tizimdag'i ko'priklarda har bir oraliq qo'shnisi bilan bog'liq bo'limgan mustaqil oraliqli inshoot bilan qoplangan (2.36.- a rasm).

Ko'priknинг qirqimliligi har bir oraliq inshootning soddaligini va mustaqilligini ta'minlaydi. Shu tufayli to'sinli-qirqimli ko'priklar hatto noqulay grunt sharoitida ham qo'llanishi mumkin, chunki tayanchlarning cho'kishi ehtimoli qirqimli oraliqli inshootlar ishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ko'prikdagi oraliqlardan birining shikastlashi yoki buzilishi qolgan oraliq inshootlariga ta'sir ko'rsatmaydi. To'sinli qirqimli ko'priknинг oraliq inshootlarini uniumlashtirish va standartlashtirish oson. Bundan tashqari, qirqimli oraliq inshootlar tayyorlash va yig'ish uchun qulaydir. Shuning uchun to'sinli qirqimli tizimdag'i ko'priklar temir yo'llarda ham, avtomobil yo'llarida ham keng tarqalgan.

Qirqimli to'sinli ko'priklarning asosiy kamchiligi nisbatan ko'proq metall sarflanishidir, chunki ularda qirqimsiz yoki konsolli ko'priklardagidek, qo'shni oraliqlar yoki konsollarning yuklanishni kamaytiruvchi ta'siridan foydalanilmaydi.



2.36.- rasm. Metall ko‘priklarning asosiy tizimlari

1- osma oraliqning konsol bilan tutashishi; 2- vaqtincha yuklanish; 3- bikrli to’sin; 4- arkali belbog’i; 5- kabel; 6- vant; 7- yordamchi arka belbog’i; 8- qo’shimcha tirgovich.

Tayanch momentlarning birgalikdagi ishl va yukini yengillish-tiruvchi ta'siri tufayli, ikki yoki bir necha oraliqlarni qoplab turuv-chi bosh to'sinlarga (fermalarga) ega **qirqimsiz ko'priklar** qirqim-li ko'priklarga qaraganda kamroq material sarflanishimi talab etadi (2.36.- h rasm). Qo'shni oraliqlarning yukini yengillashtiruvchi ta'siri doimiy yuklanishdan eng ko'p darajada namoyon bo'lishi oqibatida materiallar sarfidagi tejamkorlik qirqimli tizimga nisbatan ko'priklar oraliqlari ko'payishi bilan oshadi. Bundan tashqari, qirqimsiz to'sinli ko'priklarning har biri faqat bitta tayanch qismida joylashganligi va bosimlarni markaziy holda uzatilishi tufayli ancha ingichka tayanchlar-ni talab etadi. Vaqtincha yuklanish oraliqdan-oraliqqa o'tadi, chun-ki egilish chizig'i tekis ko'rimishga ega bo'ladi. Qirqimsiz ko'priklar qirqimli oraliqli inshootlarga qaraganda kattaroq bikrlilikka ega bo'la-di. Nihoyat, qirqimsiz ko'priklar havozalarsiz osma montaj qilishmi qulaylashtiradi.

Qirqimsiz ko'priklarda: tayanchlarning har xil cho'kishida bosh tayanchlarda (fermalarda) qo'shimcha kuchlanishlarning paydo bo'li-shi va ko'p oraliqli sxemada katta harorat uzayishlari kabi ba'zi kam-chiliklar ham bor.

O'z xossalari va ishslash sharoitlariga ko'ra konsolli tizim oraliq tizim hisoblanadi (2.36.- v rasm). Oraliq inshootlariga metall sarflash bo'yicha u qirqimli ko'priklarga yaqin turadi. Statik aniqlanuvchanligi tufayli tayanchlarning o'ta cho'kishi uning bosh to'sinlarida (fermala-rida) qo'shimcha kuchlanishlarni vujudga keltirmaydi.

Konsolli ko'priklar, xuddi qirqimsiz ko'priklar singari osma yig'ish imkonini beradi. Konsolli ko'priklarning tayanchlari ular-ga oraliqli inshootlarning bir nuqtada markaziy tayanishi tufayli old tomoni bo'yicha uncha katta bo'limgan kenglikni hosil qiladi. Kon-solli ko'priklarning iqtsodiy afzalliklari qirqimsiz tizimlardagi kabi oraliqlar kattaligining ortishi bilan ortadi.

Konsol tizimining murakkab konstruktiv joylari osma oraliqlar-ni konsol bilan tutashuviga bog'liq bo'lgan tomoni ham bor. Bunday qo'shilishlarda yuklanishlar ostidagi dinamik ta'sirlarni, vujudga keltiruvchi egilish chizig'ida ancha keskin egilish hosil bo'ladi. Bu

holat rels yuklanishi (temir yo'l, tramvay) ostidagi ko'priklar uchun juda muhim, shu bilan birga, zamonaviy tezkor avtomagistrallardagi ko'priklar uchun ham ahamiyatga ega. Shuni ham ta'kidlash zarurki, asosiy oraliqlardan biri shikastlanganda qo'shni oraliqlar konstruksiyasining buzilishi muqarrar.

Metalldan qurilgan arkasimon ko'priklar tirkakli tizim bo'lib, to'sinli tizimdagi ko'priklarga qaraganda oraliq inshootlariga metaflning kamroq sarfini talab etadi. Lekin tirkakni uzatish tufayli tayanchlarmi yanada kuchli qilishga to'g'ri keladi.

Grunt yaxshi bo'lganda arkali tizim ko'pincha maqsadga muvofiq bo'ladi. Grunt sharoitlari yomon bo'lganda va tayanchiar balandligi katta bo'lganda arkali ko'priklarni qo'llash qiyinlashadi. Shu munosabat bilan tekis hududlarda arkali ko'priklar to'sinli ko'priklarga qaraganda ancha kam qo'llaniladi. Lekin arkali ko'priklar shaharlarda ko'pchilik hollarda me'moriy mulohazalardan kelib chiqib quriladi. O'zining konstruksiyasiga ko'ra arkali ko'priklar yaxlit kesimli arkalarga (2.36.-e rasm) yoki panjarasimon arkali fermalarga ega bo'ladi (2.36.-j rasm).

Arkali oraliq inshootining tirkagini tortqich qabul qilishi mumkin. Bu holda oraliqli inshoot tirkaksiz to'singa aylanib qoladi. Avtoyo'l va shahar ko'priklarida ko'pincha ochiq ferma ko'rimishidagi bikr tortqichli arkalar qo'llaniladi (2.36.-z rasm). Bunday oraliqli inshootlarda arkani odatda polygonal siqllgan tasma sifatida quriladi. Ishlash sharoitiga ko'ra, bu tizim omuxta tizimlar qatoriga kiradi.

Arkali ko'priklar qirqimsiz va konsolli bo'lishi mumkin, lekin na texnik, na iqtisodiy afzallikkilarga ega bo'lgani uchun bu tizimlar keng tarqalmadi.

Osma ko'priklarning asosiy ko'taruvchi xususiyati shundan iboratki, unda yuk ko'taruvchi elementlar sifatida katta mustahkamlikka ega yuqori sifatli po'latdan tayyorlanadigan kabellar, zanjirlar yoki vantlar xizmat qlladi. Bu elementlarni gruntda yoki asosda mustahkamlangan holda osma ko'priklar tirkakli deb ataladi.

Osma ko'priklarning vertikal mustahkamligini oshirish uchun ular bikrli to'sinlar bilan ta'minlanadi (2.36.-i rasm), bu holda tizim murakkab tizimga aylanadi. Agar tortqich uchlarini bikrli to'sin

uchlariga mahkamlangan va unga tortqichlardagi gorizontal qo'shiluvchi kuchiar uzatilsa, u holda tizim tashqi ko'rinishdan tirkaksiz bo'lib qoladi (2.35.- k rasm). Tashqi ko'rinishdan tortqichsiz osma ko'priklarning boshqa turini pilonlarning ikkala tomoni bo'ylab simmetrik yoki nosimmetrik joylashgan, vantlar tizimi bilan tutib turiladigan bikrli to'sim bo'lgan tizim ifoda etadi (2.36.- l rasm). Tortqichsiz osma tizimlar tayanch reaksiyalariga ko'ra to'sinli tizimga o'xshaydi.

Osma ko'priklar ko'p oraliqli qirqimsiz bo'lishi ham mumkin; bunday ko'priklarda ko'taruvchi kabel bir necha oraliq orqali uzlusiz o'tadi. Osma ko'priklar boshqa tizimdag'i ko'priklarga qaraganda bikrli kamroq bo'lGANI uchun ular, odatda, avtomobil yo'llarida va shaharlarda quriladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tizimlardan tashqari metall ko'priklarda shprengel yoki egiluvchan arka ko'rinishidagi pastki qo'shimcha belbog' bilan kuchaytirilgan to'sinlardan (yoki fermalardan) tashkil topgan omixta tizimlar ham qo'llaniladi (2.36.- m rasm).

Keyingi yillarda keng qo'llaniladigan bunday tizimlarning boshqa turi qo'shimcha tirkavuchlar bilan kuchaytirilgan konsolli yoki qirqimsiz to'sindan tashkil topgan konstruksiya hisoblanadi (2.36.- n rasm).

Omixta tizimlar shunday xususiyatga egaki, bunda statik noaniqligi tufayli ularning elementlarida metall sarflashda tejash imkonini beruvchi sun'iy tartibga solingan kuchlanishni qo'llash mumkin.


2.5.2. Metall oraliq inshootlarining konstruktiv elementlari

Istalgan tizimdag'i metalloraliqli inshootlarning asosiy ko'taruvchi elementlari to'sinlar, fermalar, arkalar oraliqli inshootlarning qolgan barcha elementlarini qamrab turuvchi yoki boshqa konstruktiv elementlar hisoblanadi.

Yuqoridan harakat amalga oshiriladigan ko'priklarda bosh to'sinlar, fermalar yoki arkalar transport harakatlanadigan qismning ostiga joylashtiriladi. Bunday oraliqli inshootlarda bosh to'sinlar (fermalar, arkalar) soni ko'priknинг kengligiga bog'liq bo'ladi. Kengligi uncha katta bo'limgan avtomobil yo'llari va shahar ko'priklarida ikkita bosh

to'sin bo'lishi mumkin, keng ko'priklarda esa bosh to'sinlar soni konstruktiv va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ko'ra belgllanadi (2.37.- a rasm).

Bosh to'sinlar (fermalar, arkalar) oraliq inshootining fazoviy o'zgarmasligini va mustahkamligini ta'minlovchi bo'ylama va ko'ndalang bog'lanishlar bilan o'zaro birlashtiriladi va ko'priknинг transport qatnaydigan qismini ko'tarib turadi.



2.37.- rasm. Metalldan tayyorlangan oraliq inshootlarining konstruktiv elementlari

1- bosh to'sin; 2- tutqichlar; 3- bo'ylama bog'lanishlar; 4- ko'ndalang bog'lanishlar; 5- transport qatnaydigan qismning temirbeton plitasi; 6- bosh ferma; 7- qatnov qismining bo'ylama to'sini; 8- qatnov qismining ko'ndalang to'sini; 9- ko'ndalang peshtoq bog'lanishlari.

Arkali ko'priklarda ko'pincha oraliqli inshootning bosh to'sinlari bevosita yuqori belbog'lariga yotqizilgan temirbeton qatnov qismi qo'llaniladi (2.37.- a rasm). Bu plita to'sinlar orasidagi yuqori bo'ylama bog'lanishlarning o'rmini bosishi mumkin.

Past qismidan yuriladigan ko'priklarda yuk ko'taruvchi elementlar (fermalar, arkalar, osma ko'prik kabellari) transport qatnaydigan qismning ikkala tomoniga joylashtiriladi. Shuning uchun past qismidan yuriladigan oraliqli inshootlar juda kamdan-kam hollarda ikkita bosh fermaga (arka yoki boshqalarga) ega bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, harakatlanish past qismidan amalga oshiriladigan oraliqli inshootlarning transport qatnaydigan qismi ko'ndalang to'sin-

larga, ko'pincha esa bo'ylama to'sinlarga ham ega bo'ladi. (2.37.- b rasm). Harakatlanish pastki qismidan amalga oshiriladigan oraliqli inshootlarning fazoviy o'zgarmasligi va ko'ndalang bikrligini ta'minlash uchun ularning pastki va yuqori belbog'lari bo'ylab bo'ylama bog'lanishlar o'rnatildi. Metall ko'priklarning bosh to'sinlari, fermalar yoki arkalar o'zlarining tayanch bosimlarini tayanchlarga maxsus tayanch qismlari orqali uzatadilar. Tayanch qismlar oraliqli inshootlarning tayanch bosimlarini aniq belgilangan joylarda uzatilishini va sharnirlikni yaratish, shuningdek, tayanishning harakatlanuvchanligini ta'minlash uchun xizmat qilladi.

Metall oraliqli inshootlar elementlari bir-biri bilan elektrpayvandlash, parchin mixlar yoki friksion boltlar bilan biriktiriladi. Elementlarni zavodda va montaj qilishda biriktirish usullariga bog'liq holda metall ko'pri konstruksiyalarining quyidagi turlari farq qilinadi. **Parchin mixli** barcha birikmalar, shu jumladan, montaj birikmalarini ham parchin mixlar bilan bajariladi. Yaxlit payvandlangan barcha birikmalar, shu jumladan, montaj qilinadigan birikmalar ham payvandlash bilan bajariladi. Parchin mix montaj birikmali payvandlash va boltli montaj birikmali payvandlash - zavodda biriktirilgan joylari konstruksiyalarda payvandlangan, montaj birikmalarini parchin mixli yoki yuqori mustahkamlikka ega boltli bo'lgan holda qo'llanadi.

2.5.3. Metall ko'priklarning qatnov qismi

Metalldan qilingan avtomobil yo'llari va shahar ko'priklarining transport qatnaydigan qismi ustida harakatdagi yuklanish g'ildiraklarning bosimidan va vaqtincha yuklanish va fermalarga uzatuvchi transport harakatlanadigan qismdagi to'sinlardan tushadigan bosimni qabul qilib oluvchi yo'ldan iborat.

Transport qatnaydigan qismyo'l qoplamasи va uni ko'tarib turuvchi qatnov qismning to'sinlaridan, yoki bevosita bosh to'sinlaridantashkil topadi.

Metalldan qilingan shahar ko'priklarida yo'l qoplamasи asfaltbeton yoki sement betondan tayyorlanadi. Transport qatnaydigan qismdan

suvin tushishi uchun bo'ylama va ko'ndalang qiyalik beriladi. Suv ko'priidan tashqariga maxsus suv chiqaruvchi moslamalar orqali ko'pri ostiga oqiziladi.

Transport qatnov qismining og'irligi metall avtomobil yo'li va shahar ko'priklarining to'la doimiy yuklanishining katta qismini tashkil etadi. Shuning uchun transport qatnaydigan qismni yengillashtirish, ayniqsa, katta oraliqli ko'priklarda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Temirbeton plitali qatnov qismi.

Zamonaviy avtomobil yo'llari va shahar ko'priklarida ko'pincha transasport qatnov qismi temirbeton plitadan qilinadi, bu plita yaxlit quyma yoki oldindan tayyorlangan elementlardan yig'ma holda bajarilishi mumkin. Plita oraliq inshootining bosh to'sinlariga yoki qatnov qismning to'sinlariga tayanadi.

Qatnov qism yig'ma plitasining bosh afzalligi shundaki, uni o'rnatiladigan joyiga zavodda yoki maxsus bazada tayyorlangan tayyor bloklar ko'rinishida yetkaziladi. Plitani joyida tayyor bloklardan yig'ishda faqat bloklar orasidagi choklarni to'ldirish uchun uncha ko'p bo'limgan miqdorda beton yoki qorishma yotqizishga to'g'ri keladi. Yig'ma plitalarni tayyorlash ishlarini qish paytlari ham katta qiyinchiliklarsiz bajarish mumkin. Yig'ma plitaning kamchiligi ularish choklari sonining ko'pligida bo'lib, ular juda yaxshi bajarilganda ham ma'lum darajada tayyor plitaning yaxlitligi buziladi. Bundan tashqari, yig'ma plitani o'rnatishda katta o'lchamdagи tayyor bloklarni yetkazib berishda, ayniqsa ularni vaqtincha yo'llardan tashish zarur bo'lganda ko'pincha qiyinchiliklar vujudga keladi.

Yig'ma temirbeton plitadan farqli ravishda yaxlit quyma temirbeton plita joyida betonlanadi, buning uchun maxsus qolip tayyorlab va joyida armatura isblarining bajarilishini talab qiladi. Bundan tashqari, betonlangan konstruksiyaning betoni yetarli mustahkamlikka erishguncha ma'lum muddat davomida kutib turishga to'g'ri keladi. Yaxlit quyma plitani joylash ishlari oldindan tayyorlab qo'yilgan armatura karkaslaridan foydalanishda va plitani betonlashga qarab surib boriladigan ko'chma qolipdan foydalanishda soddalashtirilishi va tezlashtirilishi mumkin.

Metall ko'priklarda hozirgi vaqtgacha temirbeton plitaning yig'ma konstruksiyasi qo'llanilib kelingan edi. Biroq yaxlit quyma plita iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladigan holatlar ham kam emas. Barcha holatlarda ham transport qatnaydigan qismning yig'ma va yaxlit quyma plitasi o'rta sidagi tanlovnii ko'priq qurishning barcha sharoitlarini hisobga olgan holda, ularni texnik-iqtisodiy jihatdan solishtirib asoslash kerak.

Temirbeton plitali qatnov qismi yaxshi ekspluatatsion sifatlarga ega bo'lib, ko'priq bo'ylab harakatlanayotgan ko'chma yuklanishning dinamik ta'sirini kamaytiradi. Zamonaviy ko'priklarda temirbeton plitam, odatda, uni ko'tarib turuvchi metall to'sinlar bilan ham bosh, ham qatnov qism to'sinlarining birgalikdagi ishlashiga mo'ljallanadi. Bunda, metall to'sinlar bilan birlashtirilgan konstruksiyada temirbeton plita asosan siqilishga, metall to'sinlar esa cho'zilishga ishlaydi.

Temirbeton plitali transport qatnaydigan qismning kamchiligi uning $600\text{-}800\text{kg/m}^2$ ga yetadigan katta og'irligidir. Plita og'irligini kamaytirishga yengil betonning, masalan keramzit asosidagi, shuningdek, yuqori sinfli betonni va oldindan zo'riqtirilgan armaturani qo'llash orqali erishish mumkin.

2.5.4. Shahar ko'priklarida qatnov qismi va trotuarlarni to'sish

Avtomobil yo'llari va shahar ko'priklarida harakatlanish xavfsizligini ta'minlash uchun qatnov qismni bordyurlar bilan oddiy to'siq yoki transport vositasi tez yuradigan avtomagistrallarda maxsus to'suvchi moslamalar o'rnatiladi. To'suvchi moslamalar qatnov qismining bevosita chetiga joylashtiriladi yoki ularni to'siqlar bilan barpo etiladi.

Qatnov qismi temirbeton plitadan iborat metall ko'priklarda to'siq yo'lning sirtidan 50-60sm balandlikda, burchak elementlar ko'rinishida qurilishi mumkin. To'suvchi elementlar mustaqil o'rnatilishi va temirbeton plitada ankerlar yoki polimer yelim bilan mahkamlanishi mumkin (*2.38.- a rasm*). To'suvchi element trotuar to'sinlari bilan birlashtirilishi mumkin (*2.38.- b rasm*). Qatnov qismiga metall to'shamayotqizilgan ko'priklarda, uni to'sish metall bordyurli bo'rtiqlar bilan

amalga oshiriladi (2.38.- rasm). Qatnov qismini ishonchli to'sish metall shakldor planka yordamida erishiladi (2.38.- g rasm).

Faqat avtomobillar harakatlanishi uchun mo'ljallangan va piyodalarining o'tishini nazarda tutmaydigan yo'llarda maxsus trotuarlar barpo etilmaydi va to'siqlar sifatida turli moslamalardan foydalilanildi. Bunday hollarda to'siqlar avtomobilarning unga beradigan zarbiga mos bo'lishi, suyanchiqlarning ustunlari esa qatnov yo'li qismining plitasiga yoki oraliqliq inshootning metall konstruksiyasiga ishonchli tarzda mahkamlangan bo'lishi kerak.


To'siqlar avtomobilarning zarblarini qabul qilishi uchun shakldor po'lat plankaga ega bo'lishi (2.38.- d rasm) yoki zARBANI o'zining tutqichi va to'ldirish elementlari bilan qabul qilishi mumkin (2.38.-e rasm). Chet ellarda ko'pincha boshqalarga nisbatan kattaroq deformatsiyalanuvchanlikka ega bo'lgan, zARBALARNI yaxshiroq amortizatsiyalovchi alyuminiy suyanchiqlari qo'llaniladi.

Metall ko'priklardagi trotuarlar temirbeton plitaning konsollarida yoki qatnov qismining go'yo ko'ndalang to'siqlari davomini ifodalovchi maxsus konsollarda quriladi. Trotuarlarning sirtlaridan suv oqib ketishi uchun ko'priknинг qatnov qismi tomoniga qarab 1,5-2% qiyalik bilan qurish tavsiya etiladi.

Shahar ko'priklari suyanchiqlari piyodalarining xavfsizligini ta'minlash uchun, ayrim hollarda esa avtomobilarning kelib urilishi zARBINI qabul qilish uchun yetarlicha mustahkam va ishonchli bo'lishi kerak (2.38.- d va e rasm).

Shu bilan birga, to'siqlar me'moriy bezatilishning ma'sul elementi, ayniqsa, yuqori qismidan harakat amalga oshiriladigan ko'priklarda avtomobillar va piyoda o'tib borayotgan yo'lovchilar tomonidan ko'rinishdigan yagona konstruktiv elementidir. Shahar ko'priklarida suyanchiqlarning yaxshi tashqi ko'rinishi alohida ahamiyatga ega. Metall ko'priklarning to'siqlari odatda metalldan tayyorlanadi. To'siq ustunlari trotuar konsollari uchiariga yoki maxsus trotuar bloklariga mahkamlanadi (2.38.- a va b rasm). Shahar ko'priklari to'siqlari odatdagi sortamentdagi prokat metalldan tayyorlanadi. Shu bilan birga, cho'yandan qo'yilgan me'moriy bezakli to'siqlar ham qo'llaniladi.

Yuqori tezlikda harakatlanuvchi avtomobillar uchun mo‘ljallangan avtomagistrallarda ko‘priklar qurishda qatnov qismning ikki yon chekkalarida tutqichlarning mavjudligi harakatlanayotgan avtomobilarga salbiy aerodinamik ta’sir ko‘rsatish mumkin.




2.38.- rasm. Avtomobil yo‘llari ko‘priklaridagi harakatlanish qismidagi qo‘llaniladigan to‘sishqlarining turlari

1- burchakli to‘suvchi element; 2- polimer yelim qoplamasi; 3- shakldor po‘lat planka; 4- metall ustun; 5- qo‘sishma tutqichlar; 6- trotuar bloki bilan birlash-tirilgan to‘suvchi element; 7- po‘latdan tayyorlangan to‘suvchi bordyur; 8- avtomobilning zarbalarini qabul qiluvchi tutqichlar.

Buning sababi shundaki, harakatdagi avtomobil kesib borayotgan va ikki tomonga itarib chiqarilayotgan havotutqichlar tomonidan yon-bosh qarshilikka duchor bo‘lib, uning harakati barqarorligini buzishga qodir qo‘sishma W yon bosimini sezadi (2.39.- b rasm)

Shuning uchun harakatlanish tezligi katta bo'lgan avtomagistral ko'priklari to'siqlarining konstruksiyasi havoni minimal darajada tutib qolishi, ya'ni to'ldirish elementlarining iloji boricha kichik yuziga ega bo'lishi kerak (2.39.- v rasm).



2.39.- rasm. Metall ko'priklarning to'siqlari
1- harakatlanuvchi amvtomobil; 2-to'siqlari.

2.5.5. Metall ko'priklarning qatnov qismidagi deformatsiya choc klarini yopish

Metall oraliq inshootlarining chekka tayanchlarida, shuningdek, ko'p oraliqli ko'priklarning qo'shni oraliq inshootlari tutashish joylarida haroratning o'zgarishi va vaqtincha yuklamaning ta'sirida yuzaga keladigan erkin deformatsiyalarni ta'minlash uchun yo'lning qatnov qismi uzelishi kerak.

Qatnov qismidagi choclar ko'priking tutashib turgan qismlarining erkin siljishlariga qarshilik ko'rsatmay, harakatlanish polotnosti sirti-

ning uzlusizligini ta'minlaydigan konstruksiyaga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, chokka iloji boricha kam atmosfera namligi tushishi, chok orqali singib kiradigan suv esa ko'priknинг pastroqda joylashgan metall konstruksiyalari va tayanchlarining ho'llanishi va ifloslanishiga yo'l qo'ymaydigan maxsus suvni bartaraf etuvchi moslamalar tomonidan tortib olinishi zarur.

Choklarni ko'rsatib o'tilgan shartlarni to'liq qanoatlantiradigan darajada yopish juda qiyin. Ayniqsa katta oraliqli ko'priklarda yoki uzun qirqimsiz oraliqli inshootlari bo'lgan ko'priklarda vujudga keldigan katta siljishiarda deformatsiya choklarini yopish konstruksiysi murakkablashadi. Tutashishlar konstruksiyasi asosan choklardagi ko'chishlarning kattaligiga, shuningdek, ko'prik avtomobil qatnovi qismining yo'l qoplamasini turiga bog'liq.

To'sinli tizim oraliqli inshootlarning deformatsiya tizimlaridagi siljish kattaligini aniqlashda quyidagilarga asoslanish mumkin (2.40.-a rasm):

- harorat o'zgarishining ta'siri ostida to'sinning erkin tayangan uchi $\pm \alpha t \ell$ kattalikka ko'chadi, bu yerda: α - metallning chiziqli kengayish koefitsienti; t - haroratning hisobiy o'zgarishi; ℓ - ko'prik oralig'i;

- vertikal yuk ostida to'sin egiladi, bunda uning tayanch kesimlari oraliq ichiga tomon og'adi.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: γ_1 va γ_2 - to'sinning tayanch kesimlarining qiyalik burchagi;

h_1 va h_2 - mos ravishda qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan tayanch qismlari sharnirlari markazlaridan avtomobil qatnovi qismining sirtigacha bo'lgan masoфа;

ℓ_1 va ℓ_2 - tayanch qismlar sharnirlari markazidan bosh to'sinning qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan uchlari o'qlarigacha bo'lgan masoфа.


U holda to'sinning qo'zg'almas tiralgan joyida qatnov qismi sathida (deformatsiya chokida) qo'zg'alishlar $\Delta_1 = \gamma_1 h_1$ bo'ladi (2.40.-a rasm).

Agar neytral o'q bo'yicha to'sinning uzunligi o'zgarishsiz qolsa, u holda to'sinning qo'zg'aluvchan uchlari ustidagi qatnov qismi sathida faqat bitta vertikal yuklanish ta'siridagi qo'zg'alish

$$\Delta'_2 = -\gamma_2 h_2 + \gamma_1 l_1 + \gamma_2 l_2 = \gamma_1 l_1 - \gamma_2 (h_2 - l_2)$$

formula bilan ifodalanadi.

Bu ifodadan ko'rindiki, unga kiruvchi kattaliklarning, xususan, h_2 , ℓ_1 va ℓ_2 ning nisbatidan bog'liq holda Δ'_2 kattalik musbat yoki manfiy bo'lishi mumkin.



2.40.- rasm. Ko'priklarning deformatsiya choklaridagi uncha katta bo'limagan qo'zg'allshlarni aniqlashga oid sxemalar

1- to'sinning deformatsiyasiga bo'lgan neytral o'qi; 2- to'sinning deformatsiyasidan keyingi neytral o'qi.

Δ_2 ning manfiy qiymatida qo'zg'aluvchan tayanch ustidagi deformatsion chokda vertikal yuklanishdan siljish oraliq ichiga tomon yo'nalgan bo'ladi. Musbat qiymatida esa oraliqdan tashqari tomonga yo'nalgan bo'ladi.

Vertikal yuklamish va temperaturadan to'sinning ko'chma uchlari ustidagi to'liq qo'zg'alishi

$$\Delta_2 = \gamma_1 l_1 - \gamma_2 (h_2 - l_2) \pm \alpha d ,$$

Bunda: haroratning musbat belgisi uning ortishiga mos keladi.

Ko'p oraliqli ko'priknинг ikkita tutashuvchi oraliqli inshootlari chokida eng katta siljishlarni qo'shish zarur. Barcha hollarda siljishlarni qurilish mexanikasining umumiy usullari yordamida aniqlash hammasidan yaxshiroqdir. Masalan, oddiy to'sin uchun deformatsion chokning siljish yo'nalishi bo'yicha birga teng kuch qo'yish va bu kuchdan oraliq inshootining vertikal egilishlarining egri chizig'ini yashash kerak. Buni to'sinda birlik kuch $R=1$ eguvchi momentlar M qalbaki momentlarning epyurasini yasab bajarish oson (2.40.- b rasm). Hosil qilingan egri chiziq chokda siljishining ta'sir chizig'ini ifodalaydi. Oraliq inshootlarining boshqa har qanday tizimlarida ham xuddi shunday ish tutish lozim. Bunda ko'p oraliqli ko'priklarda ikki oraliq inshootlari orasidagi eng katta siljishni aniqlash uchun chokdagi yig'indi qo'zg'alishning ikkala qo'shni oraliq inshootlari deformatsiyalarini nati-jasida ta'sir chizig'ini darhol qurish maqsadga muvofiq. Buning uchun tutashuvchi oraliq inshootlariga ta'sir qiluvchi ikkita qarama-qarshi birlik kuchlanishlarni qo'yish va har biri uchun vertikal egilish egri chizig'ini yasash kerak. Natijada, chokdagi izlanayotgan siljishning ta'sir chizig'ini hosil qilamiz (2.40.- v rasm).

Olingen ta'sir chizig'ini vaqtincha yuklanish bilan, shuningdek, doimiy yuklanish deformatsiya choklari konstruksiyalarini o'rnatgandan so'ng oraliq inshootiga ta'sir ko'rsata boshlaydigan qismi bilan yuklab, vertikal yuklamalardan chokdagi mumkin bo'ladigan eng katta siljishlarning miqdorini hosil qilamiz. Ta'sir ko'rsatishning ikki ishora chiziqlarida har bir yo'nalishdagi siljishlarning alohida aniqlash


zarur. Chokda eng katta to'liq siljishlarni qo'shish kerak. Bunda ikkala ishoraning siljishlarini alohida aniqlash kerak.

Qoplama asfalt-betonli bo'lganda choklarning yopmalari siljishlarning kattaligiga bog'liq holda yopiq yoki ochiq qilib quriladi. Taxminan $\pm 0,5$ sm dan oshmaydigan ozgina siljishlarda chok ustidagi asfaltbeton yopnia uzluksiz qilinishi mumkin. Unda chok orayopmasi list metall (ruxlangan po'lat, jez) yoki temirbeton ko'priklarda qilin-ganiga o'xhash yo'l qoplamasini ostida yashiringan elastik sirtmoq ko'rinishida amalga oshiriladi.

Katta siljishiarda, qoplama buzilishining oldini olish maqsadida uni chok orayopmasini qatnov qismi polotnosining sirtiga chiqarib yopishga to'g'ri keladi. Chokning eng oddiy ustyopmasi tekis yoki taram-taram sirtli metall list yordamida amalga oshirilishi mumkin. Listni bir tomom bilan temirbeton plitani o'rab turuvchi burchakka mahkam-lanadi (2.41.- a rasm). List ikkinchi tomoni bilan qo'shni oraliq inshootining plitasini o'rab turuvchi xuddi shunday burchak sirt bo'yicha erkin sirpanishi mumkin.

Chokni yopib turuvchi konstruksiya orqali singib o'tuvchi suv maxsus suv chiqaruvchi novda to'planadi va chetga chiqarib tashlanadi. Chokni yopib turuvchi listlar yorilgan joyda chiqiq joylarning balandligi uncha katta bo'lmasligiga qaramay Auzilish kattaligi qancha katta bo'lsa, to'sinlar ham shuncha katta bo'ladi (2.41.- a rasm). Shuning uchun deformatsiya chokida juda kichik siljishlar, ya'ni uzilishning uzunligi $\Delta = 5-6$ sm dan ortiq bo'lganda choklarni yopish konstruksiyasini qo'llash lozim, unda siljish ikki qismga bo'linadi.

Bunday konstruksiya sxematik tarzda 2.41.- b rasmida ko'rsatilgan. Oraliq inshootining tayanch bilan yoki qo'shni oraliq inshooti bilan tutashishini yopuvchi metall element ko'priknинг tutashuvchi qismlari uchlaridagi qiya listlar sirtiga tiraladi. Yopuvchi element bu listlarga prujina yordamida siqilgan va yopuvchi listning tutashuvda to'liq siljishini ta'minlovchi richagli mexanizm bilan bog'langan. Bu mexa-nizm tufayli chokni yopuvchi listning ko'priknинг har bir tutashuvchi qismlariga nisbatan siljishlari chokdagи to'siq siljishining yarmiga teng bo'ladi.



2.41.- rasm. Metall ko'priklarda deformatsiya choklarini yopish konstruksiyaları

1- temirbeton plita; 2- chokni yopuvchi metall element; 3- o'rab turuvchi burchak; 4- suv yig'uvchi nov; 5- tor metall list; 6- burchaklikni o'rab olgan mahkamlovchi armatura; 7- asfaltbetonli qoplama; 8- beton himoya qatlami; 9- gidroizolyatsiya; 10- element chokini yopuvchisi siljishlarni tartibga solish uchun richaglar tizimi; 11- prujina; 12- yopuvchi listni mahkamlovchi bolt; 13- bolning payvandi; 14- payvadlangan qo'shitavr; 15- bosh to'sin.

Shahar ko'priklarida tez-tez qo'llanilgan siljishlari ajratilgan chokning yanada oddiy konstruksiysi 2.41.- v rasmda keltirilgan. Chokni yopish tutashuvchi oraliq inshootlari bosh to'sinlari uchlarida o'matil-

gan payvand qo'shtavrga tayanuvchi list yordamida amalga oshirildi. Yopuvchi list qo'shtavrлarning yuqori tokchalarida oval teshiklar orqali o'tuvchi boltlar yordamida mahkamlanadi. Oval teshiklarning uzunligi har biridagi bolting siljishi chokdagи yig'indi siljishlarning yarmidan ortiq bo'imaslik sharti bilan ta'minlanadi. Bunday konstruksiya tufayli chokda to'liq siljish Δ har biri $\Delta/2$ bo'lган ikki intervalga bo'linadi. Chok ostida odatda suv to'plovchi nov o'rnatiladi.

Choklardagi uncha katta bo'lмаган siljishlarda ularni yopish sintetik kauchuk yoki boshqa polimer materialdan tayyorlangan elastik to'ldiruvchi qistirmalar yordamida bajarilishi mumkin. Temirbeton ko'priklarda keng tarqalayotgan bunday konstruksiyalar oraliqlari uncha katta bo'lмаган metall ko'priklarda ham qo'llanilishi mumkin.

12-15sm dan ko'proq bo'lган katta siljishlarda deformatsiya choklarini yopuvchi konstruksiyalarni yanada mukammal qilish kerak. Chet el ko'priksozlik amaliyotida bunday konstruksiyalarning juda xilma-xil turlari qo'llaniladi. Odatda, bu konstruksiyalar ancha murakkab, karkaslab tayyorlashni va montaj qilishni talab etadi. Ularning narxi unchalik ko'p emas, biroq bir tekislik va tutashuv orqali ko'chma yuklanishning o'tishi, chidamliligi va ekspluatatsya qilish mazmuni ning (tozalash, suvni chiqarib tashlash) qulayligi orayopmaning oddiy konstruksiyalarda amalga oshmaydi. Chet ellarda qo'llaniladigan, katta siljishlarda deformatsion choklarni yopishning ayrim turlari keltirilgan. Qurilmani yopuvchi choklari hamisha imkonli boricha talablarga to'la javob beruvchi, o'ylab qilingan va puxta bajarilgan konstruksiya ga ega bo'lishlari kerak.

2.5.6. Yerosti tarmoqlarini shahar ko'priklari orqali o'tkazish

Shaharning yerosti tarmoqlari (quvuro'tkazgichlar, kabellar) daryo, jarlik kabi to'siqlarga duch kelganda ularni to'siqning bevosita tubi bo'yicha yoki ko'rik ho'yicha yotqizib, boshqa qirg'oqqa o'tkazish mumkin.

To'siqning tubi bo'ylab quvuro'tkazgichlar dyuker yordamida o'tkaziladi. Bu usulning kamchiligi tarmoqlar ustidan doimiy nazorat-

ning imkoni yo'qligi va ta'mirlashning qiyinligi hisoblanadi. Shu mu-nosabat bilan jadal rivojlangan shaharlarda ko'pincha quvuro'tkaz-gichlar va kabellarni o'tkazish uchun tayyor shahar ko'priklaridan foydalaniladi.

Yerosti tarmoqlari elementlarini ko'prik orqali o'tkazishda tarmoqlardan me'yorida foydalanish sharoitlariga qo'yiladigan asosiy talablar qondirilishi bilan birga ko'priknинг o'ziga qo'yiladigan talablar ham buzilmasligi kerak.

Foydalanish jarayonida quyidagilar ta'minlanishi lozim:

- ko'rlik o'tkazishda va ta'mirlashda yoki almashtirishda barcha quvuro'tkazgichlarga o'tish qulay bo'lishi;
- ko'rlik o'tkazishda ustidagi qurilmalarni ochish yoki har safar maxsus havozalar yoki yo'llar qurilishini istisno etish.

Yerosti tarmoqlari ko'prik elementlarining mustahkamligini buzmasligi, konstruksiyaning ish sharoitlarini qiyinlashtirmasligi yoki me'moriy qiyofasini buzmasligi kerak. Tarmoqlarni konstruksiyada-gi mavjud bo'sh fazodan o'tishi va konstruksiyaning ko'taruvchi elementlari bilan tutib turishini ta'minlab joylashtirish kerak. Tarmoqlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan ko'priklarni kengaytirishga yo'l qo'ymaslik lozim.

Shahar ko'priklarini loyihalashda faqat mavjud tarmoqlarni o'tkazishnigina emas, balki ularning istiqboldagi rivojlanishini ham hisobga olish kerak. Yerosti tarmoq elementlari shahar ko'priklari bo'yicha turli usullarda o'tkaziladi:

- trotuarlar ostida quriladigan maxsus kanallarda;
- transport qatnaydigan qism ostida, ko'priknинг bosh fermalari (to'sinlari, arkalari) ostida.

Tayanish usuliga ko'ra:


- ko'ndalang to'sinlariga osib qo'yish bilan;
- ko'ndalang bog'lanish elementlariga tirab qo'yish bilan;
- ko'ndalang to'sinlarning vertikal devorlarida maxsus teshiklar qilish bilan.

Bunda ko'ndalang bog'lanish elementlari tarmoqlarning vaznini hisobga olib hisoblanishi kerak.

2.6. Toshkent shahridagi yangi yo‘lo‘tkazgichlar



2.43-rasm.Toshkent shahar Novza metrosi yonidagi temirbeton yo‘lo‘tqazgich



2.44-rasm.



2.45-rasm.

Nazorat savollari:

1. Ko'priklar qanday asosiy turlarga bo'linadi?
2. Ko'priklar o'tish deb nimaga aytildi?
3. Ajraluvchi ko'priklar qanday sharoitlarda ishlataladi?
4. Suzuvchi ko'priklar qachon qo'llaniladi?
5. Ko'pri yoki ko'pri inshootlari qanday elementlardan tashkil topadi?
6. Yog'och ko'priklar uchun qanday daraxt navlari qo'llaniladi?
7. Tosh ko'priklar qanday afzalliklarga ega?
8. Mustahkamlik bo'yicha betonning sinfi qanday aniqlanadi?
9. Beton qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
10. Temirbeton ko'priklar qanday afzalliklarga ega?
11. Ko'priklarning qanday tizimlari eng keng tarqalgan?
12. Vantli tizim nimani ifodalaydi?
13. Avtoyo'l ko'priklarining qatnov qismi yopmasi uchun qanday materiallar qo'llaniladi?
14. Oraliq qurilma va chekka tayanchlar orasidagi deformatsiya choklarning tuzulmasi qanday?

15. Qatnov qismi plitasining qaliligi qanday qabul qilinadi?
16. Yaxlitquyma va yig'ma to'sinlarning diafragmalari qanday armaturalanadi?
17. Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton konstruksiyalar qanday texnologiya asosida tayyorlanadi?
18. Armaturani uzuksiz o'rash nimami ifodalaydi?
19. Betonlashdan oldin va keyin zo'riqtiriladigan oraliqli inshootlarda armatura qanday bo'ladi?
20. Armaturani oldindan zo'riqtirish uchun qanday ankerlar foydalaniadi?
21. Romli temirbeton ko'priklar qanday afzalliliklarga ega?
22. Arkali temirbeton ko'priklarda yuk ko'taruvchi element nima hisoblana-di?
23. Arkali ko'priklarning asosiy tizimlari nimalardan iborat?
24. Yaxlit quyma arkalar qanday betonlanadi?
25. Vantli ko'priklar qanday sharoitlarda qo'llaniladi?
26. Oraliq qurilmalarning statik sxemasiga ko'ra metall ko'priklarni qanday tizimlarga ajralishi mumkin?
27. Arkali metall ko'priklar qanday bo'lishi mumkin?
28. Osma ko'priklarning bosh xususiyati nima?
29. Metall oraliq inshootlarining asosiy yuk ko'taruvchi elementlariga nimalar kiradi?
30. Shahar ko'priklarining transport qatnaydigan qismi qanday elementlardan tashkil topgan?
31. Metall ko'priklarning transport qatnaydigan qismidagi deformatsion choklar.
32. Metall ko'priklarning transport qatnaydigan qismidagi deformatsiya choklari?

3. SHAHAR KO'PRIKLARI VA TRANSPORT INSHOOTLARINI HISOBLASH ASOSLARI

3.1 Umumiy ma'lumotlar

Shahar ko'priklari, estakadalar va yo'llko'priklarni hisoblash avtomobil yo'llari va shaharlardagi ko'priklar uchun yagona bo'lgan amaldagi me'yorlar va texnik shartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Bu inshootlardan o'tayotgan avtomobillardan tushadigan vaqtincha, harakatdagi, vertikal, avtomobillarning standart kolonnalari yoki bunday kolonnalarning o'rnini bosuvchi tekis taqsimlangan yuklanishlar ko'rinishida, shuningdek, trotuarlarga odamlardan tushadigan yuklanishlar ko'rinishida belgilanadi. Ko'priklarga avtomobillardan tashqari og'ir treylerlar ko'rinishidagi maxsus yuklanishlar ham ta'sir qilishi mumkin.

Shahar ko'priklari avtomobillar yuklanishi va odamlarning birgalikdagi ta'siriga yoki faqat maxsus yuklanish ta'siriga hisoblanadi. Shahar estakadalari, odatda, odamlardan tushadigan yuklanishga ega emas. Ayrim hollarda transport kesishadigan joylardagi estakadalarni og'ir maxsus yuklanishga hisoblamasa ham bo'ladi, chunki shaharda ular estakadalardan o'tmay bevosta ko'chalar bo'ylah harakatlanadi. Ko'chalar bo'yicha, portlarga, yirik binolarga, vokzallarga yaqinlashganda ko'p yarusli estakadalarni kamaytirilgan yuklanishga hisoblash mumkin, chunki bu joylar asosan yengil avtomobillar harakatlanishi uchun foydalaniлади.

Vertikal vaqtincha yuklanish konstruksiyalarga markazdan qochma kuchlar, bo'ylama tormozlanish yuklari, yon turkilar va zARBalar ko'rinishidagi gorizontal yuklanishlarmi ham uzatadi. Bu yuklanishlarni hisobga olish egri chiziqli estakadalarni hisoblashda ayniqsa muhimdir. Inshootlarga doimiy yuklanishlar ularning xususiy vaznidan, oldindan zo'riqtirilgan kuchianishlar, grunt bosimidan, shuningdek, harorat deformatsiyalaridan va boshqa uzoq muddatli ta'sirlardan bo'ladigan yuklanishiardan yuzaga keladi.

Harorat va uzoq muddatli deformatsiyalar egri chiziqli estakadalar uchun ayniqsa maqsadga muvofiq emas, chunki ularda notekis siljishlar va buralisblarni vujudga keltiradi.

3.2. Temibeton estakadalar yo'lko'priklar va oraliq inshootlarini hisoblashning xususiyatlari

Shahardagi temirbeton estakadalar va yo'l ko'priklarini hisoblashning bir qator o'ziga xos xususiyatlari bor. Konstruksiyaming xususiy vazni va uning asosiy yuk ko'taruvchi elementlari (bosh to'sinlari) orasidagi vaqtinchalik yuklanishdan tushadigan kuchiarning taqsimlanishini aniqlashga imkon beruvchi, estakadalarning oraliqliq inshootlarini hisoblash usullari ayniqsa murakkabdir. Buning sababi, oraliq inshootlari rejada egri chiziqli yoki qiya bo'lishi, diafragmali va diafragmasiz, oraliq inshootining butun eni bo'yicha yoki faqat alohida nuqtalarda tiralgan bo'lishi mumkin. Oraliq inshootlarining o'zi qovurg'ali yoki qutisimon to'sinli hamda plitali bo'lishi mumkin. Ularni hisoblashning aniq usullari odatda tegishli dasturiy ta'minotli kompyuter texnikasidan foydalaniib amalga oshiriladi. Bunga parallel ravishda, bosh to'sinlarda yuklanishlar va kuchlarni ko'ndalang taqsimlashning xususiyatini, konstruksiyaning asosiy o'chamlarini tayinlash va dastlabki ma'lumotlarni aniqlashtirilgan hisoblashlar uchun tayyorlashga etarli darajada imkon beruvchi soddalashtirilgan usullar ham mavjud.

Oraliq inshootning bosh to'sinini hisoblash uning konstruksiyasiga bog'liq. Egri chiziqli qirralar ko'rimishidagi bosh to'sinlar murakkab kuchlanishli zo'r qitqirilgan holatda bo'ladi, chunki ularga ikki tekislikda eguvchi, burovchi momentlar, normal va ko'ndalang kuch ta'sir qilishi mumkin. Bunday elementning mustahkamlik, darzbardoshlik va bikrlikka tekshirish to'g'ri chiziqli to'sinni tekshirishga qaragan da murakkabroqdir. Agar bosh to'sin qutisimon ko'ndalang kesimga ega bo'lsa, u holda uning tashqi yuklanishlar ostida buralishga ishlashi yupqa devorli yoki bikr chorqirra g'o'lalarni hisoblash usullari bilan aniqlanadi, ular hatto to'g'ri chiziqli o'qqa ega elementlar uchun ham yetarlicha murakkabdir.

Egri chiziqli elementlarning zo'riqtirilgan armaturasi har qanday holatda egri chiziq bo'ylab joylashadi va cho'zishda betonda qo'shimcha kuchlarni talab etadi. Egri chiziqli qiya estakada va yo'lko'prik oraliq inshootlarining yaxlit va qutisimon elementlari simmetriya o'qlariga ega bo'lмаган alohida shakldagi ko'ndalang kesimlardan iborat bo'lishi mumkin. Konstruksiyalarni hisoblash uchun zarur bo'lgan bunday kesimlarning geometrik tavsiflarini hisoblash qiyin.

Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton oraliqli inshootlarda vaqt o'tishi bilan betonning tob tashlashi va kirishlshdan uzoq davom etuvchi deformatsiyalar rivojlanadi, shuningdek, atrof muhit harorati va namliги o'zgarganda deformatsiyalar paydo bo'lishi mumkin. Ular oraliq inshootlarining umumiy siljishlarini vujudga keltirib, egri chiziqli, qiya va boshqa shunga o'xshash konstruksiyalarda inshootlarning o'qi bilan mos tushmaydigan yo'naliishlarda gorizontal siljishlarni, qiyshayish va buralishlarni paydo qiladi. Estakadalarning tayanchlari uzoq muddatli va harorat siljishlaridan, shuningdek, markazdan qochma, tormozlanish kuchlarining va ko'ndalang zarbalarning kuchlanishlarini qabul qiladi. Doimiy va vaqtincha yuklanishlar ta'sirida tayanchlarga faqat vertikal kuchlarga emas, balki ikki tekislikda eguvchi va burovchi momentlar uzatilishi mumkin. Tayanchlardi murakkab kuch ta'siri, ularni aniq hisoblashni talab etadi.

Estakadalar va yo'lko'prik konstruksiyalarning ayrim qismlari uchun hisoblashning ishiab chiqilgan usullari yo'q. Jumladan, tarmoqlangan oraliq inshootlar, qatnov qismining, rejada egri chiziqli plitasining, qutisimon elementlarning buralish bilan egilishga mustahkamlik bo'yicha chegaraviy holati va boshqalarning ishlashi yetarlicha o'rganiilmagan.

3.3. Yuklanish turlari

Shahar ko'priklari doimiy va vaqtincha yuklanishlarning noqulay birgalikdagi ta'siriga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Umuman olganda, yuklanishlar ikki asosiy turga bo'linadi: 1) vertikal-harakatlanuvchi yoki vaqtincha, doimiy; 2) gorizontal shamoldan, markazdan qochma, tormozdan, ko'ndalang turkilar va harakatlanuvchi yuklanishning

zarbalaridan. Bundan tashqari, sun'iy inshootlarga, shunigdek, grunt bosimi, haroratning o'zgarishi, muz va bosim ta'sirlari, ko'priklar tayanchlariga kemalarning harakatidan yuklanishlar, tayanchlarning cho'kishi, seysmik kuchiar, shuningdek, inshootni qurish jarayonida vujudga keladigan yuklanishlar ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Harakatdagi yoki vaqtincha yuklanishlarga inshoot bo'yicha o'tayotgan avtomobillar va boshqa turdag'i transport vositalaridan, shuningdek, piyodalardan tushayotgan yuklanish; doimiy yuklanish esa ko'priknинг o'z vaznidan va grunt bosimidan yuklanishdir.


Hisoblashlarda turlicha mumkin bo'lgan qo'shilishlardagi yuklanishlar hisobga olinadi, bunda ularning bir vaqtda ta'sir ko'rsatish ehtimoli ham e'tiborga olinadi. Asosiy qo'shilishlar deganda doimiy, vaqtincha harakatdagi vertikal yuklanish, vaqtincha yuklanish vujudga keltirgan grunt bosimi va markazdan qochma kuchning bir paytdagi ta'siri hisoblanadi. Qo'shinicha qo'shilishlar deb asosiy qo'shilishlarining biron-bir vaqtda seysmik va qurilish yuklanishlaridan tashqari boshqa turdag'i yuklanishlarning bitta yoki bir necha turi ta'sir qilishi hisoblanadi. Alovida qo'shilishlar deb seysmik va qurilish yuklanishlarini boshqa yuklanishlar bilan birgalikdagi qo'shilishiga aytildi.

3.3.1. Harakatdagi vertikal yuklanish

KMK "Ko'priklar va quvurlar", QMQ "Avtomobil yo'llari"ga muvofiq avtomobillardan tushadigan yuklanish me'yoriy teng taqsimlangan ko'rinishda va ko'priksda har bir harakatlanish polosasida bitta ikki o'qli aravacha ko'rinishida qabul qilinadi (*3.1.- a rasm*). Yuklanish sinfi AK harflari bilan belgilanadi, bunda K harfi aravachaning bitta o'qiga tonna-kuch hisobidagi yuklanishga teng raqam bilan almashtililadi. Binobarin, aravachaning har bir g'ildiragiga 0,5K to'g'ri keladi. Bu kuch aravachaning harakati 0,2m bo'ylama tomonlari, 0,6m ko'ndalang tomoni bo'lgan to'g'ri to'rtburchak maydondagi qoplama sirti bo'yicha taqsimlanadi. Bitta harakatlanish polosasidagi avtomobillar kolonnasidan yuklanishmi ifodalovchi bir tekis taqsimlangan yuklanish umumiy $k=0,1K$ jadallikka ega va ko'ndalang kesimda

g'ildiraklar qanday masofada bo'lsa, ikkita bo'ylama polosalarda ham shunday bo'ladi (3.1.- a rasm). Taqsimlangan yuklanishning har bir bo'ylama polosasi $0,05K=0,5k$ jadallikka ega, ko'ndalang yo'nalihsda u $0,6m$ ga taqsimlangan bo'lsa, yuklanish polosasida birlik yuzaga $0,05K/0,6=0,0833K$ bosim to'g'ri keladi.

I-III toifali avtomobil yo'llarida va shaharlardagi ko'priklar va quvurlar uchun, shuningdek IV va V toifali yo'llarda katta ko'priklar uchun yuklanish sinfini A11 ga teng qilib qabul qilinadi (ya'ni $K=11ts \approx 110 \text{ kH}$ va $k=1,1 \text{ ts/m} \approx 11 \text{ kH/m}$). IV va V toifali yo'llarda o'rtacha va kichik ko'priklar uchun A8 sinfidagi yuklanish qabul qilinadi. Bundan tashqari, A8 yuklanishga hisoblanadigan ko'priklarning qatnov qismi elementlari $11ts \approx 110 \text{ KH}$ ga teng yakka o'qdan tushadigan kuchlanishga tekshiriladi (3.1.- b rasm).



3.1.- rasm. Avtomobil yo'llari va shahar ko'priklari uchun vaqtinchalik yuklanishlar sxemasi

AK yuklanishning har bir polosasida yuklanish uchastkalarining soniga bog'liq bo'lgagan holda yuklanish uzunligi bo'yicha eng noqulay holatga faqat bitta aravacha o'rnatiladi. Tekis taqsimlangan yuklanishni bitta belgi ta'sir chizig'inining barcha uchastkalarida o'rnatiladi.

Ko'priknинг кенглиги бо'yича АК ўқланыш полосалари қатнов қисми чегарасида ко'прикнинг бо'йлама о'qiga parallel va harakatlanish полосалари сондан кatta bo'lмаган miqdorda joylashtiriladi. Ularni eng noqulay holatda o'qidan eng yaqin saqlanish yoki taqsimlash полосаси chetigacha, taqsimlash полосаси bo'lмаганда esa қатнов қисми o'qidan 1,5m dan kam bo'lмаган masofada joylashtirish kerak. Qo'shni ўқланыш полосалари o'qlari orasidagi masofa kamida 3m bo'lishi kerak.

Transport қатнайдиган қисм konstruksiyasini ta'mirlashda ko'prik kengligi бо'yича istagan noqulay holatda, lekin ўқланыш o'qidan trotuargacha 1,5m dan yaqin bo'lмаган holatda joylashtiriladigan, *AK* ўқланишнинг бitta полосасига tekshiriladi.

Ko'priknинг transport қатнов қисмida bir nechta *AK* ўқланыш полосаси o'rnatilganda ko'prik konstruksiyalarning barcha hisoblashlari ulardan eng noqulay joylashgani uchun o'zgarishsiz harakatlana-yotgani qabul qilinadi, qolgan полосалар uchun esa tekis taqsimlangan K ўқланишга kamaytiruvchi koeffitsient $n' = 0,6K$ kiritiladi. Bu koef-fitsient полосалар soni ko'p bo'lganda avtomobillar bilan to'liq ўқланmaslik ehtimolimi hisobga oladi. Aravachalardan tushadigan bosim kamayadi. Hisoblashlarning ko'rsatishicha, yuklash chizig'i bo'ylab kamida 1m bo'lgan oraliqlarda tekis taqsimlangan ўқланишни hisobga olmasa ham bo'ladi, chunki u aravacha bosimidan kuchiamishlarni 5% dan kamroq oshiradi. Katta oraliqlarda *AK* ning ikkala tashkil etuvchilarini hisobga olish kerak.

Ko'priklar va boshqa sun'iy inshootlardan o'ta og'ir ўқларни treyler-yuklar, shatakhchilar, traktorlar va boshqa mashinalarni o'tkazishga to'g'ri keladi. Shuning uchun avtomobil kolonnalariga hisoblashdan tashqari konstruksiyalarni yakka og'ir g'ildirakli yoki gusenitsali ўқланишларни o'tkazishga ham tekshirish zarur. All ўқланишга mo'ljallangan ko'priklar og'irligi $80\text{ts} \approx 800\text{kH}$ bo'lgan bitta HK-80 og'ir treylerga (3.1.- g rasm) H-8 yukli ko'priklar esa og'irligi $60\text{ t.s.} \approx 600\text{kH}$ bo'lgan bitta HG-60 gusenitsali ўқланиш ta'siriga tekshiriladi. Ko'ndalang yo'nalishda HK- 80 yoki HG- 60 ўқланишларни har qanday yo'nalishdagi қатнов qismining noqulay holatiga joylandi, unda g'ildirak yoki gusenitsa himoya chizig'iga chiqmasligi lozim.

Piyodalar ko'prigidagi odamlar to'plamidan me'yoriy yuklanishni vertikal va o'tish yo'lining butun sirtida $q_T = 400 \text{ kgs/m}^2 \approx 4 \text{kPa}$ jadallikda bir tekis taqsimlangan qilib qabul qilinadi. Ko'priklarning trotuarlarida bu yuklanishni q_T jadallik bilan (kPa hisobida) qabul qilinadi.

$$q_T = (400 - 2\lambda)10^{-2} \quad (3.1)$$

bu yerda λ – yuklanish uzunligi yoki yuklanish uchastkalari uzunliklari yig'indisi, m.

(3.1) formula bo'yicha aniqlangan q_T ning qiymatlarini kamida $200 \text{ kg/m}^2 \approx 2 \text{kPa}$ deb olinadi.

Bundan tashqari, shahar ko'priklarining trotuarlarini taqsimlash maydoni $15 \times 10 \text{ sm}$ bo'lgan $1 \text{ t.s.} \approx 10 \text{kH}$ to'plangan vertikal yuk uchun esa $180 \text{ kgs} \approx 1,8 \text{kH}$ vertikal kuchga tekshiriladi.

Maxsus ajratilgan polotnoda metropoliten yoki tramvay yo'llari bo'lgan shahar ko'priklari me'yoriy metro poyezdlari yoki tramvaylarning ta'siriga tekshiriladi. Sanoat korxonalari yo'llarida joylashgan ko'priklar haqiqatan foydalanilayotgan og'ir avtomashinalarga mos keluvchi maxsus avtomobil yuklamishlariga tekshiriladi.

Avtomobil yuklamishi inshootlarga tutki, zarba, ortiqcha yuklanishlar va boshqa ko'rinishda qo'shimcha ta'sirlarni vujudga keltiriши mumkin. Bu ta'sirlar yig'indisini dinamik ta'sir deb atash qabul qilingan yoki ular bilan u soddalashtirilgan tarzda, me'yorlarga ko'ra aniqlanadigan birdan katta bo'lgan dinamik koeffitsientga statik ta'sirdan bo'lgan yuklanishlar yoki kuchlanishlarni ko'paytirib hisobga olinadi. Dinamik koeffitsient faqat temirbeton va metall sun'iy inshootlarni hisoblashda kiritiladi. Yog'och va toshko'priklar uchun, shuningdek, ko'tarmalar ostidagi quvurlar uchun dinamik koeffitsient hisobga olinmaydi. Trotuarlar va piyodalar ko'priklarining yuklamishini ham dinamik koeffitsientsiz qabul qilinadi.

Og'ir g'ildirakli HK-80 yoki gusenitsali HG-60 ning yuklanishini dinamik koeffitsientni kiritib hisobga olinadi.

3.3.2. Gorizontal yuklanish

Markazdan qochma kuch. Inshoot radiusi 600m va undan kam bo'lgan gorizontal egri chiziqda joylashganda vaqtincha yuklanishning egri chiziq bo'ylab harakati bilan yuzaga kelgan markazdan qochma kuchlardan paydo bo'ladijan gorizontal ko'ndalang yuklanishini hisobga olish zarur. Markazdan qochma kuchning qiymati gorizontal yuklanishning egrilik radiusiga, vaqtincha vertikal yuklanish sinfiga va harakatlanish polosalari soniga, shuningdek, yuklanish uzunligiga bog'liq. AK yuklanishdan bo'lgan markazdan qochma kuch ko'priknинг transport qatnaydigan qismi sirti ustidan 1,5m balandlikda qo'yilgan va egri chiziqning qabariq tomoniga yo'nalgan, gorizontal tekis taqsimlangan yuklanish ko'rimishida qabul qilinadi. Bir vaqtda bir necha harakatlanish polosalari yuklantirilganda markazdan qochma yuklanishga xuddi vertikal yuklanishdagi kabi n₁' koeffitsientni hisobga oлган holda qabul qilinadi. Tormoz kuch harakatlanadigan gorizontal tormoz yuklanishini A-K vertikal yukning tekis taqsimlangan qismidangina qabul qilinadi. Uning intensivligi n₁' koeffitsientni qo'llagan holda har bir harakat polosasi uchun 0,5 K deb qabul qilinadi. Qatnov yo'lining ustidagi bo'ylama gorizontal tormoz yukining qo'yish balandligi xudi markazdan qochma yukning ta'siri kabi olinadi. Tormozlanishning oraliq qurilmaga beruvchi haqiqiy kuchi AK yukning yuklanish uzunligiga bog'liq.

Vaqtincha yuklanishning gorizontal ko'ndalang ta'sirlari asosan yuklanish harakatining rejadagi to'g'ri chiziqli yo'nalishidan og'ishlarida yuzaga keladi. Avtomobil kolonnalari vujudga keltiradigan ko'ndalang zARBALARDAN normativ gorizontal yuklanish AK ni jadalligi 0,04K bo'lgan transport harakatlanadigan qismining tepe sathiga qo'yilgan, tekis taqsimlangan ko'rinishda qabul qilinadi, bu yerda K-AK yuklanish sinfi.

Agar transport qatnaydigan qism bikr yoki yarimbikr to'sinlar bilan to'silgan bo'lsa, u holda ularni hisoblash uchun me'yorlarga ko'ra bir tekis taqsimlangan ko'ndalang yuklanishni yoki to'plangan kuchlar ko'rinishidagi yuklanishni qabul qilamiz. HK-80 yoki HG-60 yuklamalardan yuzaga keladigan zARBALAR hisobga olinmaydi.

Shamol yuklamasi. Inshootning sirtiga shamol bosimi tik deb hisoblanadi. Oraliqli inshootlar va tayanchlarning konstruksiyasini inshoot o'qi bo'yicha shamol bosimiga tekshiriladi, bu bosimni ochiq fermalar uchun to'liq ko'ndalang shamol yuklanishining 60% miqdorida yoki yaxlit devorli to'sinlar uchun 20% miqdorida qabul qilinadi. Konstruksiyaning barcha elementlari uchun gorizontal ko'ndalang shamol yuklanishining me'yoriy intensivligi quyidagi formulaga ko'ra aniqlanadi

$$q_{_H}^s = q_0 k s_{_n} \quad (3.2)$$

bunda q_0 - shamolning tezlikli bosimi bo'lib, u inshoot qurilgan hududga bog'liq; k - shamolning tezlikli bosimining balandlikka bog'liq holda o'zgarishini hisobga oluvchi koefitsient. $S_{_n}$ - konstruksiyaning ko'rib chiqilayotgan elementi ro'para qarshiligining aerodinamik koefitsienti.

Shamol yukining jadalligi uchun yakka tartibdag'i konstruksiyalar $q_{_n}^s \geq 1,25kH/m^2$, bir turdag'i konstruksiyalar uchun - $q_0 = 0,7kN/m^2$; $K=1,35$; shu bilan birga $s_{_n}$ ni hisobga olib (3.2) formula bo'yicha jadalilik- $q_{_n}^s \geq 1,8kH/m^2$ bo'lishi kerak.

Konstruksiyaga ta'sir qiluvchi kuchlanish inshoot elementlarining shamol ta'siri yo'nalishiga perpendikulyar tekislikka proeksiyasi yuziga bog'liq.

Muzning bosimi. Daryoda muz harakatlangan va muz ko'chgan paytda ko'priklar tayanchiariga muz bosimi ta'sir ko'rsatadi. Bu yuklanish inshoot joylashgan hududda muz holatiga ko'ra dastlabki ma'lumotlar asosida uncha katta bo'lmagan ta'sirlardagi vaqt oralig'i uchun aniqlanadi. Ochiq joyda kuzatish kamida 5 yil mobaynida o'tkaziladi.

Kemalarning yurishidan gorizontal yuklanishlar. Ko'priklarning tayanchlari kemalar yopirilib kelishidan bo'lishi mumkin bo'lgan gorizontal bosimga ham hisoblanadi. Agar tayanchlar maxsus moslamalar bilan himoyalangan bo'lsa, u holda bu yuklanishni hisobga olish shart emas, shuningdek, V-VII sinfdagi suv yo'llarida ko'priklarning yog'oech tayanchlari uchun ham bu yuklanishni hisobga olmasa bo'ladi. Kemalarning yopirilib kelishidan hosil bo'luvchi me'yoriy

yuklanish kattaliklarini kesib o'tiladigan suv yo'lining sinfiga bog'liq holda qabul qilinadi. Bunda bosim, odatda, tayanchning uzunligi yoki kengligining o'rtasidagi hisobdagi kema yurishi sathi darajasiga qo'yilgan deb hisoblanadi.

Ko'priklar suv fazosini tayanch bo'ylab yuqori tomondan ham, quyi tomondan ham yuklanishsiz kesib o'tganda quyi tomon me'yorlari bo'yicha qabul qilinadi.

3.4. Hisoblash usullari to'g'risida ma'lumotlar

Ko'priklar va boshqa sun'iy inshootlar chegaraviy holatlar usuli asosida hisoblanadi. Bu usul bilan hisoblashda konstruksiya elementlari yoki umuman konstruksiyaning o'zi yuklanish ta'siri yanada oshirilganida foydalanishga yaroqsiz holga keladi deb qaraladi. Konstruksiyaning bunday holati chegaraviy holat deyiladi.

Ko'priklar va boshqa sun'iy inshootlarning chegaraviy holati ikki guruhga ajratiladi.

Birinchi guruhi chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblash quyidagi hodisalarni oldini olish uchun bajariladi:

- mo'rt, qovushqoq yoki boshqa turdag'i (buzilishdan oldin egilishini hisobga olib mustahkamligini hisoblash);
- konstruksiya shaklining barqarorligini yo'qolishi (yupqa devorli konstruksiyalarni barqarorlikka hisoblash va h.k.) yoki uning holatini yo'qolishi (tirkakdevorlarni, nomarkaziy yuklanadigan baland poydevorlarni ag'darilishga va sirpanishga, chuqur yoki yerosti rezervuarlarni suzib chiqishga hisoblash va h.);

- toliqishdan buzilish (ko'p marta takrorlanadigan yoki pulsatsiyalaruvchi yuklamish ta'sirida bo'lgan konstruksiyalar; kranosti to'sinlar, shpallar, romli poydevorlar va orayopmalar va shu kabilarni toliqishga hisoblash);

- kuch omillari va tashqi muhitning noqulay ta'sirlari (muhitning tajovuzkorligi, navbatli bilan muzlash va erish va h.) oqibatida buzilish.

Ikkinchı guruh chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblashlar quyida-
gi hodisalarning oldini olish uchun bajariladi:

- darzlarning haddan ortiq va davomli ochilishi (agar foydalanish shartlariga ko'ra ularga yo'l qo'yilsa);
- haddan ortiq siljishlar (egilishlar, burilish burchaklari, qiyshayish burchaklari va tebranishlar amplitudasi).

Butun konstruksiyaning, shuningdek, uning ayrim elementlari va qismlarining chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblash barcha bosqichlar uchun: tayyorlash, tashish, montaj qilish va foydalanish bo'yicha bajariladi. Bunda hisoblash sxemalari qabul qilingan konstruktiv yechim-larga va sanab o'tilgan bosqichlarning har biriga javob berishi kerak.

Birinchi chegaraviy holat bo'yicha hisoblashiarda haqiqiy doimiy, hatto vaqtincha yuklanish me'yoriy yuklanishdan ham katta bo'lib qolishi mumkin. Bunday vaziyat maxsus koeffitsientlar orqali hisobga olinadi.

Inshootning loyihadagi vazniga nisbatan haqiqiy vazninining ortishi mumkinligini hisobga oluvchi doimiy kuchlanish uchun $n_{\text{v}}=1,1$ ga teng deb qabul qilinadi. Yog'och ko'priklar uchun $n_{\text{v}}=1,2$ vazninining ko'payishi havo namligi ortishidan mumkinligi hisobga olinadi. Yo'l qoplamasasi qatlamlari uchun o'ta yuklanishning orttirilgan koeffitsientlari qabul qilinadi, chunki konstruksiyaning bu qismida loyihadagi kattaliklardan og'ishlar doim bo'lishi ehtimoldir. Avtomobil yo'llari va shahar ko'priklarining tayyorgarlik, izolyatsiya, himoya va tekislovchi qatlamlarining og'irligini $n_{\text{v}}=1,3$ koeffitsient bilan, avtomobil yo'llari ko'priklarining transport qatnaydigan qismining va trotuarlarining yo'l qoplamasasi og'irligi $n_{\text{v}}=1,5$ koeffitsient bilan qabul qilinadi. Shahar ko'priklaridagi yo'l qoplamasining og'irligini qayta yuklamish koeffitsient $n_{\text{v}}=2,0$ deb qabul qilinadi.

Hisoblab tekshirishda (masalan, ustuvorlikka hisoblanganda) inshoot og'irligining kamaytirilishi ancha xavfli bo'lgan hollarda, doimiy yuklanishning barcha sanab o'tilgan turlari uchun koeffitsient birdan kichik va $n_{\text{v}}=0,9$ ga teng deb qabul qilinadi.

Vaqtincha avtomobil yuklanishi AK ga qayta yuklanish koeffitsientlari aravacha uchun va tekis taqsimlangan yuklanish uchun har xil.

Transport qatnaydigan qismning elementlarini hisoblashda aravachaning vazni $n_v=1,5$ koeffitsient bilan kiritiladi, konstruksiyaning boshqa elementlarini hisoblashda esa: $\lambda=0$ da $n_v=1,5$; $\lambda \geq 30m$ da $n_v=1,2$, bunda λ - bitta belgi ta'sir chizig'ining yuklantiriladigan uchastkasi uzunligi. $0 < \lambda < 30m$ uchun n_v ning qiymatini interpolatsiya bo'yicha qabul qilinadi.

Tekis taqsimlangan yuklanishning vaznnini va A11 yakka o'q yuklanishini vaznnini hisoblashlarda $n_{vr}=1,2$ koeffitsient bilan olish kerak, AK ustunlaridan barcha gorizontal tormozlash, zarb yoki markazdan qochma yuklanishlarni – $n_{vr}=1,2$ koeffitsient bilan olish kerak. NK-80 va NG-60 maxsus yuklanishlar uchun $n_v=1,0$ koeffitsient qabul qilin-gan. Piyoda ko'priklari yoki avtomobil yo'llari va shahar ko'priklari-ning trotuar elementlarini hisoblash odamlar to'plamidan tushadigan yuklanishni $n_v=1,4$ koeffitsient bilan olish kerak. Avtomobil bilan birga ko'priknинг boshqa elementlarini hisobga olinsa, u holda koef-fitsient $n_{vr}=1,2$ bo'ladi.

Ortiqcha yuklanish koeffitsientlari yuklamishlarning boshqa tur-lari uchun ham kiritiladi, masalan, shamol yuklanishi uchun $n=1,5$, muzning tayanchlarga bosimi uchun va kemalarning yopirilib kelishi-dan tushadigan yuklanishlar $n=1,2$ va h. Me'yoriy yuklamishning or-tiqcha yuklanish koeffitsientiga ko'paytmasi hisobiy yuklamish de-yiladi.

Inshootga ta'sir qiladigan yuklamishlarning (asosiy, qo'shimcha va maxsus) qo'shilishdagi bog'liq holda ularga turli xil vaqtida qarab chiqiladigan yuklanishlar yoki ta'sirlarning maksimal qiymatlari mos tushmasligi mumkinligini hisobga oluvchi n_c qo'shilishlar koeffitsienti kiritiladi. O'zgarmas yuklanishlar xuddi vaqtincha yuklanishlar kabi asosiy qo'shilishda doimo $n_c=1$ koeffitsient bilan hisobga olinadi. Qo'shimcha yuklanishlar kabi asosiy qo'shilishda yuklamishlarning bi-riga yoki ularning guruhiga $n_c=0,8$ kiritiladi, boshqa yuklanishga yoki yuklanishlar guruhiga $n_c=0,7$ kiritiladi. Bu koeffitsientlarni kiritish qoidalari me'yorlar bo'yicha belgilanadi.

Konstruksiya elementini chegaraviy holatda tutib turishga qodir bo'lishi uning materialida kuchlanishlar mustahkamlikning hisobda-

gi chegarasiga yetadi, degan shart bilan belgilanadi. Bunda material har doim ham me'yordagi mexanik sifatlarga ega bo'lmashligi va uning haqiqiy qarshiligi (R^n) dan past bo'lishi hisobga olinadi. Buning uchun materialning bir jinslilik koeffitsienti deb ataladigan K koeffitsient kiritiladi.

Ayrim hollarda konstruksiya materialining biror ishonchlik darajasini ta'minlash kerak. Buning uchun ishonchlik koeffitsienti K_n kiritiladi.

Konstruksiyalarning haqiqiy ishlashini loyihada qabul qillinadigan hisobiy taxminlardan chetlashishini e'tiborga olish kerak. Buni ish sharoitlari koeffitsienti m ni kiritib hisobga olinadi, uni ikki kattalikning ko'paytmasi sifatida ko'rish mumkin:

$m = m_1 * m_2$. Bunda m_1 haqiqiy konstruksiyaning loyihadagidan yo'l qo'yilgan chetlashishlarini hisobga oluvchi koeffitsient, shuningdek, uning ishlashidagi turli xil noqulay sharoitlarning ta'sirini ifodalaydi; m_2 - hisoblashlardagi noaniqliklar va shartliliklarni hisobga oladi. Ko'p konstruksiyalar uchun hisoblashlar ancha aniq; bunday hollarda $m_2=1$.

U holda materialning hisoblashlardagi qarshiligining kattaligi $R = \frac{mk}{K_n} R^H$. Bir qator hisoblashlarda m koeffitsienti kiritilmaydi, bunda

$$R = \frac{k}{K_n} R^H \text{ deb qabul qilinadi.}$$

Yuklanishlarning asosiy qo'shilishida konstruksiya elementining birinchi chegaraviy holati umumiylis hisob shartiga ko'ra tekshiriladi:

$$[n_p S_p + n_n S_n + n_{pk} S_{pk} + (n_v S_v + n_{vr} S_{vr})(1+\mu)] : F \leq R' \text{ yoki} \quad (3.3)$$

$$\frac{S_{\text{uch}}}{F} \leq R$$

bu yerda S_{pacch} - konstruksiya elementidagi hisobiy kuch (eguvchi moment, bo'ylama yoki ko'ndalang kuch); S_p, S_n, S_{pk} - konstruksiya-

ning o‘z vaznidan, yo‘l qoplamasi qatlamlarining og‘irligidan, S_v , S_{vr} - aravachadan va bir tekis taqsimlangan AK yuklanishdan kuchlanishlar (MK-80 yoki NG-60 yuklamishlar uchun $S_v=0$ deb qabul qilamiz va S_{pr} - bu yuklanishlardan kuchlanish); $n_n \div n_{pr}$ - tegishli yuklanishlar uchun qayta yuklanishlar koeffitsienti;

F - element kesimining geometrik tavsifi (yuzi, qarshilik momenti va h.);

$1+\mu$ – ko‘chma vertikal yuklanish uchun dinamik koeffitsient.

Ikkinci chegaraviy holat bo‘yicha konstruksiylar qayta yuklanish koeffitsientlari bilan birga teng bo‘lgan me’yoriy yuklanishlardan hisoblanadi, bunda bu koeffitsientlar birdan katta qilib qabul qilinganda ko‘chma tayanch qismlarda va deformatsion choklarda siljishlarni hisoblash mustasno. Ikkinci chegaraviy holat bo‘yicha hisoblashlarda dinamik koeffitsient $1+\mu=1,0$ ga teng deb olinadi, bunda $1+\mu$ ning to‘liq qiymati o‘rniga $1+2/3\mu$ qabul qilinganda temirbetonda darzlar hosil bo‘lishiga hisoblash mustasno.

Yuklanishlar va ta’sirlarni har bir hisoblanayotgan element, konstruksiya qismi yoki butun inshoot uchun foydalanishda va qurilishdagi mumkin bo‘lgan eng noqulay holatlar va birikmalarda qabul qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Shahar ko‘priklari, estakadalar va yo‘l-ko‘priklarni hisoblash qanday amalga oshiriladi?
2. Doimiy yuklanishlar qanday tashkil etuvchilarga ega?
3. Harorat va uzoq muddatli deformatsiyalar nimani vujudga keltiradi?
4. Oraliqli inshootlar, ko‘priklarning tayanchlari va estakadalarning statik va dinamik hisoblari qanday amalga oshiriladi?
5. Temirbeton estakadalar va yo‘l-ko‘priklarning oraliq inshootlarini hisoblash usullarining murakkabligi nimalar bilan bog‘liq?
6. Estakadalar va yo‘l-ko‘priklarning inshootlarida muhit harorati va namligi o‘zgartirishde qanday deformatsiyalar vujudga keladi?
7. Shahar ko‘priklarini hisoblashlarda yuklanishlar qanday turlarga bo‘linadi?
8. Gorizontal yuklanishlar turlari?
9. Harakatdagi yuklanish nima?

10. Alovida qo'shillsh qanday yuklanishlarni o'z ichiga oladi?
11. Harakatdagi vertikal yuklanish qanday taqsimlanadi?
12. Yuklanish sinfi qanday qabul qilinadi?
13. Hisoblashlarda dinamik yuklanish qanday hisobga olinadi?
14. Markazdan qochma kuch nima va u qachon vujudga keladi?
15. Shamol yuklamishi oraliq inshootiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
16. Muzning ko'priklar tayanchlariga bosimida yuklanish qanday amiqlanadi?
17. Ko'priklar va boshqa sun'iy inshootlar qanday usul bo'yicha hisoblanadi?
18. I guruh chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblashlar qanday hollar uchun bajariladi?
19. II guruh chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblashlar qanday hollar uchun bajariladi?
20. Qanday qayta yuklanish koeffitsientlari mavjud?

4. PIYODA O'TISH YO'LLARI

So'ngi yillarda yirik shaharlarda transport va piyodalar o'tasidagi ziddiyat juda jiddiy holatga yetdi, bu ko'cha hodisalari jabrlanuvchilari sonining uzlusiz ortishida namoyon bo'lmoqda. Chet ellardan olingen ma'lumotlarga ko'ra, aholisi 500 mingdan ortiq bo'lgan shaharlarda piyodalar bilan yuz beradigan baxtsiz hodisalar shahar ko'chalarida qayd etilgan yo'l-transport hodisalarining umumiy sonidan 65-68% ni tashkil etadi. Ziddiyatning asosiy sababi eski shaharlardagi tor qo'chalardan transport va piyodalarining birgalikda foydalanishlari hisoblanadi.

Agar yangi shaharlar yoki tumanlarni loyihalashda makonda piyodalar va transport liarakatini ajratish g'oyasini izchil o'tkazish va amaliy jihatdan amalga oshirish imkoniyati bo'lsa, u holda ancha vaqt-dan beri qaror topgan yirik shaharlarda bu g'oyani anialga oshirishga butunlay yangidan tashkil etish tadbirlari tizimini o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishga yaqinlashish zarur.


Shaharmi qayta qurishda quyidagi aniq vazifalar hal etilishi kerak:

- transport harakatini ma'n etgan holda faqat piyodalar yuradigan ko'chalarni ajratish;
- savdo markazlari atrofida va piyodalar ko'p to'planadigan boshqa "tumanlarda transportsiz hududlar"ni tashkil etish;
- ko'chada transport va piyodalarining birgalikdagi harakati saqlangan-ganda trotuarmi transport qatnaydigan yo'lidan kamida 20m kenglikda-gi yo'lak bilan unga butalar ekib yoki to'siq bilan ajratish;
- magistral ko'chalar kesishgan joylarda svetoforli piyodalar o'tish yo'llarini tashkil etish;
- piyodalar va transport harakati juda jadal harakatlanadigan ko'chalar va kesishish joylarida ko'chadan tashqari piyodalar o'tadi-gan yo'llar (tunnellar yoki ko'priklar) qurish.

Hozirgi vaqtida mavjud shaharda piyodalar ko'chasini ajratishning va "transportsiz hududlar" tashkil etishning bir-biriga qarama-qarshi ikki usuli taklif etilgan: piyoda ko'chalarni dahalar orasidagi makon doirasida tashkil etish (*4.1.- rasm*), yoki niavjud ko'chalarni piyoda-

larga hiriktirib, undagi transport harakatini dahalar orasidagi “ichki” o‘tish yo‘llariga ko‘chirish.

Agar shunga o‘xshash ichki transport arteriyalarining yetarlicha aniq tizimini tashkil etishga erishilsa, u holda odatdagи, ko‘chalar oson-gina piyodalar ko‘chasiga aylanadi, bu magazinlar, savdo va jamoat muassasalarini qinimat turuvchi ko‘chirishni talab etmaydi. Variantni tanlash mahalliy sharoitlar bilan belgilanadi, ular ikkala variantni ham birga qo‘sib olib borilishini taqozo etishi ham mumkin.



**4.1.- rasm. Dahaning ichidagi makonda tashkil etilgan
piyodalar ko‘chasi**

4.1. Piyodalar o‘tish yo‘llarining asosiy turlari

Avtomobil va piyodalar harakati qizg‘in bo‘lgan zamonaviy shaharlarda piyodalar uchun maxsus inshootlarmi barpo etish ehtiyoji yuzaga keladi. Bunday inshootlar shahar hududini kesib o‘tuvchi daryolar ustidan, jarliklardan, temir yo‘llar ustidan o‘tish uchun zarurdir.

Me’moriy-rejaviy xususiyatlari va o‘zining vazifasiga ko‘ra piyodalar o‘tadigan yo‘llarni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

- ko‘chalardagi va ko‘chadan tashqari piyodalar o‘tadigan yo‘llar;


- temir yo'llar ustidan piyodalarning o'tish yo'llari;
- daryolar ustidan piyodalar yuradigan ko'priklari;
- park ko'priklari.

4.1.1. Ko'chalardagi va ko'chalardan tashqari piyodalar o'tadigan yo'llar

Tartibga solinadigan chorrahaldarda piyodalar yuradigan yo'llarni svetofor himoyasida joylashtirish kerak. Trotuar trassalari quyidagi tarzda joylashishi mumkin:

- trotuarning bevosita davomida;
- chorrahadan chetga siljigan holda (4.2.- a va b rasm).

Birinchi sxema (4.2.- a rasm) chetga og'ishiga majbur qilma-gan holda piyodalar harakatining nisbiy yo'naliishiga mos keladi, biroq harakat xavfsizligini yetarli darajada ta'minlamaydi. Bu sxema bo'yicha har bir burchakda ko'chadan ikki yo'naliishda o'tuvchi piyodalarning to'planib qolishi yuzaga keladi, shu bilan birga, hu joyning o'zida transportning o'ngga burilishi amalga oshiriladi.



4.2.- rasm. Piyodalar o'tadigan yo'llarning joylashishi.

4.2.- b rasmga ko‘ra o‘tish yo‘llari yetarlicha masofaga ajratilgan va ko‘chaning burchagi mutlaqo bo‘sh. O‘ngga burilishlarni ikki taktida maqsadga muvofiq tarzda tartibga solish imkonи paydo bo‘ladi: birinchisi- yashil signal bo‘yicha chorrahaga chiqish, o‘ngga burilish va, ikkinchi, “to‘xtash-chizig‘i”da ayni paytda piyodalar yo‘li oldida to‘xtash;

ikkinchi takt- ikkinchi o‘tish yo‘li bo‘yicha piyodalarning harakati to‘xtaganda, kesishuvchi yo‘nalish uchun yashil signal bo‘yicha o‘nga burilishini tugallash.

Aytib o‘tilgan kamchilikdan tashqari (*4.2.- b rasm*) (piyodalar yo‘lining ma’lum darajada uzayishi), u ham chorraha chegaralarining kengaytirilishga olib keladi, chunki “to‘xtash chiziqlari” orasidagi masoфа ortadi, bu esa, o‘z navbatida, kesishuvning o‘tkazish qobiliyatini biroz kamaytiradi. Shunga qaramay, xavfsizlikni ko‘proq ta’minlovchi sifatida piyodalar o‘tish yo‘llarining 4.2.-b rasmdagidek joylashuviga afzallik berish lozim.

Transport qatnaydigan yo‘lni kesib o‘tayotgan piyodalar harakatlanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratish maqsadida piyodalar o‘tadigan yo‘Ining enini mos trotuarning bir yarim baravar eniga teng qilib qabul qilish lozim.

Agar trotuar transport qatnaydigan qismdan ko‘k yo‘l bilan ajratilmagan bo‘lsa, u holda o‘tish taqiqlangan uchastkalarga to‘sinq o‘rnatish zarur.

Svetofor bilan tartibga solish mayjud bo‘lganda piyodalar o‘tadigan yo‘llarning xavfsizligi svetoforning yashil chirog‘i yonishining shunday davomiyligini ta’minlashi kerakki, bunda bu vaqt piyodaning transport qatnaydigan ko‘chani kesib o‘tishi uchun sarflaydigan vaqtiga mos bo‘lishi kerak:

$$t_j \geq \frac{V}{V_n}, \quad (4.1)$$

bunda t_j - yashil chiroq yonib turishi fazasining davomiyligi, sek;
 V - ko‘chaning kengligi, m;

V - piyodaning harakatlanish tezligi, m/sek.

Kuzatishlar natijasida olingen ma'lumotlarga ko'ra, piyodaning ko'chani kesib o'tishidagi tezligining eng kami - 0,7 m/sek, o'ttacha - 1,2 m/sek; maksimal - 1,7 m/sek ni tashkil etadi.

Bundan kelib chiqib, ko'chaning transport qatnaydigan qismining turlicha kengligida piyodalarning ko'chani kesib o'tishidagi xavfsizligini ta'minlovchi yashil chiroq yonib turishining eng kichik davomiyligini aniqlash mumkin (*4.1.-jadval*).

4.1.-jadval

Transport qatnaydigan ko'cha qismining turlicha kengligida o'tish xavfsizligi

Piyodaning tezligi m/sek	Transport qatnaydigan ko'chaning turlicha kengligida yashil chiroq yonib turishi fazasining davomiyligi, sek					
	10 m	13 m	17 m	21 m	25 m	28 m
0,7	14	18	24	30	36	40
1,2	8	11	14	17	21	23
1,7	6	8	10	12	15	17

Bu kattaliklar avtomatik svetaforni tartibga solish rejimini tanlashda hisobga olinishi kerak. Piyodalarning eng ko'p xavfsizligini maxsus piyoda svetoforlari ta'minlaydi, ularda tranport svetoforlari signalizatsiyasi bilan sinxronlashtirilgan "to'xtang", "yuring" signallari mavjud.

Piyodalar boshqaradigan maxsus to'xtatish signalizatsiya tizimi borgan sari keng qo'llanilmoqda. Ayrim o'tish yo'llari oldida tayanchida tugmachali qutilar mahkamlangan svetoforlar o'rnatiladi. Ko'chani kesib o'tishi kerak bo'lgan piyoda tugmachami bosadi va 2-3 sekundan so'ng "avtomobililar "to'xta" chizig'i" oldida to'xtaydi. Ko'chaning kengligiga bog'liq bo'lgan va uni kesib o'tish yetarli bo'lgan transport uchun yashil chiroq avtomatik tarzda yonadi, umi transport va piyodalar oqimining jadalligiga bog'liq bo'lgan ma'lum vaqtidan oldin uzib qo'yish mumkin emas. Bunday signalizatsiyani piyodalar yig'iladigan yirik punktlar (universal magazinlar, kinoteatrlar va h.) yaqinidagi chorrahalar o'ttasida qo'llanish maqsadga muvofiqdir.

Transport va piyodalar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishda ko'chadan tashqarida o'tish inshootining zarurligi hozircha hisoblab asoslanganicha yo'q, biroq qurilma quyidagi holatlarda asoslangan deb hisoblanishi mumkin:

- bir yo'nalishda jadalligi soatiga 250 dan ortiq transport birligiga teng bo'lgan uzlusiz harakatlanishda (transportning turli sathlarda kesishishi yoki halqa bo'ylab o'zini tartibga solib harakatlanish);

- tartibga solinadigan kesishishlarda yashil chiroq yongan fazada to'plangan piyodalar ko'chani kesib o'tishga ulgurmaydigan jadallikdagi piyodalar oqimida;

- ko'cha travniatizmi bo'yicha noqulay bo'lgan chorrahalarda va maydonlarda, piyodalar harakati xavfsizligini ta'minlashning odatdag'i usullari ish bermay qolganida.

Ayrim hollarda ko'chadan tashqari piyodalar o'tish yo'llarini qurish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ekanligi dolzarb ko'rindi, xususan, qizil chiroq yonib turish fazasi transportning jadalligi kamligi bilan emas, balki piyodalarning kesib o'tuvchi kuchli oqimi bilan belgilanadi. Bu holda ko'chadan tashqari piyodalar o'tish yo'llarini qurish yashil fazaning uzaytirilishiga, binobarin, qurilayotgan magistral yo'nalishida transportning tutilib qolishini qisqartirishga olib keladi:

$$\Delta t_z = t_k - t_k^!, \quad (4.2)$$

bu yerda Δt_z - ko'chadan tashqari piyodalar o'tish yo'li qurilganda qaralayotgan yo'nalishida yashil fazaning orttirilishi mumkinligi, sek;

t_k – katta jadallikdagi kesib o'tayotgan piyodalar oqimini o'tkazish sharoitlariga ko'ra qizil fazaning mavjud davomiyligi, sek;

$t_k^!$ – kichik jadallikdagi kesib o'tuvchi transport xarakatini o'tkazish sharoitlariga ko'ra qizil fazaning (ko'chadan tashqari piyodalar o'tish yo'li qurilganda).

Magistral yo'nalishida transportning tutilib qollshining qisqarishi (ko'chadan tashqari piyodalar o'tish joyi qurilgandan so'ng) quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$T_{\Delta 1}' = \frac{t_i}{t_i + \Delta t_i} T_{\Delta 1} \quad (4.3)$$

bunda $T_{\Delta 1}'$ - magistral yo'nalishida tutilishning pasayishi, mash.-odam/soat;

$T_{\Delta 1}$ - ko'chadan tashqari piyodalar o'tishi yo'llari qurilguncha magistral yo'nalishidagi tutilishlar, mash.-odam/soat;

t_i - ko'chadan tashqari piyodalar o'tishi yo'llari qurilguncha magistral yo'nalishida yashil fazaning davomiyligi, sek:

Bir vaqtida kesib o'tuvchi yo'nalishda tutilishlar biroz ortadi:

$$T_{\Delta 2}' = \frac{t_k}{t_k + \Delta t_k} T_{\Delta 2} \quad (4.4)$$

bunda $T_{\Delta 2}'$ - ko'chadan tashqari piyodalar o'tish yo'li qurilgandan so'ng kesib o'tuvchi yo'nalishda tutilishlarning ortishi, mash.-odam / soat;

$T_{\Delta 2}$ - ko'chadan tashqari piyodalar o'tish yo'li qurilguncha kesib o'tuvchi yo'nalishdagi tutilishlar, mash.-odam/soat.

Kesilishda transport tutilishlarining umumiyligini qisqarishi quyidagi tenglik bilan amqlanadi:

$$\begin{aligned} \Theta &= (T_{\Delta 1} - T_{\Delta 1}') - (T_{\Delta 2} - T_{\Delta 2}') = (T_{\Delta 1} - \frac{t_i}{t_i + \Delta t_i} T_{\Delta 1}) - (\frac{t_k}{t_k + \Delta t_k} T_{\Delta 2} - T_{\Delta 2}') = \\ &= T_{\Delta 1} \left(1 - \frac{t_i}{t_i + \Delta t_i}\right) - T_{\Delta 2} \left(\frac{t_k}{t_k + \Delta t_k} - 1\right) \quad \text{mash.-odam / soat} \end{aligned} \quad (4.5)$$

Ko'chadan tashqari piyodalar o'tish yo'lining xarajatlarni qoplash muddati quyidagi ifoda bilan amqlamishi mumkin:

$$S = \frac{R}{F(1 + \frac{\gamma}{100} - m)}, \quad (4.6)$$

bu yerda S - inshootning xarajatlarni qoplash muddati, yil;

R - inshootni foydalanishga topshirishdan yillik iqtisod, mln. so'mda;

γ- harakat o'chovlarining o'rtacha yillik o'sishini hisobga oluvchi koeffitsient, %;

m- inshootni saqlash uchun yillik ekspluatatsion xarajatlar.

Shu bilan birga, inshootlarni foydalanishga topshirishdan yillik iqtisod:

$$F=365Ehk, \quad (4.7)$$

bu yerda: E- kesishuvda transport tutilib qolishlarining umumiy qisqarishi; mash.-odam/soat;

h- transportning ishiash soatlari soni, sut;

k- keltirilgan mash.-odam/soat qiymati, so'm.

Kapital qo'yilmalar samaradorligini qoplashning hisobiy muddati bilan aniqlash qabul qilingani uchun o'rnatilgan S muddatga va inshootning qiymatiga ko'ra ko'chadan tashqari piyodalar o'tish yo'llini qurishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini aniqlash mumkin. Ko'pchilik hollarda iqtisodiy samaradorlik emas, balki piyodalarning xavfsizligini ta'minlash hal qiluvchi omil hisoblanadi.


O'zbekiston shaharlarida asosan yerosti piyodalar o'tish yo'llari barpo etilmoqda, ular ko'priq yo'llariga qaraganda jiddiy afzalliklarga ega: ko'chami to'suvchi elementlarning yo'qligi, tashqi tavsiflarning neytrailigi, ishchi belgisi qiymatining kichikligi (o'tish va yer sirti sathiarining har xilligi). Shu bilan birga, yerosti o'tish yo'llari ishlarni amalga oshirishda murakkabligi bilan ajralib turadi va yerosti tarmoqlarini qayta yotqizishni talab etadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar [31] piyodalarni mexanik ko'tarmaydigan yerosti o'tish yo'llarini qurish va foydalanish shunday turdag'i yerusti piyodalar o'tish yo'llarini qurish va foydalanish qiymatidan 3-6 marta ortiq bo'lishini ko'rsatdi. Piyodalarni mexanik ko'taradigan yerusti va yerosti o'tish yo'llarini qurish va foydalanish qiymatidagi farq ancha kam va taxminan 20% ni tashkil etadi.

Yuqorida bayon qilingan barcha omillarni hisobga olish quyidagi tavsiyalarga olib keladi:

- piyodalar va transport o'tish yo'llari kesishuviga yaqin joyda bir sathda joylashganda va piyodalar harakati jadalligi 7000 piyoda/soatdan ortiq bo'lganda eskalatorli yerusti o'tish yo'llari;


- kesishishga yaqinlashganda (belgilar farqi kamida 0,75m) transport qatnaydigan qismning trotuarga nisbatan past holatda bo'lganda eskalatorsiz yerosti o'tish yo'llari;
- eskalatorli yerosti o'tish yo'llari:
 - tunnelning majburiy chuqurligi 3,5-4,5m va piyodalar harakati jadal bo'lganda (7000 piyoda/soatdan ortiq);
 - tunnelning majburiy chuqurligi 50m dan ortiq bo'lib, piyodalar harakati jadalligidan qat'i nazar;
 - ommaviy transportning to'xtash punktlari yer ostida joylashtirilganda:
 - kesishuvga yaqinlashganda piyodalar va transport yo'llari bir sathda joylashganda va piyodalar harakatining jadalligi 7000 piyoda/soatdan kam bo'lganda eskalatorsiz yerosti o'tish yo'llari barpo etish.



4.3.- rasm. San-Diegodagi (AQSh) berk piyodalar ko'prigi.

Ko'chadan tashqari piyodalar o'tish yo'llarining va ularda kirish yo'llarining joylashishi mahalliy sharoitlarga bog'liq holda juda xil-

ma-xil bo'lishi mumkin. (Maydon yoki chorrahaning konfiguratsiyasi piyodalar oqiminining jadalligi va ustuvor yo'nalishlarning mavjudligi, qurilishning xususiyati va h.). 4.3 va 4.4.- rasmlarda ko'chadan tash-qari piyodalar o'tish yo'llarining yerusti va yerosti yechimlariga namunalalar ko'rsatilgan.



4.4.- rasm. Lubyanskaya maydoni ostidagi piyodalar o'tish tunnellari (Moskva):

1- metroning yer ustidagi vestibulyu; 2- metroning eskalator zali; 3- "Detskiy mir" universal magazinining birinchi qavatidagi metroning yerusti vestibulyu; 4- piyodalar tunneli; 5- maydonga o'tish piyodalar tunneli; 6- metro stansiyasiaga olib boruvchi birikriruvchi tunnel; 7- yerosti savdo zali.

Ko'p polosali avtomobil yo'llari ustidan o'tkazilgan piyodalar ko'priklari shahar tashqarisidagi yoki shahar yaqinidagi hududlarda eng oqilona variantdir, chunki u yerda bunday ko'priklarni qurish uchun atrofdagi imoratlar xalaqit bermaydi (4.5.- rasm). Odatdagagi sharoitlarda, piyodalar ko'prigi doim piyodalar tunnelidan iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Ko'pincha piyodalar ko'prigi temir yo'llar


ustidan stansiyalar oralig‘ida ham, stansiyalarda ham barpo etiladi. Bu ko‘priklarning balandligi avtomobil va temir yo‘llarda ularning yaqinlashish o‘dchamlari bilan helgilanadi, uzunligi esa avtomobil yo‘lining kengligiga yoki temir yo‘l yo‘nalishlari somiga bog‘liq bo‘ladi.



**4.5.- rasm. Toshkent shahar Sehzor dabasi chorrahasidagi
piyodalar ko‘prigi**

Piyodalar ko‘priklariga chiqish va ulardan tushish yo‘llari zinapoyalar yoki panduslar ko‘rinishida qilinadi. Tushadigan zinapoyalar daryolar ustidan o‘tkazilgan ko‘priklarda ham, shahar ko‘chalari va avtomobil yo‘llari ustidan o‘tkazilgan ko‘priklarda ham ko‘priknинг bo‘ylama kesimiga bog‘liq holda qo‘llamiladi. Tushadigan zinapoyalar oraliq gorizontal maydonchalari bo‘lgan bir yoki bir necha marshga ega bo‘lishi mumkin. Agar har bir gorizontal maydoncha tayanchlar bilan ko‘tarib turilsa, u holda tushish yo‘lining umumiyo‘ ko‘rinishi zinch joylashgan tayanch ustunlardan iborat bo‘lib, chiroyli ko‘rinmaydi. Shuning uchun ochiq joyda maydonchali tushish zinapoyalarini mini-

mal miqdordagi tayanchlarga tiraluvchi yagona konstruksiya ko'ri-nishida qurishga harakat qilinadi (4.6.- rasm).




4.6.- rasm. Ko'cha o'qiga perpendikulyar joylashgan ko'cha ustidan o'tka-zilgan piyodalar ko'prigining tushadigan zinapoyalari.

Rejada tushish zinapoyalari ko'priq o'qi bo'yicha ham, unga perpendikulyar ravishda ham yoki burchak ostida ham joylashtirilishi mumkin.

Shahar ko'chalarida tushish zinapoyalari ko'chaning me'moriy ansamblini buzmasligi va avtomobillar haydovchilarining yo'lni ko'rishiga xalal bermasligi kerak. Shuning uchun ham tushish zinapoyalarni trotuarning kenglli chegaralari yoki daraxtlar o'tqazilgan qismida (agar u bo'lsa) joylashtirib, trotuar chetidan chetga surishga harakat qilinadi. Ko'pincha ular o'tish yo'liga yondosh uylarning birinchi qavatiga qo'shib ishlaniadi, bu juda qulay, ammo bino qismini qayta qurishni talab etadi. Agar piyodalar ko'prigi atrofidagi hudud yetarlicha bo'sh bo'lsa, u holda tushish zinapoyalari qiya panduslar ko'rinishida qilinadi. Panduslar kirish yo'llarining umumiy uzunligini orttirsa ham, ular ko'tarilish qiyaligi kichik bo'lgani uchun piyodalarni charchatib qo'ymaydi. Panduslar bo'yicha piyodalarini bolalar arava-chasi bilan, uncha katta bo'limgan aravachalar va h.lar bilan o'tka-

zish oson. Rejada panduslar to'g'ri chiziqli, egri chiziqli, siniq, spiralsimon, tarmoqlangan va boshqacha bo'lishi mumkin. Ular umuman rejaviy yechim bo'yicha zarur shaklm yetarlichcha oson tarzda loyihalanadi. Qishda qor ko'p yog'adigan joylarda ochiq tushish zinapoyalari yoki panduslarni yaxmalak hosil bo'lishidan saqlovchi isitish tizimlari bilan jihozlash maqsadga muvofiq. Panduslarni yaxshisi 10-12% dan ortiq bo'limgan qiyalikda qilish yaxshiroq. Isitish tizimlari o'rniga yopiq o'tish yo'llarini qilish mumkin, biroq ularning tashqi ko'rinishi o'xshovsiz bo'ladi.



4.7.- rasm. Harakatlanuvchi trotuarlari bo'lgan yopiq piyodalar estakadasining ko'ndalang kesimi.

Shaharlarda ko'p miqdordagi piyodalar o'tish yo'llari ba'zida odamlarni tashuvchi qurilmalar bilan jihozlanadi. Bular eskalatorlar bo'lib, odamlarni faqat ko'tarib olib chiqish va olib tushish uchun

o'rnatiladi. Yo'lning o'rta qismi bo'ylab piyodalar o'zlarini yurib boradilar. Eskalatorlar o'rniga elastik tasmalni harakatlanuvchi trotuar ni qurish ham mumkin. Bunday tasmalar ko'prikkasi chiqish panduslari bo'yicha uzlusiz harakatlanadi va odamlarni o'tish yo'lining boshidan oxirigacha tashishga imkon beradi. Yopiq piyodalar estakadasida joylashtirilgan ko'cha bo'ylab harakatlanuvchi trotuarlar piyodalar harakati uchun uning o'tkazish qobiliyatini orttirishiga imkon beradi (4.7.-rasm). Yopiq estakadaning yuqori qismi shaffof qilinadi.

Piyoda ko'priklarida qurilish materiallarining barcha asosiy turlari – yog'och, temirbeton, po'lat, alyuminiy va plastmassa komponentlar qo'llaniladi. Biroq hozirgi vaqtida temirbeton piyoda ko'priklari eng ko'p tarqalgan. Dekorativ park ko'priklari toshdan yoki betondan mas-siv ravoqlar ko'rinishida yasalishi mumkin.

Piyoda ko'priklari konstruksiyalarining statik sxemalari juda xilma-xildir. Ko'pincha ingichka tayanchlardagi qirqimli va qirqimsiz to'sinli tizimlardan foydalaniladi. Bitta oraliqli ko'priklarda romli tizimlar qilinib, ular asoslarga mahkamlanadi. Ba'zan vertikal va og'ma ustunli romlar, shuningdek, arkali tizimlar ham qo'llaniladi. Katta oraliqli piyodalar ko'priklarini vantli yoki osma tizimli qilish mumkin.


4.1.2. Temir yo'l izlari ustidan piyoda o'tish yo'llari

Temir yo'l izlari ustidan piyoda o'tish yo'llari temir yo'l vokzallarida, stansiyalarida va to'xtash punktlarida yo'lovchilarning platformalarga kirishlari va ulardan shaharga chiqishlari, shuningdek, shahar hududida yotqizilgan temir yo'l izlari ustidan piyodalarning o'tishlari uchun quriladi. Bunday o'tish yo'llari, odatda, tushadigan zinapoyalar bilan quriladi, bunda ularning balandligi yo'llarning ko'priosti gabariti talablariga ko'ra quyidagicha bo'lishi kerak:

- elektrlashtirilgan liniyalar – ikki stansiya oraliq'ida piyodalar ko'prigining eni 5m gacha bo'lganda – 6300mm, eni 5m dan ortiq bo'lganda – 6500mm, stansiya doirasida mos ravishda 6500 va 7000mm;

- elektrorashtirilmagan liniyalarda – 5500mm.

O'ta yuqori balandlikdagi piyodalar ko'prigi uchlarida tushish zinapoyalarini o'rnatishni, platformalar mavjud bo'lganda esa ularga qo'shimcha zinapoyalar bo'lishimi talab etadi. Ular o'z sxemalari va rejalah sharoitlariga ko'ra ko'chalar ustidan o'tkaziladigan piyodalar ko'priklariga o'xshashdir.



**4.8.- rasm. Toshkent shahrida shahar atrofi temir yo'li ostidagi
piyodalarning o'tish yo'li.**

Agar temir yo'l izlari chuqurlikdan o'tsa, u holda ularning piyodalar o'tadigan o'tish yo'llari bilan kesishishi shahar rejalashtirilishi bilan bir sathda amalga oshiriladi yoki ko'priq ostidagi balandlik yetarlicha bo'limganda ostki gabaritning zarur balandligini ta'minlashni hisobga olgan holda tayanch konstruksiyalarni tegishlichka ko'tarish amalga oshiriladi.

Keyingi yillarda temir yo'l izlari ostidan o'tkaziladigan piyoda o'tish yo'llari keng tarqalmoqda. Mavjud temir yo'l piyoda ko'priklarining balandligini kamroq ko'tarish va piyodalarining pastga tushishini, va eng asosiysi, temir yo'lda poyezdlar harakat tezligini pasaytirmasdan ko'rinishni ta'minlovchi yerosti o'tish yo'llari bilan almashtirish an'anasi kuzatilmoqda. 4.8.- rasmida Toshkent shahrida shahar atrofi temir yo'li ostida barpo etilgan shunday tunnelga kirish joyi ko'rsatilgan.


4.1.3. Daryolar ustidan piyoda o'tadigan ko'priklar

Shaharlarda va aholi punktlarida ko'pincha daryolar, suv havzalari va jarliklar orqali faqat piyodalarining harakatlanishi uchun mo'ljallangan ko'priklar qurish zarur bo'ladi. Piyoda ko'priklarini daryo yoki boshqa to'siq ustidan oddiy ko'priklar oraliqlari juda katta yoki ular umuman mavjud bo'limgan hollarda qurishga to'g'ri keladi. Bunday ko'priklar nisbatan uncha katta bo'limgan kenglikka va kichlik hisobiy yuklanishga ega bo'ladi, avtomobil harakati uchun quriladigan odatdag'i ko'priklarga qaraganda ancha kam mablag' talab etadi.

Daryolar ustidan o'tadigan piyoda ko'priklari o'z tizimlariga ko'ra ko'pincha to'sinli, arkali va osma bo'ladi.

Konstruktiv yechimlariga ko'ra daryolar ustidan o'tkaziladigan piyoda ko'priklari an'anaviy ko'priq konstruksiyalariga o'xshashdir.

Kemalar qatnamaydigan daryolar ustidagi piyoda ko'priklari qiyaligi nolga teng bo'ladi (4.9.- a rasm). Kemalar qatnovi bo'lsa, ko'priknii ko'tarish talab etilishi mumkin, ya'ni ko'prikkka bunda qavariq bo'ylama profil berilib, qiyalik 12-16% dan ortiq bo'lgani holda ular tushish zinapoyalari bilan ta'minlanadi.(4.9.- b rasm).




4.9.- rasm. Daryolar ustidan piyoda ko'priklari.

a) kema qatnovi bo'lgan; b) kema qatnovi bo'lganda

Iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq va texnik imkoniyat bo'lganda, shuningdek, zarur eksplutatsion talablar ta'minlangan ayrim holdarda daryolar ustidan piyodalar ko'priklari metall konstruksiyalardan barpo etiladi.

Oraliq kattaligi 15m dan ortiq bo'lganda ko'pincha daryolar va temir yo'l izlari ustidan metall piyoda ko'priklari quriladi (4.10.-rasm).




4.10.- rasm. Daryolar ustidan piyodalarining o'tishi uchun metall ko'priklar

4.1.4. Park ko'priklari

Park ko'priklariga qator o'ziga xos me'moriy talablar qo'yildi. Ular atrofdagi landshaftga yaxshi uyg'unlashishi, chirolyi tashqi ko'rinishga ega bo'lishi, fasadi yaxshi me'moriy bezatilishi, massiv elementlari yuqori darajada pardozlanishi, tutqichiari, haykallari chirolyi bo'lib, inshootga badiiy ifodalilik hissini berishi kerak.

4.11.- rasmida 1799 yilda Sankt-Peterburgda Tavriya bog'idagi metalldan qurilgan piyodalar ko'prigi ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, Peterburgda va uning atrofida 1760–1830-yillarda qurilgan ko'pchilik ko'priklar me'morchilikning haqiqiy nodir asarlari qatoriga kiradi. Shu inunosabat bilan shuni ta'kidlash zarurki, Rossiyada shu davrdan boshlab, hech bir boshqa mamlakatda bo'lmasagan, ko'priklar arxitekturasi ansamblu vujudga keldi, bu o'sha davrdagi rus shaharsozlik san'ati gullab-yashnashining bevosita natijasi bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda, ayniqsa, Toshkent shahrida Vatanimiz ko'priksozligida katta yutuqlarga erishildi. Bu davrda qurilgan ko'priklar o'zining konstruktiv mukammalligi va me'moriy ifodaliligi bilan ajralib turadi.




4.11.- rasm. 1799 yilda, Sankt-Peterburgning Tavriya bog'ida qurilgan park ko'prigi.

Yangi barpo etilgan va qayta qurilgan Mirzo Ulug'bek, Abdulla Qodiriy nomidagi park, Alisher Navoiy nomidagi milliy bog', G'osur G'ulom nomidagi park mubolag'asiz poytaxtning ko'rki, shaharliklarning, poytaxt mehmonlarining, ayniqsa, bolalarning eng sevimli dam olish maskami hisoblanadi. Bu bog'larda barpo etilayotgan va mavjud bo'lgan ko'priklar odamlarga quvонch va g'urur baxsh etadi. 4.12.-rasmda Mirzo Ulug'bek nomli bog'dagi suv havzasi ustida qurilgan ikki oraliqli ko'pri ko'rsatilgan. Ko'priq metalldan qurilib, konstruktiv sxemaga ko'ra, tayanchlari siqib qo'yilgan fermalar tashkil topgan ravoqlidir.

Park ko'priklari materialiga ko'ra ko'pincha temirbetondan, beton-dan, toshdan, ba'zida yog'och va metalldan ham tayyorlanadi.

Konstruktiv tizimga ko'ra, ko'pchilik hollarda arkali, ba'zan esa to'sinli ko'priklar ham bo'lishi mumkin.



4.12.- rasim. Toshkent shahridagi Mirzo Ulug'bek nomli parkning suv havzasi ustidagi piyodalar ko'prigi.

4.2. PIYODA KO'PRIKLARINING KONSTRUKSIYALARI

4.2.1. Yog'och va metall ko'priklar


Piyodalar ko'prigiga ta'sir ko'rsatadigan, odamlardan tushadigan vaqtincha yuklanishiar avtomobilarning yuklanishidan ancha kamdir, shuning uchun piyodalar ko'priklarida yog'och konstruksiyalardan kengroq foydalanish mumkin. Odatda, zamonaviy ko'priklarda elimlangan yog'ochdan qilingan konstruksiya qo'llanilib, ularning tashqi ko'rimishi yaxshi va yengil bo'ladi; ancha tejamkor va yetarlicha mustahkamdir, ayniqsa ular sisatlari tayyorlanganda va chirishdan himoya qilinganda umrboqiyligi ham oshadi. Bunday ko'priklarning oraliq inshootlari konstruksiyasi yelimlangan taxtalar, chorqirra g'o'lalardan yoki yog'och tasmali elementlardan va faner devordan tayyorlanishi mumkin.

Yog'och ko'prik suv to'sig'i bo'limgan ko'chalar ustida yoki avtomobil yo'llari ustidagi konstruksiyalarda bunyod etilgan hollardaularning tayanchlari ham yelimlangan elementlardan tayyorlanishi mumkin. Yog'ochdan qilingan oraliq inshootlar beton yoki temirbeton tayanchlarga tayanishi mumkin. Bu oraliq inshootlar keyinchalik temirbeton yoki metall inshootlarga almashtirilishi nazarda tutiladi.

Yelimlangan yog'ochdan piyoda ko'priklari to'sinli yoki romli tizimda qilinadi. To'sinli ko'prik bosh to'sinlarga yotqizilgan va ko'ndalang taxtalardan va yog'och to'shamaga yoki yog'och plitadan tayyorlangan to'shamaga ega bo'lishi mumkin. Yog'och to'shamaning sirti ochiq holda qoldiriladi, yog'och plita esa gidroizolyatsiya va asfaltbeton qatlami bilan qoplanadi. Yelimlangan bosh to'sinlar ham gidroizolyatsiya bilan himoyalanadi yoki yog'ochlardan tayyorlangan soyabonlar bilan yopiladi.

Piyodalar uchun to'shamalarni bosh to'sinlar pastki sathida qurish mumkin bo'ladi. Xususan, piyoda ko'prigi bir vaqtda yaxlit parapet bo'lib xizmat qiluvchi ikkita ko'taruvchi yelimlangan yog'och to'singa ega (4.13.- rasm). To'sinlar ko'ndalang yo'nalishda boltlar va halqali shponkalar, V-simon romlar bilan birlashtirilgan bo'lib.

ular boltlar va halqali shponkalar bilan mahkamlangan. Romlar qirrasiga qo'yilgan taxtalar bilan yelimlangan. Asfaltbeton qoplamaли yog'och plita ko'rinishidagi to'shamal taxtalari yo'nalishi ko'priк o'qi bo'yicha bo'ladi va ko'ndalang romlarga shamollatishni ta'minlovchi yog'och qistirmalar orqali tayanadi. Ko'priк yig'ma bo'lib, u oraliq tayanchlar yonidagi choklarda mavjud bloklardan montaj qilingan. Choklar bloklar uchlaridan har birning yarim qalinligini kesib, ustma-ust qilib bajarilgan; choklar kuchlamishlarni boltlarning tortishi bilan siqilgan halqali metall shponkalar orqall uzatadi. Choklarning shunday konstruksiyasida ko'priк tizimi qirqimsiz to'sin sifatida ishlaydi.




4.13.- rasm. Yog'ochdan elimlangan piyodalar ko'priги konstruksiyalari:
1- bosh to'sin; 2- montaj choki; 3- oraliq tayanch; 4- piyodalar o'tish yo'li ostidagi plita; 5- ko'ndalang rom.

Oraliq tayanchlar ikki parallel qismidan tashkil topgan va boltlar hamda halqali shponkalar bilan bog'langan romlar ko'rinishida qilingan. Romlar bukilgan taxtalardan yelimlab tayyorlangan. Romning bukilgan qismi uchun qalinligi 6mm bo'lgan yupqa taxtalar qo'llanilgan. Ko'priknинг chekka tayanchlari temirbetondan, teskari qanoti tirgan.

gak devorlar ko'rinishida yasalgan va ko'prikkicha chiqish ko'tarmalari ning bosimini qabul qiladi.

Romli konstruktsyaidagi yog'och ko'priklar ancha katta oraliqlar ni qoplashi mumkin. Jumladan, chuqurlikdagi avtomobil yo'li ustidan o'tkazilgan piyodalar ko'prigi og'ma ustunlari bo'lgan $17,2+51+16,8$ m o'lchovli uch oraliqli rom ko'rinishidagi konstruksiyaga ega (4.14.-rasm).



4.14.-rasm. Yelimlangan yog'ochdan iborat romli piyoda ko'prigining konstruksiyalari:

1- $5 \times 10\text{sm}$ li taxtalardan to'sham; 2- qadami 90sm , kesimi $8 \times 15\text{sm}$ bo'lgan ko'ndalang chorqirra g'o'la; 3- uch qatlam gidroizolyatsiya; 4- 2sm qalinlikdagi fanera; 5- kesimi $14 \times 22\text{sm}$ bo'lgan yelimlangan yog'och tasma; 6- kesimi $28 \times 13\text{sm}$ bo'lgan ko'ndalang chorqirra g'o'la.

Rama rigeli 0,9 dan 1,8m gacha o'zgaruvchan balandlikdagi yog'och belbog'li to'rtta qovurg'aga ega bo'lgan ikkita faner devorli qilib tayyorlangan. Ko'ndalang yo'nalishda qovurg'alar yuqori va quyi ko'ndalang chorqirra g'o'lachalar hamda ular ustiga yetqizilgan yuqori

va quy'i fanera taxtalarini yotqizilib birlashtirilgan. Natijada, umumiyligi eni 3m bo'lgan uch yacheykali kesimiga ega qutisimon konstruksiya hosil qilingan. To'sin qutisi ustidan oraliq inshootim va, ayniqsa, faner listlarni hamda devorlarni chirishdan himoyalovchi gidroizolyatsiya yotqizilgan. Suv oqish sharoitlarini yaxshilash uchun yuqori va pastki listlar ko'ndalang qiyaliklarga ega. Ko'priklar to'shamasi ko'ndalang chorqirra g'o'lalardan va bir qavat bo'ylama taxta qatlamdan iborat.

Romning og'ma ustunlari to'sin kesimiga o'xshash ko'ndalang kesimiga ega va balandligi to'sindan poydevorga qarab kamayadi. Og'ma ustunlarning poydevorlari va oraliq inshootning uchlaridagi tayanchlar beton yoki temirbetondan massiv qilib ishlangan.

Yog'och plitadan yoki ko'ndalang to'sinlardan va taxtalardan tayyorlangan yog'och to'shamada metalldan qilingan oraliq inshootining bosh to'sinlarida ham qo'llanilishi mumkin.


Metalldan piyoda o'tish ko'priklari ko'pincha daryo yoki temir yo'llar izlari kesib o'tilganda, katta oraliqlarni yopish kerak bo'lganda quriladi.

Ularning tizimlarini to'sinli, kamroq romli va kombinatsiyalashgan holda qilinishi mumkin. Ayrim hollarda vantli yoki osma tizimlar qo'llaniladi.

Piyodalar ko'prigining eng oddiy konstruksiyasi har 1-1,5m oraliqda o'rnatiladigan va yog'och to'shamanining (4.15.-a rasm) yoki temirbeton plitani (4.15.-b rasm) tutib turadigan, yaxlit devorli metall to'sinlardan iborat. Odatda, prokat kesimli 8-10m oraliqli to'sinlarni ko'ndalang bog'lanishlarni va maxsus tayanch qismlarni oraliqlar katta bo'lganda yoki bosh to'sinlar orasidagi masofa 3-5m bo'lganda bosh to'sinlar payvandlab tayyorlanadi, vertikal devor bikrli qovurg'alar bilan kuchaytiriladi va to'sinlar ostiga vertikal ko'ndalang bog'lanishlar o'rnatiladi (4.15.-v rasm). Temirbeton plitani metall to'sinlar bilan birlashtiriladi.

15-20m gacha bo'lgan oraliqlar uchun farron fermali ko'priklar qo'llaniladi, ularni tutqichlar tekisligida joylashtirish mumkin (4.15.-g rasm). Bunday fermalarda yuqorigi gorizontal bog'lanishlar bo'lmaydi, ular faqat ko'ndalang to'sinlar bilan birlashtiriladi, ularga to'sha-

ma plitasi tiralib turadi. 20-25m dan ortiq oraliqlarni konstruksiyasi bo'yicha oddiy ko'priklarning oraliq inshootlari fermalariga yaqin bo'lgan farron fermalar bilan yopish mumkin. Ularni gorizontal yuqorigi va pastki bog'lanishlar bilan birkiritib, piyoda o'tish yo'lining chetlari bo'yicha joylashtiriladi (4.15.- d rasm). Piyodalar o'tish yo'lining balandligi 2,5m dan kam bo'lmasligi kerak. Fermani ko'priko'qi bo'yicha markaziy ravishda joylashtirish mumkin. Bunday konstruksiyada oraliq to'sinlar kuchlanishi markaziy fermaga ko'ndalang vertikal bog'lanishlar orqali uzatadi (4.15.- e rasm).



4.15.- rasm. Metall piyodalar ko'prigining ko'ndalang kesimlari:

1- asfaltbeton qoplama; 2- yog'och plitali to'shama; 3- bo'ylama to'sin; 4- temirbeton plita; 5- farron ferma; 6- ko'ndlang to'sin; 7- asfaltbetonli yoki qoplama metall list.

Piyodalar yo'li to'shamasi ustiga asfaltbeton qoplamasi yoki polimer to'shama yotqizilgan metall listdan tayyorlanishi mumkin.

Gorizontal list to'shama temirbeton plita o'rniga odatda bo'yala-
ma tavrli (4.15.- e rasm) yoki qutisimon metall to'sinlarning (4.15.- j
rasm) yuqori belbog'i (tasması) bo'lib xizmat qiladi.

Ba'zida oraliqlar 50-60m dan ortiq bo'lgan piyoda ko'priklari ham
barpo qilinadi, masalan, egiluvchan arkali bikr to'sin ko'rinishidagi
ko'ndalang kesimida yuqori yaproqli ikki shvellerdan iborat bitta arka-
ga ega bo'lgan ko'pri (4.15.- e rasm). Shvellerdag'i ilgaklar po'lat list-
li to'shamali ikki bikrli to'sinidan iborat oraliq inshootni tutib turadi.
O'tish yo'lining umumiy kengligi 3,2m. Tirkak arkadan oraliq inshooti
uchlari bo'ylab to'shama listga uzatiladi.


Oraliqlar katta bo'lganda piyodalar o'tish joyining to'shamasi ush-
lab turuvchi farron bikrli fermasiga ega osma ko'rinishda qilish mum-
kin. Ko'pri kabellari qirg'oqqa o'rnatilgan qoziqli asosga ega temir-
beton massiv ankerlar qo'yilgan. Ko'pri pilonlari rom ko'rinishida
metalldan qilingan bo'lib, ko'pri o'qiga ko'ndalang yo'nalishda bikrli
barpo etilgan.

Piyoda ko'priklarining yaxlit metall, payvand konstruksiyalari
romlarning vertikal (4.16.- a rasm) yoki og'ma (4.16.- b rasm) ustunli
tizimlarida qo'llanishi mumkin.

Oraliqli inshoot odatda dumaloq teshik qilib kesilgan diafragma-
li bir konturli kesimga ega. Ikkala tomonida gorizontal listni ushiab
turuvchi konsollar joylashgan. Konsollarning ko'ndalang qovurg'alarini
ko'ndalang diafragmalar tekisliklarida joylashgan (4.16.- v rasm).
Vertikal ustun oraliqli inshoot bilan bo'ylama vertikal qovurg'a qutisi
tirqishda payvandlab (4.16.- v rasmda II bo'g'inga qarang) va quti chet-
lari bo'ylab tashqi chok bilan payvandlab biriktirilgan (4.16.- v rasm-
dagi I bo'g'inga qarang). Birikmaning uzunligi bo'yicha ko'ndalang
diafragmalar o'rnatilgan. Tayanchning og'ma ustuni oraliq inshootiga
xuddi shunday qilib biriktirilgan (4.16.- g rasm).

To'sinning pastki belbog'iga pastki listning tirqishiga yuqori pay-
vand choklari bilan kiruvchi vertikal qovurg'aga (4.16.- v rasmda III
bo'g'in) va ustunning vertikal listini to'sin qutisining pastki burcha-
giga payvandlangan ustun mahkamlangan (4.16.- g rasm). Ulanish
joyida og'ma ustun va to'sinning pastki listlari yo'g'onlashtirilgan,

balkada ham, ustunda ham diafragmalar o'rnatilgan (4.16.-g rasmga qarang).




4.16.- rasm. Romli payvandlangan metall piyoda ko'prigining konstruksiyasi:

I - payvand choklar.

4.2.2. Temirbeton piyoda ko'priklari

Zo'riqtirilmagan va, aymqsa, zo'riqtirilgan armaturali temirbeton piyoda ko'priklari eng ko'p tarqalgan. Piyoda ko'priklarining oraliq inshootlari b o'tish kengligiga va ℓ oraliq uzunligiga bog'liq bo'ladi-gan turli xil ko'ndalang kesimlarga ega bo'lishi mumkin (4.17.-rasm).



4.17.- rasm. Temirbeton piyoda ko'priklari ko'ndalang kesimlарining turlari.


O'zgarmas balandlikdagi plitali oraliq inshoot konstruksiyalari juda tez-tez uchrab turadi. Agar oraliq inshooti ko'ndalang yo'nalishda tayanchning yaxlit to'siniga yoki yetarlicha zikh joylashgan alohi-da ustunlarga tayansa, bunday plitaning kengligi 1,0-1,5m va undan ortiq bo'lishi mumkin. Ustunlar soni yoki tayanchning ko'ndalang kesimidagi kengligi cheklangan bo'lса, plitaning o'rta qismi tayanch kengligidan ancha yo'g'on va chetlaridan ingichka konsollarga ega bo'lishi mumkin. Inshootga yanada ifodali me'moriy ko'rinish beruvchi pastki sirtining egri chiziqli shaklga ega plitali oraliq inshootini qurish mumkin. Bunday kesimlarni faqat to'sinlar va romlar uchungina emas, balki ravoqli tizimlar uchun ham qo'llash mumkin.

Qovurg'ali ko'ndalang kesimlar oraliq inshooti o'tish kengligi b ga nisbatan katta oraliqlarga ega bo'lgan hollarda qo'llaniladi. $b=2\div 2,5m$ bo'lganda ko'priknинг o'qi bo'yicha joylashgan bitta bosh to'sinli tavrli yoki qo'shtavrli ko'ndalang kesimlar o'rnatish mumkin (*4.17.-rasmga qarang*). Piyodalar o'tish yo'li to'sin yuqori tavrining konsolli plitasi bilan tutib turiladi. Pastki tavrni to'sinning pastki armatura-sini joylashtirish uchun, shuningdek, ko'ndalang yo'nalishda tayanch qismlarning yanada kengroq joylashishi uchun qilinadi, bu esa to'sin-ning mustahkamligini oshiradi.

Kenglik $b>2,5m$ bo'lganda bosh to'sinlar orasidagi masofani $b_1=1,5\div 2,5m$ qilib, oraliqli inshootni ikki to'sinli ko'ndalang kesimi-li qilinadi (*4.17.- rasmga qarang*). Bunday to'sin montaj qilishda ko'ndalang yo'nalishda mustahkam bo'ladi.

Egri chiziqli piyoda ko'priklarining oraliq inshootlari ko'pincha bir qutili ko'ndalang kesimli va yuqori plitaning konsolli osilmali qilinadi (*4.17.- rasmga qarang*). Bunday to'sinlar buralishga yaxshi ishiaydi.

Oraliq inshooti konstruksiyasi ko'pincha ko'priki barpo qilishning mo'ljallanayotgan usuliga bog'liq holda tanlanadi. To'sinli qirqimli konstruksiyalar yaxlit oraliqli kranlar bilan montaj qilinadi (*4.18.- a rasm*). O'zgarmas balandlikdagi va rejada to'g'ri chiziqli qirqimsiz konstruksiyalarni ham, yaxlit oraliqli qirqimli to'sinlardan oraliq tayanchilar ustida qirqimsiz to'sinlarni monolitlab yig'ish mumkin.



4.18.- rasm. Temirbeton piyoda ko'priklarining sxemalari.



4.19.-rasm. Toshkent shahridagi avtomobil yo'li ustidan o'tuvchi piyodalar ko'prigi.

Piyodalar uchun romli temirbeton ko‘priklar tayanchlarining ustunlari ham vertikal, ham og‘ma bo‘lishi mumkin. Ko‘p oraliqli romli ko‘priklarda eguvchi momentni va tirkakni poydevorlarga uzatuvchi hamda oraliq inshootning qurilish balandligini kamaytiruvchi yaqinlashtirilgan yoki V-simon oraliq tayanchlar qilish qulay (4.18.- b rasm). Bu turdagи tayanchlar ko‘p qatorli harakat bo‘ladigan avtomagistrallar bilan kesishishida barpo etiladi.


Parklardagi piyoda ko‘priklari va suv to‘sилари ustidagi ko‘priklar asoslarga mahkamlangan yassi sharnirsiz arkalar ko‘rinishida ham barpo etiladi (4.18.- v rasm).

Piyoda ko‘priklarining egri chiziqli qirqimsiz oraliq inshootlari ko‘pincha barqaror yoki ko‘chma havozalarda monolit betondan qilinadi (4.19.- rasm). To‘sirlari o‘zgaruvchan balandlikdagi qirqimsiz ko‘priklar ham rejada to‘g‘ri chiziqli yoki egri chiziqli bo‘lishi mumkin.


Agar ko‘prikning oraliq tayanchlari baland va ingichka bo‘lsa, u holda ular yetarlicha egiluvchan bo‘ladi va oraliq inshooti bilan tayanch qismlarni qurmasdan ham bikr tutashtirilishi mumkin. Tayanchlarning bikrliги orttirilganda bunday konstruksiya romli konstruksiyaga aylanadi.

Markaziy oralig‘i va oraliqlari kichik bo‘lgan romli ko‘priklar og‘ma ustunli uch oraliqli rom ko‘rinishida qilinadi. Bunday tizimlarni ko‘tarma konusida yashirin tortqichlar bilan yoki poydevorga tortilgan panduslar bilan qilish mumkin (4.20.- rasm). Katta oraliqli piyoda ko‘priklari konstruksiyasining asosiy yuklanishi xususiy og‘irlikdan iborat. Uni hajmiy zichligi $1,4\text{--}1,8 \text{ t/m}^3$ bo‘lgan yengil betonlar qo‘llanib kamaytirishga harakat qilinadi (4.21.-rasm). Romli ko‘priklar yig‘ma yaxlit oraliqli to‘sindan, bloklardan yoki ko‘chma qolipda yaxlit quyma betondan barpo qilinadi.

Egiluvchan temirbeton tasma ko‘rinishdagi piyoda ko‘priklari oraliq inshootining juda kichik qurilish balandligiga ega. Jumladan, temir yo‘lining kesishuv chuqurligida qalinligi 16sm, oralig‘i 34m bo‘lgan temirbeton tasma tortiladi, bu oraliqning $1/212,5$ ni tashkil etadi (4.22.- rasm).



4.20.- rasm. Qutisimon oraliq insbootli egri chiziqli temirbeton ko‘pri.




4.21.- rasm. Yengil betondan qilingan temirbeton piyodalar ko‘prigi konstruksiyasi.

Poydevorlar betonlangandan so‘ng konstruksiyani barpo etishda armatura kabellari osiladi. Kabellar bo‘ylab sirpanuvchi qolip harakatlanadi, unda tasma betonlanadi. Keyin doimiy va vaqtincha yuklanishlardan cho‘zilishga ishlovchi tasmani siqilish vujudga keltirib, oldindan zo‘riqtirilgan konstruksiya kabi kabellar tortilib taranglanadi. Ko‘pri asoslari oraliq tomoniga yo‘naltirilgan gorizontal tirkakning ta’siriga beriladi. Uni qabul qilish uchun gruntunda ankerlangan kabellarni va kovlangan joy qiyaliklarida va izlar ostida temirbeton tirkak qilinadi (4.22- rasm).

Shaharlarda temirbeton piyodalar ko'priklariga me'moriy talablar shahar transport inshootlariga qo'yiladigan umumiyl talablarga o'xshashdir. Ularda oraliq inshootining yengilligiga va uning panduslar yoki tushish yo'llarining zinapoya marshlari bilan mosligiga, suyanchiqlar konsturtsianing oddiyligiga va oraliq inshootlari va tayanchlari betonli sirtining yaxshi pardozlanganligiga alohida e'tibor beriladi.

4.3. Piyoda ko'priklarini hisoblash xususiyatlari

Piyoda ko'priklari jadalligi 400 kgs/m^2 bo'lgan odamlar to'plamidan bir tekis taqsimlangan vaqtincha yuklanish konstruksiya o'z og'irligidan, boshqa omillar va ta'sirlardan tushadigan yuklanishga hisoblanadi. Vaqtincha yuklanish ko'priking uzunligi bo'yicha uzilishlar bilan yoki ularsiz istalgan eng xavfli holatda o'rnatilishi mumkin.



4.22.- rasm. Egiluvchan temirbeton tasma ko'rinishdagi piyodalar ko'pri konstruksiysi: 1- temirbeton tasma; 2- diametri 7mm bo'lgan sakkizta simdan iborat zo'riqtiriladigan armatura dastalari; 3- asos; 4- gruntga ankerlangan zo'riqtiriladigan armatura dastalari; 5- temirbeton tirkak; 6- tutqichlar.

Piyodalar ko'priklarini hisoblash umuman olganda oddiy avtomobil yo'llari yoki shahar ko'priklarining hisob-kitobidan farq qilmaydi. Konstruksiyani egiluvchan tasma sifatida hisoblash katta qiziqish uyg'otadi.

Egiluvchan tasmani yuklanishlar ta'sirida cho'zilmaydi deb, ya'ni uning deformatsiyalari statik sxemaga ta'sir qilmaydi deb hisoblaymiz. Egiluvchan tasmaning ko'ndalang kesimlarida eguvchi momentlarsiz faqat bo'ylama kuchiar yuzaga keladi. Umumiy holda egiluvchan tasma tekis taqsimlangan q yuklanish bilan yuklangan, A va V nuqtalarida chetki mahkamlanishlarga ega (4.22.- a rasm). Tasma o'qi shaklini $y=f(x)$ noma'lum funksiya ko'rinishida beramiz.

Vertikal yo'nalishdagи tayanch reaksiyalar

$$V=0,5ql \quad (4.8)$$

ni tashkil etadi.

Tasmaning har qanday kesimida eguvchi momentning nolga teng bo'lishi shartidan N tirkakni aniqlaymiz:

$$Vx - 0,5 qx^2 - Hy = 0 \quad \text{yoki} \quad 0,5qx(l-x) - Hy = 0 \quad (4.9)$$

(4.9) ni dx bo'yicha differensiallab, chiziqli differensial tenglamani hosil qilamiz:

$$\ddot{y} = \frac{df(x)}{dx} = \frac{ql}{2H} - \frac{q}{H}x = \frac{q}{H}\left(\frac{l}{2} - x\right) \quad (4.10)$$

uning yechimi egiluvchan tasmaning parabola bo'yicha shaklini beradi:

$$y = a + bx + cx^2, \quad (4.11)$$

bu yerda a, b, c - noma'lum doimiyalar.

(4.11) tenglamani differensiallab va (4.10) bilan taqqoslab, pirovardida:

$$y = \frac{qx}{2H} - \frac{qx^2}{2H} = \frac{qx}{2H}(l-x) \quad (4.12)$$

ni hosil qilamiz.

(4.12) tenglama N tirkakda tasmaning shaklini belgilaydi. Uning o'zi tasmaning berilgan shaklida tirkakni aniqlashga imkon beradi:

$$\left. \begin{array}{l} H = \frac{q(l-x)}{2y} \\ yoki \\ x = 0,5l \text{ va } y = f \\ \text{bo'slg anda} \\ H = \frac{ql^2}{8f} \end{array} \right\} \quad (4.13)$$

uni bilgan holda, tasmaning istalgan kesimida me'yordagi cho'zuvchi kuchlarni quyidagi formulalar bo'yicha aniqlash mumkin:

$$\left. \begin{array}{l} \operatorname{tg} \alpha = \frac{df(x)}{dx} = \frac{ql}{2H} - \frac{qx}{H}; \sin \alpha = \frac{\operatorname{tg} \alpha}{\sqrt{1 + \operatorname{tg}^2 \alpha}}; \\ \cos \alpha = \frac{1}{\sqrt{1 + \operatorname{tg}^2 \alpha}}; N = \frac{H}{\cos \alpha} + \frac{V}{\sin \alpha} \end{array} \right\} \quad (4.14)$$

bu yerda α - tasma urinma o'qining x o'qiga og'ish burchagi.


(4.14) formulalar doimiy va vaqtincha vertikal yuklanishlardan tasmadagi kuchlamishlarni aniqlashga va kesimlardagi N_g oldindan zo'riqtirish kuchni

$$N_{pr} \geq N \quad (4.15)$$

bo'ladigan qilib tayinlashga imkon beradi.

Temirbeton tasmani kesimlarda eguvchi momentlarni hisobga olmasdan qachon egiluvchan tasma deb qarash mumkinligini aniqlash kerak.

F yuzali va I inersiya momentli sharnirli – qo'zg'almas qilib tiral-gan egri to'sinni hisoblaymiz (4.23.- b rasm).



4.23.- rasm. Egiluvchan tasmani hisoblash sxemalari.

Uning $y=f(x)$ shakli xuddi egiluvchan tasmaniki kabi (4.12 tenglama). Tizimda ortiqcha noma'lum deb H_s tirkakni hisoblaymiz. $H_s=1$ dan o'z yo'nalishi bo'yicha δ siljish va tirkakning q_c yuklanishdan yo'nalishi bo'yicha Δ siljishi quyidagini tashkil etadi:

$$\left. \begin{aligned} \Delta &= \int_0^e \frac{\overline{M}_1 M_q}{EJ} ds + \int_0^e \frac{\overline{N}_1 N_q}{EF} ds; \\ \delta &= \int_0^e \frac{\overline{M}_1^2}{EJ} ds + \int_0^e \frac{\overline{N}_1^2}{EF} ds; \end{aligned} \right\} \quad (4.16)$$

$$\left. \begin{array}{l} M_q = 0,5q_c x(l-x); \\ yoki N_q = q_c(0,5l-x)\sin\alpha; bo'lganda \\ \overline{M}_1 = -1 \cdot y; \overline{N}_1 = 1 \cdot \cos\alpha \end{array} \right\} \quad (4.17)$$

bu yerda S-A nuqtadan to'sinning egri chiziqli o'qi bo'ylab hisoblanadigan koordinata.

(4.17) ifodani (4.16) ifodaga qo'yib va ichi bo'sh tasmalar uchun taxminan $dx = ds$, $\sin \approx 0$ i $\cos\alpha \approx 1$ deb qabul qilib, hosil qilamiz:

$$\left. \begin{array}{l} \Delta = -\frac{qc}{2EJ} \int_0^s yx(e-x)dx; \\ \delta = \frac{1}{EJ} \int_0^s y^2 dx + \frac{1}{EF} \int_0^s dx. \end{array} \right\} \quad (4.18)$$

so'ngra (4.12) ni (4.18) ga qo'ygandan va integrallagandan so'ng hosil qilamiz:

$$H_e = -\frac{\Delta}{\delta} = \frac{q_c}{q} H \cdot \frac{1}{1 + \frac{120IH^2}{q^2I^4F}}, \quad (4.19)$$

bu yerda q , q_c - egiluvchan tasmaga va shunday egri chiziqli to'siniga tushadigan tekis taqsimlangan yuklanishlar; N - (4.13) formulalar bo'yicha aniqlanadigan yoki oldindan berilgan egiluvchan tasma tirdagi; K - tasmaning bikrili ta'sirini hisobga oluvchi tuzatish koefitsienti

$$q_c = q \text{ bo'lganda} \quad \frac{H_e}{H} = K = \frac{1}{1 + \frac{120IH^2}{Fl^4q^2}} \quad (4.20)$$

nisbat tasma blkrli konstruksiyasida H_q va $I/(Fl^4)$ nisbatlarga bog'liq holdagi kuchlanish ta'sirini aniqlaydi. Agar K kattalik birga yaqin bo'lsa, konstruksiyani egiluvchan tasma sifatida hisoblash mumkin. Aks holda kesimdag'i kuchlanishlarni N_s tirkakni hisobga olib quyidagi formulalar bo'yicha hisoblanadigan yanada aniq hisob-kitoblar zarur (4.23.- b rasmga qarang):

$$\left. \begin{aligned} N_c &= 0,5q_c l \sin \alpha + H_c \cos \alpha - q_c x \sin \alpha; \\ Q_c &= 0,5q_c l \cos \alpha - H_c \sin \alpha - q_c x \cos \alpha; \\ M_c &= \frac{q_l}{2} x - H_c y - q_c \frac{x^2}{2} \end{aligned} \right\}, \quad (4.21)$$

bu yerda $\sin \alpha$, $\cos \alpha$ larni berilgan $y=f(x)$ va $\operatorname{tg} \alpha = \frac{df(x)}{dx}$ da (4.14)

formulalar bo'yicha topiladi. Agar tasmaning shakli (4.11) va (4.12) turdag'i kvadrat parabola bilan mos tushmasa, tasmadagi kuchlanishlar ni doim (4.21) formulalar bo'yicha tekshirish maqsadga muvofiq.

Egiluvchan tasma uchun vaqtincha va doimiy vertikal yuklanishlardan tashqari shamol bosimining ta'siri ham xavfli bo'lishi mumkin. Tasmaning ko'ndalang kesimini aylanib o'tuvchi havo massalari harakatlanishida yuqorida va pastdan davriy uyurmalar vujudga keldi, ular inshootni tebrantiradi (4.23.- v rasm). Bu girdoblanishlar, kesimning d_2 tor qirrasiga shamolning odatdag'i statik bosimidan tashqari shamol yo'nalishiga perpendikulyar va d_1 qirraga normal yo'nalgan F davriy kuchlanishlarni vujudga keltiradi. F davriy kuchlanishlarni yoki uning nomaqbul vertikal tebramishlarini ham vujudga keltirishi mumkin. Tasmaning xususiy tebramishlari chastotasi girdoblar (F kuchlanishlar) paydo bo'lishi chastotasi bilan mos tushganda eng katta kuchlanishlar va siljishlar vujudga keldi.

Tasmaning xususiy tebranishlarini tortilgan torning xususiy tebranishlari sifatida quyidagi formulalar bo'yicha taqriban aniqlash mumkin.

$$\lambda_i = \frac{1}{2\pi} \cdot \frac{d_i}{l} \sqrt{\frac{N}{M}} : m = \gamma : g, \quad (4.22)$$

bu yerda λ_i - tebranishlarning i= shakliga mos keluvchi gerts (1/s) hisobidagi xususiy tebranishlar chastotasi; l- tasma oralig'i; m- tasmaning pogon massasi; γ - tasma temirbetonning hajm zichligi; g- 9,81 m/s² ga teng bo'lган og'irlik kuchl tezlanishi; α_i - tebranishlar shakliga bog'liq holda qabul qilinadigan koeffisient; (tasma uzunligidagi yarim-to'lqinlar soni); N- tasmani cho'zish kuchl.

Bu yerda d_i - kattalikni i yarimto'lqinlar soniga bog'liq holda beramiz:

i.....	1	2	3	4
d_i	4,35	9,05	13,07	18,5

Biroq oldindan zo'riqtirilgan tasmadagi cho'zish uni doimiy va vaqtincha yuklanishlar bilan maksimal yuklantirish paytidagina yuzaga kelishi mumkin, bu uning tebranishi uchun xavfi kamroq. Vaqtincha yuklanish bo'lmaganda $N \approx 0$ xususiy tebranishlar chastotasini uchlari siqib qo'yilgan va vertikal yo'nalishda EI , bikrlilikka ega bo'lgan l oraliqli to'sin uchun taxminan aniqlash mumkin:

$$u \text{ holda} \quad \lambda_i = \frac{1}{2\pi} \left(\frac{d_i}{l} \right)^2 \sqrt{\frac{EI}{m}} \quad (4.23)$$

bu yerda d_i ni i yarim to'lqinlar soniga bog'liq holda qabul qilinadi:

i.....	1	2	3	4
d_i	4,73	7,85	11,0	14,1

Agar $N > 0$ bo'lsa, u holda λ_i ni (4.22) yoki (4.23) konstruksiya uchun xavfiroq bo'lgan formuladan qabul qilish maqsadga muvofiq.

Girdoblarning paydo bo'lishi n chastotasi d diametri dumaloq ko'ndalang kesimda tadqiq qilingan edi. U quyidagini tashkil etadi:

$$n \approx 0,2v:d, \quad (4.24)$$

bu yerda v - shamol tezligi m/s; d - kesimining diametri, m.

Tebranishlar rezonansi vujudga keladigan shamolning kritik tezligi v_{kp} , $n = \lambda_i$, bo'lgan holda bo'ladi. U holda (4.24) ifodalardan hosil qilamiz:

$$v_{kp} = 5\lambda_i d \quad (4.25)$$

Vertikal kuchlanishlarning shamoldan tebranishlari amplitudasi F kgs/pog.m hisobiga

$$2F = v_{kp}^2 d : 64 \quad (4.26)$$

formula bo'yicha, tasmaning tebranishlarning rezonansli amplitudasi u_d esa

$$u_d = 20 u_{st}, \quad (4.27)$$

formula bo'yicha aniqlanadi, bu yerda u_{st} - tebranishlarning birinchi shakliga proporsional ravishda oraliq bo'ylab taqsimlanishini hisobga olgan holda I oraliqqa qo'yilgan $2F$ kuchlanishlardan statik egilish.

Shamol rezonansiga ta'sirni hisoblashda ketma-ket turli xil d_i qabul qilinadi, λ_i va v_{kpi} , aniqlanadi, keyin esa F , u_{st} va u_d aniqlanadi. Bunda v_{kpi} , inshoot quriladigan joyda shamolning haqiqatan mumkin bo'ladigan tezligidan ortiq bo'lishi kerak. Odatda $i > 3 \div 4$ bo'lganda v_{kpi} kattaliklar haddan ortiq katta va haqiqatan yaqin emas. Eng katta F kuchlanishlar bo'yicha (tasmaga pogon yuklanishlar) undagi shamoldan tushadigan kuchlanishlar aniqlanadi.

(4.24)-(4.27) formulalar dumaloq kesim uchun olingani sababli tasmaning haqiqiy to'g'ri to'rtburchakli kesimlarini d=d_i kesimning katta o'lchamini qabul qilib, ma'lum zaxira bilan hisoblash mumkin.

Odatda kesimda shamol kuchlaridan qo'shimcha kuchlanishlar uncha katta emas va egilish kattaliklari (4.27) muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu tebranishiar kattaligini cheklovchi me'yorlar hozircha mavjud emas, ammio piyodalarining shamol bo'lib turganda o'tishlari uchun qulaylik sharoitlaridan ular 1-2sm dan ortiq bo'lmasligi kerak.

Nazorat savollari:

1. Piyoda o'tish yo'llarini qanday asosiy turlarga ajratish mumkin?
2. Piyoda o'tish yo'llari trotuar trassasiga nisbatan svetofor himoyasida qanday joylashtiriladi?
3. Yerosti piyoda o'tish yo'llari ko'priklı piyoda o'tish yo'llariga qaraganda qanday afzalliliklarga ega?
4. Temir yo'l va avtomobil yo'llari ustidan o'tkaziladigan piyoda o'tish yo'llarining balandligi qanday aniqlanadi?

5. Panduslarni qanday qiyalikda qurish zarur?
6. Temir yo'llari ostidan o'tkaziladigan piyodalar o'tish yo'llari qanday afzalliliklarga ega?
7. Qanday hollarda daryo ustidan yoki boshqa to'siq ustidan piyoda o'tish yo'llarini qurish talab etiladi?
8. Park ko'priklariga qanday talablar qo'yildi?
9. Qanday sharoitlarda piyoda o'tish yo'llari osma qilib o'tkaziladi?
10. Armaturasi zo'riqtiriladigan va zo'riqtirilmaydigan temirbeton piyoda ko'priklarining qo'llanilishi.
11. Qayishqoq temirbeton tasma ko'rinishidagi piyoda ko'priklari qachon qo'llaniladi?
12. Temirbeton piyoda ko'priklariga qanday talablar qo'yildi?

5.YEROSTI INSHOOTLARI

5.1. Shaharlarda yerosti fazosidan foydalanish

5.1.1. Yerosti qurilishining maqsadga muvofiqligi

Turarjoy va communal qurilish hajmlarining o'sib borishi, yo'l-transport tarmoqlarining yanada rivojlanishi, yangi injenerlik obyektlari va inshootlarining, sanoat korxonalariming va h.larning barpo etilishi kattagina shahar hududi ajratilishini talab etadi, vaholanki uning tanqisligi (ayniqsa shaharlarning markaziy tumanlarida) yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan birga, katta shaharlarda yangi xiyobonlar va bog'lar barpo qilish, piyodalar uchun zonalar yaratish, sport maydonlarini qurish va boshqa ishlar uchun yer uchastkalari taqchilligi borgan sari ko'proq sezilmoqda. Shuning uchun qurilish zichligini oshirish, yangi sun'iy satchlarni hosil qilish, hajmdor shahar qurilishi yechimlaridan foydalanish zarur. Zamona viy shaharlar faqat gorizontal bo'yicha emas, balki vertikal bo'yicha ham kengayib bormoqda. Vertikal zonalash transport va piyodalar oqimlarining, tranzit va mahalliy, tezkor va oddiy transportning bo'linishiga imkon beradi. Bunda transport magistrallari va piyoda yo'llari joylashishining turli xil variantlari bo'lishi mumkin:

- yer sathida;
- yer ustida yoki ostida.

Shahar transport muammolarini muvaffaqiyatlil hal qilishga yerosti fazosini kompleks o'zlashtirish va foydalanish, ya'ni yer ostida transport o'tkazish va injenerlik kommunikatsiyalarini yotqizish, avtomobilarni vaqtincha va doimiy saqlash, injenerlik jihozlari obyektlarini, savdo, communal xizmat korxonalarini va shu kabilarni joylashtirish turli xil obyekt va inshootlarni barpo etishga imkon beradi.

Shaharlarda yerosti obyektlarini qurishda ularning yer va yer usidagi inshootlar bilan yagona fazoviy tizimda bo'lishi uchun isblarni kompleks tarzda va rejali amalga oshirilishi kerak.

Yerosti fazosi birinchi navbatda bo'sh hududlar taqchilligi eng ko'p bo'lgan va maksimal darajada transport yuklangan shaharlarning markaziy hududlarida joyning tabiiy relyefini hisobga olib (balandliklar, ylangliklar, qiyaliklar, tog' yonbag'irlari va h.) foydalanishi kerak, bu darajada hududlarni o'zlashtirish yo'llar qurilishini yengillashtiradi.

Yerosti fazosidan faol foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

- shaharlarning me'moriy-rejaviy tuzilishini ancha yaxshilash;
- yer yuzasini yordamchi xususiyatga ega bo'lgan ko'p sonli inshootlardan bo'shatish;
 - shahar hududlaridan turarjoy qurilishi, parklar, xiyobonlar, stadiollar, ko'kalamzorlar, "avtomobilsiz hududlar" barpo etish uchun oqilona foydalanish;
 - aholiga transport xizmatini yaxshilash;
 - avtomobillar turarjoylari muammosini ma'lum darajada hal etish;
 - injenerlik jihozlari obyektlarini samarali joylashtirish;
 - shaharning sanitariya-gigienik holatini yaxshilash;
 - me'moriy yodgorliklarni saqlab qolish;
 - yerosti inshootlaridan, zarur bo'lganda fuqarolar mudofasi maqsadlarida foydalanish.

Yer ostida birinchi navbatda odamlarning bo'lish vaqt cheklangan obyektlar, jumladan, transport inshootlari, muzeylar, kinoteatrlar, magazinlar va shu kabi obyektlar qurilishi kerak.

Yer ostida turganlik hissi xonalarning maxsus me'moriy-estetik bezatilishi, ularga yengillik va ishonchlilik tasavvurining berilishi bilan bartaraf etilishi mumkin. Buning uchun yerosti xonalarning yer ustidagi xonalar bilan almashinib turishi ko'zda tutiladi; qalbaki derazalar, yorug'lik ta'minlangan hovlilar, orayopmalarda bo'shliqlar o'rnatiladi. Shuningdek sun'iy yoritish, shamollatish, havoni tozalash va sovitish ishlari bajariladi.

Yerosti inshootlarida xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini kamaytirish uchun, ulardan foydalanish bilan bog'liq barcha ishlarni imkoniboricha avtomatlashtirish zarur.

Shaharlarda yerosti inshootlarining katta miqdorini barpo etish qidiruv-loyihalash, inshootlarni qurish va foydalanish ishlarini amal-

ga oshirish bosqichida yuzaga keladigan ma'lum qiyinchiliklar bilan bog'liq. Yerosti inshootining oqilona hajmiy-rejaviy yechimini tanlash unga yaqin yerusti inshootlarining me'moriy ansambl bilan bog'lash ham ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Alovida yerosti yaruslarini o'zaro va yerusti bilan bog'lash, shuningdek, yerosti va yerusti inshootlari bilan bog'lash uchun gorizontal, vertikal yoki qiya transport (liftlar, eskalatorlar, harakatlanuvchi trotuarlar va boshqalar) qurishni talab etadi. Bundan tashqari, yerosti inshootlarini barpo etish ko'pchilik hol-larda injenerlik kommunikatsiyalarini qayta qurish va binolar yaqinida joylashgan poydevorlarni kuchaytirish zarurligi bilan bog'liq. Yerosti inshootini qurish jarayonida katta hajmda yer qazish ishlarini bajarisht va kuchli hamda suv o'tkazmaydigan yuk ko'taruvchi konstruksiyalarni yaratish talab etiladi. Biroq, bu qiyinchiliklarni quruvchilar muvaffaqiyatli engib o'tmoqda, bu haqda O'zbekistonning ko'pgina shahrlarida va chet ellarda turli xil yerosti inshootlarini qurish tajribasi dalolat bermoqda.

5.1.2. Yerosti qurilishining iqtisodiy samaradorligi

Yerosti inshootlarini qurish ancha katta kapital mablag'lar bilan bog'liq. Yerosti obyektining turiga, shuningdek, shahar qurilishi va injenerlik-geologik sharoitlarga bog'liq holda yerosti inshootlarini qurish qiymati, shunga o'xshash yerusti inshootlarini qurish qiymatidan 1,5-2 marta va undan ko'proq bo'lishi mumkin. Tig'iz shahar qurilishi va transport hamda piyodalarning yerusti inshootlarining qiymati ancha ortganda (binolarni buzish, transport va piyoda yo'llarini qayta jihozlash zarurligi hisobiga) va yerosti inshootlar qiymatidagi farq ancha kam bo'lishi mumkin. Yerosti inshootlarini qurish qiymati ilg'or industrial konstruksiyalarni qo'llashga imkon beruvchi qulay injenerlik-geologik sharoitlarda, shuningdek yerosti kommunikatsiyalarning o'rnnini o'zgartirish bo'yicha ishlar hajmi kam bo'lganda ham jiddiy kamayadi. Bundan tashqari, yerusti va yerosti inshootlarimi qurish qiymatidagi farq ko'p jihatdan obyektlarning yer ostida joylashtirishning ijtimoiy va shaharsozlikdagi afzalliklari bilan ham qoplanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan sharoitlarga muvofiq yerosti qurilishining iqtisodiy samaradorligi, yerosti va xuddi shunday yerusti inshootini barpo etish va foydalanishning barcha xarajatlarini taqqoslashda aniqlanishi mumkin. Bunda har bir alohida holda mazkur inshootning xususiyatlarini, u joylashgan joyni, shahar tumanini rejalash va qurish xususiyatini, yerusti transporti va piyodalarining harakatlanish sharoitlarini, hududning obodonlashganlik darajasi va injenerlik qurilmalarini va h.larni har bir alohida holda hisobga olish zarur. Shaharlarda yerosti qurilishining iqtisodiy samaradorligini faqat alohida olingan obyekt uchungina emas, balki ko'p vazifa bajarishga mo'ljallangan yerosti inshootlarining butun majmui uchun ham baholash lozim. Yerosti qurilishining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun xalq xo'jaligi, iqtisodiyot sohasida kapital xarajatlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning umumiyligini metodikasidan foydalanish mumkin [35]. Iqtisodiy samaradorlikning umumiyligini kattaligi kapital mablag'larning mutlaq samaradorligini hisoblash natijasida aniqlanib, u yerosti qurilishi dasturini amalga oshirishdan olingan iqtisodiy samaradorlikning va bu samaradorlikni olishga asos bo'lgan kapital mablag'lar miqdoriga nisbatidan iborat.

Yerosti qurilishida yig'indi iqtisodiy samaradorlik yerusti obyekti ni qurilishdagi A_n va B_n yerosti inshootini qurishdagi umumiyligini iqtisodiy samaradorlik A_n orasidagi farq tarzida olinadi. Shunday qilib, yerosti qurilishining mutlaq samaradorligi.

$$Y_{n,i} = \frac{\sum_{i=1}^n (A_n - A_i)}{\sum_{i=1}^n (B_n - B_i)} = \sum_{i=1}^n \frac{\Delta A}{\Delta B} \quad (5.1)$$

ifodadan hosil qilinishi mumkin, bu yerda $\sum_{i=1}^n (A_n - A_i) - i$ dan n gacha obyektlarning yerosti qurilishidan olinadigan umumiyligini iqtisodiy samaradorlik. mlrd.so'm hisobida;

$\sum_{i=1}^n (B_n - B_i) -$ qo'shimcha xalq xo'jaligi samaradorligini vujudga keltingan va yerosti qurilishi hisobiga qimmatlashishini ifodalaydigan yig'indi kapital mablag'lar, mlrd.so'm.

Yerosti qurilishiga qo'shimcha kapital mablag'larning o'zini qoplashi muddati

$$T_{\text{ok}} = \frac{1}{Y_{u,c}} = \sum_i^{\text{н}} \frac{\Delta B}{\Delta A} \quad (5.2)$$

ni tashkil etadi.

Yerosti qurilishning iqtisodiy samaradorligi darajasini aniqlashda hududlarni bo'shatish, injenerlik-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi bilan bog'liq yerosti inshootlarini qurishdan uzoq muddatli samaradorlikni e'tiborga olish kerak.

Shu bilan birga, "Shahar hududida shahar qurilishini kompleks baholash" degan tushuncha mavjud bo'lib, u faqat yerosti inshootlari ni qurish va foydalanishga bevosita xarajatlarni, hududlarni obodonlashtirish va injenerlik jihozlanishiga kapital mablag'larnigina belgilab bernay, balki bir qator boshqa ko'rsatkichlarni (masalan, turarjoy va kommunal binolarni buzish, xiyobon va parklarni tugatish, aholiga transport xizmatini va atrof-niuhit holatini yaxshilash xarajatlari va boshqalar) aniqlab beradi.

Yerosti qurilishi munosabati bilan shahar hududlarini bo'shatishdan olinadigan samara ancha muhimdir. Masalan, 1km uzunlikdagi yerusti 6 polosalı avtomagistralni barpo etishda 4,5-7 ga hudud kerak bo'ladi, xuddi shunday, lekin yerosti avtomagistrali qurish uchun esa 0,1 ga hudud kerak bo'ladi xolos.

5.2. SHAHAR TUNNELLARI

5.2.1. Yuza joylashgan avtotransport tunnellari

Shahar yerosti transport inshootlarini loyihalashda rejada, qirqimda va ko'ndalang kesimda inshootlarning o'ziga xos xususiyatlarni, shuningdek, aniq topografik, injenerlik-geologik, shaharsozlik va transport sharoitlarini amaldagi me'yoriy hujjatlarga, shuningdek,

yerosti qurilishi sohasida zamonaviy ilg'or tajriba yutuqlariga amal qilgan holda hisobga olish zarur.

Yerosti transport inshootlariga texnik talablardan tashqari estezik talablar ham qo'yiladi. Yerosti inshootlari shahar qurilishi va rejalashtirilishi bilan bog'langan bo'lishi, atrof landshaft bilan uyg'un qo'shilishi, shahar hududini minimal darajada to'sishi, shakllarning oddiyligi va aniqligi bilan tavsiflanuvchi ifodali fazoviy qiyofaga ega bo'lishi kerak. Uyg'unlik talabi, avvalo, avtotransport tunnellarining rampa uchastkalariga va portallariga piyodalar tunnellarining kirish, chiqish va yer ostidagi pavilonlariga, avtomobillar turadigan joylar va garajlarga shamollatish inshootlari, ya'ni yer ostidagi inshootlarning shahar me'morchiligi bilan bevosita aloqador elementlariga qo'yiladi.

Quyida yuzada joylashgan avtotransport tunnellarining, yer ostidagi avtomagistrallarning, tog' turidagi va suvosti tunnellarining, yer ostidagi avtomobillar turadigan joylarning garajlarning, majmualar va piyoda tunnellarining turli xil hajmiy-rejaviy yechimlari ko'rib chiqilgan.

Yuza joylashgan avtotransport tunnellari yengil va yuk avtomobillarini, avtobuslarni, trolleybuslarni va boshqa transport vositalarini o'tkazish uchun mo'ljallangan. Shaharlarda avtotransport tunnellari quyidagi maqsadlarda barpo etiladi:


- magistrallar kesishuvida, qo'shilishida yoki tarmoqlanishida turli sathlardagi harakat chorrahalarida;
- ko'cha-yo'l tarmog'ining rejaviy tuzilishini yaxshilash;
- tovarlar va yuklarni savdo majmualari, pochtamtlar, avto va temir yo'l vokzallari, aeroportlarga olib kelish va h.

Shahar tunnellarini avtomobillar harakati uchun qurishning zarurligi ko'pincha mavjudlarini qayta qurish va uzlusiz harakatlanish uchun yangi tezkor yo'llar va magistrallar barpo qilish munosabati bilan vujudga keladi. Odatda, avtomobil transportining tezligi va magistrallarning o'tkazish qobiliyati jadal oqimlari bir sathda kesishadigan chorrahalar bilan chegaralaydi. Transport chorrahalarini (yo'llarini) yaratish; oqimlarning turli sathlarda kesishishini ta'minlaydi, svetofor oldida to'xtab qolishlarni bartaraf etadi, tezlikning oshirilishiga va harakatlanish xavfsizligi sharoitlarining yaxshilanishiga imkon beradi.

Bundan tashqari, transportning ortiqcha yurishi bartaraf etiladi, chorrahaning o'tkazuvchanlik qobiliyati, piyodalarga qulayliklar ortadi, havoning ifloslanishi va transport shovqini darajasi pasayadi.

Turli sathdagi yo'llar tezkor yo'llar, uzlusiz harakat magistrallarining kesishishi, qo'shilish yoki tarmoqlanish joylarida, shuningdek, tezkor yo'llarning magistral yo'llar bilan kesishgan joylarida quriladi. Ba'zida bunday yo'llar tuman magistrallarining alohida ajralishlar bilan quriladi. Yo'llarni turli sathlarda barpo etish barcha yo'naliшlarida 1 soatda 6-8 mingdan ortiq yengil avtomobilga keltirilgan avtomobilarning jadal harakati bo'ladigan chorrahalarда va maydonlarda maqsadga muvofiqdir.

Transport oqimlarining ajralish yo'llari chiqurliklar, estakadalar yoki tunnellardan foydalangan holda uch va undan ortiq sathda amalga oshirilishi mumkin. Ayrim hollarda bitta ajralishda turli xil sun'iy inshootlarni qurish bilan kombinatsiyalashtirilgan chorrahalar barpo etiladi. Misol tariqasida Moskva shahridagi Savelov vokzali maydonidagi uch sathli tunnelli estakadali yo'lni (chorrahani) keltirish mumkin (5.1.-rasm).



5.1-rasm. Moskvadagi Savelov vokzali oldidagi uch yarusli transport kesishuvi

Ikki sathli yo'llarni qurishda eng oddiy texnik yechim kesishuvchi magistrallarning birinchi tabiiy qiyaliklar bo'lgan chuqur joydan o'tkazish hisoblanadi. Bunda ikkinchi (kesishuvchi) magistral va bu uchastkadagi piyodalarning o'tish yo'llari yer sirti sathidagi yo'l ko'prik ko'rinishida qilinadi. Qiyaliklar joyida avtomobilarning chuqur joyga kirishi va chiqishi uchun panduslar quriladi. Biroq, shahar sharoitida bunday yechim juda kam qo'llaniladi, chunki qiyaliklarni qurish ancha katta hududlarni ajratishni talab etadi, mahkamlangan tirkak devorli vertikal qiyalikli, ochiq chuqurliklarni yaratish yanada ma'quldir. Bu holda chuqurlik qazish uchun ajratiladigan hudud kamayadi, biroq transport uchun kirish va chiqish sharoitlari biroz murakkablashadi.

Joyning relyefi qavariq bo'lganda estakadali chorrahalarini qurish maqsadga muvofiq. Estakadalarni qurish katta hajmdagi yer qazish ishlarini amalga oshirishni talab etmaydi; yerosti kommunikatsiyalari o'rnini o'zgartirish faqat tayanchlar o'rnatiladigan joyda bajariladi. Estakada rampalari ostidagi bo'sh fazo avtomobillar turarjoyi yoki boshqa maqsadlarda foydalanimishi mumkin. Shu bilan birga, ularni nisbatan tor magistrallarda, to'liq qurilishlar yaqinida qurish amaliy jihatdan mumkin emas. Transport estakada bo'yicha harakatlanganda kuchli shovqin va titrash vujudga keladi. Bundan tashqari, estakadarlar chorrahalarda ko'rish sharoitlarini yomonlashtiradi va qaror topgan me'moriy ansamblarni buzadi.

Yerning qavariq relyefida qurish ayniqsa maqbul bo'lgan tunnellardan foydalanishda bunday kamchiliklar bo'lmaydi. Ularning konstruksiyalari yer sirtidan deyarli chiqib turmaydi. Tunneldagi ajralishlar nisbatan kichik hududni egallaydi; tunnellar atmosfera ta'siridan: qor, shamol, yomg'ir, yer muzlashi va h.lardan himoyalangan bo'lib, transport harakatining sharoitlarini yaxshilaydi.

Magistralning o'tkazish qobiliyatini oshirish uchun xizmat qiluvchi transport tunnellari shahar hududining eng tig'iz uchastkalarida barpo qilinib, ularni kengaytirish bузilmaydigan yoki surilmaydigan asosli qurilish tufayli, shuningdek, daryo, kanallar, sohillari, magistrallar bo'ylab ko'cha qurilishi tufayli kengaytirish mumkin emas. Bunda yerosti sathining orttirilishi hisobiga transport qatnaydigan qism ortadi

va uning o'tkazish qobiliyati tekislanadi, ammo transportning harakatlamishi amalda o'zgarmaydi.

Avtotransport tunnellari qurishning iqtisodiy samaradorligi ikki bosqichda aniqlanadi. Avval shahar hududining mazkur uchastkasida sun'iy inshoot (tunnel, estakada, ochiq o'yilgan joy)ni barpo qilishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi aniqlanadi.

$$(\Delta R + \Delta P) T_{ok}^n \geq S \quad (5.3)$$

Shart bajarilganda sun'iy transport inshootini qurish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq deb hisoblanadi, bu formulada ΔR - transport vositalarini tirbandligini bartaraf etish, sun'iy inshoot atrofida yuklarni va yo'lovchilarni tashish qiymatini pasaytirish hisobiga yillik tejam, mlrd.so'm;

ΔP - ko'cha harakatini tartibga solish xarajatlarini qisqartirish hisobiga yillik tejam, mlrd.so'm;

T_{ok}^n - sun'iy inshootning o'z-o'zini qoplanishining 10 yilga teng deb olinadigan me'yoriy muddati;

S - sun'iy inshootni qurilishiga sarflangan kapital mablag'; mlrd. so'm.

Yillik ekspluatatsiyaviy xarajatlar; transport vositalaridan sun'iy inshoot doirasida foydalanishga yillik sarflar, transport qatnaydigan qism, trotuarlarni saqlash va ta'mirlash sarflari, ko'kalamzorlashtirish xarajatlari, shuningdek, shu sun'iy inshootdan foydalanish xarajatlari yig'indisidan iborat. Taqqoslash natijasida xarajatlarni qoplashning eng kam muddatli variantiga afzallik beriladi.

Rejalashtirish sxemalari

Turli sathlardagi harakatni ajratish uchun avtotransport tunnellari to'g'ri va "qiya" kesishuvlarda, V va T-simon birikishlarda, shuningdek ikki yoki bir necha magistrallar tarmoqlanadigan joyda barpo etiladi. Bunda tunnellar yo'naliishi, uning rejadagi chizmasi, transport oqimlarining ajralishi va boshqalar bilan farqlanuvchi turli xil rejaviy yechimlar bo'lishi mumkin. Rejaviy sxemani tanlash ajralish joyida bo'sh hududlarning mavjudligiga va konfiguratsiyasiga (shakliga),

kesishuvchi yoki tutashuvchi ko'chalarning topografiyasiga, qurilish xususiyatiga, muhandislik-geologik sharoitlarga, yerosti kommunikatsiyalarining mavjudligiga va boshqalarga bog'liq.

Ajralish doirasida tramvay yo'llari, temir yo'l izlari, mavjudligi munosabati bilan, shuningdek, tutashuvchi ko'chalar va ularning magistrallar soni ortganda, ayniqsa ular turli toifada, kenglikda bo'lganda va o'tkazish qobiliyati har xil bo'lganda transport tunnellarining rejaviy sxemalari jiddiy ravishda murakkablashadi. Tunnelni barpo etishda transport harakati sharoitlari tubdan o'zgaradi, bunda mazkur tumanda harakatni tashkillashtirish har xil sxemalar bo'yicha amalga oshiriladi. Transport tunnellarining rejaviy yechimini ishlashda kesib o'tiladigan magistrallar orqall qulay o'tish yo'llari, jamoat transport to'xtash joylariga va binolarga borish yo'llarini ta'minlashga intilib. piyodalar harakati sharoitlarining o'zgarishi ham hisobga olinadi.

Shahardagi zinch qurilish sharoitlarida ko'pincha transportning bosh yo'naliш bo'yicha uzlusiz harakatlanishini ta'minlagan holda ikki sathli ajralishlar quriladi. Bunda ikkinchi darajali va chapga buriladigan yo'naliшlar bo'yicha harakatlanish ham majburiy tartibga solinib yoki o'zini o'zi tartibga soluvchi bo'lishi mumkin.

Avtotransport tunnelimi ikki magistralning bevosita kesishish joyida barpo etishda ko'pchilik holatlarda keng magistralning yo'naliш bo'yicha qurishga intiladilar. Bu tunnel yomda yon tomondan o'tish yo'llari uchun joy qoldirishga imkon beradi va kesib o'tilayotgan magistral bilan burilishlar bo'lishi imkoniyatlarini soddalashtiradi. Ba'zida tunnellar kengligi kichikroq bo'lgan magistral yo'naliш bo'yicha joylashtirib, ancha jadal magistralni tezkor harakatlanish uchun qoldiriladi. Agar tunnel bir xil kenglikdagi ikkita avtomagistralning bevosita kesishishida joylashgan bo'lsa, bo'ylama kesimni va asosiy magistral bo'yicha harakatlanish sharoitlarini buzmaslik uchun uni, yaxshisi, kamroq harakatli magistral yo'naliш bo'yicha qurish yaxshiroqdir.

Tunnel keng (taxminan 50-80m) magistralda joylashganda chapga harakatlanish bo'lgan chorrahani rampali uchastkalar bo'ylab qurish mumkin (*5.2.- a rasm*). Bunda chapga burilib tushib borish cho'zilgan bo'ladi, o'ng tomonga burilib tushib borishini 20-50m li burilish radi-


uslari bilan quriladi. To'siqlar atrofida burilishlar hududi harakatlanish yo'nalishini o'zgartirish va transportning qarama-qarshi harakatlanshini ta'minlash mumkin bo'lishi uchun ancha keng bo'lishi kerak. Keshishuvchi magistrallar orqali piyodalarni o'tkazish ham yer usti, ham yerosti o'tish yo'llaridan foydalananib tashkil etilishi mumkin.

"Yassi beda bargi" nomi bilan ataluvchi ajralishning ko'rib chiqilgan rejaviy sxemasi Toshkent shahridagi bir qator transport tunnellari da qo'llanilgan. Bunday ajralishda transportning barcha yo'nalishlari bo'yicha uzluksiz harakat amalga oshiriladi, chapga va o'ngga buriluvchi oqimlar aralashib ketmaydi. Bu turdag'i ajralishning kamchili-giga burilib qaytishni ta'minlash uchun tunnelning berk qismini biroz uzaytirishni va chapga burilib harakatlanishda transportning ortiqcha yurishining mavjudligini kiritish mumkin. Burilishlar va burilib qaytishlar hisobiga avtomobilarning oldindan joylashuvini o'zgartirishda asosiy magistralning o'tkazish qobiliyati pasayadi. Bundan tashqari, tunnelning rampali uchastkalari bo'ylab, trasnportning qarshi harakatlanishi yuzaga keladi, kichik radiusli egri chiziqlarda burilishda esa avtomobillar asosiy harakatga xalal beradi. "Yassi beda bargi" ko'rinishidagi ajralish yer hududini ajratishni talab etadi (6-8 gektargacha) va shuning uchun etarlicha katta maydonlarda qo'llaniladi.

Agar mahalliy sharoit bunday ajralishni to'liq qurishga imkon bermasa, u holda masalan Moskva shahridagi Kaluga maydonidagi transport tunneli qurilishida qilmgandek, ikkita ikki yo'lli tushib keladigan to'liq bo'limgan "Yassi beda yaprog'i" turi bo'yicha ajralish qo'llaniladi. Ayrim holiarda, tunnel tor magistralda joylashganda ajralish harakatlamishni chapga burilishni qo'shni dahalarning ikkinchi darajali ko'chalari va yo'llarini aylanib o'tish yo'li bilan tashkil etib, "to'liq beda yaprog'i" sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi (5.2.-b rasm).

Bu yon tomonlardan o'tib ketish uchun qo'shimcha hududni talab etmaydigan juda oddiy sxemadir. O'ngga burilishlar odatdagidek, chapga burilishlar esa qo'shni ko'chalar orqali amalga oshiriladi. Bunday sxema, agar qo'shni dahalarning o'lchamlari uncha katta bo'limganda (perimetri 400-500m dan ortiq bo'limganda) va transportning

ortiqcha yo'l bosishi juda oz bo'lgan hollarda maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, qo'shni ko'chalar bo'yicha harakatlanish jadalligining ma'lum darajada ortishini va ular orqali piyodalarning harakatlanish xavfsizligining pasayishini hisobga olish kerak.



5.2.-rasm. Harakatlanish chorrahasi "Yassi beda yaprog'i" (a) va "to'liq beda yaprog'i" turidagi dahalarni aylanib o'tiladigan (b) to'g'ri ajralishdagi transport tunnelining sxemasi:

1-tunnelning berk qismi; 2-rampali uchastkalari; 3-transportning harakatlanish yo'nalishi; 4-qurilishlar; 5-piyodalarning yerusti o'tish yo'llari;
6-daraxtzor.

"Beda yaprog'i" turidagi ajralishlarni qurishda jamoat transporti harakati qiyinlashadi, chunki to'xtash joylari va piyodalar o'tish yo'llari ajralish chegarasidan tashqariga chiqariladi.

Bir qator hollarda transport tunnelimi jadal harakatli ikki magistrallning bevosita kesishishida qurilganda avtomobil oqimlari ajralishini markaziy orolcha atrofidagi halqali sxema bo'yicha loyihalanadi (5.3.- a rasm). Bunda o'ngga buriladigan harakatlanish odatdagicha tarzda, chapga buriladigan harakatlanish esa majburiy tartibga solishsiz halqali sxema bo'yicha (tunnel ustida) amalga oshiriladi. Transportning halqa bo'ylab harakatlanishini ta'minlash uchun trotuarlar-


ning chetlari radiusi taxminan 12-15 m bo'lgan bukilishlarga ega bo'lishi kerak.

Maydoni bo'yicha yetarlicha katta ajralishlarda tunnel ustida transport harakatlanishi ajralishini rombsimon sxema bo'yicha qurish mumkin bo'lib. u yetarli darajada oddiyligi va tejamkorligi bilan ajralib turadi (5.3. - h rasm).

Chapga burilishlar orolchalar atrofida burilib qaytib kesish bilan tugaydi, bu esa burilib qaytish uchun o'zgartirishlarni talab etadi. Bunday sxemada ikkinchi darajali magistralda to'g'ri kelayotgan oqimlar bilan kesishadigan chapga buriluvchi oqimlarning harakatini tartibga solish kerak. Bu harakat tezligining biroz pasayishiga va ajrallshning o'tkazish qobiliyatini kamayishiga olib keladi.

Harakatni "romb" turi bo'yicha ajratishda magistrallar orqali piyodalar tunnellarini barpo etish maqsadga muvofiqdir.

To'g'ri ajralishning yuzi avtomobillarning bevosita tunnel ustida burilib qaytishiga imkon bermaganda ko'chirilgan chapga burilishlar va burilib qaytishlarning sirtmoqli kesishishi amalga oshiriladi (5.3. - v rasm).



5.3.-rasm. To'g'ri chorrahada harakatlanishni halqali (a), rombsimon (b) va sirtmoqli (v) ajratuvchi transport tunneli sxemasi:

1-tunnelning berk qismi; 2-rombli qismlari; 4-orolchalar; 4-transport harakati yo'nalishi; 5-qurilgan uylar.

Chapga burilishlar va burilib qaytishlar faqat bosh magistral bo'yicha emas, balki bosh va ikkinchi darajali, yoki faqat ikkinchi darajali magistral bo'yicha qaytishlar joyi burilish radiusi yengil avtomobil uchun kamida 8 m va yuk avtomobillari uchun 12 m bo'lishi kerak bo'lган maxsus orolchalar bilan qayd etiladi. Orolchalar ko'chirilgan masofa transport qatnaydigan qismning kengligiga bog'liq va chapga burilayotgan avtomobillarning o'mini o'zgartirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Sirtmoqli ajralishning jiddiy kamchiligi jamoat transporti bekatlarini va piyodalarining o'tish yo'llarini bo'g'in tashqarisiga chiqarish zarurligidir.


Ikki magistralning T-simon qo'shilishida transport tunnellari ko'pincha assosiy magistral yo'nalishi bo'yicha joylashtiriladi. Bunda tunnelning rampali qismlari bo'ylab mahalliy o'tish yo'llari qoldirilishi kerak (5.4.- a rasm). Bu holda barcha yo'nalishlar bo'yicha o'zini o'zi tartibga soluvchi harakat ta'minlanadi: chapga buriluvchi oqimlar ajratuvchi orolcha atrofida halqa sxemasi bo'yicha o'tkazilishi mumkin, burilib qaytuvchi oqimlar esa tunnel ustidan o'tkazilishi mumkin.

T-simon qo'shilishlarda yetarlicha hudud bo'lsa, tunnel ustida "quvur", "teshik" yoki "bargsimon" turi bo'yicha kombinatsiyalashgan chorrahalar tashkil etilishi mumkin, bunda tunnel ikkinchi darajali (qo'shiluvchi) magistral yo'nalishi bo'yicha joylashadi. Bu o'z ichiga beda yaprog'i, sirtmoqli, rombsimon va boshqa turdag'i kesishuvlarni qamrab oluvchi chorrahalardir.

Ikki magistralning U-simon va T-simon qo'shilishlarda qo'llaniladiganlarga o'xshash chorrahalarini tashkil etishdan tashqari tunnelning rejada egri chiziqli trassada ikki magistral bo'yicha joylashtirilishi mumkin (5.4.- b rasm). Bu holda qo'shilayotgan tunnellarni ham ikki, ham bir tomonlama harakatni o'tkazish uchun tashkil etiladi. Bunday tunnellarning berk qismining uzunligi transportni tunnel ustidan o'tkazish uchun etarli bo'lishi kerak.

Magistrallar ajraladigan joylardagi tunnellar magistrallarning kengligi va harakatning jadalligiga bog'liq holda bir va ikki tomonlama va tunnel ustidagi harakatga mo'ljallab va harakat ajralishining

turli xil sxemalariga bog'liq holda tashkil etiladi. Masalan, tunnelning berk qismi ustida harakatlanishning halqali ajralishini burilish orolchalarli uzaytirilgan holda tashkil etish mumkin (5.4.- v rasm).



5.4.- rasm. Magistrallarning T-simon (a), U-simon (b) qo'shilishlarida va ajratishlarida (v) transport tunneli sxemasi:

1-tunnelning berk qismi; 2-rampali uchastkalar (qismlar); 3-transportning harakatlanish yo'nalishi; 4-imoratlar; 5-orolchalar.

Yuzaroq joylashgan avtotransport tunnellari bir sathda ikki, uch, to'rt va olti polosali harakatlanishni o'tkazish uchun quriladi. Yirik ajralishlarda odatda ikki tomonlama ko'cha harakati uchun esa bir tomonlama tunnellar loyihalanadi va quriladi. Shuningdek, harakatni ikki yoki bir necha sathlarda o'tkazish uchun ko'p qavatli avtomobil yo'llari tunnellari qurish mumkin. Avtotransport tunnellarining

ko'ndalang kesimlari o'lchami istiqbolga hisoblangan holda talab etiladigan o'tkazish qobiliyati va transport vositalarining gabaritlari bilan belgilanadi.

Tunneldagi transport qatnovi qismi undan suv oqib ketishi uchun 1,5-2,5% atrofidagi i ko'ndalang qiyalikka ega bo'lishi kerak. Agar tunnel rejada to'g'ri chiziqdagi joylashtirilgan bo'lsa, uholda qatnov qismining qiyaliklarini tunnel o'qidan turli tomonga qilib quriladi.

Egri chiziqlı qismlarda burilishlar qilib, yo'lning qatnov qismida harakatlanayotgan avtomobilga ta'sir etuvchi markazdan qochma kuchlarni kamaytirish uchun har bir bo'lakda egrilik radiusi $R=300-700$ m bo'lganda 3-4%va $R=700-1000$ m bo'lganda 2% qiyalik berish kerak. Tunnellar egri chiziqlarda joylashganda yo'lning qatnov qismini uning ichki tomonidan egri chiziqning radiusiga bog'liq bo'lgan kattalikka kengaytirish zarur. $R = 550-750$ m bo'lganda kengaytirish kattaligi 0,2m ni, $R=400-550$ m bo'lganda – 0,25m ni, $R=300-400$ m bo'lganda bitta harakatlanish yo'nali shiga 0,3m ni tashkil etadi. Agar tunnelning bir qismi bo'yicha ikki qatordan ortiq o'tkazish nazarda tutilayotgan bo'lsa, qatnov qismi kengaytirilmaydi.

Shahardagi tunnellarning qatnov qismi sathidan orayopmaning past qisimigacha balandligi kamida 5m bo'lishi kerak. Avtotransport tunnellarining ko'ndalang kesimi shakli tashqi yuklanishiarning qo'yiliishi chuqurligi, ularni taqsimlashning kattaligi va xususiyati bilan, shuningdek, injenerlik geologik sharoitlar bilan belgilanadi. Yuza joylanadigan transport tunnellari asosan to'g'ri to'rtburchakli ko'ndalang kesimga ega bo'ladi.

Bunday shakl ko'proq darajada konstruksiyaning belgilangan yanishlashish gabaritlariga mos keladi va tunnelning minimal balandligi hamda uzunligini ta'minlaydi. Ayrim hollarda yuza joylashtirilgan transport tunnellari qubbali va doiraviy shaklda loyihalanadi.

5.2.2. Yerosti magistrallari

Alovida nisbatan qisqa yuza joylashtirilgan transport tunnellari magistralning o'tkazish qobiliyatini oshiradi va shaharning yaqin tumanlaridagi yerusti transporti harakatini tartibga solish imkonini bera-

di. Shu bilan birga, magistral trassasi bo'yicha qisqa berk qisnga va uzun rampalarga ega bo'lgan, tez-tez joylashtirilgan tunnel kesishuvlarining mavjudligi magistralning bo'ylama profilining yomonlashishiga va transport harakatlanish sharoitlarining buzilishiga otib keladi.

Shahar transport tarmoqlarining o'tkazish qobiliyatini yanada oshirish uchun ko'chadan tashqari avtomagistrallarni tashkil etish talab etiladi, shu bilan birga, zamonaviy shaharsozlik va transport talablariga yerosti magistrallari ko'proq javob beradi.

Yetarlicha uzun tunnellarning rivojlangan tarmog'i avtomobillarning katta miqdori to'planadigan va piyodalar oqimi juda ko'p bo'lgan shaharning markaziy tumanlari orqall katta transport oqimlarini tranzit o'tkazishni ta'minlashga qodirdir. Yerosti avtomagistrallari portallari yaqinida, shuningdek, uzunlik bo'yicha ma'lum oraliqlar orasida yer ustiga chiqish va kirish yo'llari nazarda tutilishi kerak. Magistral tunnellar trassalari bo'yicha va ularning o'zaro tutashish va kesishish joylarida avtomobillar turadigan joylarni va garajlarni o'z ichiga qamrab oluvchi yirik yerosti majmualarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Yerusti va yerosti avtomagistrallari variantlarini taqposlash yerosti yechimlarining bir qator afzallikkleri to'g'risida dalolat beradi. Yerosti avtomagistrallari faqat yerustiga chiqish va kirish joylarida hudud ajratilishini, shuningdek ventilyatsiya shaxtalari, eskalator tunnelleri va boshqa yordamchi inshootlar ustida yer ajratilishini talab etadi, bu esa yer usti magistrallarini o'tkazishga qaraganda 4-5 marta kamadir. Yer osti magistrallarini trassalashni, yer asti magistrallariniidan farqli ravishda ayrim shahar tumanlarini birlashtiruvchi liniyalarning minimal uzunlikda bo'lishini ta'minlab, shahardagi imoratlarning sharoitiga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirish mumkin. Yerosti avtomagistrallarining afzalliklariga, shuningdek, turlicha sathlarda harakatlanishning nisbatan oddiy ajralishlar yaratish imkonini kiritish lozim. Yerosti avtomagistrallari kesishgan yoki tutashgan yerlardagi ajralishlar yerusti magistrallar trassasidagi ajralishlarga nisbatan ikki marta kam maydonni egallaydi.

Chuqur yotqiziladigan avtotransport magistrallari tarmog'i shahar aholisiga qulayliklarni ta'minlaydi va harakat xavfsizligi sharoitlarini

oshiradi. Bunda avtomebil va piyodalar oqimlari to'la ajratiladi, ko'ka-lamzorlashtirilishi mumkin bo'ladigan shahar hududlari bo'shaydi, qaror topgan me'moriy ansambllar saqlanib qoladi. Avtomobillardan ajratadigan zararli gazlar sun'iy ventilyatsiya hisobiga chiqarib tashlanadi va tunnel hududidagi atrof muhitni ifloslantirmaydi. Yerosti magistrallarini barpo etish hisobiga yerusti avtomagistrallar tarmog'i ancha qulay, erkin va foydalanish oson bo'ladi, bu ham avtomobil va piyodalar harakatining tartibga solinishiga imkon beradi. Shahar huddida yerlar qiymatining yanada ortishi va tunnelsozlik sohasining takomillashib borishi munosabati bilan yerosti avtomagistralarining yerusti avtomagistrallardan afzalliklari ortadi.

Qulay muhandislik-geologik va shaharsozlik sharoitlarida, shaharning markaziy qismlarida yerosti avtomagistrallarining barpo etiliishi shahar yerostiga xozjaligi rivojlanishining ma'lum bosqichida, yerosti inshootlarining rivojlangan tizimi mavjud bo'lganda: ko'p qavatlari gara-jlar va majmuular, piyodalar sathlari, metropoliten tarmog'i, transport va piyodalar tunnellari va h.lar mavjud bo'lganda maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu holda shu inshootlarni bog'lovchi yerosti avtomagistrallari shaharning yerosti transport tizimining muhim va tabiiy elementi bo'lib hisoblanadi.

Biroq shuni ham hisobga olish kerakki, shahar yerosti avtomagistrallarini qurish murakkab muammo bo'lib, katta mablag'larni talab etadi.

Yerosti tarmoqlarining katta uzunlikda bo'lishi bilan bog'liq psixologik jihatni ham ta'kidlab o'tish lozim, bunda transport vositalari haydovchilarini va yo'lovchilar uzoq vaqt mobaynida tunnellar ichida yurishga majbur bo'ladir.

5.2.3. Suvosti tunnellari

Shahar transport inshootlarining umumiyligi majmuida suv to'siqlari ning suvusti va suvosti kesishuvlari, muhim o'rinni egallaydi. Odatda, yirik shaharlar ayrim shahar tumanlari o'rtasidagi aloqani qiyinlashtiruvechi turli xil suv yo'llari: daryolar, kanallar, ko'llar, suv omborlari

kesib o'tuvchi hududda joylashadi. Birorta suv to'sig'i orqali doimiy amal qiluvchi transport aloqasini tashkil etishda dastavval juda murakkab bo'lgan masalani: mazkur sharoitda nima qurish kerak – ko'priy yoki tunnel? degan savolga javob berish zarur bo'ladi. Bunga aniq javob faqat ko'priklari va tunnelli o'tishning turli xil variantlarini mufasal texnik iqtisodiy taqqoslashdan keyingina olinishi mumkin.

Inshoot variantini tanlashda kesishish hududidagi me'moriy-rejaviy xususiyatlar, transport oqimlarining xususiyati va jadalligi, topografik va muhandislik-geologik sharoitlar, suv oqimining gidrologik rejimi va kema yurishi sharoitlari, shuningdek, iqtisodiy mulohazalar hisobga olinadi. Biroq mahalliy sharoitlarga bog'liq bo'lmagan holda tunnelli o'tishlarning ko'priklari o'tishlarga nisbatan ayrim afzalliklari va kamchiliklarini ta'kidlab o'tish mumkin. Suvosti tunnellarining asosiy afzalliklari shundaki, ular:

- suv oqishining tabiiy rejimini buzmaydi;
- kema qatnoviga to'sqinlik qilmaydi;
- transport vositalarini noqulay atmosfera ta'siridan himoya qilishni ta'minlaydi;
- shaharning me'moriy qiyofasiga minimal darajada ta'sir etadi;

Suv oqimi qirg'oqlari qiya bo'lganda va kema qatnovi jada bo'lganda tunnellarning afzalligi ancha ortadi. Agar faqat daryo kemalarini o'tkazishda ko'priosti gabariti odatda 5-10m dan ortiq bo'lmasa u holda suv yo'lidan dengiz kemalari o'tadigan bo'lsa, ko'priosti gabaritining balandligi 40-50m va undan ortiqqa yetishi mumkin. Bu oraliq inshootlarini ko'tarish baland va baquvvat tayanch ustunlarini o'rnatish bilan bog'liq bo'lib, o'z navbatida, ko'pridan o'tish yo'llining ancha uzaytirilishiga olib keladi.

Agar suv to'sig'ini ko'p sonli va bir-biridan yaqin masofada joylashgan, o'tkazish qobiliyati qoniqtirmaydigan ko'priklar bo'lganda suvosti tunnellarini qurish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ko'priklar yonida suvosti tunnellari – dublyorlar quriladi. Suvosti tunnellari eski, zamonaliv talablarga javob bermaydigan ko'priklar o'mniga barpo etilishi mumkin. Suvosti tunnellari kemalarning manyovrlari, yuk ortish-tushirish operatsiyalari yuz ber-

adigan, prichallar joylashgan port hududida suv to'sig'i kesib o'tganda ko'priklarga qaraganda afzalroq bo'ladi. Suvosti tunnellarini shaharlarda va chuqur joylashgan yerosti avtomagistrallari trassasi bo'yicha qurish talab etiladi. Bunda suvosti va qirg'oq hududlarini tutashtirish ancha oson bo'lib, ko'prikl o'tishda yerosti avtomagistrassalarini tras-salash sharoitlari ancha murakkablashadi.

Suv to'sig'ini ko'prikl va tunnelli kesib o'tish variantlarini taqqoslashda iqtisodiy ko'rsatkichlar ham hisobga olinadi. Bunda qurilish va ekspluatatsiya xarajatlarini hisobga olgan holda inshootning qoplanishi hisobiy muddati aniqlanadi:

$$T_{ek} = \frac{S_I - S_E}{E_B - E_i} \quad (5.4)$$

bu yerda S_I va S_E - birinchi va ikkinchi variantlar bo'yicha kapital xarajatlar, mlrd.so'm;

E_I va E_E - variantlar bo'yicha ekspluatatsion xarajatlar, mlrd.so'm.


Agar T_{ek} kattaligi qoplashning belgilangan me'yoriy muddatidan kam bo'lib qolsa, u holda kamroq ekspluatatsiya xarajatlarini ta'minlovchi katta kapital mablag'li variant ($T''_{ok} = 10 \text{ yil}$) ancha samarali hisoblanadi.

Suv oqimlari tubiga nisbatan joylashishiga qarab grunt massiviga to'liq botirilgan suvosti tunnellari, to'g'on yoki alohida tayanchlardagi tunnellarga va o'zan tubiga trosli tortqichlar bilan ankerlangan "suzu-vechi" tunnellar farqlanadi (5.5.- rasm).

Shaharda suvosti tunnelini joylashtirish joyini tanlash asosan qirg'oq hududlarining rejalash va imoratlari xususiyati, topografik sharoitlar, shuningdek, tunnelni barpo etish usuli bilan belgilanadi. Ko'pchilik holatlarda tunnelli kesishish suv oqimiga perpendikulyar holda trassalanadi, bu tunnel uzunligini kamaytiradi, o'tishni, qurishni va undan foydalanishni osonlashtiradi (5.6.- a rasm).

Suvosti tunneli rejada to'g'ri yoki egri chiziqli trassada qisman yoki to'la joylashishi mumkin (5.6.- v.g rasm). Tunnelning egri chiziqli trassada joylashishi biror to'siqlarni: kuchli yuvilib ketgan hududlar ni, orollarni, sun'iy suvosti inshootlarini va h.larni chetlab o'tish zarur-

ligi bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim hollarda trassaning qiyshayishi, unda ventilyatsiya shaxtalarini qurish, qo'shimcha zaboylarni ochish va h.lar uchun orolga yondashishga intilish bilan bog'liq. Ba'zida rejada egri chiziqli trassada tunnelning faqat suvosti qismi, ba'zida suvosti qismining qirg'oq qismi bilan qo'shilgan qismlari joylashtiriladi.




5.5.- rasm. Suvosti tunnellarining turlari:

a- tubiga cho'ktirilgan; b- to'g'onda; v- tayanchlarda (tunnel-ko'pri); g- "su-zuvchi", 1- tunnelning berk qismi; 2- rampalar; 3- to'g'on; 4- tayanchlar; 5- trosli tortqichlar.

Suv osti avtotransport tunnellari bir sathda ikki, to'rt, olti va sakkiz polosali harakatni o'tkazish uchun barpo etiladi; ikki qavatli suvosti tunnellari ham qurilishi mumkin. Suvosti avtotrasnport tunnellarining ko'ndalang kesimi yuk ko'taruvchi konstruksiya o'lchamlari bilan

belgilanadi, bunda tunnelning uzunligi 300-400m ho'lganda ventilyasiya kanallarini joylashtirish yoki oqimli ventilyatorlarni o'tkazish uchun transport harakatlanadigan yo'lning yon tomonida eni kamida 1m bo'lgan to'siqli trotuarlar quriladi. Piyodalar harakati jadalligi katta bo'lganda tunnelning transport yuradigan qismidan yaxlit devorlar bilan ajratilgan piyodalar uchun maxsus bo'linmalar qurish maqsadga muvofiq. Bo'linmalar tunnelning yon qismlarida yoki o'rtaida, qatnov qismi orasida joylashtirilishi mumkin.



5.6.- rasm. To'g'ri chiziqli (a) va egri chiziqli (b-g) trassalarda suvosti tunnellarining rejaviy sxemalari:

1- tunnelning yopiq qismi; 2- rampa; 3- imorat qurilishi.

Suvosti tunnelining suvosti qismidagi ko'ndalang kesimi shakli asosan inshootni barpo qilish usuli bilan belgilanadi. Tunnellarning suvosti qismiga ko'pchilik hollarda shchit usuli bilan va tushirilgan seksiyalar usuli bilan yoki to'g'ri to'rtburchakli shakl beriladi.

5.2.4. Tog' tunnellari

Ko‘pgina yirik shaharlar tog' yoki balandlik joylarda joylashgan bo‘lib, shu bilan birga, balandlik va boshqa tepallklar shahar hududini bir yoki bir necha tomondan o‘rab olgan bo‘lishi, yoki shahar chegarasida joylashgan bo‘lishi mumkin. Balandllklar, tepaliklar va tog' tarmoqlari avtomobil yo‘llari va magistrallarni trassalashni qiyinlashtiradi. shaharlarda piyodalar harakati sharoitlarini murakkablashtiradi.

Yo‘l trassasining baland to‘sqliarni yengib o‘tish uchun to‘sinqing balandligi, shakli va uning rejadagi o‘lchovlari, joylashgan o‘rni, yonbag‘irlarning qiyaligi, shahar rejasining va imoratlarning xususiyati, injenerlik-texnologik sharoitlar, iqtisodiy omillarga bog‘liq holda bir necha mumkin bo‘lgan yechimlar mavjud.

Rejada to‘sinqi aylanib o‘tish mumkin, bu esa yo‘l trassasining uzayishini va ma’lum darajada murakkablashishini talab qilib, uning ancha katta qismi rejadagi egri chiziqdagi joylashishi kerak. Boshqa yechim to‘sinqi yuqorisidan kesib o‘tib, ochiq kovlashni amalga os-hirishdan iborat. Tog‘ massivini kesib o‘tishning uchinchi varianti tunnel barpo etishni nazarda tutadi, u eng qisqa yo‘l bilan baland to‘sinq bilan ajratilgan ikki tumanni birlashtiradi. Bu variantning afzalliklariga, shuningdek, yo‘l trassasining rejada to‘g‘ri chiziq bo‘ylab joylashishi mumkinligini, transportning shamoldan, yomg‘irdan, qordan, yaxmalakdan h.lardan himoya qiluvchi qulay harakatlanish sharoitlari ni kiritish mumkin. Shu munosabat bilan tunnelli variantning qurilishi qiymati yuqori bo‘lishiga qaramay unga ko‘pincha ustuvortik heriladi. Bunga dalil sifatida Tbilisi, Budapesht, Praga, Makka, Gavr, Jeneva va boshqa shaharlardagi tog‘ turidagi tunnellarni keltirish mumkin.

Agar tog‘ massivi shahar chetida joylashgan bo‘lsa, u holda transport tunnellari shahar ichi va shaharlaro magistrallarni bog‘lash uchun xizmat qiladi. Bunday tunnellar odatdagи tog‘ tunnellaridan kam farq qiladi. Ayrim balandliklarni, tepaliklarni yoki tog‘ tarmoqlarini kesib o‘tib, bevosita shahar hududiga kirib boruvchi tunnellarni loyihalashda, qurishda va foydalanishda ularni hisobga olishni talab qiluvchi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi.


Rejada tog' turidagi tunnellar trassasi butunicha yoki qisman to'g'ri chiziqli yoki egri chiziqli uchastkalarda joylashishi mumkin. Tunnelarni to'g'ri chiziq bo'ylab barpo etishning muhim afzalliklariga qaramay, ularni qurish bir qator holatlarga ko'ra har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Tunnel trassasining qiyshayishi tunnelning shahar magistrallari bilan tekis qo'shilishi buzilgan hududlarni aylanib o'tish, shuningdek mavjud imoratlarni saqlab qolish sharoitlari bo'yicha talab qilinishi mumkin.

Tog' turidagi tunnellar ko'pincha chuqur joylashadigan qilinadi, ularning uzunligi 300m dan kam bo'lganda – bir tomonga qiya bo'ylama profillar bilan quriladi. Uzunligi katta bo'lganda tunnellar ham bir tomonga qiya, ham ko'p qiyalikli bo'ylama profili qavariq shaklda ravoqlardan tunnelning o'rtasiga tomon ko'tarilib boriladigan bo'lishi mumkin. Tog' turidagi shahar tunnellarining bo'ylama profili shakliga va qiyaliklarning kattaligiga olib boruvchi yo'llarning balandlik belgilari hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Tog' turidagi tunnellarning transport qatnaydigan qismining maksimal bo'ylama qiyaligi ventilyatsiya shartlari bo'yicha cheklanadi va 4% ni tashkil etadi. Murakkab topografik sharoitlarda tunnelning uzunligi 500m gacha bo'lganda undagi bo'ylama qiyalikni 6% gacha orttirishiga ruxsat etiladi. Suvni oqizib yuborish shartlariga ko'ra maksimal qiyalikni 4% ga teng qilib qabul qilinadi. Tunnelning o'rta qismida o'rtadan boshlab ikki tomonga qiyaligi 2% gacha bo'lgan 250-300m uzunlikdagi ajratuvchi maydonchalar qurishga ruxsat etiladi.

Tog' turidagi tunnellarning bo'ylama profilini loyihalanayotganda tunneiga kirishda yaxshi ko'rish sharoitlarini ta'minlab, peshtoqlar joylashadigan joylarni belgilash zarur. Tog' turidagi shahar tunellari uchun bir qator hollarda peshtoqni joylashtirish o'rnini tanlash texnik-iqtisodiy mulohazalar asosida emas, balki me'moriy-rejaviy mulohazalarga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Tog' turidagi tunnel trassasini loyihalash jarayonida shaxta ustunlarini joylashtirish o'rnlari chuqur joylashtiriladigan yer osti avtomagistrallari trassasida qilanganiga o'xshash belgilanadi.

Tog' turidagi tunnellar shaharlarda ko'pincha ikki yo'lli transport harakatini o'tkazish uchun barpo qilinadi. To'rt qatorli harakatni o'tkazish uchun ikkita yonma-yon joylashtirilgan ikki yo'lli tunnel qurish tavsya etiladi. (5.7.-a rasm). Faqat alohida holatlarda joyning topografiyasi murakkab bo'lganda va og'ir tog'-geologik shareitlarda to'rt yo'lli tunnel inshootini maxsus asoslashga ko'ra qurishga ruxsat etiladi.



5.7.- rasm. Tog' turidagi bir qavatli (a) va ikki qavatli (b) tunnellarning ko'ndalang kesimi.


Ayrim hollarda to'rt yoki olti yo'lli harakatni o'tkazish uchun tog' turidagi ikki qavatli tunnellar qurilishi mumkin (5.7.-b rasm). Bunday tunnellarning oraliq'i ikki yoki uch yo'lli tunnellarning oraliq'iga taxminan teng, shu munosabat bilan ikki qavatli tunneldagi tog' bosimi

kattaligi ikki yoki uchi yo'lli tunnelning tog' bosimi kattaligiga qaraganda unchalik ortiq bo'lmaydi. Ikki qavatli tunnellarni qurishda asosiy qiyinchiliklar tunnelning ravoqlari oldida qarma-qarshi oqimlarning ajralishlarini qurish bilan bog'liq bo'ladi.

Ko'pineba yepiq usulda barpo etiladigan tog' turidagi tunnellar qubbali yoki doiraviy shaklga ega. Ko'ndalang kesimining o'lchamlari tunnelning joylashgan o'mni va transport harakati jadalligi bilan belgilanadi va konstruksiyalarning yaqinlashishi gabaritlariga muvofiq o'natalidi. Shahar atrofi magistrallaridagi tunnellar uchun tog' tunnelari gabaritlariga amal qilish mumkin: G 7 yoki G 8 transport qatnaydigan qismining kengligi mos ravishda 7 va 8m, balandligi 5m.

Agar tunneldan piyodalarни o'tkazish nazarda tutilayotgan bo'lsa transport qatnaydigan qism suv oqib ketishi uchun yo'l o'qidan chetga qarab kamida 2% ko'ndalang qiyaliklar i,ga ega bo'lishi kerak. Transport qatnovi qismidan chetda joylashgan 1m kenglikdagi trotuar soatiga 1000 kishigacha o'tkazishga mo'ljallangan. Piyodalar harakati jadalligi bundan ortiq bo'lqanda eni 1m dan bo'lgan ikkita trotuar quriladi.


Tog' turidagi tunnellarni shaharichi magistrallari trassasi bo'yicha transport qatnaydigan qismining eni 8 yoki 12m va balandligi 5m bo'lgan avtotransport tunnellari gabaritlarini hisobga olib loyihalash lozim (5.8.-rasm). Tunnellar kichik radiusli ($<700\text{m}$) egri chiziqlarda joylashganda transport qatnaydigan qism egrilik radiusiga bog'liq holda 0,4-0,6m ga kengaytiriladi.



5.8-rasm. Shahar avtotransporti tunneli konstruksiyasining yaqinlashish gabaritlari.

5.2.5. Metropoliten tunnellari

Yirik shaharlarda metropolitenning tunnei liniyalari keng rivojlandi. Metropoliten tunnellari chuqur yoki yuza qazib o'tkaziladi. Yuza o'tkaziladigan tunnellar (yorug'lik sirdan 6-12m) metropoliten tras-sasi shahar ko'chalarini ostidan o'tganda va tunnelni ochiq usulda qu-rish alohida qiyinchiliklar tug'dirmaganda, shuningdek, imoratlar kam bo'lgan shahar atrofida va tumanlarda qo'llaniladi (5.9.- rasm). Yuza o'tkaziladigan tunnelarni uning ustidan yeroti muhandislik, kommunikatsiya tarmoqlarini yotqizishga xalaqit bermaydigan chuqurlikda joylashtiriladi. Shahar hududi relyefi past-baland bo'lsa, metropoliten limiyalari ayrim qismlarda yuza joylashgan, boshqa qismlarda chuqur joylashadigan qilib qurilishi mumkin.




5.9.- rasm. Yuza o'tkaziladigan metropoliten tunneli

Jahondagi shaharlarda qurilgan metropoliten tunnellari umumiy uzunligining taxminan 20% chuqur joylashtirilgan tunnellar tashkil etadi, ular yuza joylashtirilgan tunnellarga nisbatan kattagina afzalliklarga ega bo'lsa ham, ishlarning ancha murakkablligi bilan farq qiladi va katta mablag'larni talab etadi.


Tunnelni suvgaga to'yingan gruntlarda chuqurda yotqizishda aylana kesim eng oqilona hisoblanadi. Kesimning bu turi barpo etish sharoitlari bo'yicha ham qulaydir, chunki tunnelni zavodda tayyorlangan standart elementlardan tashkil etish imkonini beradi (5.10.- rasm).

Chuqur joylashtiriladigan tunnellarni padozlash materiallariga yuqori talablar qo'yildi. U ham grunt bosimidan tushadigan, ham tunnelni qazish bilan bog'liq ta'sirlardan tushadigan kuchlanishlarni qabul qilish uchun etarlieha mustahkamlikka ega bo'lishl kerak. Padozlash materiali suv o'tkazmaydigan va uzoq muddatga chidamli bo'lishl kerak. Qoplama uchun elementlar metall (cho'yan, po'lat), beton va temirbetondan bo'lishi niumkin.



5.10.- rasm. Chuqur joylashtiriladigan metropoliten tunneli.

Metalldan tayyorlangan tunnel qoplaması tyubing deb ataluvchi alohida segment elementlaridan tashkil topadi. Har bir tyubing cheti bo'yab borttl qo'shimcha qovurg'alar bilan birga alohida tyubinglarga va, umuman, butun qoplamaga zarur bikrlikni beradi. Qo'shimcha qovurg'alar tunneldan shchitli o'tishda qo'yiladigan domkratlarning bosimlarini qabul qilish uchun ham xizmat qiladi.



5.11.- rasm. Metall cho'yan qoplama.

Tyubinglar bortlarining bir-biriga tegib turadigan sirtlari birikish zich bo'lishi uchun qirqib yoki frezerlab ishlov beriladi va novlarning ikki qo'shni bloklarini o'rnatgandan so'ng hosli bo'ladigan faltslar bilan ta'minlanadi. U sementli surtma bilan mahkamlanadi, ayrim hollarda esa qoplamaning suv o'tkazmasligini ta'minlash uchun qo'rg'oshinlangan shnur bilan zarb qilinadi.

Tyubinglarni yig'ilishni yengillashtirish maqsadida boltlar uchun teshiklarning diametrlarini boltlarning diametridan biroz kattaroq qilinadi. Boltlar va teshiklar orasidagi yoriqlar boltlarning gaykalarini burab kiritishda metall shaybalar bosib kiritadigan maxsus qistirmalar bilan to'ldiriladi.

Tyubinglar cho'yan yoki po'lat quymadan tayyorlanadi. Korroziyaga kamroq uchraydigan cho'yan tyubinglar ko'proq tarqalgan. Po'lat tyubinglar po'latning pishiqligi ortiqroq bo'lgani tufayli choclarini to'ldirib payvandlash yo'li bilan kattalashtirilishi mumkin. Po'lat tyubinglar faqat quyma bo'lmay, balki shtamplangan bo'lishi mumkin. Po'lat tyubinglarning asosiy kamchiligi – ularning korroziyaga uchrasbidir.

Temir-beton va beton bloklar qovurg'ali yaxlit (plitali) konstruksiyada ishlanadi. Temir-beton bloklar yuqori markadagi yaxshi zichlashtirilgan betondan qovurg'ali qilib ishlanadi. Montaj qilish boltlari uchun (agar ular qo'llanilsa) bloklar va teshiklar orasidagi choclar suv o'tkazmaydigan qistirmalar yoki maxsus mastika bilan to'ldiriladi. Qoplama yig'ilgandan so'ng bloklardagi teshiklar orqali qorishma purkaladi.

Chuqur joylashtiriladigan tunnellarni qurishda ularni barpo etishning shchitli usuli keng qo'llaniladi. Bu usulning mohiyati quyidagidan iborat:

- qurilayotgan tunnelning bosh qismida jinslarga ishlov berishni shchit deb ataluvchi maxsus agregat yordamida amalga oshiriladi. Shchit (to'siq) metall konstruksiyadan iborat bo'lib, u jinslarga ishlov berish, mustahkamlash va yig'ish uchun mexanizmlar tizimi bilan ta'minlangan bo'ladi, shuningdek, qoplama qurish va jinslarni kovlab o'tishga qarab butun agregatni ilgarilashtirib qo'llaniladi;


- jinsga ishlov berilgandan so'ng tunnel qoplamasini halqasi kengligi bo'yicha qoplamaning tayyor qismiga tiralgan shchitli domkratlar yordamida shchit suriladi:

- tunnel kuchli suvli jinslardan o'tayotgan hollarda suvning gidrostatik bosimini muvozanatlab turish uchun siqilgan havodan foy-dalanishga to'g'ri keladi. Buning uchun ishlayotgan shchitdan ma'lum masofada, tunnelning tayyor qismida havoning yuqori bosimini qabul qilishga qodir bo'lgan to'siq o'rnatiladi. To'siq po'latdan, temirbeton dan yoki betondan tayyorlanadi va tunnelning qolgan qismi bilan alo-qada bo'lish uchun sblyuzli qurilma bilan ta'minlanadi. Odamlarni va materiallarni o'tkazish uchun alohida shlyuzlar qilinadi.

5.2.6. Yuza qilib o'tkaziladigan tunnellarning konstruksiyalari

Ular konstruksiyalarning yuklar ostida ishlasli sharoitlariga va barpo etishning ochiq usuliga ko'proq javob beruvchi to'g'ri to'rtburchak kesimli qilib quriladi. Tunnelning to'g'ri to'rtburchak kesimi vertikal rejalashtirish nuqtayi nazaridan yaxshiroqdir. To'g'ri to'rtburchak tunnel konstruksiyalari yon devorlardan, ustki yopmadan va pastki plita (poydevor, ochiq nov)dan iborat. Barpo qilish, sharoitlariga ko'ra yuza joylashtiriladigan tunnellar plitali yoki qovurg'ali orayopmalarga va devorlarga ega bo'lishlari mumkin. Plitali elementlardan tashkil topgan tunnellar konstruksiyasi tayyorlash sharoitlariga ko'ra soddadir.


Yaxlit quyma konstruksiyada plitali tunnel ko'ndalang kesimda chozilgan hududlarda ishchi va konstruktiv armatura bilan armatura-langan berk temir-beton romni ifoda etadi (5.12.-rasm).



5.12.-rasm. Monolit temir beton konstruksiyadan plitali tunnel.

Grunting vertikal bosmini ko'taruvchi tunnelning yuqori va pastki plitalari eng ko'p ish bajaradi. Bu plitalarni gorizontal bosimlarni qabul qiluvchi yon plitalardan qalinroq qilinadi.

Tunnel konstruksiyasini qovurg'ali orayopmalar (5.13.-rasm) va devorlarini qovurg'ali konstruksiyalardan tayyorlab yengillashtirish mumkin. Pastki plita unga tayyorlangan asos ustiga yotqiziladi, keyin vertikal plita devorlari vaqtincha bo'shatilib, o'rnatiladi, shundan so'ng yuqori orayopma plitalari o'rnatiladi. Hosil bo'lgan konstruksiyaning yaxlit quymaligini ta'mirlash uchun bloklar orasidagi choklar qorishma bilan to'ldiriladi.



5.13.-rasm. Qovurg‘ali yopmalari bo‘lgan tunnel konstruksiyalari.

5.2.7. Tunnellarni hisoblash tamoyillari

Tunnel uni o‘rab turuvchi jinslar (gruntlar) ta’sirida bo‘lib, ular mayda qilib yotqizilganda yuqorida harakatlanuvchi vaqtincha yuklanishdan tushadigan bosimni ham uzatadi. Bundan tashqari, tunnelga uning atrofidagi suvning bosimi ham ta’sir qilishi mumkin.

Chuqr joylashtiriladigan tunnellarda ularga gruntlardan tushadigan bosim tog‘ bosimi deyiladi. Keng tarqalgan gipotezalardan biri tunnelning qoplamasini uni bosib turgan jinslar massasini ko‘tarib turolmay qolganda tunnelga jinslar massasi bosadi, degan faraz hisoblanadi.

Tog‘ bosimining kattaligini aniqlash uchun prof. M.M. Protodiyakonovning nazariyasidan foydalanish qabul qilingan. U qubbadan pastda joylashgan gruntdan tunnelning birlik uzunligiga bo‘lgan bosimni aniqlash formulasini chiqardi (5.14.-rasm):

$$P = \frac{4}{3} \rho \frac{a_1^2}{f} \quad (5.5)$$

bu yerda $a_1 = a + b$ buzilish qubbani enining yarmi;

a – tunnelda ishlab chiqarilgan mahsulot kengligining yarmi;

b – sirpanish tekisligining gorizontal proektsiyasi;

$$b = \frac{h}{tg(45 + \frac{\varphi}{2})} \quad (5.6)$$

φ – jinsning ichki ishqalanish burchagi;

h – tunnelda ishlab chiqilgan mahsulotning balandligi;

ρ – jinsning zichligi;

f – tog' jisnlarining qattiqlik koeffitsienti: qoya jinslari uchun 8-20; ancha bo'shroq jinslar uchun 3-6; yumshoq jinslar uchun 0,8-2; sochi-luvchan va suzuvchan muhitlar uchun 0,3-0,6. Tog' bosimini tavsiflangan usulda aniqlashga buzilish qubbasi uchi ustidan yorug'lik sirt bo'yicha yoki kuchsiz jinslar tegilganda $\frac{a+b}{f}$ buzilish qubbasi balandligidan kam bo'ligan masofa bo'lган hollarda ruxsat etiladi.

Yuza joylashtiriladigan tunnellar uchun ustki orayopmadagi bosim yuqorida yotgan barcha gruntlardan va vaqtincha yuklanishning ta'siri yig'indisidan iborat bo'ladi (5.15- rasm). Tunnel ustidagi to'shamal balandligi 0,7m dan kam bo'lгanda vaqtincha yuklanish g'ildiraklaridan bosim gruntunda 45° burchak ostida taqsimlanadi deb hisoblanadi. To'shamal qatlaming balandligi 0,7m dan ortiq bo'lгanda vaqtincha yuklanish g'ildiraklarining bosimini almashtirish mumkin: to'shamal qatlami balandligi 0,7m bo'lгanda – $3t/m^2$, 1,2m va undan ortiq bo'lгanda – $2 t/m^2$.

Hisoblashlarda bir tekis taqsimlanadigan vaqtincha yuklanishning ta'sirini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadigan, h_0 balandligi grunting ma'lum ekvivalent qatlami bilan almashtirish qulay:

$$h_0 = \frac{q(1 + \mu)}{\rho}, \quad (5.7)$$

bu yerda

q – bir tekis taqsimlangan vaqtincha yuklamish;

$1 + \mu$ – dinamik koeffitsient;

ρ – gruntning zichligi;

Tunnelning orayopmasi sirti birligiga to'la hisobiy bosim:

$$P = \rho(h_0 + h) = \rho \cdot h_1 \quad (5.8)$$

ni tashkil etadi.

Tunnelning vertikal devorlari sirti birligiga yon tomdan bosim: devorlarning yuqori qismi sathida:


$$P_1 = \rho h_1 \operatorname{tg}^2(45^\circ - \frac{\varphi}{2}) \quad (5.9)$$

devorlarning pastki qismi sathida:

$$P_2 = \rho h_2 \operatorname{tg}^2(45^\circ - \frac{\varphi}{2}) \quad (5.10)$$

Tunnelning yuqori orayopmasi loralqli oddiy to'sin sifatida ishlaganda eng katta eguvchi moment:

$$M_1 = \frac{Pl^2}{8} \quad (5.11)$$



5.14.- rasm. Chuqur joylashtirilgan tog' bosimining ta'sir sxemasi.

Yuqori orayopmaga yon devorlarning gorizontal tayanuvchi reaksiyalarini uzatilib, yon devorlar uchun yuqori orayopma tayanch vazifasini bajaradi. Grunt bosimining trapetsiyasimon epyurasida pastdan siqib qo'yilgan va yuqoridan sharnirli tayantirilgan sifatida qaralayotgan to'sin yuqori orayopma quyidagi formula bilan aniqlanadigan N bosimni uzatadi:

$$N = \frac{H}{40} (11P_1 + 4P_2) \quad (5.12)$$

Yon devorlardagi pastki tayanch moinenti

$$M_1 = \frac{H}{120} (7P_1 + 8P_2) \quad (5.13)$$


formula bilan aniqlanadi.

Yon devorlarning yuqori qismidan cho'zuvchi moment quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$M_2 = \frac{H^2}{120} (6,5P_1 - P_2) \quad (5.14)$$

Shuni ta'kidlash loziinki, zamonaviy usullarning ko'pchiligi bo'yicha (shu jumladan, M.M. Protodyakonov usuli bo'yicha ham) hisoblangan tog' bosimi kattaligi tabiatda kuzatiladiganlardan katta farq qiladi. Buning asosiy sababi shundaki, gipotezalar (farazlar) tog' bosimiga jinslar xossalaring bir jinsli emasligi, vaqtinchalik mustahkamlashda ishlangan mahsulotning yotish sharoitlari, yoriluvchanligi, o'tish usullari, mahkamlashning mustahkamligi va shu kabi omillarni hisobga olmaydi.

Ishlangan mahsulot tomonidan mavjud tarang holatning buzilishi natijasida, xususan, ishlab chiqish mahsulotlari atrofida siquvchi va cho'zuvchi kuchlanishlar to'plangan hududlarning vujudga kelishida ifodalanuvchi kuchlanishlarni qayta taqsimlash yuz beradi. N.I. Musxelishvili, L.N. Dipnik, T.N. Savim va boshqa olimlarning asarlaridan ishlangan mahsulot kesimlarining turli shakllari uchun kuchlanishlarning taqsimlanishi masalasining yechimi olingan.



5.15.- rasm. Yuza joylashtiriladigan tunnellarni hisoblash sxemasi.

Biroq amaliy masalalarini yechishda ishlangan mahsulot konturi bo'yicha (chegarsi bo'yicha) kuchlanishlarning to'planishi jinsda faqat elastik deformatsiyalarni emas, balki plastik deformatsiyalarni ham hisobga olish kerak bo'ladigan chegaralarda plastik hududlarning paydo bo'lishiga olib kelishidan e'tiborga olish kerak.

Bundan tashqari, kuchlanishlarni taqsimlash masalasini tahliliy yechishda xossalarning mavjud anizotropiyasini hisobga olish qiyin, bu anizotropiya bu xossalarning turli yo'nalishlar bo'yicha farqlanishi bilan yuzaga kelmay, balki yoriluvchanlikning, yopishish sharoitlarining va shu kabilarning ta'siri bilan vujudga keladi.

Nazorat savollari:

1. Yerostida asosan qanday ohyektlar barpo etiladi?
2. Yerostida inshootlarni qurish qanday qiyinchiliklar bilan bog'liq?
3. Yerosti transport inshootlariga qanday talablar qo'yiladi?
4. Qanday joylarda turli sathlardagi yo'lo'tkazgichlar quriladi?
5. Estakada ajralisblarini qachon qurish maqsadga muvofiq?
6. Transport tunneliming to'g'ri ajralish qanday harakatlanish kesishuvlari quriladi?
7. T-simon tutashishlarda transport tunnellari ko'pincha qanday joylashtirildi?
8. Yer osti avtomagistrallari qanday afzalliklarga ega?
9. Tog' massivini kesib o'tishning qanday yo'llari mavjud?
10. Shaharichi magistrallari trassasi bo'yicha tog' turidagi tunnellarni qanday loyihalash kerak?
11. Yuza joylashadigan metropoliten tunnellari qachon qo'llaniladi?
12. Yuza joylashadigan tunnellarning ko'ndalang kesishishi ko'pincha qanday quriladi?
13. Temirbeton piyodalar ko'priklariga qanday talablar qo'yiladi?

6. SHAHAR SOHILLARI

6.1. Umumiy ma'lumotlar

Daryo, kanal, ko'l yoki dengiz sohillarida joylashgan shaharlarda, qirg'oqlarni mustahkamlash, ayrim hollarda esa qirg'oq chizig'ini me'moriy jihatdan bezatish zarur. Qirg'oqlar daryo dengiz to'lqlanlari, yomg'irlar va yerosti suvlarining yuvishidan, muzdan shikastlanishidan himoyalash uchun, shuningdek, qirg'oq bo'yidagi yo'llarda harakatlanayotgan og'ir transportning ta'sirida surilishdan saqlash uchun mustahkamlanadi.

Sohil atrofini rejalahsh va imoratlar qurish qirg'oq chizig'iga rejada, profilda ma'lum shakl berish va sohilning me'moriy bezagini talab etadi. Qirg'oqlar bo'ylab ko'pincha magistral ko'chalar quriladi, xiyobonlar va bog'lar barpo etiladi. Sohillardan kemalar suzib kelishi, yo'lovchilarini chiqarish va tushirish uchun, ba'zida esa ortish-tushirish ishlari uchun ham foydalanish mumkin. Bunday hollarda ularga rejada va profilda zarur shakl beriladi, shuningdek, bandargohlar, tushish va chiqish joylari quriladi.

Daryodagi yoki suv havzasidagi suvning chegaraviy (mejen) sathiga mos keluvchi qirg'oq chizig'ining rejadagi loyihaviy shakli sohili ni tartibga solish chizig'i deyiladi. Tartibga solish chiziqlari daryolar yoki kanallarning loyihaviy kengligini, ko'l, dengiz va boshqa dengiz fazolari qirg'oqlarining konturini belgilaydi. Ular imoratlarning qizil chizig'i bilan qirg'oqlarda joylashgan o'tish yo'llari, maydonlar, draxtzorlar bilan bog'langan bo'lishi kerak.


Uncha katta bo'limgan daryo va kanallarning kenglligi taxminan bir xil bo'lishi uchun tartibga solish chiziqlarini parallel qilish maqsadiga muvofiq. Buning uchun tabiiy qirg'oq hududlarini qayta rejalahsh, qirg'oqlarni kesib olib tashlash va tuproq bilan to'ldirish. ba'zida esa o'zanni to'g'rilaishga ham to'g'ri keladi. Soxillarni loyihalashda mavjud va istiqboldagi yerosti injenerlik tarmoqlar, ko'priklar, to'g'onlar va shlyuzlarni hisobga olish kerak.

Sohillarni to'sib turuvchi devorlarning turlari va konstruksiyalari


qirg'oqning relyefi, imoratlarning va qirg'oqlardagi o'tish yo'llarining qabul qilingan rejalanishlari bilan belgilanadi. Qirg'oqning relefiga bog'liq holda sohil bir qavatli (bunda suvning me'yordagi sathi ustidagi devor balandligi 5-6m gacha) va ko'p qavatli (bunda 5-6m dan ortiq) bo'lishi mumkin (6.1.- rasm).

Katta balandlikdagi devorlar noqulay ko'rinishga ega bo'ladi va ularni, yaxshisi, devorlarning ikki qavati bilan yoki qiyalikli tirkak devorlar qo'shilmasi bilan almashtirgan ma'qul. Bunday sohillarning pastki qavati ko'pincha piyodalar sayr qiluvchi trotuar tarzida, yuqori qavati esa transport qatnovi uchun foydalaniлади. Ko'p qavatli atrofi o'rabi olingan qirg'oqlar odatda park sohillarini qurishda qo'llaniladi.

Suv yuvib turadigan qirg'oqlar sirtlarining shakliga ko'ra sohil devorlarning quyidagi turlari farqlanadi (6.2.- rasm): vertikal (a), to'g'ri chiziqli va egri chiziqli shakldagi yassi (b, v) va yarimqiya turdagi devorlar (g). Tirkak devorlar sirtining shakli daryo qirg'oqlarining me'moriy-rejaviy sharoitlariga va geologik tuzilishiga bog'liq ravishda tanlanadi.




6.1.- rasm. Bir qavatli (a) va ko'p qavatli (b) sohil.



6.2.- rasm. Suv yuvib turadigan daryolar sirtining shakliga ko'ra turlari:
a- vertikal devorlar; b- to'g'ri chiziqli yoki egri chiziqli shakldagi yassi devorlar; g- yarimqiya turdag'i devorlar.

Tirgak devorlar sirtining og'ma shakli ancha keng daryo tasavvurini beradi va haqiqatan ham suv toshqinlari davrida suv sathining ko'tarilishi daryoni qirg'oqlardan va binolardan ko'rinishini yaxshilaydi. Bi-roq bunday devorlar rejada kengroq yuzaga ega bo'lib daryoning jonli kesimidan, yoki qirg'oqlar bo'yidagi o'tish yo'llaridan katta maydonni egallaydi (6.3.- rasm).



6.3.- rasm. Toshkentdag'i Anhor sohili

Vertikal devorlarning tashqi ko'rinishi ko'ngildagidek emas, lekin kamroq maydonni egallaydi. Bunday devorga vertikalga nisbatan ka-

mida $1/15 \div 1/20$ qiyalik beriladi, ba'zida esa qiyalik $1/5 \div 1/10$ gacha yetkazlldi. Yassi devorlar yanada katta qiyalikka ega.

Devorlarning tashqi qismi ko'pincha tabiiy tosh bilan pardozlanadi, bu esa konstruksiyaga yaxshi tashqi ko'rinish beribgina qolmay, uni atmosfera ta'sirlaridan, muz yoki boshqa suzib yuruvchi buyumlar bilan sbikastlanishdan muhofaza qiladi. Devorlar yuqoridan karniz bilan o'rab chiqiladi va metall suyanchiqlar yoki tosh parapet bilan to'siladi.

Hozirgi vaqtida massiv betonli (kamdan-kam hollarda toshli) tirkovuch devorlar yoki turlicha xildagi temirbeton konstruksiyalar ko'rinishida qurilgan sohillar keng tarqalgan. Ayrim hollarda sohillar bo'yicha o'tish yo'llarini kengaytirish uchun sohil bo'yida suvda joylashtirilgan maxsus estakadalar barpo etiladi va mavjud tirkak devorlar bilan biriktiriladi. Kengligi uncha katta bo'limgan daryolar va kanallarda bunday o'tish yo'llarini qurish ularni to'la yopish orqali erishiladi.

6.2. TIRGAK DEVORLARNING KONSTRUKSIYALARI

6.2.1. Monolit betondan va temirbetondan tirkak devorlar

Qurilishi joyida betonlanadigan tirkak devorlar betondan (minimal miqdordagi konstruktiv armaturali) yoki temirbetondan barpo ettiladi.

Beton devorlar massiv ko'ndalang kesimlarga ega bo'lib, devorning balandligi 2-3m gacha bo'lganda qo'llaniladi. Bunday konstruksiyalarga betonning biroz ko'proq sarflamishi ularni barpo etishning oddiyligi bilan qoplanadi. Yuqori qirrasi bo'ylab devorning qalinligi 40sm dan kam bo'lmasligi (tosh konstruksiyalar uchun yoki xarsang-toshli beton devorlar uchun kamida 75sm) lozim. To'kma gruntdan horizontal bosimni qabul qilish uchun esa u poydevorga yaqin kattalashib boradi. Qalinlikning orttirilishi devorning orqa yoki old qirrasini yo'bo'lmasa ularning ikkalasini og'dirish bilan erishiladi (6.4.- a rasm).


Devorning kengligi poydevor qirqilgan joy yaqinida kamida $V \geq (0,35 \div 0,40)$ N belgilash tavsiya etiladi, bunda N devorning balandligi. Poydevorusti chegara suvlari sathida kamida 0,5m chuqurlikdagi

suv bilan yopilib turishi kerak, poydevorning tovoni esa asos gruntiga kamida 1m botishi kerak. Tirkak devorlar poydevorining asosi qattiq gruntlarda tabiiy bo'lishi, yog'ochdan yoki temirbeton qoziqlardan to'kilma tomoniga kamida 4m chuqurlikda vertikal yoki qiya qilib qoqilgan bo'lishi mumkin.

Devorlarning yuza sirti pardoz toshlarni joylashtirish uchun kesikka ega. To'kma gruntining gorizontal bosimi katta bo'lganda, gorizontal chiqiqlari bo'lgan beton devorlar qurish mumkin (*6.4.-rasm*). Gruntning bu chiqiqlarga vertikal bosimi umumiy ag'daruvchi momentni kamaytiradi va devorlarning turg'unlik sharoitlarini yaxshilaydi.

Agar qirg'oq gruntlari zikh va turg'un bo'lsa, u holda ularning rejalashtirilgan sirtini beton yoki temirbeton bilan bezatib qo'yishning o'zi etarli bo'ladi. Bunday turdag'i devorlar kiyiluvchi deb ataladi (*6.4.-v rasm*). Devorning suv ustidagi qismi turli ashyolar bilan qoplanadi, shu bilan birga, qoplama devorning ishchi kesimi tarkibiga kiritilishi mumkin. Kiyiluvchi devorning to'la qalinligini kamida 30sm qilib qabul qilinadi, bunda devorga pastki qismida 45° ga yaqin qiyalik bilan egri chiziqli yoki siniq chiziqli shakl beriladi.

Devorning asosi bo'lib tabiiy yoki qoziqli asosdagi uncha katta bo'limgan o'lchamdag'i beton yoki temirbeton poydevor xizmat qiladi. Kiyiluvchi devorlar tirkak devorlar konstruksiyasining oqilona va oddiy ko'rinishini ifodalaydi. Kiyiluvchi devorlarning afzalligi yana shundaki, ularni qurish xandaqlar qazishni talab etmaydi va qirg'oqning uning yerosti tarmoqlari, kollektorlari va boshqalari bilan yer massivini sarflaymaydi. Biroq bunday devorlarda mustaqil turg'unligining yo'qligi ularning qo'llanilishini cheklaydi va kuchsiz hamda noturg'un gruntlarda barpo etilishiga yo'l qo'ymaydi, shuningdek, yangi yerosti tarmoqlarini o'tkazish bilan bog'liq kiyiluvchi devorlar yaqinida bundan keyingi yer qazish ishlarini istismo qiladi. Ayrim hollarda monolit massiv devorni yig'ma temirbeton elementlar bilan birga qo'shiluvchi tirkak devorlarning kombinatsiyalashgan konstruksiyalari barpo etiladi. Jumladan, devor massiviga temirbeton plitalar, arkali yoki tirkalgan og'ma tirkakli, shuningdek, tarmoqlangan yoki qutisimon ankerli elementlarni kiritish mumkin (*6.4.-g rasm*).



6.4.- rasm. Sohillarning monolit beton va temirbeton tirkak devorlarining ko'ndalang kesimlari:

1- parapet; 2- karniz; 3- qoplama; 4- devor ortida to'kma; 5- devor ortida to'kmada suvni qochirish; 6- drenaj va to'kmadan suvni qochirish; 7- qoziqli usos; 8- yuksizlantiruvchi maydoncha (konsol); 9- yuksizlantiruvchi maydoncha tirkovuchi; 10- ankerli temirbeton elementlar; 11- yig'ma konstruksiyaning massiv bloklari; 12- poydevorning ankerli qismi; 13- toshli tashlama; 14- masiv temirbeton element yoki tushuriluvchi quduq.

Bu qismlarning hammasi bir maqsadga, devorda ishorasi bo'yicha to'kmaning bosimidan momentlar ishorasiga teskari momentlarning yaratilishiga, ularning mustahkamligi va turg'unligini ortishiga xizmat qiladi. Biroq bunda ishiarni amalga oshirish jarayoni murakkablashadi. Massiv devorlarni sement qorishmasi qatlamiga o'rnatiladigan alohida beton bloklardan, ba'zida esa ular orasiga temirbeton yuksizlantiruvchi maydonchani yotqizib yig'ish mumkin (*6.4.- g rasmdagi o'ng kesim*).


Temirbeton tirkak devorlar to'kma balandligi 4-6m gacha bo'lганда barpo etiladi. Bunday devorlarning qalinligini kamida 10sm qilib tayinlanadi va hisoblashga ko'ra po'lat sterjenlar bilan armaturalanadi. Ko'pincha temirbeton devorlarning ko'ndalang kesimini uzun horizontal poydevor plitali burchakli turda qilinadi (*6.4.- d rasm*). Bu plita gruntning vertikal bosimini qabul qiladi va devorning ag'darilishiga yo'l qo'ymaydi. Devorning siljishga turg'unligi yetarlicha bo'lмаганда poydevor plitasini grunta temirbeton ankerni o'rnatib, go'yo siniq (darz) bilan qilinadi. Suvning chuqurligi katta bo'lганда yoki asos chuquarda joylashgan gruntlarda yotganda burchakli temirbeton devorni 6-8m oraliq bilan devor bo'ylab massiv beton elementlarga, tushiruvchi quduqlarga yoki baland qoziqli rostverkka o'rnatiladi (*6.4.- e rasm*). Poydevor plitasi ostidagi to'kma qiyaligini toshli tashlamalar bilan inustahkamlanadi.

Temirbeton devorlar armaturasini ularning qirralari bo'ylab joylashtiriladi, bunda vertikal sterjenlar ishchi bo'lib xizmat qiladi, horizontal sterjenlar esa konstruktiv ravishda qo'yiladi (*6.5.- a rasm*). To'kina tomoniga ko'proq og'gan devorlar uning bosimiga yaxshiroq qarshilik ko'rsatadi, lekin to'kma bo'lmasa devor turg'un bo'lmaydi. va ularni to'kma balandligi ortib borgani sari asta-sekin va bir vaqtida betonlash kerak. Bu esa qurilishda noqulaydir.

Sohillarning devorlarida cho'kish ehtimoli va temperatura o'zgarishidan darzlar hosil bo'lishini bartaraf etish uchun deformatsion choklar qilinadi. Betonli va kiyiluvchi devorlarda ularni devor bo'yini bo'ylab har 10-15m da, temirbeton devorlarda esa har 30-40m da qilinadi. Choklarni yanada tez-tez joylashtirish katta cho'kish beradigan gruntlarda devorlarni qurishda zarurdir. Choklar, shuningdek,

asosda gruntlarning tavsiflari va qo'llanilayotgan to'kmaning sifati keskin o'zgaradigan joylarda ham zarurdir.

Devorning choki bo'lgan joydagi qoplamaada ham choc qilish kerak (6.5.- a rasm). Qoplamaadi chocni vertikal yoki qoplama toshlar orasida qilinadi (shtrah bo'yicha).



6.5.- rasm. Yaxlit quyma temirbetonli tirkak devorning konstruksiyasi:

1- qoplama; 2- deformatsion choc; 3- qoplama toshlarini mahkamlash uchun armatura to'rli sement qorishmasi qatlami; 4- temirbeton devorlar; 5- tol o'rallan shit yoki bitumli mat; 6- mumlangan kanop lomdan jgut; 7- mumlangan kanop lom; 8- sementli qorishma bilan chocni ajratish; 9- gorizontal drenalar; 10- vertikal drenalar.

Vertikal chok yaxshiroqdir, chunki shtrab bo'yicha choklarda chiqib turuvchi qismlarning sinishi vujudga keladi. Chok bitum shimdirlilgan bir necha qatlam dag'al matodan, oddiy bitum mastikasidan yoki tol ruberoid yoki mumlanuvchi dag'al mato bilan o'ralgan yog'och shit-dan iborat bitum mat bilan to'ldiriladi (*6.5.- a rasmda A-A kesimga qarang*). Shtrab bo'yicha qurilgan choklarda beton devor va qoplamaadagi toshlarning chiqib turgan uchlari o'rtasiga chokda devorning tutashuvchi qismlarining erkin, o'zaro siljishini ta'minlovchi ruberoid yoki boshqa material yotqiziladi. Qoplamaadagi chokmumlangan paklya bilan to'ldiriladi (*6.5.- rasm, V- bo'g'in*), (*6.4.- rasmga qarang*). Drenajlarning o'rta qismi yirik shag'al bilan to'ldiriladi, chetlariga maydar oq shag'al yotqiziladi va hammasining ustiga mayda qum sepiladi.

Drenajlarni bunday to'ldirish tufayli tuproqosti suvlaridagi muvozanatda bo'lgan loyqa va boshqa zarralar mayda qum va shag'alning tashqi qatlami bilan tutib qolinadi, bu esa gruntni tirkak devor orqasidan daryoga chiqarilishiga to'sqinlik qiladi. Temirbeton elementlarda, tushiruvchi quduqlarda yoki baland qoziqli rostverkda tirkovuch devorlarni qurishda drenaj gorizontal plitaning orqa cheti yaqinida yoki uning o'rta qismida plita orqali chiqaruvchi trubkalarni o'rnatib joylashtiriladi.

6.2.2. Yig'ma temirbetondan tirkak devorlar

Yig'ma temirbeton tirkak devorlar monolit temirbeton devorlar-dagidek sohil balandligida qo'llaniladi va shuning uchun ham ularning ko'pchiligi burchak turida bo'ladi. Devorlarning turli ko'rinishlari ularning yig'ma elementlarga (bloklarga) ajratilish usuli bilan farqlanadi. Devorning yig'ma qismlarining u yoki bu qismlarini tanlash mahalliy geologik va gidrogeologik sharoitlarga, qurilish usuliga va mavjud kran qurilmasiga bog'liq. Tirkak devorlar hajmi katta bo'limgan holda butunicha yig'ma monolit betondan yoki choklardan qorishma bilan barpo etilishi yoki bir qancha yig'ma temirbetonlarni biriktiruvchi monolit temirbetondan alohida qismlarga ega bo'lishi mumkin. Bunday konstruksiyalarni yig'ma-monolit deb atash mumkin.


Eng oddiy burchakli yig'ma tirkak devor ikkita element turiga ega: vertikal devor va poydevor plitasi (6.6.- a rasm). Ular armatura chiqiqlari va monolitlash betoni bilan biriktiriladi.

Agar kran qurilmasi etarlicha yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lsa, yig'ma devor diafragmali burchakli bloklar ko'rimishidagi (6.6.- a rasmdagi ikkinchi kesim) bir xil elementlar (bloklar)dan iborat bo'la-di. Bloklar bosliqa shaklda ham, masalan, uchlarida ikkita diafragmasi va silindrik shakldagi devor (6.6.- g rasm) bo'lishi mumkin, u to'kma grunt bosimini yaxshiroq qabul qiladi. Tirkak devorlar bevosita asos gruntiga, qumli va shag'alli yostiqqa yoki qoziqlardan iborat sun'iy asosga o'rnatiladi. Oxirgi holatda yig'ma poydevor plita qoziqlarning kallakkleri bilan monolitlanishi uchun, avvalo, nazarda tutilgan teshik-larga ega bo'lishi kerak.

Yig'ma konstruksiyaning katta miqdordagi mayda elementlarga bo'linishi ularning massasi va montaj qilishni yengillashtiradi. Jum-ladan, devorlar monolit poydevor plitasidan tavrsimon kesimning vertikal qovurg'alarini o'rnatish uchun uyalari bilan bajarilishi mumkin (6.6.- b rasm). Bu qovurg'alar orqasiga yig'ma plitalar o'tkazilib, ular bir-birining ustiga o'rnatiladi.

Vertikal qovurg'alar yaxlit devorli yoki teshiklari bo'lgan diafrag-ma ko'rinishida ham tayyorlanib (6.6.- b rasmga qarang), poydevor plitasida uyalar qilinmaydi. Vertikal devorni to'kma grunt ta'sirida ag'darilishdan mahkamlash ba'zida devorning tepasini poydevor plita-sining orqa uchi bilan biriktiruvchi metall yoki temirbeton og'ma tas-malar ko'rinishida bajariladi (6.6.- v rasm).

Yig'ma devor elementlari tasmalarini har bir elementga keltirgan holda tavrli, П-simon yoki boshqa kesimli butun balandligi bo'yicha qilinadi. Qurilish bo'layotgan joyda daryodagi suv chuqurligi 2-3m dan ortiq bo'lganda devorni monolit poydevorli va yig'ma vertikal pliti baland qoziqli rostverkda qurish maqsadga muvofiq (6.6.- d rasm). Bunday devorlar shumisi bilan qulayki, bunda konstruksiyani montaj qilishdagi asosiy operatsiyalar suv sathi ustida to'siq qurmasdan va katlovanni quritmasdan olib boriladi.



6.6.- rasm. Sohillardagi yig'ma temirbeton tirkak devorlarning turlari:
 1- vertikal devorning yig'ma elementi; 2- poydevor plitasining yig'ma elementi;
 3- yig'ma devor bloki diafragmasi; 4- yig'ma plita; 5- tavrli vertikal qovurg'a;
 6- vertikal qovurg'a- diafragma; 7- tavrli kesimdagи vertikal yig'ma elementi; 8-
 tasma; 9- ryajli devorning yig'ma elementlari; 10- qutisimon bloklar;
 11- yig'ma ko'ndalang qovurg'a.

Sohillar old sirtining yassi shaklli yig'ma devorlari ustun-tirgak-larga o'rnatilgan va poydevor bloklariga tiraluvchi siniq ko'ndalang qovurg'alardan barpo etiladi. Ustunlar va poydevorning asoslari odatta qoziqlidir. Qovurg'alar bo'yicha devorning sirtini tashkil etuvchi yig'ma plita montaj qilmadi (*6.6.-e rasm*).

Ayrim hollarda ryajli (tasmall) tirgakli devorlar barpo qilinadi. Bu devorlar yo alohida mayda elementlar – platalar va qovurg'alardan, yoki turli xil o'lchamdag'i qutisimon bloklardan yig'iladi. Ryajli devorlarning ichki qismi to'kma bilan to'ldiriladi, bu ularning og'irligini orttiradi va mustahkamligini yaxshilaydi. Ryajli devorlarning poydevori monolit yoki yig'ma bloklardan qilinadi (*6.6.-j rasm*).

Yig'ma temirbeton tirgak devorlar dumaloq yoki davriy profilli zo'riqtirilmaydigan sterjenlar bilan armaturalandi.


Zo'riqtiriladigan armatura juda kamdan-kam hollarda qo'llaniladi. Cho'ziluvchi armaturaning joylashishi devorning qabul qilingan konstruksiyasiga bog'liq bo'ladi.

Ikki elementdan iborat burchakli yig'ma devorning armaturasi (*6.7.-a rasm*) vertikal blokning orqa sirti yonida (4-sterjenlar), poydevor plitasining yuqori qirrasida (*5-sterjenlar*) va monolitlash uchastkasining devor uzunligi bo'ylab hisoblashda aniqlangan qadam bilan joylashtiriladi. Yig'ma tirgak devorni diafragmali bloklardan montaj qilinganda diafragmali bloklar vertikal devorda va poydevor plitasi dan tushayotgan cho'zuvchi kuchlanishlarni qabul qiladi va o'zining og'ma qirrasi bo'yicha armaturalanadi (*6.7.-b rasm. 1-sterjenlar*). Vertikal devor va poydevor plitasi diafragmaga qisilgan konsollar kabi ishlaydi, chunki bloklar orasidagi choklarda ular birlashmaydi. Bunda plitalarning ichki qirralari cho'zilgan bo'lishi mumkin va konsollar kabi ularni devor bo'yicha o'tadigan sterjenlar bilan armaturalanadi (*6.7.-b rasmga qarang, 2 va 3-sterjenlar*). Poydevor plitasi qurilish davrida hoshqa ishorali momentlarga ham ishlashi mumkin, shuning uchun sterjenlarning bir qismi uning pastki qirrasi yoniga qo'yiladi.

Yig'ma vertikal qovurg'alar va plitalardan devorni ichki qirralar bo'ylab burchakli devorga o'xshash armaturalanadi (*6.7.-v rasm, 7 va 8-strejenlar*). Vertikal qovurg'alar chiqiqlariga tayanuvchi plitalar-

gruntning gorizontal bosimi ta'sirida gorizontal tekislikda oddiy-sharnirlı-tayangan to'sinlar kabi ishlaydi va shuning uchun tashqi cho'zilgan qirra yonida armaturalanadi (6.7.- v rasmdagi 6-sterjenlar).

Poydevor bilan tasmalar orqali biriktirilgan yig'ma devorning vertikal elementlari gruntning gorizontal bosimi ta'sirida vertikal tekislikda ikki tayanchdagi to'sinlar sifatida ishlaydi va shuning uchun tashqi qirra yaqinida ularning qovurg'alarida vertikal yo'nalishda armaturalanadi. Bu elementlarning plitasi ko'ndalang kesimiga muvofiq ravishda armaturalanadi.




6.7.- rasm. Temirbeton tirkak devorlarni armatura sxemalari.

1-12-armatura sterjenlari.

Tavrli kesimda plita osilmalari gorizontal tekislikdagi konsollar sifatida ishlaydi va ular ichki qirralarida gorizontal strejenlar bilan armaturalanadi (6.7.- g rasmdagi 10-sterjenga qarang). Konstruksiyaning tasmasi doim tortilgan va shuning uchun metall yoki temirbeton-

dan bo'ylama armaturalash bilan bajariladi (*6.7.-g rasmdagi 11-sterjenlar*). Yaxlit quyma poydevor plitasi gruntning vertikal bosimini va tasmalardan tushadigan cho'zuvchi kuchlanishlarni qabul qiladi. Devorning ishlash bosqichiga bog'liq holda u pastki yoki yuqori qirralar yaqinida cho'zilishga ega bo'lishi mumkin va mos holda armaturalanadi (*6.7.-g rasmdagi 12-sterjenlarga qarang*).

Armaturalashning keltirilgan usullari sterjenlarning faqat muhim joylashishini beradi. Amalda devorlarda tashqi yuklanishlarning turli xil qo'shilishlarida kuchlanishlarni qabul qiluvchi katta miqdordagi ma'qul armatura, shuningdek, islichi armaturalar mavjud. Jumladan, baland qoziqli rostverkdagi burchakli devor (*6.8.-rasm*) qoziqlarining boshlari kirib turadigan monolit poydevor plitasiga ega. Qoziqlarning yuqori uchidagi armatura betondan bo'shatilgan va bukilgan. Kuchaytirish uchun qo'shimcha ravishda armatura to'rlar qo'yilgan. Poydevor plitasi betoniga qoplamani tutib turuvchi pastki yig'ma "fartuk" armaturalarining chiqarilgan joylari monolitlangan. Plitalarga devorlarni birlashtirish uchun armaturaning ilgakli chiqiqlari o'rnatilgan. Yig'ma devor blokining 1,5m kenglikdagi elementlarida ham ilgakli chiqiqlar mavjud bo'lib, ular plitaning chiqiqlari bilan kesishgan. Chokda qo'shimcha bo'ylama sterjenlar o'rnatilgan.



6.8.-rasm. Baland qoziqli rostverkda tirkak devorning konstruksiyasi:
 1- yig'ma vertikal devor; 2- qoplama; 3- qoplamani mahkamlash uchun to'r-lar; 4- rostverk qoziqlari; 7- monolit poydevor plitasi; 8- devor va plitaning taram-taram sirtlari; 9- chokni monolitlash betoni; 10- sement qorishmasi bilan monolitlanadigan chok; 11- qoplamani mahkamlash uchun chiqiqlar.

6.2.3. Ankerli va shpuntli tirkak devorlarning konstruksiyalari


Shpunt ko'rinishida ishlangan tirkak devorlar va yupqa devorlarning boshqa turlari ularni o'rab turgan grunt hilan birgallikda ishiaydi. Eng oddiy shpuntli tirkak devor gruntga kamida 4m chuqurlikka qoqilgan va ust tomonidan monolit kallak bilan birlashtirilgan shpuntlarning bir qatoridan iborat (6.9.-a rasm). Bunday devorlar to'kmanning balandligi 5m dan ortiq bo'limganda qo'llaniladi. Undan ortiq balandlikdagi devorlar monolit kallakni tutib turuvchi chorpoya tayanchlar va unga kiritilgan tirnoq ko'rinishida tayyorlanadi (6.9.-b rasm). Ko'pincha

shpuntli devorlar gruntga yoki boshqa konstruksiyaga mahkamlangan va gruntning gorizontal bosimi ta'siri ostida shpuntning ishlashini yen-gillashtiradigan turli xildagi ankerlar bilan kuchaytiriladi.

Bunday devorlarni ankerli devorlar deb atash mumkin. Ankerli tortqichlar to'kmada shpuntli devor orqasiga quriladigan chorpoya tayanchlarga mahkamlanishi mumkin (*6.9.-v rasm*). Bu yerda bosim to'kma gruntga uzatiladi va shuning uchun tortqichning uchi to'kma grunt buzilishi doirasidan tashqarisida joylashadigan bo'lib, u etarlicha uzun bo'lishi kerak (*6.9.-g rasm*).

Devordan foydalamish davrida to'kma grunti o'zining og'irliyi va vaqtincha yuklanish ta'sirida cho'kishi mumkin, bu ankerli tortqichlarning osilib qolishiga va siljishiga olib keladi va devorda noxush kuchlanishlarmi vujudga keltiradi. Shuning uchun tortqichlarni maxsus qoqilgan qoziqlar bilan tutib turiladi yoki boshqa konstruktiv choralar ko'rildi.

Katta balandlikdagi (10-15m) shpuntli devorlar ikki qavatli ankerlarga ega bo'ladi (*6.9.-d rasm*).



6.9.- rasm. Shpunkt va ankerli tirkakdevorlarning sxemalari:

1- shpunkt; 2- qoziqlar; 3- anker tasmasi; 4- anker plitasi; 5- qoziq-qobiqlar;
6- parus devor; 7- gorizontal ankerli plita; 8- yuksizlantiruvchi maydoncha;
9- to'kma gruntini armaturalash; 10- yig'ma devor

Devorning pastki qismi gruntga qoqilgan shpunkt dan iborat, yuqori qismi esa pastki qism bilan bikr yoki sharnirli biriktirilgan yig'ma panellardan barpo qilinishi mumkin. Tirkak devorlarning "parus turi" dagi loyihalari nazarda tutilmoxda, bunda grunt rulonli material – yarusli egiluvchan matolar bilan tutib turiladi. Uni qalinligi 4-6mm bo'lgan sintetik armaturalangan materiallardan tayyorlanadi va vertikal qoziqlarning boshida to'kma gruntining vertikal bosimi bilan siqilgan gorizontal ankerli plitaga mahkamlanadi (6.9.- e rasm). Bunday devorlarning konstruksiysi tejamli, lekin ularning qo'llanish istiqboli, ayniqsa kuchli muz ko'chkilari bo'ladigan daryolar uchun bozircha etarlicha aniqlanmagan.

Gruntning devorga, (ankerlardan tashqari) gorizontal bosimini kamaytirish uchun, boshqa texnik usullar ham qo'llaniladi. To'kmada shpunktga gorizontal yuksizlantiruvchi maydonchani tirab qo'yish mumkin bo'lib, u shpunktga qo'shimcha bo'ylama kuchlamish uzatsa-da gruntning gorizontal bosimini kamaytiradi (6.9.-j rasm).

Yuksizlantiruvchi maydonchani to'kmada va maxsus qoziqlarda joylashtirish maqsadga muvofiq. Bunday konstruksiya devorga bo'ladigan bosimni va gruntning cho'kishini kamaytirib ankerlarning tortqichlarini osilib qolishdan saqlaydi (6.9.-g rasm).

Gruntning devorga bo'lган bosimini gruntning tuzilmasini zichlashtirish yoki uni armaturalash bilan kamaytirish mumkin (6.9.-i rasm). Grunti egiluvchan (masalan, shisha mato tasmalari va h.lar bilan) yoki hikr elementlar (temirbeton plitalar, romlar, qutilar va boshq.) bilan armaturalash mumkin.

Ankerli devorlar faqat shpunkt ko'rinishida emas, balki vertikal va poydevor plitalardan qilingan konstruksiyalar tarzida ham barpo etiladi. Bu inshootlar vertikal va poydevor plitasi orasida bikr chokka ega bo'lmasligi ham mumkin, chunki ularidan birinchisi gruntda anker bilan mahkamlanadi (6.9.-k rasm).


Ankerli va boshqa qurilmalar devorlarining sanab o'tilgan turlari ham mustaqil, ham bir-biri bilan kombinatsiyada qo'llanish mumkin bo'lган boshqa variantlar ham bor.

Devorlarning temirbeton shpunti odatda zo'riqtirilmaydigan armaturali siqilishga mustahkamlik sinfi V30-V43 bo'lган betondan tayyorlanadi. Shpunkt ko'ndalang kesimlari gruntning bosimini qabul qilishni ta'minlashi, uning devor orqasidan yuvilib ketishiga to'sqinlik qilishi va botirishda bir-biri bilan qulay birikishi kerak.

O'zgarmas qalinlikdagi tirkak devorlar yassi shpuntlardan barpo etiladi (6.10.-a rasm). Ularni tushirish davrida yo'naltirish uchun biri ikkinchisiga kiruvchi simmetrik yoki nosimmetrik chiqiqlar va o'yilalar qilinadi. Temirbeton chiqiqlar oson sinishi mumkinligi sababli, ular ba'zida metall yo'naltiruvchilar (6.10.-a rasm), qulflar yoki oddiy yassi listlar bilan almashtiriladi, ularni keyin payvandlash mumkin. 5-6m dan ortiq balandlikdagi devorlarni qovurg'ali shpuntlardan barpo qilish

maqsadga muvofiqdir. Ular plitalarning uchlarida kesikli yoki ularsiz tavrli kesimlarga ega bo'lishi (6.10.- b rasm) yoki bir necha qovurg'ali keng panellarni ifodalashi kerak (6.10.- g rasm).

Shpuntlarning qovurg'alarini odatda to'kma tomoniga joylashtiriladi va ankerli tortqichlarni mahkamlash uchun foydalilanildi. Ayrim konstruksiyalarda tavr kesimli shpuntlar oraliqlar bilan qoqilib, ular orasidagi oraliq yassi yig'ma plitalar bilan to'ldiriladi (6.10.- v rasm).



6.10.- rasm. Temirbeton shpuntning ko'ndalang kesimlari:

1- metall yo'naltiruvchi.

To'kma gruntining yuvilib ketishidan saqlash uchun shpuntlar orasidagi choklarga yoki yig'ma elementlarga ichki tomonidan maxsus yoriq berkitgichlar o'rnatiladi. Bular shpuntlar orqasida yoki choklar yaqinida 50-100sm masofada joylashgan yog'och isitgichlar yoki qutilar bo'lishi mumkin. Oraliq mayda shag'al yoki maydalangan tosh bilan to'ldiriladi, choklarga shishamato yelimlash yoki bitumli to'shamo osib qo'yish maqsadga muvofiq.

Ankerli tortqichlar odatda po'latdan va kamdan-kam hollarda temirbetondan tayyorlanadi. Po'lat tortqichlar dumaloq (diametri 60-80mm) yoki prokat metalldan (listlar, burchakliklar, shvellerlar)dan qilinadi. Tortqichiarning uchlarida devor va ankerli plita, sharnirli biriktirish uchun prujinalar bilan o'rnatiladi. Dumaloq tortqichning uzunligimi anker plitasidagi kertikda bitta yoki bir nechta tortuvchi mustalar yoki gaykalar bilan tartibga solinadi. Ankerli plitalar temirbetondan yassi yoki qovurg'ali qilinadi. Ular tortqichlar mahkamlanadigan joylarda katta tasma yoki alohida qismlar tarzida yotqiziladi. Anker plitalari tog'orasimon yoki Z- zetsimon profilli metall shpunkt bo'laklaridan tayyorlanadi.

6.3. DEFORMATSION CHOKLAR

Plita va devor orasidagi gorizontal chok sement qorishmasi bilan to'ldirilgan, chiqiqlar esa beton qorishmasi bilan monolitlanadi (*6.8.-rasmdagi II bo'g'ingan qarang*). Chokda plitaning va devorning sirti monolit betoni bilan ilashishi yaxshiroq bo'llishi uchun taram-taram qilinadi. Yig'ma devor to'sinlarining tepasi monolit beton belbog'i bilan biriktiriladi, unga bloklarning armatura chiqiqlari kiradi (*6.8.-rasmdagi I bo'g'inga qarang*). Vertikal choklar bloklar orasidagi ponalar ko'rinishida sement qorishmasi bilan to'ldirilib, ulardan qoplama mahkamlash uchun armatura chiqiqlari qilinadi. Qoplamanini mahkamlash uchun armatura chiqiqlari faqat choklardagina bo'lmay, balki devorda, poydevor plitasida va pastki g'ilofda ham bo'ladi. Ulariga to'r, bu to'rga esa qoplama toshlari mahkamlanadi. Toshlar yig'ma devor orasidagi tirqish sementqorishma bilan to'ldiriladi.

Yig'ma konstruksiyalarda gidroizoliyatsiya va suv chiqarishni monolit konstruksiyalardagiga o'xshash qilinadi. Har bir blokda chiqaruvchi teshiklar yoki diafragmalar orqasida gorizontal drenej o'rnatib, bloklarning diafragmalari orasidagi to'kma bo'shlilariidan suvning chiqarib tasblanishini alohida kuzatiladi.

Deformatsion choklar tirkak devorlarda darzlar paydo bo'lishidan saqlash uchun qilinadi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi: temperaturali


– atrof muhit temperaturasining o‘zgarishlaridan; kirishishdan – kiri shish darzları paydo bo‘lishini bartaraf etuvchi; cho‘kuvchi – notekis cho‘kishlar oqibatida darzlar paydo bo‘lishini bartaraf qlluvchi.

Odatda temperatura, kirishish va cho‘kish choklari birga qo‘shiladi. Deformatsiya choklari tirkak devorlarni uzunligi bo‘yicha seksiyalarga bo‘ladi. Choklar orasidagi masofa: tosh va beton devorlar uchun 10-15m, temirbeton devorlar uchun- 30-40m.

6.4. SOHILDAN TUSHISH YO‘LLARI

Sohildan tushish joylarini kemalar kelib to‘xtashi uchun yoki sayr qilish maydonchalari sifatida quriladi. Tushish joylari, shuningdek, ko‘p qavatli sohilarning qavatlarini birlashtirish uchun ham zarurdir. Tushish joylarining konstruksiyasi va me’moriy bezatilishi sohil yaqin qismalarning umumiyligi me’moriy ansambliga bo‘ysunadi. Tushish joylarining asosiy elementi sifatida suv sathi yaqinida joylashgan pastki maydonchaga tushish uchun zinapoyalar xizmat qiladi. Zinapoyalar sohil yo‘nalishi bo‘ylab, unga perpendikulyar qilib yoki ikkali yo‘nalishda quriladi.

Zinapoyali tushishlar, aniq sharoitlarga bog‘liq holda daryo o‘qiga nisbatan perpendikulyar, parallel, ham perpendikulyar ham parallel, shuningdek, egri chiziqli qilib quriladi. Sohilga perpendikulyar bo‘lgan zinapoyali tushish yo‘llarini qurish, uning balandligi uncha katta bo‘lganda maqsadga muvofiqdir (*6.11.- a rasm*). Sohil ancha baland bo‘lganda bunday tushish maydonchani yoxud daryo ustiga chiqishni, yoki keng trotuarlar qurib, zinapoyalarni qirg‘oqqa chuqur kiritishni talab qiladi. Shuning uchun baland sohillardan perpendikulyar tushish yo‘llari ko‘pincha parklarda qo‘llaniladi. Baland sohillar uchun bo‘ylama zinapoyali tushish yo‘llari ancha qulaydir (*6.11.- b rasm*). Shuningdek, egri chiziqli tushish yo‘llari ham qo‘llanilib, bunda ularni sohilning tepasi sathidagi tomosha qilish maydonchasi bilan qo‘sildi (*6.11.- v rasm*). Sohildan tushish yo‘llarini ularning burchaklarida, daryoga irmoq kelib qo‘shiladigan joylarda quriladi (*6.11.- g rasm*).



6.11.- rasm. Sohildan tushish yo'llarining rejaları:

1- sohil bo'ylab trotuar; 2- zinapoyali tushish yo'llari; 3- suv bo'yidagi maydoncha (yoki bandargoh); 4- trotuarlar sathidagi tomosha maydonchasi.

Tushish yo'ilari va maydonchalar tirkak devorlar, zinapoyalar va bandargohlar konstruksiyasi elementlari bilan birga qo'shiladi. Tushish yo'llarining to'suvchi devorlari sohillarning tirkak devorlariga o'xshash qilinadi.

Zinapoyalar odatda beton yostiq ko'rinishidagi asosga ega. Ba'zida ular maxsus tutib turuvchi konstruksiyaga joy lashtiriladi.

Kemalar turadigan joydagi devorni yaxlit plita ko'rinishida yoki qoziqlarga tiralgan qovurg'ali temirbeton yopma ko'rinishida quriladi. Tushish yo'llarini me'moriy bezatilishi sifatida kursilar, barelyeflar, haykallar, ayvonchalar, shuningdek, turli xil yoritqichlar qo'llaniladi.

Ayrim hollarda sohil bo'ylab o'tish yo'llari qirg'oqqa parallel temirbeton estakadarlar qurib kengaytiriladi. Bunday estakada oddiy ko'priksifatida, masalan, qoziqli tayanchlar va yig'ma oraliq inshootlar bilan ishlanishi mumkin. Agar kengaytirish qirg'oqlarmi rejalashtirish va o'tish yo'llarini tashkil etish bilan amalga oshirilsa, u holda sohillarda tirkak devorlar qilmasa ham bo'ladi. Bunday hollarda qirg'oqning ta-


biyi qiyalikdagi nishabligi oraliq inshootlari ostida joylashadi, to'kma esa konstruksiyaning maxsus ichki to'siniga qo'shiladi.

Oraliq inshootlarining tashqarisidan ostidagi fazoni berkituvchi va tayanchlarni hamda ko'tarmani suzib kelayotgan buyumlar yoki muzlar zarbidan muhofaza qiluvchi dekorativ devor osib qo'yilishi mumkin (*6.12.-a rasm*).

Tirgak devor qurib bo'lingandan keyin kengaytirilsa, oraliq inshootlar devor bilan bir qatorda barpo etiladi. Ularning orasida ajratuvchi tasmali chok qoldiriladi (*6.12.-b rasm*). Bu estakadalar daryo atrofida bo'layotgan qurilishiga xalaqit qilmay va deyarli binolar hamda inshootlarning buzilishini talab etmay tezkor harakatlanishini ta'minlaydi. Devorning konstruksiyasiga oraliqli inshootlardan qo'shimcha yuklanishlarni uzatish mumkin bo'lmaganda shunday qaror qabul qilinadi. Agar qoplama qo'shimcha yuklanishlarni qabul qilishga qodir bo'lsa, u holda unga tayanch to'sinining bir uchini tirab qo'yish mumkin (*6.12.-v rasm*). Bu yerda devorga nuqtaviy yuk to'sinlar oralig'iiga teng kattalikda uzatiladi.

Ko'taruvchi to'sinlar sohilga perpendikulyar qilib joylashtirilganda devorga ularning tayanch reaksiyalari uzlusiz uzatiladi, lekin bu reaksiyalarning qiymati kichik bo'lishi mumkin. To'sinlarning boshqa uchlari tayanchlardagi bo'ylama to'sinni tutib turadi (*6.12.-g rasm*). Uncha katta bo'lmagan daryolar ba'zida to'liq yopiladi, bunda ikkala uchlari bilan sohilning devorlariga tiralgan plitali va qovurg'ali oraliq inshooti quriladi.

Shahar uchun me'moriy yoki ekologik ahamiyatga ega bo'lmagan, uncha katta bo'lmagan daryolar bilan band bo'lgan hududlar bir qavatlari (*6.12.-e rasm*) yoki ko'p qavatlari estakadalarini (*6.12.-j rasm*) qurish uchun foydalilaniladi. Bu estakadalar daryo atrofidagi mavjud qurilishlarga xalaqit bermasdan va bino va inshootlarni deyarli buzmasdan tezkor harakatni ta'minlaydi.



6.12.- rasm. Shahar sohillari bo'ylab joylashgan estakadalarning turlari.

6.5. SOHIL ELEMENTLARINI HISOBLASH ASOSLARI

6.5.1. Tirkak devorlarni hisoblash

Sohillarning tirkak devorlari chegaraviy holatlar metodikasi bo'yicha mustahkamlikka, ustuvorlikka va darzbardoshlilikka hisoblanadi. Konstruksiyaga ta'sir qiluvchi tashqi yuklanishlar grunt bosimidan, vaqtincha qo'zg'aluvchan yuklamishdan va gidrostatik bosimdan iborat. Ular turli xil noqulay qo'shilishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

To'kmanning sirtida vaqtincha yuklanish turganda, to'kma grunti namlanganda va yerosti suvlari daryodagi suv bilan bir xil suthda bo'lganda to'kma tomonidan kuchlamishlarning eng katta ta'sirlari vujudga keladi (*6.13.- a rasm*). Bunday holat tirkak devorning me'yordagi ish sharoitlari uchun xosdir. Ayrim hollarda tirkak devorlarni to'kmadagi suv sathi daryodagidan yuqori bo'lganda alohida ish sharoitlariga hisoblashga to'g'ri keladi. Suv toshqinidan so'ng yoki to'kmaga vodoprovod magistrallaridagi avariya tufayli suv ko'p oqib kelishidan so'ng suv birdan kamaygan hollar bo'lishi mumkin (*6.13.- v rasm*).

Devorlarning bunday ish sharoitlari faqat avariya holatlardagina bo'lishi mumkin va hisoblashda ortiqcha yuklamishlarning kichraytirilgan koeffitsienti kiritiladi. Avariya sharoitlarida devor orqasidagi haqiqatda bo'lishi mumkin bo'ladigan suv sathini bilish qiyin bo'lgani uchun devorlarni hisoblashda uni shartli ravishda devorusti va daryodagi suvning me'yoriy sathi balandliklari farqining uchdan blr yoki yarim balandligida qabul qilinadi.

Daryodagi suv eng yuqori sathigacha tez ko'tarilib lekin to'kmaga hali kirishga ulgurmagan, undagi namlik odatdagi darajada bo'lgan yoki faqat biroz ko'tarilgan holda, daryo tomonidan kuchlanishlarning eng katta ta'siri vujudga keladi. To'kmada vaqtincha yuklanish yo'q (*6.13.- v rasm*). Foydalanishning me'yordagi sharoitlarida bunday hisob sxemasi to'la bo'lishi mumkin va devorni hisoblashda ko'rib chiqilishi kerak.

Ko'rsatib o'tilgan holatlardan tashqari, yuklanishlarning boshqa bo'lishi ehtimoli bo'lgan kombinatsiyalari ham ko'rib chiqilishi kerak. Jumladan, qirg'oq tomonga qiyaligi katta bo'lgan devorlarda to'kma bo'lmaganda o'z og'irligidan ta'sirlanishga ishlab chiqarish sharoitlari uchun devorni hisobiy tekshirish talab qilinishi mumkin.

Grunting devorga bosimini sochiluvchi jismlar nazariyasi metodlaridan foydalanib aniqlanadi; bunda grunt zarrachalari o'rtasidagi ilashish hisobga olinmaydi, bu esa, odatda, mustahkamlik zaxirasiga kiradi.

Vertikal devorning birlik yuzi va gorizontal sirtiga bo'lgan grunting hisobiy gorizontal bosimi kattaligi (*6.13.- a, v rasm*).

$$P = n_r \gamma H t g^{-2} (45^\circ - \varphi / 2), \quad (6.1)$$

formula bo'yicha aniqlanadi, bunda n_r - grunt og'irligida tushadigan doimiy yuklanish uchun ortiqcha yuklash koefitsienti;

γ - gruntning zichligi, t/m^3 ;

N - to'ldirma sirtidan qaralayotgan nuqtaga vertikal bo'yicha masofa, m :

φ - gruntning ichki ishqalanish burchagi, grad.

Agar to'ldirma sirtida jadalligi q bo'lgan tekis taqsimlangan vaqtincha yuklanish turgan bo'lsa, u holda qo'shimcha gorizontal P_b bosim devorning balandligi bo'yicha istalgan nuqtada (6.13.- a, b rasm)

$$P_b = n_b q t g^2 (45^\circ - \varphi / 2), \quad (6.2)$$


ni tashkil etadi, bu yerda n_b - vaqtincha yuklanish uchun ortiqcha yuklash koefitsienti.

Sohillarning tirkak devorlari uchun vaqtincha yuklanish uning uzunligi bo'ylab joylashishiga xosdir. U holda to'kimaning sirtida taqsimlangan q yuklanish eni b ga teng yo'llarni egallaydi, ammo devor bo'ylab tekis taqsimlangan hisoblanadi (6.13.- g rasmga qarang). Haqiqatan avtomobillar g'ildiragidan devor bo'ylab bosim to'plangan kuchlar ko'rinishiga ega bo'lgani uchun ularning o'rnnini bosuvchi taqsimlangan yuklanish Z ning kattaligiga bog'liq holda yoki NK-30 yuklanish uchun quyidagi formulalarga ko'ra 6.1.- jadval bo'yicha shartli aniqlanadi:

$$q = \frac{50}{4.8 + Z}; \quad Z = x t g(45^\circ + \varphi / 2), \quad (6.3)$$

bu yerda x - devorning orqa qirrasidan yuklanish polosasi o'qigacha bo'lgan masofa, m. q polosali yuklanish qo'shimcha gorizontal bosimni vujudga keltiradi, bu bosim polosa chetlaridan buzilish tekisligiga Q burchak bilan parallel holda o'tkazilgan chiziqlar bilan

cheklangan devor balandligi bo'yicha uchastkada tekis taqsimlangan deb hisoblanadi (6.13.- g rasm).



6.13.- rasm. Tirkak devorlarga yuklanishlar ta'siri sxemalari

Z ningkattaligiga bog'liq yuklanish

z, m	q, ts/m	z, m	q, ts/t	z, m	q, ts/m
0	8,3	4,5	2,7	9,5	1,8
0,5	6,1	5,0	2,6	10,0	1,8
1,0	5,3	5,5	2,5	10,5	1,7
1,5	4,7	6,0	2,4	11,5	1,7
2,0	4,2	6,5	2,3	12,0	1,6
2,5	3,8	7,0	2,2	12,5	1,6
3,0	3,5	7,5	2,1	13,0	1,5
3,5	3,2	8,0	2,0	14,0	1,5
4,0	2,9	8,5	1,9	14,5	1,4
		9,0	1,9		

Bu bosimning va uning holatining teng ta'sir etuvchisi Z_q quyidagi ko'rinishda aniqlandi:

$$E_q = n_b q a \frac{\sin(\theta_i - \varphi)}{\cos(\varphi - \theta_i)}; \quad Z_q = H - x \operatorname{tg} \theta \quad (6.4)$$

E_q ning eng katta qiymatini grunt buzillshining turli burchaklari Q_1, Q_2, \dots, Q_n ni belgilab va Q_i ning E_q eng katta qiymatga ega bo'ladigan qiymatini qabul qilib topiladi.

Agar hiror h_1 sathda yeroti suvi mavjud bo'lsa, u holda u qo'shimcha gidrostatik bosimni vujudga keltiradi va bir vaqtida gruntning bosimi, ya'ni Arximed qonuniga ko'ra grunt zarrachalarining og'irligini kamaytiradi. Bu omillardan yig'indi bosimg₀ = I suvning zichligi ekani ni hisobga olib, quyidagini tashkil etadi:

$$P_1 = \gamma_0 h_1 - n_r h_1 \gamma_0 (1-n) \operatorname{tg}_2 (45^\circ - \varphi/2), \quad (6.5)$$

bu yerda n – gruntning nisbiy g'ovakligi.

Tajriba ma'lumotlari bo'lmaganda, nisbiy g'ovaklik taxminan $n=0,4\div0,5$ deb qabul qilish mumkin.

Daryo tomonidan devorga bo'lga gorizontal bosimni hisoblashda, suv sathi grunt sathidan yuqorida joylashganda suvning bosimi (6.13.-a, v rasm) quyidagini tashkil etadi:

$$\left. \begin{aligned} P_2 &= \gamma_0 h_2 \\ &\text{yengillash gan gruntini} \\ &\text{bosimi esa} \\ P_3 &= n_r [\gamma - \gamma_0(1-n)h_3 \tan^2(45^\circ - \varphi/2)] \end{aligned} \right\} \quad (6.6)$$

Agar yerosti suvi gruntning ichki ishqalanish burchagi kattaliga-
ga ta'sir ko'rsatsa, u holda ho'llash hududi chegarasida ichki ishqala-
nish burchagi φ ning kichiklashishi hisobga olinishi kerak. To'kma
tomonidan va daryo tomonidan grunt va suvlarning gorizontal bosi-
mi epyuralarining devor uzuntigi birligiga teng ta'sir etuvchilari va
ularning ko'rib chiqilayotgan nuqtagacha masofalari (6.13.-d rasm)
quyidagini tashkil etadi:

$$\left. \begin{aligned} E_p &= 0,5 pH; & E_1 &= 0,5 p_1 h_1; & E_3 &= 0,5 p_3 h_3; \\ Z_p &= H/3; & Z_1 &= h_1/3; & Z_3 &= h_3/3; \\ E_b &= qH; & E_2 &= 0,5 P_2 h_2 \\ Z_b &= 0,5 H; & Z_2 &= h_2/3 \end{aligned} \right\} \quad (6.7)$$

E va Z ni (6.4) formula bo'yicha aniqlanadi.

Massiv beton va temirbeton devorlarning turg'unligini ularning
ag'darilishi (6.14.-a rasm) yoki siljishi (6.14.-v rasm) hollari uchun
tekshiriladi.

G'ishtli, ba'zida esa massiv devorlar ham atrofidagi grunt bilan
birga, ankerli devorlar tortqichni mahkamlash nuqtasi atrofida buralib
turg'unligini yo'qotishga tekshiriladi.

Ag'darilishga va siljishga tekshirish shartlari quyidagi ko'rinishiga ega (6.13.- d rasm):

Hisoblash holatiga bog'liq holda (to'kma yoki daryo tomonidan eng katta bosim) (6.8) formuladagi kuchlanishlarning bir qismi bo'lmasligi mumkin. Agar ko'rileyotgan hisoblash holatida grunt devorning biror tomonidan uning ish sharoitini yaxshilasa, u holda uning zichligini bir dan kichik ortiqcha yuklash koeffitsienti bilan kiritish kerak. Hisoblashning avariya holati uchun (6.8) formulalarda $m=1,0$ deb qabul qilamiz. Massiv beton va temirbeton devorlar konstruksiyalaring horizontal kesimlarida va poydevor plitasining vertikal kesimlarida tekshiriladi. Vertikal devor kesimlaridagi hlsobiy kuchlanishlar quyidagi formulalar bo'yicha aniqlanadi (6.14.- g rasm):

$$\begin{aligned} \frac{M_{\text{ag'd}}}{M_{\text{np}}} &\leq m; \quad \frac{T_{\text{zilj}}}{T_{\text{np}}} \leq m; \\ M_{\text{ag'd}} &= \sum E_p z - n_r G_e - n_r G_1 e_1 - n_b G_2 e_2 = \\ &= Ez_p + E_b z_b + E_1 z_1 - E_2 z_2 - E_3 z_3 - n_r G_e - n_r G_1 e_1 - n_b G_2 e_2; \\ M_{\text{np}} &= (n_r G + n_r G_1 + n_b G_2) y = N_{\phi} y; \\ T_{\text{zilj}} &= \sum E = E_p + E_b + E_1 - E_2 - E_3; \\ T_{\text{np}} &= (nG + n_r G_1 + n_b G_2) f \end{aligned} \quad (6.8)$$

Bu yerda $M_{\text{ag'd}}$ - devorni ag'daruvchi moment va barcha gorizontal va vertikal kuchlarning poydevor tiralish yuzining og'irlik markaziga nisbatan momentlari yig'indisiga teng moment;

M_{pr} - devor qabul qiladigan chegaraviy moment va atrofida devor ag'dariladigan tayanish nuqtasi maydoni og'irlik markazidan u masofaga ko'paytirilgan barcha vertikal kuchlar yig'indisiga teng; T_{zilj} - barcha gorizontal kuchlarning yig'indisiga teng bo'lган siljutuvchi kuch; T_{np} - siljishga qarshilik ko'rsatuvchi chegaraviy kuch bo'lib, u barcha vertikal kuchlar yig'indisining poydevor tovoninig f grunt bo'ylab ishqalanish koeffitsientiga ko'paytirilganiga teng; n - devorning o'z og'irligi uchun ortiqcha yuklash koeffitsienti; G - devor uzu-

nlik birligining og‘irligi; G_1 - devorga uzatiladigan gruntning og‘irligi; G_2 , G_3 - vertikal vaqtinchä yuklamish q ning teng ta’sir etuvchisi va uning tovon og‘irlik markaziga nisbatan ekstsentriskiteti; m - ish sharoiti koefitsienti bo‘lib, u 0,7-0,8 chegaralarda ag‘darilishga tekshirish uchun, 0,8-0,9 chegaralarda esa siljishga tekshirish uchun qabul qilinadi. Ishqalanish koefitsienti f ni loyli gruntlar uchun 0,25 ga teng deb, soz tuproqlar uchun 0,3 ga teng deb va qumloq gruntlar uchun 0,4 ga teng deb qabul qilish mumkin.

$$\left. \begin{aligned} N &= n_a G + n_r G_1; & Q &= \sum E = E_p + E_b + E_1 - E_2 - E_3; \\ M &= \sum Ez - n_a Ge - n_r G_r e_1 = E_p z_p + E_b z_b + E_1 z_1 - E_2 z_2 - E_3 z_3 - n_a Ge - n_r G_r e_1 \end{aligned} \right\}, \quad (6.9)$$

bu yerda barcha vertikal va gorzontal kuchianishlar devor qismi va yuqorida keltirilgan kesimning to‘ldirmasi (bu yerda odatda $G_1 = 0$) uchun oldingi (6.1)-(6.7) formulalar bo‘yicha aniqlanadi.


Hisoblashdagi yuklanishlardan poydevor plitasining chetlaridan devor asosga uzatiluvchi kuchlanishlar quyidagi formulalar bo‘yicha aniqlanadi (6.13.- d va 6.14.- d rasmlarga qarang):

$$\left. \begin{aligned} \sigma_1 &= \frac{N_\phi}{V} + \frac{6M_{onp}}{V^2} \leq 1,2R_r; & \sigma_2 &= \frac{N_\phi}{V} - \frac{6M_{onp}}{V^2} \geq 0; \\ N_{\phi/B} &\leq R_r \end{aligned} \right\}, \quad (6.10)$$

bu yerda N_ϕ , M_{onp} – (6.8) formulalardan qabul qilinadigan, poydevor tovonidagi kuchlanishlar; V – tovonning kengligi; R_r – asos gruntining hisobiy qarshiligi.

Agar (6.10) shartlar qanoatlantirilmasa, devorning o‘lchamlarini o‘zgartirish yoki sun’iy asosni (qoziqlar, temirbeton elementlari, tushirish quduqlarini) qo‘llamish kerak.

Poydevor plitasi vertikal kesimlaridagi kuchlanishlarni devorning kesilgan qismning uning ustida joylashgan to‘kma bilan muvozanatini qarab chiqib aniqlanadi (6.14.- d rasmlarga qarang):



6.14.- rasm. Tirkak devorlar turg'unligini va ularning kesimlaridagi kuchlanishlarni aniqlashga oid sxemalar

$$M = n_r G_1 e_1 + n_b G_2 e_2 + G_\phi e_\phi - T_{\text{cod}} \frac{y_1}{V} e_3; \\ N = T_{\text{cod}} \frac{y_1}{V}; \quad Q = n_r G_1 + n_b G_2 - G_\phi; \quad G_2 = q y_1 \quad | \quad (6.11)$$

bu yerda G_i - poydevor plitasining kesish qismining tovoni bo'yicha qo'yilgan σ kuchlanishlarning teng ta'sir etuvchisi;

G_i - plitaning kesish qismiga uzatiluvchi gruntning og'irligi;
 u_i - kesilish qismning uzunligi; e_r, e_1, e_2, e_3 - plita kesimining og'irlik markaziga nisbatan kuchlar ekstsentrositeti.

(6.9) va (6.11) formulalardan topilgan kuchlanishlar bo'yicha devorning turli qismlarida beton yoki temirbeton kesimlar tanlab olinadi.

6.5.2. Shpuntli va ankerli tirkak devorlarni hisoblashning xususiyatlari

Shpuntli devor statik sxemaga ko'ra to'kma tomonidagi grunting faol bosimi bilan yuklangan va gruntga siqish kuchlari bilan tutib turiladigan to'sinni ifodalaydi. Devorning bukilishlarida u gruntga bosadi va unda to'kma gruntingining faol bosimidan odatda bir necha marta ortiq bo'lgan passiv qarshilik kuchlari yuzaga keladi.

Devorga passiv bosimning real epyurasi egri chiziqli bo'ladi, to'kmanning (6.1) formula bilan aniqlanadigan faol bosimi esa chuqurlikning ortishi bilan chiziqli tarzda ortadi (6.15.- a rasm).


Hisoblashlar uchun bu egri chiziqli epyura etarlicha aniqlik daramasida devorning tashqi tomonidan uchburchak epyura bilan va ichki tomonidan to'plangan kuch bilan almashtiriladi (6.15.- a rasmiga qarang). gruntingning passiv qarshiligi shartli epyurasi chuqurlikka qarab chiziqli o'zgaradi va ixtiyoriy x_r chuqurlikda

$$P_r = \gamma x_r k t g^2 (45^\circ + \varphi / 2) \quad (6.12)$$

ni tashkil etadi, bu yerda K- gruntingning shpuntli devorga uning siljishlaridagi ishqalanishi ta'sirini hisobga oluvchi va gruntingning ichki ishqalanish burchagiga bog'liq holda qabul qilinadigan koefitsient:

φ°	10	15	20	25	30	35	40
K.....	1,2	1,5	1,8	2,1	2,3	2,6	3,0

To'kma tepasidan daryodagi suv sathigacha va to'ldirmagacha masofani x_{vr} va x_{vz} orqali belgilaymiz. U holda shpuntning noma'lum to'liq uzunligi x ni devorda uning pastki uchidagi bukuvchi momentlarning nolga tengligi shartidan aniqlash mumkin.



6.15.- rasm. Shpunktli va ankerli devorni hisoblashga oid sxemalar

Grunting faol gorizontal bosimini va vaqtincha yuklanishni, gidrostatik bosimni va suvda tortishning ta'sirini (6.1)-(6.6) formulalar bo'yicha qabul qilib, passiv qarshilikni (6.12) formula bo'yicha suvda gruntni yengillashishini hisobga olgan holda qabul qilib, bukuvchi moment uchun devorning birllk uzunligiga $x \geq N$ bo'lganda quyidagi ifodam hosil qilamiz (6.15.- b rasm):

$$\begin{aligned}
 M &= n_r \gamma \frac{x^3}{3} \lambda a + n_r q \frac{x^2}{2} \lambda a + \frac{\gamma_0}{6} (x - x_{b3})^3 - \\
 &- n_r \gamma_0 \frac{1-n}{6} (x - x_{b3})^3 \lambda a - \frac{\gamma_0}{6} (x - x_{ap})^3 - \\
 &n_r \frac{\gamma}{6} (x - H)^3 \lambda_p + n_r \frac{\gamma_0}{6} (1-n)(x - H)^3 \lambda_p; \\
 \lambda_a &= \operatorname{tg}^2(45^\circ - \varphi/2); \quad \lambda_p = k \operatorname{tg}^2(45^\circ - \varphi/2),
 \end{aligned} \tag{6.13}$$

bu yerda n_r^{-1} - birdan kichik qilib qabul qilinadigan, gruntning passiv bosimi uchun ortiqcha yuklash koeffitsienti.

M=0 deb qabul qilib va x noma'lumni aniqlab, kub tenglamani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned}
 Ax^3 + Bx^2 + Cx + D &= 0 \\
 A &= \frac{n_r \lambda - n_e \lambda_p}{6} [\gamma - \gamma_e (1-n)] \text{ bo'lganida} \\
 B &= 0.5 [n_r q \lambda_a + n_r H \lambda_p] + \gamma_0 (x_{ap}^3 - x_{et}^3) + \\
 &\quad + \gamma_0 (1-n) (n_r x_{et} \lambda_a - n_r H \lambda_p); \\
 C &= 0.5 [\gamma_0 (x_{et}^3 - x_{ap}^3) - n_r H^2 \gamma \lambda_p - \\
 &\quad - \gamma_0 (1-n) (n_r x_{et}^2 \lambda_a - n_r H^2 \lambda p)]; \\
 D &= \frac{1}{6} [n_r H^3 \lambda_p - \gamma_0 (x_{et}^3 - x_{ap}^3)] + \\
 &\quad + \gamma_0 (1-n) (x_{et}^3 \lambda_a - H^3 \lambda p)]
 \end{aligned} \tag{6.14}$$

Bu tenglama yechimini x>N ketma-ket qiymatlarni o'rniga qo'yib va M=0 bo'lganda aniqlab, sonli echimini izlagan ma'qul. Devordagi eng katta bukuvchi momentga mos keluvchi x kattalikni quyidagi hosila sifatida aniqlaymiz:

$$\begin{aligned}
 \frac{dM}{dx} = 3Ax^2 + 2Bx + C &= 0 \\
 \text{bu yerda} \\
 x = (-2B + \sqrt{4B^2 - 12AC}) : 6A
 \end{aligned} \tag{6.15}$$

a ning bu qiymatini (6.13) formulaga qo'yib, shpunktagi eng katta bukuvchi momentni topamiz.

Shpunktning haqiqiy l_m uzunligini to'plangan kuchning ta'sir qilish uchastkasiga zaxira bilan

$$lsh \geq N+1, l(x-N)=1, lx-0, lN \tag{6.16}$$

ni qabul qilish mumkin.

Shpuntli devorlar katta deformatsiyalanishga ega va ularning ekspluatatsion tavsiflarini tekshirish uchun devor tepasining normativ yuqlanishlar ta'sirida ($n_b = n_r = n_s = 1$), uning pastki uchinini x chuqurlikda qo'zg'almas deb taxminan hisoblab, siljishini aniqlash kerak.

Bitta ankerli tortqich ankerli devorni taxminiy jihatdan hisoblash qiyin, chunki formulalar haddan ortiq katta bo'ladi. Uni quyidagi farazlarni qabul qilib, grafo-analitik usulda hisoblash osonroq: gruntuining passiv bosimi epyurasi devorning tashqi tomonidan (6.12) uchburchak bo'yicha va ichki tomonidan to'plangan E kuch ko'rinishida qabul qilinadi (6.15.- a rasm), ankerli devor shpuntining pastki uchi burilish burchaklariga, siljishlarga va bukuvchi momentlarga ega bo'lmagan deb hisoblanadi.

Hisoblash uchun devor balandligi bo'yicha bir qator uchastkalariga bo'linadi va ularning har birida (6.1)-(6.6) va (6.12) formulalar bo'yicha P_i bosimning yig'indi gorizontal kuchi aniqlanadi (6.15.- g rasm). Arqonsimon kuchlar ko'p burchagi quriladi (6.15.- v rasm) va uning tomonlariga parallel chiziqlar o'tkazib, bukuvchi momentlar egri chizig'i o'chirib tashlanadi (6.15.- a rasm). Oxirgi AV chiziq epyurating yuqori qismidagi eng katta u_1 ordinata epyuraning pastki qismidagi eng katta u_2 ordinatadan 5-10% katta bo'lish sharti bilan o'tkazilishi kerak. Bu holda amalda qabul qilingan farazlar qanoatlantiriladi.

Momentlar epyurasining oxirgi AV to'g'ri chiziq bilan kesishish nuqtasi x_{sh} shpuntni qoqishning zarur chuqurligini belgilaydi.

Shpuntning umumiyligi quyidagicha belgilanadi:

$$L_{sh} \geq N + (1,15 \div 1,2)x_i \quad (6.17)$$

Ankerli devorning birlik uzunligicha bukuvchi momentlarni momentlar epyurasi oldidagi ordinatalarni arqonli ko'pburchakning qutb masofa η ga ko'paytirib aniqlanadi. Hosil qilinadigan bukuvchi momentlar odatda real inshootlarda kuzatiladigan yoki eksperimentlar asosida va yanada aniq hisoblashlar asosida olinganlardan biroz kattaroq bo'lishi mumkin. Shu sababli devor kesimlarini tanlash uchun

$$M = my\eta . \quad (6.18)$$


deb qabul qilish kerak, bu yerda $v=0,75$ ish sharoitlarini pasayti-ruvchi koefitsient.

Ankerli tortqichdagidagi devor uzunligi birligiga kuchlanish R arqonsimon ko'pburchakdan aniqlanadi, bu yerda u birinchi nur va AV ga parallel nur bilan kesiladi, uning kattaligini esa:

$$Ra = mR, \quad (6.19)$$

deb qabul qilinadi, bundam $\approx 0,7$. R_a kuch bo'yicha tortqichning kesimi ularning devor bo'ylab qadamini hisobga olgan holda tanlanadi.

To'kilma gruntu buzilish prizmasidan tashqarida joylashgan ankerli plita quyidagi tarzda hisoblanadi. Bukuvchi moment 0ga teng bo'lган shpunktadagi V nuqtadan ($45^\circ - \varphi/2$) burchak ostida VS buzilish tekisligini to'ldirma sirti bilan kesishguncha o'tkaziladi (6.16.- rasm). Ankerli plita Ra kuch ta'sirida DKF sohasidagi yukni DF tekislikka ($45^\circ + \varphi/2$), burchak ostida siljitaldi.



6.16.- rasm. Ankerli plitaning turg'unligini hisoblashga oid sxema

Surilayotgan gruntu ankerli plitaga passiv bosim ko'rsatadi. Ankerli plita surilganda uning orqasidagi grunt FLtekislik bo'yicha buzilib,

plitaga sirdagi vaqtincha yuklanishni hisobga olgan holda faol bosim beradi. Agar passiv qarshilikning teng ta'sir etuvchisi $E_n R_a$ yig'indiga va faol bosimning E teng ta'sir etuvchisiga teng yoki undan katta bo'lsa, u holda plita qo'zg'almay turadi. Uzlusiz ankerli plita uchun uning uzunligi birligiga bu shart quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\frac{Ra + E}{\psi E_n} \leq m;$$

$$E = (nhxa + n_r \gamma \frac{x_a^2}{2}) \operatorname{tg}^2(45^\circ - \varphi/2); \quad (6.20)$$

$$E_n = n_r \gamma \frac{x_a^2}{2} \operatorname{tg}^2(45^\circ + \varphi/2); \quad m = 0,5$$

bu yerda R_a - yuklanishlardan ortiqcha yuklash koefitsienti binoan aniqlangan tortqichdagi hisobiy kuch; ψ - ankerli plitaning joylashish chuqurligini va uning balandligini hisobga oluvchi va 0,7 dan 1,0 ga cha o'zgaruvchi koefitsient.

Agar ankerli plitalar yaxlit bo'lmasa, u holda hisoblashda grunting plitalar orasidagi ishi hisobga olinadi. Ankerli plita devordan VS va FD chiziqlar kesishadigan bo'lib, S masofada joylashgan bo'lsa, u holda uning ko'tarish qobiliyati kamayadi.


Devorning umumiy turg'unligi atrofidagi grunt bilan birga surilishi sharti bo'yicha (6.14.- v rasm) tekshiriladi, bunda grunt R radiusi tsilindrik sirt bo'yicha suriladi. Aylanish markazi o ketma-ket urimishlar bilan amqlanadi, bunda hisoblash uchun mustahkamlik sharoitlari eng yomon bo'lган holat qabul qilinadi (6.17.- rasm).

Suruvchi massiv eni v bo'lган qismalgarda bo'linadi. Har bir uchastkadagi hisobiy gruntu hisobiy vaqtincha vertikal yuklanishni hisobga olgan holda (agar u mavjud bo'lsa) \mathbf{G} bilan belgilaymiz:

$$N = G \cos \alpha; \quad T = G \sin \alpha; \quad \alpha = \arcsin(r/R), \quad (6.21)$$

bu yerda: r – aylanish markazidan ajratilgan elementgacha gorizontal bo'yicha masofa bo'lib, u aylanish markazidan o'ngdag'i qism-

lar uchun plyus belgisi bilan va chapdag'i qismlar uchun minus belgisi bilan qabul qilinadi.



6.17-rasm. Silindrik sirt bo'yicha sirpanishda gruntning mustahkamligini hisoblashga oid sxema.

Suriluvchi gruntning qo'zg'almas sirt bo'ylab T ishqalanish kuchi:

$$T = Nf = G \cos \alpha \operatorname{tg} \varphi + el, \quad (6.22)$$

bunda $f = \operatorname{tg} \varphi$ – ishqalanish koefitsienti;

s - gruntning solishtirma ilashishi;

l - sirpanish uchastkasi yoyi uzunligi.

Agar aylanish markaziga nisbatan barcha siljituvchi kuchiar momenti T barcha ishqalanish kuchlarining shunday momentidan va ilashishi t dan kichik bo'ladi, ya'ni:

$$\frac{\sum M_T}{\sum M_t} = \frac{\sum RG \sin \alpha}{\sum R(G \cos \alpha \operatorname{tg} \varphi + el)} = \frac{\sum rG}{R \sum (G \cos \alpha \operatorname{tg} \varphi + cl)} \leq 1 \quad (6.23)$$

Mustahkamlikning ko'rib chiqilgan sharti ma'lum bir zaxirani beradi va shuning uchun inshootmi, agar hatto (6.23) munosabat birga teng bo'lsa ham, mustahkam deb hisoblash mumkin.

Xuddi shunga o'xhash massiv devorning mustahkamligi ham tek-shirilishi mumkin, bunda uning og'irligi *G* uchastkalarning og'irligiga kiritiladi.

6.6. SOHIL DEVORLARINI QURISH

Sohil devorlarini qurish xandaqlar qazish, tayyor devorlarni tuproq bilan to'ldirish yoki ortiqcha gruntni kesish, qoziq qoqish va tirkak devorlarni bunyod etish ishlardan iborat.

Sohillarni qurish bilan bog'liq yer qazish ishlarni tashkil etish loyihasini tuzishda yer qazish ishlarni daryoning uzunligi (*a*) bo'yicha taqsimlash grafigidan uchastkalararo quyidagilardan tashkil topadigan ishlarning to'liq hajmlari kiritiladi:

- xandaqlardan tuproqni qazib olish;
- qirg'oqni kesib chiqish, o'zanni tozalash va chuqurlashtirish;
- tirkak devorlarni to'ldirish.

Agar sohilni qurish bilan bir vaqtida ko'priklar ham barpo etilsa, u holda grafikka ko'priksi qurish bilan bog'liq yer qazish ishlari hajmlarini ham kiritish lozim. Tirkak devorlar uchun xandaqni daryo tomonidan shpuntli devor bilan to'sish orqali quriladi.

Devorlarning monolit konstruksiyasida qoliplarga armatura kar-kaslari o'rnatilib keyin betonlanadi. Beton devor quriladigan joyga avtomashinalarda yetkaziladi va uni qoliplarga tasmali transporterlar, badelar yoki ancha zamonaviy va samarali bo'lgan mexanizmlar yordamida uzatiladi. Yig'ma devorlar strelali (yoqli) kran yordamida amalga oshiriladi. Yig'ma devorlarni montaj qilish ketma-ketligi ularning konstruksiyasiga bog'liq bo'ladi. Yotqizilgan betonning qoliplari olib tashiangandan so'ng yoki montaj tugallagandan va yig'ma konstruksiya monolitlashtirilgandan so'ng qoplamani yotqizish mumkin. Devor barpo etilgandan so'ng grunt to'ldiriladi. To'ldiriladigan grunt yaxshi zichlangan bo'lishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Qirg' oq cheti shakliga bog'liq holda sohil devorlarining qanday turlari mavjud bo'ladi?
2. Tirkak devorlarni barpo qilish texnologiyasi bo'yicha ularning qanday turlari bor?
3. Poydevor kesigi oldida beton devorning eni qanday bo'lishi kerak?
4. Kiyiluvchi devor nimadan iborat?
5. Sohillardagi devorlarda deformatsion choklar qanday maqsadda quriladi?
6. Tirkak devorlar to'kma tomonidan namlik sizib kirishidan qay tarzda muhofaza qilinadi?
7. Yerosti, atmosfera va avariya suvlari chiqarish uchun drenajlar qanday qiyalikda quriladi?
8. Qanday omillarga bog'liq holda yig'ma temirbetondan tirkak devorlar qo'llaniladi?
9. "Parus turidagi" tirkak devorlar nimadan iborat?
10. Sohildan tushish yo'llarining qanday turlarini bilasiz?
11. Uchastkalar bo'yicha yer qazish ishlarining to'la hajmlari nimalardan iborat?

7. GARAJLAR VA TO'XTASH JOYLARI

7.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Keyingi vaqtarda shaharsozlikda va shahar xo'jaligida yo'lovchi transportini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan masalalar borgan sari ko'proq ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Shaharlarning rivojlanishi va aholining madaniy-oqartuv va jamoat markazlariga, kommunal-maishiy vazifani bajaruvchi korxonalarga, dam olish zonalariga va jismoniy-sport inshootlariga tashrif buyurishlarining kengayishi bilan aholining harakatchanligi ortadi. Shu munosabat bilan transport aloqalarini, har tomonlama yaxshilash, harakatlanishga sarflanadigan vaqt ni qisqartirish, yurishlarning qulayligini oshirish va qiymatini kamaytirish, shu bilan birga, ko'chalar tarmog'ini, magistrallarni va transport vositalarini saqlash punktlarini riqqlantirish masalasi yuzaga keladi.

Yerusti shahar transportida bu masalalarni hal etishda birinchi o'ringa relsli va trolleybus elektr transportiga nisbatan kamroq kapital mablag'larga umumiy tashish qobiliyatini oshirishga imkon beruvchi avtomobil jamoat transporti chiqadi. Shu bilan birga, xususiy sektordagi yengil avtomobil transporti yanada sezilarli ahamiyat kasb etmoqda.

Vatanimizda va chet ellarda ishlab chiqarilgan yengil avtomobillarni aholiga sotish uchun chiqarish hajmi ortib bormoqda va yaqin o'n yillikda bu yo'nalish yanada jadallahishi kutiladi. Shu munosabat bilan shaharlarning bosh rejalarini va turarjoylar hamda sanoat rayonlarini qurish loyihalarini ishlab chiqishda va tasdiqlashda shaxsiy avtomobillarning ochiq to'xtab turish joylarini oqilona joylashtirishni ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng va bozor munosabatlariga o'tilishi bilan Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar avtotransport xo'jaligi sohasida tubdan o'zgarishlarga olib keldi. Shu bilan birga, shaxsiy foydalaniqidigan avtomobillar ulushi 80% dan ortdi va garajlar, avtomobillar turar joylarini qurish uchun yer uchastkalariga bo'lgan asosiy ehtiyojni belgilab beradi. Shuni ham

ta'kidlash lozimki, ularning shahar ko'chalaridagi umumiy transport oqimiga ta'siri juda katta ulushni tashkil etib, 65% dan ortadi. Shunday qilib, yirik shaharlarni avtomobillashtirish muammosi ko'proq daraja-da shaxsiy foydalanishdagi yengil avtomobilarning doimiy garajlari va qisqa muddatli to'xtab turish joylarini tashkil etish muammosi tar-zida namoyon bo'ladi.

Garajlarmi tejamkorlik bilan va shaharning me'yorida rivojlanishi va yashash faoliyatini uchun zarar keltirmaydigan qilib qurish lozim. Agar mamlakatimizning ayrim shaharlarini istiqbolda shaxsiy avtomo-billar bilan 1000 yashovchiga 200 gacha va undan ortiq birlik qondi-rishdan kelib chiqadigan bo'lsak va shu muddatga aholining bir kishi-ga $20m^2$ ortiq ta'minlanganligini hisobga olsak, u holda bunday sha-harlardagi garajlarning umumiy qiymati shaharning barcha mavjud va yangi turarjoy jamg'armasi qiymatining 6% gachasini, qisqa muddatli to'xtab turish joylari va texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarini hisobga olganda 10% gachasini tashkil etishi mumkin, bu esa aholiga birlam-chi kommunal-maishiy xizmat ko'rsatishning barcha boshqa asosiy muassasalari tarmog'ini yaratishga ketadigan xarajatlardan ortiqdir.

Shahardagi avtomobillar to'xtab turish joylarini qurishning is-tiqboldagi juda katta miqyoslari munosabati bilan avtomobillashtirish muammosini har tomonlama tahlil qilish va uni hal etish, aholining harakatlanishdagi ehtiyojlarini qanoatlantirishi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar majmuini hamda shaharsozlik talablarini hisobga olishga qodir bo'lgan tizimni o'z vaqtida yaratish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

7.2. AVTOMOBILLAR SAQLANADIGAN JOYLARNING HISOBDAGI SIG'IMI

Doimiy garajlar va qisqa muddatli maxsus tashkil etilgan to'xtab turish joylarining zarur sig'imini aniqlash masalasi shahar hududini rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishda, yirik shaharlarni, jamoat binolarini, turarjoy majmularini va boshqalarni loyihalashda ham loyiha rejaviy amaliyotida juda tez-tez uchraydi.

Turarjoy va undan uzoqdagi (piyoda borish chegarasidan tashqarisi-dagi) mehnat qilish, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish va dam olish joylari orasida yurishga ehtiyoji bo'lgan butun shahar aholisi orasida o'z ixtiyorida avtomobil bo'lgan odamlarning faqat bir qismi undan foydalanishi mumkin. Aholining bu qismining ulushi shaxsiy avto-transportdag'i harakatlari hajmi bilan mos ravishda qabul qilingan hisobdagi avtomobilashtirish va avtomobilashtirishning chegaraviy-ehtimoliy darajasiga mos keladigan barcha harakatlarning obyektiv zarur hajmi o'rtasidagi nisbat bilan aniqlanadi.

Shaxsiy avtomobili bo'lgan hamma odamlar ham navbatdagi bir joyga borishda uni jamoat transportidan afzal ko'raverishmaydi. Mazzur muayyan yurish uchun transport turini tanlashda vaqtini tejash hal qiluvchi rolni egallaydi. Ma'lum bir davrda boriladigan yo'Ining boshlang'ich va oxirgi punktlari orasida harakatlanish uchun foydalniladigan avtomobilarning miqdori esa avtomobilda yurishga muhtoj bo'lgan va bunda ishtirok etayotgan shaxslar sonidan kam bo'ladi.

Shunday qilib, har qanday avtomobil to'xtash joyining hisobiy sig'imi R, ya'ni avtomobilarni doimiy yoki qisqa muddatli saqlash uchun mashina-o'rnlarning hisobdagi soni quyidagilarga bog'liq:

- shahar yoki tumanni avtomobilashtirish darajasi A_{rasch} ning maksimal-ehtimoliy darajasi A_{\max} ga nisbatiga;
- F safarlarda bir vaqtda ishtirok etuvchi shaxslar soni safar masdariga muvofiq kuzovning o'rtacha to'lish darajasi m ga;
- vaqtini tejashni hisobga olish koeffitsienti K_v bilan ifodalanadigan umumiylar bo'yicha jamoat transportida harakatlamish bilan taqqoslaganda aholi ixtiyorida bo'lgan individual transportning raqobatbardoshligiga.

Bundan tashqari, qisqa muddatli to'xtab turish joylarining hisobiy sig'imi uning qo'shni hududlarda va uchastkalarda qisman tashkil etilmagan tartibda mashinalarni qo'yish hisobiga kamayishi imkoniyatini hisobga olish, bu ta'minlanganlik pasaytiruvchi koeffitsient K_u bilan ifodalanadi, ayrim hollarda esa, aksincha, qo'shimcha ravishda davlat avtoxojaliklari avtomobillarini joylashtirish uchun R_z zaxiraga ega bo'lishi kerak.

Garajlar va to'xtab turish joylarining zarur sig'imini aniqlash uchun hisoblash formulasi umumiy holda

$$P = \frac{A_{\text{rasch}}}{A_{\max}} \cdot \frac{F}{m} K_a K_o + P_{\alpha} \quad (7.1)$$

tenglik bo'ladi.

Turli xil vazifalarni bajaruvchi avtomobillar to'xtash joylarining, shu jumladan, ayrim yirik obyektlar va umumshahar umumfoydalanuv-dagi avto to'xtash joylari huzuridagi avtomobilarning qisqa muddatli to'xtash joylari, turar-joylar mikrotumanlar va daxalardagi doimiy garajlarning sig'imini hisoblashda dastlabki ma'lumotlarni aniqlash u yoki bu xususiyatlarga ega, ammo hisoblash tartibining o'zi bunday holatlarning barchasida o'zgarishsiz qoladi.

Avtomobilashtirishning hisobiy va chegaraviy-ehtimoliy darajalari ($A_{\text{rasch}}, A_{\max}$) bo'lgan shaharsozlik, yo'l-transport, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-iqlim sharoitlariga qarab qabul qilinadi, shu bilan birga, $A_{\text{rasch}}/A_{\max}$ ifoda avtomobilning transport jozibadorligi ko'rsatkichi K_I dan boshqa narsa emas (7.2):

$$K_I = 1 + \sqrt{0,2 \frac{S_a}{S_o} - 0,0 \left(\frac{S_a}{S_o} \right)^2} \quad (7.2)$$

Safarlarda ishtirok etuvchi shaxslar soni F quyidagi mulohazalarni hisobga olgan holda qabul qilinishi mumkin:

- turarjoy imoratlari orasida bevosita joylashgan va har kuni foy-dalaniladigan avtomobilarni saqlash uchun mo'ljallangan doimiy garajlarning sig'imi aholining har kuni mehnat qilinadigan joylari-ga va markaziy madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalariga borishga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq. Shuning uchun F ko'rsatkich bunday garajlarning sig'imini hisoblashda avtomobillardan har kuni madaniy-maishiy safarlar uchun foydalanaladigan mehnatkash aholining umumiy miqdori yig'indisidan iborat bo'ladi. Ishlamaydigan

aholi ulushining pirovard natijaga ta'sirini hisobga olib, mazkur holda yaxlitlagan holda $F=1,2T$ deb qabul qilish mumkin;

-yirik obyektlar oldidagi qisqa muddatli to'xtab turish joylari ning zaruriy sig'imini hisoblashda F ko'rsatkichmi aniqlash odatta qiyinchilik tug'dirmaydi. Istagan obyektni loyihalashda doimo korxonadagi birinchi va u bilan qo'shni smenadagi xodimlar, stadion minbarlaridagi o'rinalar, yoki teatrning tomoshabinlar zalidagi o'rinalar, magazin yoki restoranning savdo zalida "qizg'in" davrda bir vaqtida hozir bo'lgan tashrif buyuruvchilar soni kabi ma'lumotlar hisobga olinadi;

- qisqa muddatli to'xtab turish joylarini hisoblashda bu ko'rsatkichga jamoat madaniy-oqartuv va shaharning savdo markazlariga chetdan kelayotgan boshqa shahar aholisining qo'shimcha miqdoriga tuzatish kiritishga to'g'ri keladi. Korxonadagi xodimlar yoki muassasa-saga tashrif buyuruvchilar tarkibi, kasbi, jinsi va yoshiga ko'ra qisqa muddatli avtomobil to'xtash joylarini hisoblash natijalariga nisbatan juda kamdan-kam hollarda ta'sir qilishi mumkin. Masalan, juda yirik ixtisoslashgan magazinlar, xalqaro ahamiyatga ega ochiq musobaqalarini o'tkazish uchun mo'ljallangan sport inshootlari kabi obyektlarga kelsak, bu yerda, aksincha ko'taruvchi koefitsient o'rindir. Bu koefitsientning o'lchamlari ko'rsatib o'tilgan obyektlarni boshqa shahar aholisi tomonidan kelib qo'shilishining kutilayotgan faollik darajasiga bog'liq va o'rtacha sharoitlarda 1,2-1,3 deb qabul qilinishi mumkin.

Safarning turlicha maqsadlarida avtomobil kuzovining o'rtacha to'lish ko'rsatkichi m ni, avval aytib o'tilganidek, taxminan quyidagi cha qabul qilish tavsija ettiladi:

- mehnat va ish bo'yicha safarlar uchun 1,5;
- madaniy-maishiy safarlar uchun 2,0;
- shahar tashqarisiga safarlar uchun 2,5.

Avtomobillar to'xtab turish joylarining zarur sig'imini hisoblashda eng muhim masala shaxsiy avtotransportning jamoat avtotransporti bilan K , ko'rsatkich orqali tavsiflanuvchi raqobatbardoshlikni hisobga olish masalasi hisoblanadi.

Odamlar navbatdagi sayohatga borish uchun ma'lum turdag'i transportni, shu jumladan, o'z ixtiyorida bo'lgan avtomobilni tanlashda pu'l mablag'larini tejash, safar sharoitlarining qulayligini yaxshilash masalasi hal qiluvchi masala hisoblanadi. **U** odamlarning avtomobilni xususiy qilib olish uchun sotib olish to'g'risidagi masalasini hal qilishda, vaqt ni tejash to'g'risidagi mulohazalarning muhimligi ikkinchi darajali bo'lib qoladi.

Safarning umumiy vaqtini tejash ko'rsatkichi K_v ni aniqlash t vaqtning va L safar masofasining ortishi bilan aholini tez yuradigan transport vositalariga bo'lgan ehtiyojini ko'payishining obyektiv qonuniyatiga asoslangan.

Yashash joyidan mehnat qilish, madaniy-maishiy, xizmat ko'rsatish va shahardan tashqarida dam olish joylarigacha jamoat transportida harakatlanib borish uchun zarur vaqtning ortib borgani sari odamlarning shaxsiy avtomobildan foydalanishga intilishi qonuniy ravishda, ya'ni shaxsiy avtovositalardan foydalanish darjasini ortishi uchun obyektiv asos yaratiladi. Masalan bu qonuniyatning asosiy parametrlari va xususiyatini aniqlashdan iborat.

Shaharda juda kichik masofalarga, taxminan 1km ga (shaharsozlikda qabul qilingan terminologiya bo'yicha piyoda borish sharoitlariga mos keluvchi) harakatlanishda piyoda yurish o'rmiga istagan transport vositasida harakatlangan holdagi vaqt tejami arzimas kattalik bo'lib, avtomobildan foydalanish zaruriyati o'z-o'zidan kerak bo'lmay qoladi (*7.1.-jadval*).

Amaliy jihatdan shahar atrofiga qatnaydigan transport bilan tegishli hududda 50-100km atrofidagi masofaga uzoq muddatli yurishiarda avtomobildan foydalaniladigan holda vaqt tejami bir tomonga 60 minutgacha va ikkala tomonga taxmiman 2 soatgacha bo'lgan muddatni tashkil etadi. Bunday sharoitlarda muntazam qatnovlarda shaxsiy avtomobildan foydalanish ehtiyoji maksimumga yaqin bo'ladi, chunki ko'rsatilgan kattagina vaqt tejalishda faqat aholining uncha katta bo'lmasligi qismi qandaydir subyektiv sabablarga ko'ra mavjud avtomobildan foydalanmaydi.

7.1.-jadval

Shahar aholisining jamoat va shaxsiy transportda harakatla nishiga vaqt sarflashlarining taxminiy tuzilmasi minutlarda

Harakatlanish elementlari	Harakatlanishning oxirgi manzilgacha masofa, km			
	1	7,5	25	75
Jamoat transportida va piyoda harakatlanganda				
Uydan ko'cha transportigacha piyoda harkatlanishi	5	5	5	5
Ko'cha transportining navbatdagi marshrutini kutish	4	7	7	7
Ko'cha transportida 18km/soat tezlikda harakatlanish	3	25	17	17
Ko'chadan tashqari tezkor transportning navbatdagi marshrutini kutish	-	-	5	-
O'shaning o'zi, shahar atrofi transportini	-	-	-	10
Boshqa transportga ko'chib o'tishda piyoda harakatlanishi	-	-	5	5
Ko'chadan tashqari transportda 35 km/soatda harakatlanish	-	-	34	-
O'shaning o'zi, 45km/soat	-	-	-	92
Transport to'xtash joyidan oxirgi manzillgacha piyoda harakatlanish	5	5	5	5
Jami	17	42	78	141
Shaxsiy avtotransportda harakatlanish				
Uydan garajgacha piyoda yurish va avtomobilni yo'lga tayyorlash	5	5	5	5
Avtomobilning shaharda 35km/soat tezlikda harakatlanishi	2	13	8	8
Avtomobilning ko'chadan tashqari magistrallarda 70km/soat tezlikda harakatlanish	-	-	20	-
Avtomobilning ko'chadan tashqari magistrallarda 70km/soat tezlikda harakatlanishi	-	-	-	60
Avtomobilni to'xtab turadigan joyga qo'yish va oxirgi manzilga piyoda borish	5	5	5	5
Jami	12	23	38	78
Tejalgan vaqt	5	19	40	63

Agar $K_v = f(t)$, bog'lanishning chegaraviy parametrlarini belgilovchi bu sababga ko'ra va bundan tashqari, odamlarning avtomobildan barcha oraliq masofalarga borishda foydalinishga intilishlari jamoat transportida (t_v) va shaxsiy avtotransportda (t_a) harakatlanish o'rtaida farqqa proportsional deb qabul qilinsa, u holda vaqtini tejash ko'rsatichi quyidagiga teng bo'ladi:

$$K_v = \frac{t_v - t_a}{60} \quad (7.3)$$

Bu formulaga ko'ra K_v ni aniqlash uchun hisobdag'i harakatlanish yo'nalishlari va uning tezliklari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlariga ega bo'lish zarur. Bu qo'shimcha ma'lumotlar olish ba'zida juda murakkab bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, shaxsiy avtotransportda harakatlanishning jamoat transportida harakatlanishga nisbatan umumiyligi vaqt tuzilmasini tahsil qilish, harakatlanishdagi vaqt tejalishining boriladigan manzilning umumiyligi yuqorida ko'rsatilgan chegaralarda ham, oraliq masofalarda ham ma'lum darajada bog'liq bo'lishini ko'rsatadi. 7.1.-jadvalda bu vaqt sarfining umumiyligi vaqt tuzilmasi keltirilgan. Bu yerda transportning yirik shaharda va uning shahar atrofidagi hududida harakatlanishining shartli yo'nalishlari qabul qilingan, ular ko'chadan tashqari umumiyligi foydalinishdagi tez yuradigan jamoat transporti tar-mog'ining tezkor avtomagistrallar tizimi mavjudligi qatori nisbatan uncha katta bo'limgan zichligini tavsiflaydi.

7.1.-jadvaldagi ma'lumotlar harakatlanish masofalari 1, 7, 5, 25 va 75km bo'lganda, ya'ni piyoda, ko'chadan tashqari va shahar atrofi transportida manzilga yetib borishga taxminan mos keldigani hududlarda vaqtning tejalishini tahsil qilishga imkon beradi.

Taxminan 1km va 75km masofalarga harakatlanishda vaqtning tejalishi mos ravishda nolga va maksimumga (63 min.) teng. 25km atrofidagi masofaga harakatlanishda vaqtning tejalishi 40min. ga yaqin bo'ladi va shaxsiy avtomobilga ehtiyoj mos holda maksimalning 62% ini, taxminan 7,5km masofaga harakatlanishda 19min.ni va shaxsiy avtomobilga ehtiyoj faqat 27% ni tashkil etadi.

7.1.- jadvaldag'i ma'lumotlardan ko'rindiki, harakatlanishining o'rtacha tezligi ("eshikdan eshikkacha") shaxsiy avtomobilda taxminan 7,5km va undan ortiq masofaga borishda jamoat transportiga qara-ganda taxminan ikki marta yuqori.

Olingan tadqiqot natijalariga statistik ishlov berish $K_v = f(L)$, bog'lanishning parametrlarini aniqlashga imkon berdi, bu esa shu parametr-larga ko'ra boradigan manzilning uzoqligiga bog'liq holda shaxsiy avtotranspordan foydalanish ko'rsatkichining o'zgarishi egri chizig'ini yasash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ayrim yirik shaharlar transport tarmog'inining rivojlamish darajasiga ko'ra, xususan metropoliten va tezkor avtomobil yo'llari kabi ko'chan dan tashqari tezkor transport turlariga ko'ra farq qilishi mumkin. Shuning uchun 7.1.- rasmdagi grafik bilan ifodalangan 7.2.- jadvaldag'i $K_v = f(L)$ bog'lanishga ayrim hollarda tuzatish kiritilishi kerak. Harakatlanishlar tuzilmasida mumkin bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilish bu tuzatishni, ya'ni 0,8 dan 1,2 gacha bo'lgan chegaralarda qo'shimcha S koeffitsientni beradi.

7.2.-jadval

$L \text{ v km}$	1	2	3	4	5	7,5	10	15	20	25	50	75
K_v	0	0,047	0,087	0,125	0,163	0,250	0,326	0,448	0,555	0,645	0,915	1


7.1.- rasmda tasvirlangan egri chiziqning matematik ifodasi bo'tib, aytib o'tilgan tuzatishni hisobga olgan holda quyidagi formula xizmat qiladi

$$K_v = S \left(\sqrt{2,6 - \frac{(75-L)^2}{2460}} - 0,615 \right) \quad (7.3, a)$$

Yirik shaharlar sharoitida bu formulani qo'llanishining amaliy jihatdan zarur chegaralari $1\text{km} \leq L \leq 50\text{km}$ hisoblanadi. Erkin o'zgaruvchi sifatida (7.3, a) formulada qabul qilingan L masofa harakatlanish t vaqtidan farqli ravishda hisoblashlarni ancha soddalashtiradi (7.3, a).

Bu formula, albatta, barcha turdag'i transportning harakatlanish tezliklari o'zgarishini hisobga olish imkoniyatini bermaydi. Biroq bu holat transport tarmog'ining rivojlanish darajasiga va zichligiga yuqorida ko'rsatib o'tilgan S tuzatmani kiritish bilan hisobga olinishi mumkin. Bundan tashqari, shuni nazarda tutish lozimki, shahar yo'lovchilar transportining asosiy turlari tezliklarining o'zgarishi barcha turdag'i transport vositalari uchun taxminan bitta yo'nalishda yuz beradi. Jumladan, Toshkentda 1995–2012-yillar davrida o'rtacha harakatlanish tezliklarining o'zgarishi quyidagini tashkil etdi (km/soat hisobida):

	1995	1998	2012
Metro	39,3	40,0	40,3
Tramvay	15,5	15,3	15,4
Trolleybus	16,3	16,1	-
Avtobus	19,0	18,8	18,2
Shaxsiy avtotransport	46,0	44,0	40,0



7.1.- rasm. Shaxsiy avtotransport boradigan manzilning uzoqligiga bog'liq holda foydalanish ko'rsatkichining o'zgarishi

7.1.- rasmida keltirilgan $K_v = f(L)$ egri chiziqning umumiyligi tavsifini baholashda bir tomonidan, safarda boriladigan manzilgacha masofaning shaxsiy avtomobillardan foydalanishning o'sishiga ta'siri va ikkinchi tomonidan, bu masalaning ortishi bilan umumiyligi harakatlanish hajmining majburiy tushib ketishi (doimiy tezliklarda) ma'lum qonuniyatlar o'rtaсидаги о'заро aloqaga e'tiborni qaratish lozim.


Transport ishining shaxsiy jamoat transport o'rtaсидаги тақсимлаш тармоили 7.2.- rasmida sxematik tarzda berilgani kabi shaxsiy va jamoat transportining ta'sir ko'rsatish hududlari ko'rinishida grafik holda ifodalash mumkin. Bu sxema aholining obyektiv-zarur harakatlanishining boshlang'ich va oxirgi punktlari hududiy jihatdan qancha ko'p izolyatsiyalangan bo'lsa, shaxsiy avtovanser zimmasiga shuncha ko'p ish tushishini ko'rsatadi. Sxema shuningdek yurish masofasi 75-100km va undan ortiq bo'lган chegarasidan tashqarida shaxsiy avtovanserning ahamiyati asta-sekin pasayib borishini nazarda tutadi, zero u yerda tezkor relsli transportning axamiyati orta boradi.

(7.1) formulaga kiruvchi ta'minlanganlik koefitsienti K_o , agar mahalliy sharoitlar bo'yicha mashinalarning bir qismini transport va yo'lovchilar harakatlanishi uchun murakkablik tug'dirmasdan yaqin ko'chalarda, yoki turarjoylarning bo'sh hududlarida aholining yashashi va turmushiga zarar keltirmasdan erkin joylashtirish mumkinligi ravshan bo'lsa, hisoblashga kiritiladi.

Alohidida hollardan tashqari (masalan, kam tashrif buyuriladigan shahardan tashqari dam olish maskanlarida qisqa muddatli vaqtincha ochiq avtomobillar turish joylarini tashkil etish) bu pasaytiruvchi koefitsientning kattaligi amalda 0,7gacha chegaralarda mumkin bo'ladi.

Xizmatchi yengil avtomobillar to'xtash uchun zaxirani tavsiflovchi R_{ax} ko'rsatkichni hisobga olish ham xususiy hol hisoblanadi. Shaharning ayrim ma'muriy-ishiab chiqarish, madaniy-maishiy va jamoat markazlari, shuningdek, respublika miqyosidagi yirik korxonalar va muassasalar individual avtoparkdan tashqari katta miqdorda yengil xizmatchi avtomobilarni ham jalb qilinadi. Bu avtomobilarni maxsus uchastkalarda qo'shimcha kirish va chiqish yo'llarini tashkil etib to'xtab turishini amalga oshirish maqsadga muvofiq emas. Xizmat

avtomobilari uchun qo'shimcha o'rirlarning zarur miqdori mazkur hudud, korxona yoki muassasaning funksional xususiyatlariga mos xolda qabul qilinishi kerak. Bunda shaxsiy xizmatchi avtoparkning soni va ishslash rejimi, shuningdek, tashrif buyuruvchilarining miqdori va tarkibi bo'yicha ma'lumotlardan foydalanish mumkin.



7.2.- rasm. Shaxsiy avtotransport va jamoat transporti barcha turlari o'rtasidagi transport ishini taqsimlashning principial sxemasi:

1- piyoda yurish hududi; 2- jamoat transportining barcha turlari – metropoliten, trolleybus, tramvay, avtobuslarning ustuvor harakatlanish hududi; 3- shaxsiy avtotransportning harakatlanish hududi.

(7.1) formula shahar yoki tuman bo'yicha o'rtacha sharoitlardan kelib chiqib, ham alohida doimiy va qisqa muddatli avtoto'xtash joylari uchun, ham bir xil turdag'i ularning majmualari uchun zarur sig'imini hisoblashda qo'llanilishi mumkin.

Odatda, odamlar yashamaydigan hududlarda joylashtiriladigan va har kuni foydalanimaydigan, balki davriy yoki sistemali foydalanimaydigan avtomobilarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan doimiy yirik garaj-to'xtash joylarining yig'indi sig'imini hisoblash alohida xususiyatga ega. Agar shaxsiy avtomobilarning doimiy saqlash joylari bilan to'la ta'minlanganidan kelib chiqadigan bo'lsak, u holda barcha shunday joylarning umumiyligi miqdori avtomobilashtirishning

hisobdag'i darajasi bo'yicha aniqlanadigan, shaharda ro'yxatga olingan individual avtopark soniga mos kelishi kerak. Noturarjoy hududlaridagi doimiy garaj-to'xtash joylarining umumiy zarur bo'lgan sig'imi avtomobilashtirishning hisobdag'i A_{rasch} darajasi bilan (7.1) formula bo'yicha hisoblangan, bevosita turarjoy binolari orasida joylashgan garaj-to'xtash joylarining sig'imi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

U yoki bu aniq obyektni loyihalashda ularni qo'yishgacha bayon qilingan tartibda olingan mashina-joylarning zarur miqdorini hisoblash natijalariga mazkur sharoitlarda mavjud bo'lgan rejaviy-iqtisodiy, shuningdek, shaharsozlik, yo'l-transport va sanitariya-gigienik cheklanishiarni hisobga olgan holda tuzatish kiritilishi mumkin.

Rejaviy-iqtisodiy cheklashlar individual avtopark sonining mavjud holatdan tortib to hisobdag'i daraja A_{rasch} gacha asta-sekin ortib borgani sari avtomobilarni saqlash joylarini tashkil etishming maqsadga muvofiqligi ayon bo'lib boradi. Oraliq muddatlarga nisbatan qo'llanilganda ular avtomobilashtirishning umumiy hisobi darajasini aholiga sotish uchun avtomobilarning joriy ishlab chiqarish rejalari bilan, shuningdek, mazkur bosqichda avtoto'xtash joylarini kapital qurish uchun moddiy-texnik va boshqa resurslarning ajratilishi imkoniyatlari bilan taqqoslashga asoslanadi.

Avtomobillar to'xtash joylarini qurish uchun yer hududlarini zaxiraga kiritish uchun hisoblab hosil qilingan mashina-joylar (o'rinnlar) soni, tabiiyki, to'liq qabul qilinadi. Hududlarning tig'izligi, ko'chalarning transport bilan yuklanish jadalligi va sanitariya uzilishlarini ta'minlash zarurligi bo'yicha alohida sharoitlarga bog'liq shaxarsozlik, yo'l-transport va sanitariya-gigienik cheklashlar loyihalanayotgan avtoto'xtash joylarining sig'imi kamaytirish zarurligini keltirib chiqarishi mumkin. Bu holda mazkur avtoto'xtash joyida etishmaydigan mashina joylar sonini qo'shni avtoto'xtash joylarini rivojlantirish yo'li bilan qoplash imkoniyatlarini izlash kerak.

Agar shahardagi barcha doimiy garaj-to'xtash joylarining yig'indi sig'inii, ro'yxatga olingan avtopark soniga taxminan teng bo'lsa, u holda barcha qisqa niuddatli maxsus tashkil etilgan avto-to'xtash joylarining umumiy sig'imi, odatda, kichik bo'ladi.

Ko‘pchilik avtomobil egalari kun bo‘yi avtomobildan umuman foydalanishmaydi va umi garajdan olib chiqishmaydi. Safarlarning ma’lum qismida maxsus tashkil etilgan to‘xtash joylardan foydalanishmaydi, yoki undagi mashina joyidan bir kun mobaynida bir necha marta foydalanishiadi. Ikki va undan ortiq to‘xtash joylarida tutilib qolib safarga chiqishlar kamdan-kam uchraydi.

Doimiy garajlarning va turlicha vazifani bajaruvchi qisqa muddatli garajlarning yirik shaharning o‘rtacha sharoitlariga qo‘llanilgandagi zaruriy sig‘imi orasidagi nisbat hisoblash namunasidan ko‘rinib turibdi. Uming asosiy ko‘rsatkichlari 7.3.- jadvalda keltirilgan. Bu yerda shahar uchun umumiyl bo‘lgan quyidagi dastlabki ma’lumotlar hisobga olingan:

avtomobiliashhtirishning chegaraviy-ehtimoliy darajasi	1000 kishiga $A_{max} = 200$ avtoomobil
avtomobiliashhtirishning hisohiy darajasi	1000 kishiga $A_{rasch} = 115$ avtomobil
1000 kishiga mehnat qilayotganlar soni Shahardan tashqari aholining sonini hisobga oluvchi jamoat markazlariga boruvchilar soniga tuzatma	$T=400$ 1,25
xizmat mashinalarini joylashtirish uchun to‘xtab turish joylari sig‘imi zaxirasiga tuzatma	0,015 A_{rasch}

Bir joydan boshqa joyga borishga muhtoj yoki hisobga olinuvchi shaxslar miqdori F, aholi ayrim guruhlarining belgilangan manzilga kelishi avval ko‘rsatilgan taqsimlashga va harakatlanish maqsadlariga muvofiq to‘xtab turish joylarining yig‘indi sig‘imini hisoblash uchun qabul qilingan, xususan:

1) Turarjoy mikrotumanlari va dahalardagi garajlar-to'xtab turish joylari uchun $1,02T+0,09(1000-T) = 1,02 \cdot 400 + 0,09(1000-400) = 462$ kishi.

2) Mehnat qiladigan joylardagi avtomobillar to'xtab turish joylari uchun- $0,7T = 280$ kishi.

3) Markaziy madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari yaqinidagi avtomobillar to'xtab turish joylari uchun shahardan tashqaridagi aholiga tuzatish bilan- $-0,14T+0,18(1000-T)1,25 = 281$ kishi.

4) Tashkil etilgan ommaviy shahardan tashqari dam ola-digan joylardagi avtomobil to'xtab turish joylari uchun- $0,48T+0,43(1000-T)0,25=256$ kishi.

Safarlarning qabul qilingan o'rtacha uzoqligi ($L_r=4,5$ km, $L_b=15$ km, $L_0=45$ km) jamoat transportidan foydalanganda bir tomonga borishga quyidagi vaqt sarflariga mos keladi:

- mehnat va ish bo'yicha safarlar 25-30min
- madaniy-maishiy 1 soatgacha
- shahar tashqarisiga safarlar 2 soatgacha
- K_v ko'rsatkich 7.1.- rasmdagi grafik bo'yicha aniqlangan.

Shaxsiy avtomobillardan harakatlanish maqsadlariga bog'liq holda foydalanish darajasi o'rtasidagi nisbat, mehnat qilish va omilkor safarlarda 14,5% madaniy-maishiy safarlarda 46% va shahar tashqarisiga safarlarda 86%. Bu esa yirik shaharlarda hozirgi paytlardagi kuzatishlar amaliyotiga yaqin.

Shaxsiy avtomobillarni saqlash joylari bilan ta'minlanganlik koeffitsientlari avtomobillarning bir qismini yo'lning chetida va jadal harakat bo'limgan o'tish yo'llarida joylashtirishni hisobga olgan holda yashash joylarida doimiy garajlar bo'limgan hududlar uchun ularni ochiq holda saqlashning qisman qo'llanilishi hisobga olgan holda-0,7 jamoatchilik markazlaridagi qisqa muddatli to'xtash joylari uchun -0,95 va shahardan tashqaridagi dam olish maskanlariada -0,75.

7.3.- jadvalda keltirilgan oraliq ma'lumotlar va individual avtopark uchun garaj-to'xtash joylari yig'indi sig'imini hisoblashning pirovard natijalari KMQ ning o'rtacha me'yorlariga yaqin.

7.3.-jadval

**Shaxsiy avtopark uchun garaj-to'xtab turish joylarining yig'indi
sig'imi to'g'risida hisob ma'lumotlari**

Xududiy tumanlar va shahar zonalari	F, 1000 aholiga kishi	m, kishi	L, km	K _v	K _ø	R,1000 aholiga mashina-joy
Turarjoy mikrorayonlar	4,62	1,4	5,5	0,175	1,0	22
Kommunal va boshqa yashamaydigan hududlar	-	-	-	-	0,7	11
Jami	-	-	-	-	-	33
Qisqa mudodatli avtomobil to'xtash joylari						
Mehnat qilinadigan joy	280	1,3	4,5	0,145	1,0	15
Markaziy madaniy-maishiy korxonalar va xizmat ko'rsatish muassasalari	281	2,0	15	0,46	0,95	23
Shu jumladan, mo'ljaldagi						
Madaniy-oqartuv	104	-	-	-	-	10
Savdo va maishiy xizmat	84	-	-	-	-	4
Jismoniy tarbiya-sport	62	-	-	-	-	4
Tashqi transport	14	-	-	-	-	1
Ma'muriy xo'jalik jamoat tashkilotlari	17	-	-	-	-	1
Maxsus tashkil etilgan shahardan tashqari dam olish joylari, shu jumladan, parklar va plyajlar (barcha shahardan tashqaridagi barcha zonalarning umumiyligini 25%)	256	2,7	45	0,86	0,75	23
Jami	-	-	-	-	-	71

O'rtacha me'yorlardan bo'lishi mumkin og'ishlar harakatlanishning boshlang'ich va oxirgi punktlari o'rtasidagi safarlarning o'rtacha uzoqligi L ning ortishi yoki kamayishi bilan bog'liq. Shuning uchun garaj-to'xtab turish joylariga ehtiyojning kamayishi mumkin bo'lgan joyda ishlab chiqarish-selitab hududlarni tashkil etish va aholiga kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish va dam olishi uchun to'laqonli mahalliy korxonalar va muassasalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Mahalliy sharoitlarga mos holda shahar avtonobil to'xtab turish joylarining hisobdag'i me'yorlarini differensiallash ularni qurishdagi isrofgarchiliklardan va transport harakatini tashkil etishdagi qiyinchiliklardan qutulishga imkon beradi.

7.3. GARAJ VA TO'XTAB TURISH JOYLARINING ASOSIY TURLARI

Yirik shahar sharoitlariga qarab garaj yoki to'xtab turish joyining ma'qul turini amqlash turli xil va ba'zida qarama-qarshi, ya'ni shaharsozlik, transport, sanitariya-gigienik, ekspluatatsion va iqtisodiy talablarni hisobga olish zaruriyati bilan bog'liq.

Shahar binolarining funksional vazifasi va joylashtirilishiga ko'ra, avtomobillar uchun garaj va to'xtab turish joylarining quyidagi asosiy turlarini aytish mumkin:

- yakka va guruh garaj-bokslar;
- avtomobillarni doimiy saqlash, turarjoy mikrorayonlarda va davalarda har kuni foydalanish uchun manej va manej-boks turidagi garaj-to'xtab turish joylari;
- kommunal va boshqa odamlar yashamaydigan hududlarda tizimli va davriy foydalilaniladigan avtomobillarni doimiy saqlaydigan garajlar;
- yirik korxonalar yoki jamoat markazlari yaqinida joylashgan joylarda avtomobillarni bir necha soat yoki sutka davomida saqlash uchun umumiyl foydalanishdagi qisqa muddatli maxsus tashkil etilgan avtomobil to'xtash joylari.

Turarjoy binolari bo'lgan hududlarda garaj-to'xtash joylarini loyi-halash va qurish juda qiyin. Hozirgi vaqtida turarjoylar yaqinida ham vaqtincha ham kapital turdag'i juda ko'p sonli garaj-bokslar mavjud. Shaharsozlik va sanitariya-gigiyenik nuqtayi nazardan ular atrof muhitni va imoratlarni ifloslantiradi va boshqa salbiy ta'sirlar ko'rsatadi. Shaharning aholi yashaydigan hududlarida garaj-bokslarni katta guruhlar bilan qurish qimmatli hovli hududlarining yo'l qo'yib bo'lmaydigan sarflanishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun shaharlarda garaj-bokslarni qurish man etilgan va hozirgi vaqtida tuman hokimiyatining tegishli xizmatlari tomonidan ularni turarjoy imoratlari bo'lgan hududda tartibga solish, zarur bo'lib qolgan vaziyatlarda esa yo'qotish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Garaj-bokslardan foydalanishdagi istisno holatlar ayrim alohida vaziyatlarda yo'l qo'yilishl mumkin, masalan: biror sanoat-ishlab chiqarish korxonasi chegarasi, temir yo'l izlari yoki metropolitenning ochiq trassasi bo'ylab va boshqalar.


Bitta yengil avtomobilga uning egasining turarjoyi bo'yicha doimiy saqlash uchun 20-25m² maydon va safar belgilangan joyda vaqtincha to'xtab turish uchun yana shuncha maydon ajratish talab etiladi.

Ochiq yerusti to'xtash joylari ko'p joyni egallagani uchun katta sig'imli ko'p qavatli to'xtash joylari va garajlar qurish maqsadga muvofiqdir. Bunga yaxshi bir misol sifatida Chorsu bozori hududi yaqinida qurilgan va foydalamishga topshirilgan ko'p qavatli yerusti garajini keltirish mumkin (*7.3.-rasm*). Biroq bunday to'xtash joylari va garajlarini shaharlarning markaziy hududlarida qurish bo'sh hududlarning yo'qligi va yerkarning qiymatl yuqori bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Shu munosabat bilan kam maydonni egallaydigan va shahar hududini boshqa binolar va inshootlarni qurish, daraxtlar ekish, sport maydonlari va h.lar uchun bo'shatadigan ko'chadan tashqaridagi erosti va yarim erosti avtoto'xtash joylari va garajlar barpo qilish samarali bo'ladi.

Vazifasi, joylashish o'rni, sig'imi, rejaviy sxemalari, qavatlari soni, konstruktiv xususiyatlari va h.lar bilan farq qiluvchi yerosti av-

toto'xtash joylari va garajlarining xilma-xil turlari mavjud. Yerosti avtoto'xtash joyi va garajlarining turini aniqlash asosan aniq shaharsozlik va transport sharoitlari hamda iqtisodiy mulohazalar bilan belgilanadi.



7.3.- rasm. Chorsudagi ko'p qavatli garaj:

a) fasad; b) yon fasadi; v) ichki ko'rinishi; g) bozor tarafdan ko'rinish


7.3.1. Yerosti to'xtash joylari, garajlar va majmualar

Yerosti avto-to'xtash joylari va garajlar yengil (shaxsiy yoki ja-moat), yuk va boshqa avtotransport vositalarini saqlash uchun mo'ljalangan bo'lishi mumkin, shu bilan birga, to'xtash joylari avtomobilarni faqat saqlash uchun, garajlar esa ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun xizmat qiladi. To'xtab turish joylari ham, garajlar ham avtomobilarni vaqtincha (12 soatdan bir necha sutkagacha) mavsumiy yoki doimiy saqlanishini ta'minlashi mumkin. To'xtash joylari va garajlarni qisman qisqa vaqtga va qisman doimiy saqlashda soy-

dalanishi mumkin. Avtomobilarni vaqtincha saqlash uchun to'xtash joylari va garajlarni shaharlarning markaziy hududlarida, odamlar eng ko'p to'planadigan joylarda: ma'muriy, savdo, madaniy markazlar va h.lar yaqinida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Ayrim hollarda bunday to'xtash joylari va garajlar shaharga kiraverishda joylashtiriladi, bu mashinalarning egalari esa bu yerga o'z avtomobillarini qo'yib, shahar markaziga jamoat transportida borishlari mumkin bo'ladi. Chetdagi bunday to'xtash joylari tizimi shaharning markaziy qismini avtomobil harakatidan qisman yengillashtirishi mumkin.

Avtomobilarni doimiy saqlash uchun mo'ljallangan yerosti avto-to'xtash joylari va garajlar odatda turarjoy imoratlari bo'lgan joylarda, ko'chalar, o'tish yo'llari, xiyobonlar yoki parklar ostida alohida joylashgan inshoot ko'rinishida joylashtiriladi (*7.4.- a rasm*). Bunda ular turarjoy imoratlaridan avtomobillardan ajraladigan gazlar binolarga kirmasligi uchun sanitariya-gigiena me'yorlarida nazarda tutilgan ma'lum masofada bo'lishi kerak. To'xtash joylari va garajlarni joylashtirishda ulargacha borish radiusi 300-400m dan oshmasligi kerak. Yerosti to'xtash joylari va garajlarni turarjoy, ma'muriy yoki xo'jalik binolaringning yerto'la va sokol qavatlarida joylashtirish yanada maqsadga muvofiq bo'ladi (*7.4.- b rasm*). Bu avtomobil egalariga maksimal qulayliklar yaratib, bunda ular bevosita o'z xonadonlaridan yoki xizmat qilayotgan xonalaridan ilftga garajga to'g'ri tushishlari muunkin. Shuni ham ta'kidlash lozimki, yerosti to'xtash joylari va garajlarini qurish qiymati, binolarning yerto'la xonalariga quriladigan to'xtash joylari va garajlarning qiymatidan ancha pastdir.

Yer ustidagi ko'p qavatli to'xtash joylari va garajlarni qurishda avtomobilarni joylashtirish uchun yerosti qavatlarini qurish maqsadga muvofiq. Bu avtomobilarning qo'yish operatsiyalarini tezlashtirishga, shuningdek, avtomobilarning vertikal bo'ylab ko'chishi balandllgini qisqartirishga imkon beradi. Ayrim hollarda, yerosti to'xtash joylari va garajlar bilan birga ustki qismi yer sirtidan 0,5-0,6m yuqori joylashtigan yarimyerosti avtoto'xtash joylari va garajlar quriladi (*7.4.- v rasm*). Bunday garajlarning orayopmasida yengil avtomobillar uchun to'xtab turish joylari, sport maydonchalari va h.k.lar quriladi.



7.4.- rasm. Garajlarning turlari:

a, b.- yerosti; v- yarimyerosti; g- suvosti; d- tog' turidagi.

Yerosti va yarimyerosti avtoto'xtash joylari va garajlardan tashqari, ayrim hollarda, daryo, kanal, ko'l, suv omborining akvatoriyasi ostida qirg'oqqa yaqin joyda joylashtiriladigan suvosti garajlarini qurish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin (7.4.- grasm). Bunda amalda qimatbaho yer hududlarini ajratish talab etilmaydi, shahar transportining

harakatlanish sharoitlari buzilmaydi, yerosti kommunikatsiyalarini qayta qurish zaruriyati bo'lmaydi.

Ayrim hollarda joyning tabiiy relyefidan: balandliklar, tepaliklar va boshqalardan foydalanib tog' turidagi yerosti garajlarini qurish maqsadga muvofiq (7.4.- d rasm). Bu holat yer qazish ishlarini ancha kamaytirishga va qurilish qiymatini pasaytirishga imkon beradi.

Mahalliy sharoitlarga bog'liq holda yerosti to'xtash joylari va garajlari turli sig'imli qilib quriladi, bu sig'im joylashuv hududini, shuningdek mazkur tumandagi avtomobillar miqdori va jamoat transportining rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda belgilanadi. Yuzi 6000m² gacha bo'lgan 60-75 tagacha avtomobilarni sig'dira oladigan va 300 dan ortiq avtomobillar turadigan yerosti avtoto'xtash joylari va garajlar bo'ladi. Ayrim hollarda 1000, 2000, 3000 avtomobili ga mo'ljallangan erosti avto-to'xtash joylari va garajlar barpo etiladi. Avtomobilarni joylashtirish usuliga ko'ra ochiq to'xtash joylariga ega manej turidagi garajlar va to'xtab turish joylari alohida izolyatsiya qilinagan bokslı garajlar farq qilinadi. Shuningdek, kombinatsiyalangan turdagı garajlar ham quriladi, ularda to'xtab turish joylarining bir qismi ochiq, bir qismi esa ajratilgan bo'ladi.

Yerosti qurilishi amaliyotida rampali va mexanizatsiyalashtirilgan to'xtash joylari va garajlar keng tarqalgan. Rampali garajlarda avtomobilarning kirishi va chiqib ketishi, shuningdek, ularning bir qavatdan boshqasiga o'tishi to'g'ri yoki spiralsimon rampalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Mexanizatsiyalashtirilgan garajlar va to'xtab turish joylarida rampalar bo'lmaydi, va barcha operatsiyalar haydovchi ishtirokisiz amalga oshiriladi: avtomobillar kerakli qavatga va bo'sh maydongacha hiftli ko'targichiarda uzatiladi, rampali garajlarga qaraganda kamroq joy egallaydi, shunig uchun ularni hudud juda taqchil bo'lganda qurish va avtomobilarni uzoq vaqt saqlashda foydalanish maqsadga muvofiq. Mexanizatsiyalashgan to'xtash joylari va garajlarning qiymati rampalilarnikidan yuqori bo'lsa ham, ular bir qator ekspluatatsion afzallikkлага ega. Xususan, garaj ichida avtomobilarni manyovr qilib bo'lmaydi, shu munosabat bilan gaz ajralishlar hajmi keskin kamaya-

di va ventilyatsiyaga xarajatlar qisqaradi. To‘g‘ri va spiral rampalar bo‘limganligi hisobiga garaj egallaydigan maydon ancha kichiklashadi. Bundan tashqari, mexanizatsiyalashtirilgan garajlar avtomohil egalarini bo‘shto‘xtash joylarini qidirib topish zarurligidan xalos etib, ularga qulayliklar tug‘diradi.

Ayrim hollarda yarimmezanzatsiyalashtirilgan garajlar ham quriladi, ularda avtomobillar yerosti qavatiga liftli ko‘targichda tushiriladi, to‘xtab turish joylariga joylashtirish esa haydovchilar yoki garaj xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Keyingi yillarda ko‘pgina yirik shaharlarda yerosti to‘xtash joylari va garajlar ko‘p maqsadli vazifalarga mo‘ljallangan ko‘p qavatlari majmualari tarkibida qurilmoqda. U, odatda, yirik transport bo‘g‘inlari, yaqinida, vokzaloldi maydonlarida, aeroportlar, savdo markazlari va h.lar yaqinida joylashtiriladi. Bu joylarda birinchi navbatda turli xil transport inshootlarini: metropoliten stansiyalarni va temir yo‘l vokzallarini, transport va piyodalar tunnellarini, to‘xtash joylari va garajlarni qurish zaruriyati vujudga kelgani uchun ularni bitta inshootda birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Yerosti majmualari tarkibiga, shuningdek, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, kinoteatrlar, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari va h.lar kiritiladi, bu esa keluvchilarga maksimal qulayliklar yaratadi. Aniq sharoitlarga bog‘liq holda yerosti majmualari 2dan 6 qavatgacha bo‘lishi mumkin.

Birinchi yerosti qavati ko‘pincha piyodalar harakatlanishi uchun mo‘ljallanadi va yondosh ko‘chalar bilan zinapoyali yoki eskalatorli yo‘llar bilan tutashtiriladi. Shu qavatning o‘zida uncha katta bo‘limgan magazinlar, kafe, kioskalar va h.lar joylashtiriladi. Ikkinchi va uchlnchi qavatlarda avtomobilarning to‘xtash joylari va texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari bo‘lishi mumkin. Pastki qavatlar odatda metropoliten va temir yo‘l vokzallari stansiyalarini joylashtirish uchun foydalaniлади. Alovida yaruslar orasida bog‘lanish uchun eskalatorlar, liftli ko‘targichlar va zinapoyalar xizmat qiladi. Yerosti komplekslariga avtotransport, metropoliten va kommunal tunnellar yondosh bo‘lishi mumkin.

Hajmiy-rejaviy sxemalar.


Yerosti avtoto'xtash joylari va garajlarini loyihalashtirishda avtomobilarni to'xtab turish joylariga tez joylashtirishni va ularni yer ustiaga tez olib chiqishni ta'minlaydigan rejaviy sxemani tanlashga intiladilar. Bunda etarli o'lchamdag'i to'xtab turish joylari, o'tish yo'llari bo'lishi kerak. Shuningdek, to'xtash joyi yoki garaj ichida haydovchilar va xizmat ko'sratuvchi xodimlar uchun qulay piyoda yo'llarini yaratish ham zarur.

Zich qilib qurilgan imoratlar sharoitida ko'chalar va o'tish yo'llari ostida chiziqli to'rda yerosti to'xtash joylari va garajlar quriladi, ularning *L* uzunligi 300m va undan ortiq ho'lishi, kengligi V esa to'xtash joylarining ustidagi ko'chalar va o'tish yo'llarining kengligi bilan belgilanadi (7.5.-a rasm). Agar mahalliy sharoitlar imkon bersa, yerosti avtoto'xtash joylariga rejada kvadrat yoki poligonal shakl beriladi (7.5.-b rasm). Bu avtomobillar to'xtash joyini yanada oqilona joylashtirib, inshootning chiziqli o'lchamlarini cheklash imkonini beradi. Ayrim hollarda yerosti to'xtash joylari va garajlar rejada doiraviy shaklda quriladi (7.5.-v rasm). Bunda to'xtash joyi uchun ajratilgan hudud kichrayadi. Yerosti to'xtash joylari, mahalliy sharoitlarga ko'ra, rejada yanada murakkab shaklga ega bo'lishi ham mumkin (7.5.-g rasm).

Yerosti qavatlarining rejaviy sxemasi va o'lchovlariga bog'liq holda avtomobillar turlicha joylashtiriladi, hunda haydovchilar va avtomobil egalarining yaxshi mo'ljal olishlari uchun har bir qavatdag'i joylashtirish sxemalari bir xil bo'lishi maqsadga muvofiq. Yerosti qavatlarda avtomobilarni joylashtirishning bir va ikki tomonlama sxemasi qo'llaniladi.

Avtomobilarni o'tish yo'lining bir tomoniga joylashtirish tejamli emas va asosan kengligi cheklangan "liniyali" turdag'i garajlarda qo'llaniladi. Xususan, ko'chaning kengligi 16-20m bo'lganda yeroshti to'xtash joyi (garaji)ning kengligini 15-20m qilib belgilab, 4,5-5m dan ikki qator turadigan tarzda joylashtirib, ularning orasida 5-7,5m kengligidagi o'tish yo'li qoldiriladi. Ko'chaning kengligi kichikroq bo'lganda avtombillar joylashuv bir qatorli va o'tish yo'li bitta bo'lgan to'xtash joyi va garajni qurish mumkin. Avtomobilarni bir yoki ikki

qator qilib o'tish yo'liga parallel perpendikulyar yoki 30, 45, 60° burchak ostida joylashtirish mumkin.



7.5.- rasm. "Chiziqli" turdag'i (a), "zal" turidagi (b), doira shaklidagi (v) murakkab konfiguratsiyadagi (g) garajlarning yeroti qavatlari (yaruslari) rejasি:

1- kirish rampasi; 2- chiqish rampasi; 3- avtomobillar turish joyi;
 4- o'tish yo'llari

Avtomobilarni doimiy saqlash uchun ularni o'tish yo'li o'qiga perpendikulyar joylashtirgan holda ikki tomonlama bir qatorli sxemasi ancha afzaldir. Bunda to'xtash joyiga minimal maydon kerak bo'ladi va istagan avtomobilni erkin chiqib ketishi ta'minlanadi.

Vaqtincha saqlash uchun qiya burchakli joylashuv ("archasimon", parketli) maqsadga muvofiq, bunda to'xtab turish joyiga avtomobilarning kirishi va chiqishi osonlashadi va o'tish yo'lining kengligi biroz kichraytililadi. Biroq bunda to'xtab turish joylarining umumiy yuzi 20-25% ko'payadi, o'tish yo'lining uzunligi ham ortadi va to'xtash joyining maydoni to'la foydalanimaydi.

Avtomobilarning turi va ularni joylashtirish sxemasiga bog'liq holda bitta to'xtash joyining yuzi o'zgaradi. Jumladan, to'g'ri joylashtirishda yengil avtomobillar uchun to'xtab turadigan joyning eni 2,2m dan 2,5m gachani, bo'yisi esa 4,6m dan 5,3m gachani tashkil etadi, qiya burchakli joylashtirishda esa mos holda 2,1-2,3m va 4,5-4,8m ni tashkil etadi. Bir qatorli joylashtirishda taxminan 5-7m bo'lishi kerak. O'tish yo'llarining joylashtirilishi garajda oqimning o'ng tomonlama harakatlanishni ta'minlanishi kerak. Sig'imi 100 dan ortiq avtomobillar bo'lgan garajlarda oqimlar kesishmasligi kerak.

Shunday qilib, avtomobillar ikki qator qilib to'g'ri joylashtirilib, o'tish yo'li o'rtada bo'lganda kamida 15m lik bo'sh oraliq talab etiladi, 60 va 45° li qilib joylashtirilganda esa mos ravishda 14 va 13,5m li bo'sh oraliq talab etiladi. Bitta to'xtash joyining umumiy yuzi o'tish yo'llarini ham hisobga olganda yengil avtomobillar uchun 20 dan 28m² gacha, yuk avtomobillari uchun 60m² gachani tashkil etadi.

"Zal" turidagi avtoto'xtash joylari va garajlarda avtomobillar o'tish yo'li o'qiga perpendikulyar holda ikki yoki bir necha qator qilib joylashtiriladi. Bunda avtomobilarning manevr qilish sharoitlari yaxshilanadi. Rejada doiraviy shaklda bo'lgan avto-to'xtash joylari va garajlarda avtomobillar radial yo'nalishida va ba'zida vatar yo'nalishida joylashtiriladi.

Rampa turidagi yerosti to'xtash joylari va garajlari bir va ko'p qavatli bo'lishi mumkin. Yerosti qavatlar sonining ortishi bilan bitta avtomobilga hisoblanadigan maydon me'yori kamayadi. Jumladan, bir qavatli garajlarda bitta avtomobilga o'rtacha 25m² maydon, ikki qavatli garajlarda 15m², uch qavatlisida 10m², to'rt qavatlisida 8m² maydon to'g'ri keladi. Maydonning kamayishiga mos ravishda bitta mashina-joyning qiymati ham kamayadi, biroq qavatlari soni to'rt-

beshtadan ortiqroq bo'lganda mashina-joyning qiymati ham orta bora boshlaydi va to'xtash joylari ichida harakatlanishni tashkil etishda, yer sirtiga chiqishda va kirishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Dastlabki texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, yirik shaharlarning markaziy tumanlarida erosti qavatlari soni ikkitadan beshtagacha bo'lgan yerosti rampalari garajlari eng samarali hisoblanadi. Bunday garajlar hududdan foydalamish samaradorligining eng yuqori ko'rsat-kich koeffitsienti bilan tavsiflanadi:

$$K_{e.u.t.} = \frac{E}{T} = \frac{1}{t}, \quad (7.4)$$

Bunda E- garajning sig'imi, mashina-joy; T- garaj barpo qilish uchun o'tish yo'llari, kirish yo'llari va ko'kalamzorlashtiriladigan hududlarni hisobga olgandagi yer uchastkasi maydoni, m^2 ; t- bitta avtomobilga yer uchastkasi maydoni.

Yerosti avtoto'xtash joylari va garajlarning yuqori orayopmasini yotqizilish chuqurligi minimal bo'lishi va yo'l qoplamasining qalinligiga, muzlash chuqurligiga, yerosti kommunikatsiyalarining joylashishiga bog'liq holda belgilanadi.



Agar garaj ustiga daraxt yoki butalar o'tqazish nazarda tutilgan bo'lsa, u holda orayopma ustidagi tuproqning qalinligi kamida 1,5-2m bo'lishi kerak.

Har bir yer ostidagi qavatning balandligi avtomobilarning turlariga bog'liq va eng baland avtomobilning balandligidan juda bo'lmaganada 0,2m ko'proq bo'lishi (lekin 2-2,2m dan kam bo'lmasisligi) kerak. Odatta, avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari joylashadigan yer ostidagi birinchi qavatining balandligi 2,2-2,5m, qolgan qavatlarini 2-2,1m bo'ladi.




Rampali avtoto'xtash joylari va garajlaridan chiqish va kirish yo'llari avtomobilarni to'xtash joyiga qulay qo'yishni va undan olib chiqib ketishini ta'minlashi kerak. Kirish va chiqish rampalari soni avtomobilarning 15km/soat harakatlamish tezligi, ular orasidagi 20m ga teng oraliq va barcha avtomobilarni 1 soat mobaynida evakuatsiya qilimishidan kelib chiqib belgilanadi. Bunga bog'liq bo'lmagan

holda sig'imi 200 ta avtomobilgacha bo'lgan yerosti garajlarida bitta ikki yo'lli rampani nazarda tutish kerak, 200 tadan ortiq avtomobil sig'imiga ega garajlarda esa ikkita bir yo'lli rampalarini nazarda tutish kerak.

a)



b)



7.6.- rasm. To'g'ri (a) va spiral (b) rampalarning turli xil variantlari.

Garajga kirish va undan chiqish joylari bevosita unga yondosh ko'chalarda joylashtiriladi, bunda bosh magistrallardagi harakatni buzmasdan ularni ikkinchi darajali ko'cha yo'nalishi bo'yicha qurish maqsadga muvofiq. Binolar zinch joylashgan sharoitlarda, shuningdek, suvosti garajlarida kirish va chiqish yo'llari alohida tunnel ko'rinishida quriladi. Yerosti garajiga bevosita kirish oldida garajda saqlash uchun mo'ljallangan umumiyligi avtomobillar sonining 5-10% ini vaqtincha joylashtirish uchun to'plovchi maydon quriladi.


Shum nazarda tutish lozimki, yerosti garajlariga kirish va undan chiqish joylari garajning sig'imiga bog'liq xolda turarjoy binolari dan 10-20m dan yaqin bo'lmasligi kerak. Avtomobilarning qavatdan qavatga o'tishi uchun garaj ichida to'g'ri va spiralsimon rampalar qo'llaniladi. To'g'ri rampalar qiyaligi 10% gacha (tashqilari) va 16% gacha (ichkilari); bir qatorli uchun kengligi 3m va ikki qatorli harakatlanish uchun esa 5,5-6m bo'lishi mumkin (*7.6.-a rasm*). Spiral rampaning boshida avtomobilarning kirishi uchun kamida 3m uzunlikdagi to'g'ri yo'l bo'lishi kerak. Spiral rampalarning egrilik radiusi bo'ylama qiyalikka bog'liq va 5% qiyalikda 20m dan 15% qiyalikda 6m gacha o'zgaradi, spiral rampalarning maksimal ko'ndalang qiyaligi 6%.

To'g'ri rampalar ham, spiral rampalar ham faqat kiruvchi yoki faqat chiquvchi avtomobilarni, alohida hamda ro'para oqimlarmi o'tkazish uchun qo'shilgan bo'lishi mumkin. Agar rampalar bo'ylab haydovchilarni va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni o'tkazish nazarda tutiladigan bo'lsa, u holda eni kamida 0,75m bo'lgan trotuar qurish zarur bo'ladi. Yerosti garajlarida rampalarni qurish xonalarning foydali maydonining kamayishiga olib keladi va avtomobilarning ko'proq gaz ajratishini (ayniqsa tepaga chiqayotganda) vujudga keltiradi.

Ayrim hollarda avtomobilarning qavatdan qavatga o'tkazilishi-da yerosti garajlari qo'shni xonalari yopmalarini qavat balandligining yarmisiga ko'chirib (surib) yarimrampalar quriladi (*7.7.-a rasm*).

Yarimrampalar, odatda, 15-16% qiyalikka va nisbatan uncha katta bo'Imagan uzunlikka ega bo'ladi. Qiyaligi 4% gacha bo'lgan qavatlararo og'ma yopmalari bo'lgan yerosti garajlari va to'xtash joylari

ham qurish mumkin, bu yopmalar ustiga avtomobillar o'rnatiladi va qavatdan qavatga ko'chishlar tashkil etiladi (7.7.- b rasm).




7.7.- rasm. Yarimrampali (a) va og'ma (qiya) yopmali (b) yerosti garajlarining sxemasi:

1- yarimrampalar; 2- qiya yopmalar.

Rejada doiraviy shakldagi yerosti garajlarida ba'zida avtomobilarni o'rnatish va ko'chishish uchun xizmat qiluvchi, uzlusiz spiral ko'rinishidagi nishabli-vintsimon yopmalar qo'llaniladi. mishab yopma rampalar yoki yarimrampalarni yaratish zarurligini istisno qiladi, biroq bunda yerosti garajining qurilishi konstruksiyalari ancha murakkabla-shadi.


Mexanizatsiyalashtirilgan yerosti garajlari rejada to'g'ri to'rtburchakli yoki doiraviy shaklda quriladi. Birinchi holda ular maxsus harakatlanuvchi aravachali bokslar bilan jihozlanadi, ular ko'targich liftning shaxtasiga avtomobillarni qabul qilish yoki chiqazish uchun uzatiladi (7.8.- a, v rasm).



7.8.- rasm. Mexanizatsiyalashtirilgan yerosti garajlari:

a, v – harakatlanuvchi aravachali; b- buriluvchi platformali; 1- lift ko'targichlari; 2- aravachalar; 3- platformalar.

Rejada doiraviy shakldagi garajlarga har bir qavatda buriluvchi platformalar o'rnatiladi (7.8.- b rasm). Avtomobilko'targich ma'lum bir qavatga ko'tarilganda platforma shunday tarzda buriladiki, bunda ko'targichning eshibi qarshisida bo'sh boks o'rnatilib, unga avtomobil garaj xodimi tomonidan yoki avtomatik ishlovchi moslama yordamida suriladi. Liftli ko'targichlar barqaror yoki ko'chma shaxtalar da ko'chishi mumkin. Birinchi holda avtomobillar qavatdan qavatga ko'chiriladi, ikkinchi holda har bir qavat chegarasida ko'chiriladi. Lift ko'targichi katagining o'lchamlari avtomobilning gabaritlari bilan emi bo'yicha 0,6m minimal zaxira bilan, bo'yiga ko'ra 0,8m va balandligi bo'yicha 0,2m zaxira bilan belgilanadi. Mexanizatsiyalashtirilgan garajlarda lift ko'targichlari soni har 100 avtomobilga 1 ta lift hisobidan o'rnatiladi.



7.9.- rasm. Pastki qavatlarida xonadonlari bo'lmagan turarjoy uyi ostidagi avtoto'xtash joyi:

1- isitiladigan berk avtoto'xtash joyi; 2- ochiq (qisqa muddatli) avtoto'xtash joyi;

3- avtoto'xtash joyining ehtimoliy

rivojlanishi; 4- tehnik qavat;

5- tehnik dahliz.

Agar garajga bir vaqtda bir nechta avtomobil kelsa, ular garajning yuqori qismidagi maxsus to'plagichlarda vaqtincha joylashtiriladi va navbatli bilan to'xtash joyiga qabul qilinadi. Mexanizatsiyalashtirilgan garajlar va to'xtash joylari har bir qavatining balandligi kamida 1,8m bo'lgan ko'p qavatlari qilib qurish maqsadga muvofiqdir.

Ko'p vazifani bajaruvchi yerosti majmularining hajmiy-rejaviy yechimlari majmua tarkibiga kiruvchi obyektlarning xususiyatiga muvofiq ishlab chiqiladi.

Ko'pchilik hollarda yeroshti majmulari "zal" turida loy-

ihalanadi. Bunda ularga rejada turli xil: to'g'ri to'rtburchakli, poligonal, doiraviy, elliptik yoki muntazam bo'limgan shakl beriladi. Ayrim qavatlarning yuzi va balandligi yerosti obyektlarining vazifasiga bog'liq holda belgilanadi.

Yerosti magistrallari bo'yicha joylashgan yerosti majmualari, avto'xtash joylari va garajlar qator hollarda eskalatorlar bilan jihozlanadi. Eskalatorlar gorizontga nisbatan 30° ostida joylashgan va yerosti inshootini yotqizish chuqurligiga bog'liq holda uzunlligi 13 dan 80m gacha va undan ortiq bo'lgan qiya tunnellarga joylashtiriladi. Eskalatorli tunnellar yuqori qismida mashina xonasiga, pastki qismida esa tortuvchi kameraga tutashadi. Ko'pchilik hollarda eskalator tunnellari doiraviy ko'ndalang kesimga ega bo'lib, uning diametri eskalatorlarning soniga va gabaritlariga bog'liq bo'ladi.

7.3.2. Turarjoy binolari ostidagi garaj-to'xtash joylari

Turarjoy binolari ostiga qurilgan garaj-to'xtash joylari o'z avtomobilidan har kumi foydalanuvchilarining ehtiyojlarini to'la qondiradi. Biroq ommaviy seriyadagi namunaviy uylar ostidagi yerto'la qismini bu maqsadlar uchun moslash ancha qiyinchilik tug'diradi, chunki bunday uylarning konstruktiv sxemalari avtomobilarni saqlash uchun zarur bo'ladigan xonalarning maqbul parametrlariga mos kelmaydi. Bundan tashqari, uyning pastki qavatlarida xonodonlar bo'lganida bu uyning deraza va oynalaridan yetarli darajada izolyatsiya qilingan kirish va chiqish darvozalarini qurishdagi murakkabliklar bilan bog'liq.

Keyingi vaqtarda turarjoy uylarining istiqbolli loyihalari bo'yicha berilgan takliflar orasida eksperimental uylar yechimlari paydo bo'ldi, bunda xonodonlar uchinchl qavatdan boshlab yuqoriga joylashtiriladi, ikkinchi qavat esa – texnik qavat hisoblanadi. Birinchi qavat o'mida faqat ko'taruvchi tayanchlar va zinapoya-lift kataklari bilan cheklangan bo'sh fazo hosil bo'ladi. Shahardagi juda zich imoratlar sharoitida uy ostidagi bu fazo qurilmay qoldirilishi mumkin va shunda u ikkala tomondagи yondosh hududni ko'z bilan ko'rib birlashtiradi. Agar past-

ki qavatlarida xonadonlar bo'Imagan bunday uyda yerto'lani boshqa maqsadlar uchun jihozlash zarurligi bo'Imasa, u doimiy garaj-to'xtash joyini joylashtirish uchun foydalanishi mumkin, chunki bu yerda yerto'lanning rejaviy va konstruktiv echimi xonadonlarni rejalashning qat'iy sxemasi bilan cheklanmaydi (*7.9.-rasm*).

Biroq xonadonli turarjoylarining eni bo'yicha 12m va bitta turarjoy seksiyasining uzunligi 22m bo'lgan keng tarqalgan gabaritlarda har bir seksiyaning ostidagi yerto'laga ko'pi bilan sakkizta avtomobil joylashadi. Ko'rsatib o'tilgan binoning kengligi uning ostida faqat bir tomonlama to'xtash joyini va ichki o'tish yo'llini joylashtirishga imkon beradi. Yerto'lanning rejasida konstruktiv cheklanishlar bo'Imaganda uni oraliq ichki tayanchlarsiz yopish konstruksiyasini qo'llanish mumkin. Garajga kirish va undan chiqish binoning gabaritiga kiritilgan alohida rampalar bo'yicha tashkil etilishi mumkin. Garajni xonadonlar bilan bog'lash uchun zinapoya lift katagidan foydalanish mumkin, bunda garajning zinapoya lift katagiga yondashishi rejasি karrali foydalanishni nazarda tutishi kerak, ventilyatsiya tizimi esa zinapoya katagiga gazlangan havoning va ortiqcha shovqinning kirishini istisno etishi kerak. Shu bilan birga, garajga kirish vaqtida yer sati bilan eng yaqindagi qavat oynalari sati o'rtaсидagi belgilardagi farqni hisobga olish kerak, bu farq mazkur holda taxminan 8m. Bunday balandlikda avtomobildan chiqqan gazlar atomosferaga yetarlicha to'liq aralashib ketadi. Shunday qilib, turarjoy binolari ostida doimiy garaj-to'xtash joyini joylashtirish avtomobillar egalariga faqat qulay sharoitni ta'minlabgina qolmay, balki sanitariya-gigiena nuqtayi nazaridan ham ma'quldir.

Turarjoy uylari tagidagi yerto'lalarda doimiy garaj-to'xtash joylarini qurishning yagona kamchiligi bunday qurilish qiymatining juda yuqori bo'lishidadir. Bunday misol uyning gabaritlari kengligi bo'yicha ikki tomonlama to'xtash joyining minimal kengligiga mos bo'lganda, ya'ni, masalan, eni kamida 15m bo'lgan mehmonxona turidagi uylar tagida ommaviy qurilish sharoitlarida yaroqli bo'lishi mumkin.

7.3.3. Xo'jalik bloki yerto'lalaridagi garaj to'xtab turish joylari


Mikrorayonlarda kommunal vazifani bajaruvchi alohida binolarning ostida garajlar joylashtirish, turarjoy binolaridagiga qaraganda ancha yengildir. Kichik tumanlar tarkibida shirkatlarning xonalari, mahalliy turarjoy fondini joriy ta'mirlash moddiy omborlar bilan birga, jamoat tashkilotlari va to'garak ishi xonalari yoki uy klubi bilan birga xo'jalik bloklari nazarda tutiladi.

Shu yerning o'zida birlamchi kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ayrim korxonalar, masalan, uyda har kuni foydalaniладиган buyumlarmi ta'mirlash uchun qabul qilish va ijara berish, kiyimni tozalashga va yuvishga qabul qilish puktlari, o'ziga xizmat ko'rsatuvchi uy ustaxonalari va h.lar joylashtirilishi mumkin. Xo'jalik bloki tarkibida trotuarlarni tozalovchi mashinalar uchun turish joylarini ham nazarda tutish lozim. O'rtacha sharoitlarda mikrorayonga umumiyligi (foydali) maydoni 700-800m² bo'lgan shunday turdag'i bitta bino yetarli bo'ladi.

Uncha katta bo'limgan bir qavatli xo'jalik bloklari loyihalari ba'zida texnik yerto'laning qurilishini ham nazarda tutadi. uning maydoni to'la foydalanimasligi mumkin. Texnik yerto'lan'i odatdag'i yerto'la bilan almashtirishda unda doimiy garaj-to'xtash joy sifatida joylashtirilishi mumkin.

7.10.- rasmida yer to'lasida 50 o'rinni garajni joylashtirish varianti bo'lgan xo'jalik bloki binosini rejolashtirish sxemasi keltirilgan. Bunday qo'shma binoning asosiy xonalari rejasi uy klubi bo'lgan XUJMSH (Xususiy uy-joy mulkdorlar shirkati) idorasiga va trotuarlarni tozalash mashinasi uchun xonasi bo'lgan ustaxonalarga kirishni binoning qarama-qarshi tomonlaridan tashkil etishdan kelib chiqishi kerak. Bu uning yaqin turarjoy uylariga va ichki o'tish yo'llariga nisabatan mo'ljal olishni yengillashtiradi. Kiriladigan o'rnatilgan ochiq rampani ustaxonalarga kirish eshigi yoniga joylashtirgan yaxshi, bunda ochiq bo'lgan xo'jalik maydonchasining bir qismi band qilinadi.

Xo'jalik bloklarining alohida turgan binolarini yerosti garaj-to'xtash joylari bilan qo'shish juda yaxshi samara beradi. Ammo bu usul avtomobilarning doimiy to'xtash joyida arzimagan miqdordagi joyni kichik tumanning 1000 nafar aholisiga uch-beshdan ortiq bo'imagan joyni ta'minlashi mumkin. Binobarin, bu usul ommaviy qurilish sharoitlari nuqtayi nazaridan keng qo'llanilmaydi.



7.10.-rasmi. Kichik tuman TChSJning xo'jalik bloki xonasi yer to'ladagi garaj-to'xtash joyi bilan:

a- yerro tanling rejas; b- birinchi qavat rejas; v- qirqimi; 1- yer to'lagacha kivish va chiqish rampesi; 2- yordamchi xona; 3- vestibyl; 4- XUJMSh; 5- XUJMSH qoshi degi ustaxonalar; 6- asbob-uskunalar turadigan xona

Kommunal va boshqa noturarjoy hududlarida shaxsiy foydalanishdagi avtomobillar uchun garaj-to'xtash joylarini loyihalashda va qurishda shaharsozlik nuqtayi nazaridan namunaviy echimni tanlash birinchi navbatda sig'imi va qavatlilikni oshirish talabiga bo'ysundi-

rilgan. Shu bilan birga, faqat yer hududlarini tejashnigma nazarda tutmay, balki bir sutka davomida avtomobillarning kirishi va chiqishining yetaricha erkin shartlarini ta'minlash, binodan foydalanishga va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni saqlashga minimal xarajatlar, shuningdek, shaharni avtomobillashtirish darajasining o'sib borgani sari qurilayotgan yirik garajlarda to'xtab turish joylarining umumiy somi asta-sekin to'plana borishi bo'yicha talablarni ham nazarda tutish kerak.

Mavjud tajriba asosida noturarjoylarda shaxsan foydalaniladigan avtomobillar uchun garajlarning maqbul sig'imi 500-1000 joyni tashkil etadi. Qavatlilikka kelsak, u holda mexanizatsiyalashtirilmagan garaj-to'xtash joylarining qavatini oltidan (besh qavatgacha ko'tarilishi) ortiq oshirish ba'zida ko'p vaqt yo'qotilishiga va avtomobilning o'zi barcha oraliq qavatlar orqali ko'tarilishida haydovchilarning charchashiga (toliqishiga), yo'lovchilar lifti o'rnatilishi zarurligiga, shuningdek, binoning pastki qavatlarida ustunlarni kuchaytirishga qo'shimcha xarajatlar qilishga olib kelishi mumkin.

Yirik garajlarni noturarjoy hududlarida joylashtirish sanitariya uzilishlarini ta'minlash nuqtayi nazaridan hatto uncha katta bo'lmanган tumanda uchraydigan qiyinchiliklarni vujudga keltirmaydi. Amaldagi me'yorlarga ko'ra, sig'imi 100 o'rindan ortiq bo'lgan shaxsiy avtomobillarning har qanday garajidan noturarjoy hududida joylashgan jamoat binolarigacha minimal sanitariya uzilishi 20m ni tashkll etishi kerak.

Noturarjoy hududlarida joylashtiriladigan garajlarning sig'imi va qavatlligini oshirishdagi asosiy talablardan tashqari quyidagilarni ham hisobga olish kerak:

- shaxsiy avtomobillar uchun yirik garajlarda, davlat avtoxojaliklaridan farqli ravishda, harakatlanish va manyovr qilish uchun. shuningdek, noprofessional haydovchilar yaxshi mo'ljal olishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratishning maqsadga muvofiqligi;

- shaxsiy avtoparkdan foydalanish hisobiga tranzit harakatlar va binobari, garajning o'zida ichki o'tish yo'llari bo'yicha harakatlanishning nishbatan kam jadalligi sababli avtomobillarning ichki qavatlararo o'tish yo'llarini qurish imkoniyati;

- binoning yerusti va yerosti qismlaridagi qavatlarning joylashishi va sonining mahalliy sharoitlar bo'yicha o'zgarishning maqsadga muvofiqligi, bunda uying konstruktiv sxemasi va rejaviy tuzilmasidagi muhim o'zgarishlarga olib kelmasligi kerak;

- rejada garajlarning gabaritlarini faqat cheklash zarurligi emas, balki asosiy kirish va chiqish darvozalarini shahar o'tish yo'lliga qaran gan asosan bir tomondan joylashtirish lozimligi;

- u yoki bu turdag'i garajlar binosining shahar landshaftining turli cha holatida, shu jumladan, frontal yoki orol shaklldagi binolar qurilishda joylashtirishga yaroqli ekanligi.

Ko'p qavatli (ko'p yarusli) garajlarning juda ko'p turlari ma'lum. Ular orasida asosiyлari quyidagilar hisoblanadi: rampalari tutashgan yoki alohida; rampalari o'rnatilgan, yarim rampali (xyumirampali) nishab yopma-rampali va rampasiz mexanizatsiyalashtirilgan.

7.3.4. Rampalari tutashtirilgan garajlar


Bunday garajlar davlat avtoxo'jaliklarida ko'p tarqalgan. Ular to'xtash joyi xonalarining tez to'ldirilishini va bo'shatilishini ta'minlaydi va qavatlar bo'ylab tranzit harakatlanishga ega emas. Har bir qavat boshqalardan alohida holda to'ldiriladi. Shu bilan birga, alohida rampalarning qurilishi yer uchastkasining ancha orttirilishi bilan bog'liq.

Bundan tashqari, to'g'ri tutashgan rampalarda qavatlilikning o'zgartirilishi to'xtash joyini rejashtirishni o'zgartirishga olib keladi. Qavatlilikning o'zi to'g'ri tutashtirilgan rampalarning uzunligi bilan chegaralanadi va ko'p qavatli garajga yondashtirilgan har qanday rampa atrofdagi imoratlar oldida binoning hajmiy-fazoviy yechimini obyektiv ravishda murakkablashtiradi (*7.11.-rasm*).

215 o'ringa mo'ljallangan uch qavatli garaj to'g'ri tutashtirilgan rampalar bilan shunday loyihalashtirilganki, bunda chet tomondan ikkinchi qavatga va birinchi hamda uchinchi qavatlarga yon tomonlardan harakat qilish uchun kirish yo'llari va rampalar uchun binoning uch tomonida hududning katta qismi band bo'lgan. Uchastkaning umumiy

o'chamlari 0,6 ga (80x75m), ya'ni 1 ta mashina o'ringa hududning 28m² maydonga to'g'ri keladi.

Har bir qavatning atrofdagi hudud bilan garajning umumiylis nisbatan uncha katta bo'lmagan sig'imida tutashgan rampalarni qurish yo'li bilan to'g'ri aloqa qilishga intilish isrofgarchilikdan boshqa narsa emas. Bu hudud ancha kattaroq sig'imga ega garajni joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin edi.




7.11.- rasm. 215 o'rinli to'g'ri fazoviy rampali uch qavatli garaj:
a- uchastkaning rejasi; b-birinchi qavatning rejasi; v- qirqim.

7.3.5. Rampalari ichiga o'rnatilgan garajlar

Rampalari ichiga o'rnatilgan garajlar yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklardan misbatan ancha ozoddir, lekin shunday bo'lsa ham yi-

rik shahar sharoitida ommaviy qurilish nuqtai nazaridan tejamkor emas. O'rnatilgan to'g'ri rampalar 104, 218 va 474 mashina o'rini qavatli va uch qavatli garajlarning namunaviy loyihibalarida qo'llanilgan.

7.12.- rasmda har biri 218 o'rining mo'ljallangan ikkita to'silgan namunali garajlarning joylashtirilish sxemasi keltirilgan. Uncha ko'p qavatli bo'lmagani munosabati bilan bu yerdagagi yer uchastkasining zaruriy o'lchovlari 0,9 ga (160x55m). Bu bir o'rining 20m² hudud to'g'ri kelishini anglatadi, bu esa yirik shahar sharoitida ommaviy qurilish nuqtai nazaridan tejamlı emas.



7.12.- rasm. Har biri 218 o'rining uch qavatli to'silgan umumiy garajlar:
a- uchastkaning rejasi; b- birinchi qavatdagagi bir blokning rejasi;
v- qirqim;
1- shaharning o'tish yo'li; 2- 218 o'rining avto-to'xtash joyi bloki; 3- o'rnatilgan rampalar.

7.12.- rasmda taqdim etilgan, rampalar o'rnatilgan garajning umumiy loyihasi hududdan foydalamish darjasini bo'yicha kamchiliklaridan tashqari iqtisodiy, texnologik, konstruktiv va me'moriy rejaviy tartibdag'i boshqa kamchiliklarga ega, shu jumladan:


- yuqori qavatining balandligi keragidan ortiq;
- uchinchi qavatda joylashtirilgan avtomobilarning chiqib ketishining vaziyatga bog'liqligi;
- ommaviy foydalani layotgan zamonaviy avtomobilarning gabaritlari va manevrchanligi nuqtai nazaridan passajining har hir to'xtash joyi ortiqcha kengligi (18m);
- o'rnatilgan ustunlar to'ri munosabati bilan mashinalarning manevr qilish sharoitlarining ichki o'tish yllari ko'rinishining cheklanganligi;
- hinoming tashqi qiyofasiga shahar imoratlarining me'moriy talablariga mos emasligi;
- umumiy hajmiy-rejaviy yechimning tejamkorligi etarli emasligi (bir o'ringa taxminan 105m^2 qurilish hajmi).

7.3.6. Yarimrampali garajlar

Bu turdag'i garajlar (ikki marta qisqartirilgan rampali) to'xtash joyi qo'shni passajlarining balandligi bo'yicha yarim qavat surishni nazarda tutadi. Bu usul to'xtash joyi xonalarining va ichki o'tish yo'llarining tejamli rejalanishiga imkon beradi. Yarimrampalarning 0,16 qiyaligi, ustyopma bilan himoyalangan rampalar uchun talab etilgani kabi, qavatning balandligi 3m bo'lganda har bir yarimrampa uzunligi 9,4m dan ortiq bo'lganda ta'minlanadi.

7.13.- rasmda yirik ko'p qavatli yarimrampali garajning loyihasi keltirilgan. Bu loyiha qavatlarning siljishini har qanday yarimrampali garajning joylashtirilishi qoidasi sifatida namoyish qiladi. Biroq umumiy foydalishdagi kichik gabaritli mashinalarni joylashtirish uchun bu yerda tanlangan ustunlar to'ri samarali echim bo'la olmaydi. Mashinalarning aynan bitta o'tish yo'lidan ko'tarilishga eng yaxshi echim hisoblanmaydi. Mazkur misolda, shu bilan birga, yarim rampali garajlarning barchasi uchun muqarrar bo'lgan kamchilik – to'xtash

xonasida ichki o'tish yo'llari bo'yicha harakatlanishning shu harakat yo'nalishi va qiyaligining bir vaqtida tez-tez va keskin o'zgarishlari bilan murakkablashtirilishi kuzatiladi.



7.13.- rasm. Yirik yarimrampali garaj loyihasi:


a- umumiq qavat rejasি; b- qirqim.

7.3.7. Nishabyopmali garajlar

Nishabyopmali garajlar (yopmasi nishab garajlar) nishabyopmaga ega bo'lib, ularda mashinalar ham saqlanadi, ham ularning ko'tarilishiغا va pastga tushishi amalga oshiriladi. Avtomobilni navbatdagi qavatning yarmiga teng balandlikka ko'tarilishi va tushirilishi to'xtash joyi polining qiya qismlari bilan ta'minlangan.

7.14.- rasmida nishabli ko'p qavatli garajning loyihasi keltirilgan, uning xususiyatlariga ichki o'tish yo'llarida mashinalarning ro'para

oqimlarining mavjudligini, shuningdek, qabul qilingan o'nta yarus ko'tarilishdagi ortiqcha katta qavatlilikni aytish mumkin.



7.14.- rasm. Nishabyopmali-rampali va mashinalarning kirishda va chiqishdagi harakatlar qo'shilgan (ro'para) ko'p qavatlili gara:

a- birnichi qavat rejası; b- qirqim

Nishabli garajlarni shaxsiy avtomobilarni doimiy saqlash uchun ko'p qavatlari garaj turini tanlashda obyektiv eng maqsadga muvofiq echim deb hisoblash mumkin. Turgan avtomobilning o'qiga perpendikulyar yo'nalişdagi pollarning qiyaligi kamida 0,04 bo'lishi kerak, bu qavatning balandligi 1,5m bo'lgan yopmaning har bir qiya uchaskasining 37,5m uzunligini beradi. Mashinalarning yo'nalişlarini o'zgarish uchun zarur bo'lgan yopmalarning gorizontal uchastkalarini hisobga olib, binoning odatdagisi uzunligi kamida 50m bo'ladi.

Nishabyopmali garajlar avtomobilarning yuqoriga ko'tarilish va pastiga tushishi harakatida va burilib qaytishlar masalasida yarimram-pali garajlarga xos bo'lgan qiyinchiliklardan xolidir. Bu yerda pollarning keskin qiyaliklari yo'q, 0,04 ga teng qiyalik esa haydovchi tomonidan herakatlanish vaqtida ham, avtomobilni qo'yish uchun manevr qillshda ham va chiqib ketishida ham deyarli sezilmaydi. 0,04 qiyalik avtomobiini bunday ko'ndalang qiyalikda uzoq vaqt saqlaganda zamona viy avtomobilarning ayrim agregatlari holatiga amaliy jihatdan hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Shuni ta'kidlab o'tish muhimki, mazkur qiyalikda polni yuvishda qish paytlari shinalar shahar ko'chalardan ohb kiradigan tuzni yo'qotish osonlashadi, binobarin, gorizontal pollari bo'lgan shahar garajlarida keng tarqalgan temirbeton konstruksiyalarning tuzli korroziyasiga qarshi kurash osonlashadi.


Nishab yopmasi barcha garajlarning muhim kamchiligi bo'ylama konkasan foydalanilganda to'sin va ustunlarning choklari ma'lum surakkablikka ega bo'lishidadir. Buning sababi, bu elementlarning to'g'ri burchak ostida tutashtirilmaganligi hisoblanadi.

7.3.8. Nishab-vintli yopma rampali garajlar

Ular rejada doiraviy shaklda bo'lishi tufayli shahar binolari qiyofasiga oson kirishib ketadi va ularga har xillik va ifodalilik baxsh etishi, ayniqsa, shaharsozlik teng qiymatli atrof vaziyatida bo'lgan orol turidagi uchastkalardan foydalinishda ifodalananadi.

7.15.- rasmida 220 va 1050 o'rinni nishabli-vintli shahar garajlari loyihalari tarkibida ishlab chiqilgan, devorlari g'ishtli variantdagi 220 o'rinni nishab-vintli garajning loyihasi keltirilgan.


Rejada dumaloq bino diametrlari 33 va 10m bo'lgan ikkita konsektiv halqani hosil qiladi, ularning orasiga to'xtash joyi va o'tish yo'li, markazda esa svetoaeratsion shaxta yengil qoplama va ventilyatsiya qurilmasi bilan joylashtiriladi.



7.15.- rasm. Nishab-vintli yopma rampalari bo'lgan 220 o'rinali yumalogaraj a- reja; b- qirqim; v- yopma plita

Uzluksiz spiral bo'ylab joylashgan nishab-vintli yopma bir vaqtda avtomobillarning to'xtab turishi uchun va ko'tarilishiga hamda pastga

tushishda harakatlanishi uchun xizmat qlladi. Rejada yagona trapetsiyasimon shakldagi va T-simon ko'ndalang kesimdagagi yopma plitalar tashqi halqasimon devorga yig'ma temirbeton yostiqchalarni qo'llangan holda, ichki devorga esa (shamollatishi uchun bo'shlqlari bo'lgan va qo'shlmcha haydovchilarining ko'rib mo'ljal olishlari uchun) monolit temirbeton kamari (belbog'i) orqali yotqiziladi. Garajming yerusti va yerosti yaroslari soni zinapoya sharoitlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Bu turdagagi mishab-vintli garajlarning loyihalari eksperimental qurilish uchun tasdiqlangan.



7.15.- rasm. Yarimmexanizatsiyalashtirilgan ko'p qavatli garaj-to'xtash joyi: a- reja; b- qirqim; 1- yuk lifti; 2- yarimrampa.

7.3.9. Yarimmexanizatsiyalashtirilgan garajlar

Mazkur holda avtomobilarni o‘z yurishi bilan ko‘tarish va tushirish imkoniyati bilan birga rampali va mexanizatsiyalashgan tizimlar orasi-dagi asosan oraliq yechim bo‘lib hisoblangan yuk liftlari nazarda tutilgan garajlar tushuniladi.



7.15-rasmda yarimrampalari va ko‘taruvchi-liftlari bo‘lgan ko‘p qavatli garajning loyihasi taqdim etilgan. Avtomobilarni ko‘tarish va tushirishning bu ikki turli xil usullarni qo‘sishdan tashqari bu loyiha-ning xususiyati bu yerda avtomobilarni uch qatorli tupikli joylashti-rish hisoblanadi. Bu loyihalash amaldagi me’yorlarda ko‘zda tutilmagan va faqat istisno tariqasida, masalan lombard-garajlar uchun ruxsat etilishi mumkin.

7.3.10. Mexanizatsiyalashtirilgan garajlar

Mexanizatsiyalashtirilgan garajlarni loyihalash, qurish va foydalani-shda chet elda to‘plangan ko‘p yillik tajribaga qaramay etarlicha mukammal va samarali tizimni izlash to‘xtatilgani yo‘q.

Avtomobilarni to‘xtash joyiga qo‘yish va undan chiqarib berish jarayonini mexanizatsiyalash qoidasi boshidan oxirigacha amal qilin-gani, ya’ni bu jarayon insonning bevosita ishtirokini talab qilmaydigan qoida eng muvaffaqiyatli hisoblanadi. Avtomobil egalarining tez-tez foydalanishlariga mo‘ljallangan mexanizatsiyalashtirilgan garajlar va garaj-avtomatlarning murakkab va qimmatbaho jihozlari mexanizat-siyalashdan olinadigan samarani ommaviy kirish va chiqish sharoiti-da ishlovchi hamda liftlardan tashkil topgan garaj-to‘xtash joylaridan foydalanish amaliyotidan avtomobilarni tanlash va joyiga qo‘yishda bitta lift ko‘p qavatli garajda ko‘pi bilan 100 ta mashina o‘ringa xizmat ko‘rsatishi mumkinligi aniqlangan va bunda liftga kirishdan oldin notekis kirib kelayotgan mashinalarni vaqtincha to‘xtatib turadigan yetarlicha katta o‘lchamdagи maxsus to‘plovchi maydonchani yoki berk xonani qurish talab etiladi. 7.16.- rasmda avtomobilarni vertikal va gorizontal ko‘chirish uchun ko‘targichlar bilan jihozlangan mexani-

zatsiyalashtirilgan garajning loyihasi keltirilgan. Loyihada ko'rnishicha, avtomobilarni qabul qilib olish va chiqarib berish uchun zarur xonalarning o'lchovlari to'xtash joyining o'lchovlariga teng bo'lib qolishi mumkin.



7.16.- rasm. Ko'chma yuk liftli bo'lgan mexanizatsiyalashtirilgan ko'p qavatlari garaj-to'xtash joyi loyihasi:

a- birinchi qavati rejas; b- I-I bo'yicha qirqim; 1- qabulxona; 2- yuvish joyi; 3- dispatcherning o'rni; 4- mashinalar uchun yo'naltiruvchilar; 5- ikkita mashinaga mo'ljallangan boks; 6- to'rtta ko'chma ko'targichlar uchun shaxta; 7- ko'chma ko'targichlar; 8- profilaktoriy; 9- tushish joyi; 10- chiqish.

Rampasiz mexanizatsiyalashtirilgan garaj-to'xtash joylari avtomobilarni tez-tez qabul qilish va chiqarib berish bilan bog'lanmagan, masalan, mavsumiy foydalaniladigan mashinalarni uzoq muddat saqlanadigan garaj-lombardlarda, katta sig'imga ega uzoq muddatli to'xtash joylari sifatida eng yaroqli hisoblanadi.

7.4. AVTOTO'XTASH JOYLARI

Shaharda avtocabillarni doimiy saqlash uchun (turarjoy kichik tumanlarida va yirik noturarjoy hududlarida) garaj-to'xtash joylaridan tashqari ommaviy tashrif buyuriladigan joylar yaqinida umumiyo foydalanishdagagi qisqa muddatli to'xtash joylari zarur.

Doimiy garajlardan farqli ravishda qisqa muddatli to'xtash joylari ga asosiy talablar – haydovchi uchun avtomobilning yengillashtirilgan sharoitlarini va, ayniqsa, avtomobilni to'xtash joyidan yo'lga tez va to'siqsiz olib chiqishi sharoitlarini ta'minlashning zarurligidadir. Bu ma'noda chiqib ketishning uzun tranzit yo'llarini istisno qilish yoki cheklash bilan bog'liq, shuningdek, avtocabillarni qiya burchakli joylashtirishning mumkinligini ta'minlovchi qarorlar diqqatga sazovordir. Bundan tashqari, individual avtopark uchun qisqa muddatli umumshahar to'xtash joylari, odatda, davlat avtoxo'jliklari yengil avtocabilla-rining umumshahar to'xtash joylaridan alohida qurila olmagani uchun bunday to'xtash joylari doimiy garajlarga nisbatan turli markadagi va turli gabaritdagagi mashinalarni joylashtirish talabini qanoatlantirishi kerak. Ochiq to'xtash joylarida avtocabillar orasidagi masofa yopiq xonalarda saqlanadigan mashinalar orasidagi masofadan 10% katta bo'lishi kerak.

Qisqa muddatli to'xtash joylari uchun o'ziga xos bo'lgan bu tablardan tashqari bu yerda barcha shahar garajlari va to'xtash joylari uchun umumiyo bo'lgan yer uchastkalarini tejash va transport harakatini piyodalar harakatidan ajratish bo'yicha talablar kuchda qo'ldi.

Umumiyo foydalanishdagagi shahar qisqa muddatli avtoto'xtash joylarini qurishning quyidagi eng keng tarqalgan hollari ajratilishi mumkin:

- yer sathidagi ochiq maydoncha ko‘rinishidagi tekislik;
- turli vazifadagi janioat binolarining yer to‘lalaridagi yerosti;
- shahar ko‘priklariga va boshqa yo‘l-transport inshootlari yaqinida qurilgan.

7.4.1. Ochiq tekis to‘xtash joylari

Ochiq tekis to‘xtash joylari eng oddiy yechim hisoblanib, ammo shu bilan birga yer hududlaridan foydalananishda eng kam tejamlidir. Bunday qaror qabul qilinganda avtomobililar to‘xtab turishi uchun uchastkaning umumiy yuzi shaharni avtomobillashtirishning yuqori darajasida korxona yoki muassasa egallaydigan uchastka yuziga teng bo‘lib qolishi mumkin. Tekis ochiq to‘xtash joylari ularning sig‘imi uncha katta bo‘limganda va ularni qurish mazkur hududning rejaviy tashkil etilishini buzmaganda o‘zini oqlaydi. Amaliy jihatdan, yirik ochiq to‘xtash joylari mavjud bo‘lgan va boshqa maqsadlar uchun foydalanimaydigan qattiq qoplamalgi maydonlarni ma’lum bir muddatga moslashtirish yo‘li bilan tashkil etilishi mumkin, lekin bunday inshootlarni shaharda maxsus qurishdan ochish kerak.

7.4.2. Jamoat binolarining yer to‘lalaridagi qisqa muddatli to‘xtash joylari

Shahar ko‘priklariga chiqaverishdagi avtoto‘xtash joylarini mashinalarning kirishi va chiqishi asosiy transport oqimini to‘xtatmasdan mumkin bo‘lganda qo‘llanilishi mumkin. Amalda shahar ko‘priklariga chiqaverish ostida tuproq ko‘tarmasi o‘rniga ko‘priknинг har bir tomonidan taxminan 100 o‘rinli sig‘imda, ularni ikki sathda joylashtirib tashkil etish mumkin, chunki ko‘prika chiqaverishdagi odadagi balandlik (transportning o‘tishi uchun minimal ko‘priosti gabariti bilan aniqlanadigan 4.5m), shuningdek, ko‘chaning qatnov qismidagi uncha katta bo‘ligan qiyaliklar (odatda 0,5%) va ancha katta kenglik (14m va undan ortiq) pastki qavatda uzunligi 90m gacha va yuqori qavatda uzunligi 30m gacha bo‘lgan joy olishga imkon beradi.

Avtoto'xtash joylarini jamoat binolariga tutashtirib qurish va yirik shaharda muqarrar bo'ladigan sun'iy inshootlar ularning xilma-xilligi ravshan bo'lgani uchun umumiy bo'la olmaydi. Umumiy yechimlarni ishlab tayyorlash uchun yerusti va yerosti qisqa muddatli avtoto'xtash joylarini shahar ko'chalari bo'yicha tashkil etish ancha ma'quldir.

Loyixalash amaliyotida qo'haniladigan shaxsiy avtopark uchun garajlar va to'xtash joylari bo'yicha qarorlarni qarab chiqish natijasida bu inshootlarning aksariyat ko'pchiligining sig'imini oshirish hozirgi vaqtida maqsadga muvofiqligini ko'rish mumkin.

Shaxsiy avtopark uchun garajlar va to'xtash joylarini loyihalash tajribasi va qurish amaliyoti umumiy echimlarni tanlash uchun foydali material beradi. Shu bilan birga, ommaviy qurilish nuqtai nazaridan asosiy qurilish parametrlarining har xilligi, ya'ni to'xtash joylari va ichki o'tish yo'llarining eni, ustun to'rlarining o'lchamlari, har xilliga yo'l qo'yib bo'lmasligi, shuningdek, avtomobilning hisohiy gabaritlari va manevrchanligiga, uni saqlash va xizmat ko'rsatish sharoitlariga turlicha yondashish o'ziga diqqatni jalb etadi.

Nazorat savollari:

1. Har qanday avtoto'xtash joyining hisobdag'i sig'imi qanday omillarga bog'liq bo'ladi?
2. Garajlar va to'xtash joylarining zaruriy sig'imi qanday aniqlanadi?
3. Yer hududlarini avtoto'xtash joylari qurilishiga zaxiralash nimaga bog'liq?
4. Shaxsiy avtomobilarning saqlash joylari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti qanday aniqlanadi?
5. Yirik shahar sharoitlariga nisbatan garaj yoki to'xtash joyining maqbul turini aniqlash nimaga bog'liq?
6. Mexanizatsiyalashgan yerosti garajlari qanday qulayliklarni ta'minlaydi?
7. Kirish va chiqish rampalari soni nimadan kelib chiqib belgilanadi?
8. Turarjoy uylari ostidagi garajlar – to'xtash joylari qanday afzallikkarga ega?
9. Qisqa muddatli to'xtash joylariga qanday asosiy talablar qo'yiladi?
10. Ochiq tekis to'xtash joylarining asosiy afzallikkları va kamchiliklari nimada?

8. SPORT INSHOOTLARI

8.1. SPORT INSHOOTLARI TASNIFI

Sport inshootlari asosan o'rgatish va mashq qilish uchun mo'ljalangan bo'lib, unga o'quv-mashq, tomoshabinlar ishtirokida musobaqalar o'tkazish, namoyish qilish va umumiy jismoniy tayyorgarlik o'tkazish, faol dam olish uchun mo'ljallangan inshootlar ham kiradi. Shu bilan birga, inshootning asosiy vazifasi o'zgarishi ham mumkin, chunki musobaqalardan bo'sh vaqtda namoyish qilinuvchi inshootlar odatda o'quv-mashq qilish mashg'ulotlari uchun yoki faol dam olish uchun foydalaniladi.

Bolalar uchun sport inshootlariga biz o'Ichamlari va jihozlar bo'lalarning o'quv-mashq mashg'ulotlari, musobaqalar o'tkazishga yoki faol dam olishlariga mo'ljaliangan qurilmalarni kiritamiz (masalan, bolalar basseym, bolalarning sport shaharchasi).

Sport inshootlari tarkibiga asosiy, yordamchi inshootlar va xonalar, namoyish qilinadigan sport inshootlariga undan tashqari tomoshabinlar uchun xonalar va inshootlar majmni kiradi.

Asosiy inshootlar jismoniy tarbiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, o'quv-mashq qilish mashg'ulotlari va sog'lomlashtirish ishlari yoki musobaqalar uchun mo'ljallangan.

Yordamchi xonalar, inshootlar va hududlar sport bllan shug'ullanuv-chilarga xizmat ko'rsatish uchun (yechinish, yuvinish, massaj qilish xonalarini va boshqalar), namoyish qilish inshootlaridagi tomoshabinlarga xizmat ko'rsatish uchun, shuningdek, sport inshootlaridan foydalanish uchun mo'ljallanadi.

Sport inshootlari ochiq va usti berk bo'ladi. Usti berk deb shunday inshootlarga aytildiki, ularda asosiy mashg'ulotlar yopiq xonalarda (sport zallari, yopiq basseynlar va boshqalarda) o'tkaziladi. Ochiq inshoot deb esa, asosiy mashg'ulotlar ochiq havoda o'tkaziladigan in-

shootlarga aytildi. Ochiq sport inshootlari, odatda, asosiy ochiq inshootlardan va pavilonlar yoki minbarlar ostida joylashgan yordamchi xonalardan (masalan, ochiq vannali va yordamchi xonalar uchun paviloni bo'lgan basseyn, ochiq sport yadrosi va fazoda yordamchi xonalari bo'lgan stadion) iborat bo'ladi.

Sport inshootlari sport turlariga bog'liq xolda ularning funksional vazifasiga ko'ra (suzish basseyni, suvgga sakrash uchun basseyn, futbol maydoni va boshqalar), shuningdek, mansubligiga ko'ra (umuman shaharda yoki turarjoy tumanida yashovchilar uchun inshootlar, mabitab inshootlari va boshqalar) tasniflanadi.

Alovida sport inshootlari bitta sport turi uchun (bokschilar zali, voleybol maydoni va boshqalar) yoki qurilmani almashtirish mumkin bo'lganda bir necha sport turlari uchun (sport o'yinlari turlari va gimnastika uchun ko'p maqsadli zal, xokkey va figurali uchish uchun muz maydoni) mo'ljallangan.

Kompleks sport inshootlari hududining umumiyligi bilan birlashtirilgan yoki bitta binoda joylashtirilgan bir necha alovida hududlardan iborat (doiraviy yugurish yo'lagi bo'lgan futbol maydoni, sport yadrosi va h.).

Sport inshootlarining o'lchamlariga, shaharsozlik talablariga, moddiy boyliklarning to'planganligiga, jihozlariga va amortizatsiya omillariga bog'liq holda sport binolari va inshootlari to'rtta sinfga bo'linadi. I sinfga yuqori talablar qo'yiladigan inshootlar kiradi; IV sinfga esa minimal talablarni qanoatlantiruvchi inshootlari 1- razryadli sportchilarning o'quv-mashq jarayonini to'la ta'minlashi, shuningdek, mintaqaviy respublika, xalqaro musobaqalarning o'tkazilishini ta'minlashi kerak. II sinf inshootlari 2- razryadli sportchilarning o'quv-mashq jarayonini, shuningdek, mintaqaviy (viloyat miqyosidagi) musobaqalarning o'tkazilishini ta'minlashi kerak. III sinf inshootlari 3- razryadli sportchilarning o'quv-mashq o'tkazish jarayonini, shuningdek, viloyat, shahar miqyosidagi musobaqalarni o'tkazishni ta'minlashi kerak. 8.1.- jadvalda sport inshootining sinfini aniqlashga imkon beruvchi belgilari ko'rsatilgan.

Turli sinfdagi sport inshootlarining tavsifi

Nomi	Asosiy ko'rsatkichlar	Inshoot sinfi		
		I	II	III
Stadionlar	Minbarlardagi o'rinalar soni, ming	40 dan ko'proq	30-40	20-30
Sport saroylari	Tomoshabinlar uchun o'rinalar soni, ming	14	12	10
Universal sport zallari	Sun'iy muzli arena-minbarlar, ming o'rin	36x70 i 30x61 3,0	30x61 m 1,5-3,0	30x61 m -
Yengil atletika maneji	Doiraviy yo'lak, m To'g'ri yo'laklar, m Minbarning sig'imi, ming o'rin	200 4x125 1,0	150-200 3x100 -	150 2x80 -
Suzish uchun basseynlar	Yopiq vannalar zal bilan, m Yopiq va ochiq vannalar Minbarlar, o'rin	25x14,5 50x21 500	- 50x21 -	- 25x11 -

8.2. SPORT INSHOOTLARI MINBARLARINING KONSTRUKSIYALARI

Minbarlarni loyihalashda ularning turlari, o'lchamlari, shakllari, konstruksiyalarini tanlash, sig'imi aniqlash, me'yorida ko'rinishni ta'minlash va boshqalar talab etiladi. Tomoshabinlar uchun minbarlar ochiq va ustidagi sport inshootlarida jihozlanishi mumkin.

Minbarlarning shakli va ularning konstruksiyalari aholining miqdoriga, sport turining ommaviyligiga, shuningdek, musobaqalarning miqyosiga bog'liq xolda tanlab olinadi (8.2.- jadval).

Har bir alohida xolda loyihalashga berilgan topshiriqda minbarlarning sig'imi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Aholining soniga bog'liq xolda (shaharlar va shahar tusidagi qo'rg'onlar uchun) minbarlarning tavsiya etiladigan sig'imi

Aholi soni, ming kishi	1000 aholiga o'rinnlar soni	
	Futbol va yyeng'il atletika uchun arenalarda	Qo'l o'yinlari va xokkey arenalarida
25	150	15
50	100	8
100	75	7
250	55	6
500	40	5

Minbarlarning turlari ularning qurilishi va konstruksiyasi (statsionar va o'zgaruvchan, yer tuproqfi, temirbeton), minbarlarning joylashishi, shuningdek, ularning shakliga va h.larga bog'liq xolda farq qilinadi. Minbarlarning shakli, rejasи va sport arenasiga nisbatan joylashishiga ko'ra, bir, ikki, uch va berk bo'lishi mumkin.

Dunyo tomonlari bo'yicha mo'ljalni hisobga olib, minbarlar shimoliy (amfiteatri shimolga qaragan), janubiy va h. deb ataladi. Shimol va sharqqa qaragan amfiteatrli minbarlarga afzallik berish kerak, chunki kechki soatlarda ularga quyoshning ko'zni qamashtiruvchi nurlari tushmaydi.

Maqbul shakldagi minbarlar deb musobaqalarning mazkur turi uchun eng yaxshi ko'rinishni ta'minlovchi uchastkalardagi qatorlarning eng katta miqdoriga ega bo'lgan minbarlarga aytildi. Masalan, sprinterlik masofalarga yugurish musobaqalarida finish qarshisidagi qatorlar soni orttiriladi va boshqalar.

Tomoshabinlarning joylarini yugurish yo'llari chegaralaridan va sport inshooti xavfsizlik hududlaridan tashqarida joylashtirish kerak. Minbarlarda bir kishiga o'rinnarning o'lchovlarini quyidagicha qilib qabul qilinadi:

chuqurligi – 30-35 sm;


eni – 42-45 sm;

qatorining chuqurligi (o'tish yo'lli va o'tirish o'rni) – 75-85 sm.

Hakamlar lojasи va matbuot uchun o'rinnlar 500 va undan ortiq o'rinnli usti yopiq minbarli sport inshootlarida, qo'l o'yinlari va shay-

bali xokkey o'yinlari uchun 2500 va undan ortiq o'rinali minbarlarda, shuningdek, ochiq futbol maydonlarida va 5000 hamda undan ortiq o'rinali minbarlari bo'lgan sport yadroasi qoshida tashkil etiladi.

Qatorlarning ko'tarilish qiyaligini hisoblash orqali aniqlanadi. Bunda qiyalik 1:1,45 dan ortiq bo'lmasligi kerak. Chunki qiyalik ortirilganda tomoshabinlarni minbarlarga o'tqazish va chiqarish uchun zinapoyalarni loyihalashda qiyinchiliklar paydo bo'ladi.




8.1.- rasm. Tokiodagi Olimpiya stadionining sport arenasi:

- 1- balandlikka sakrash; 2- langarcho'p bilan sakrash; 3- disk uloqtirish; 4- molot otish; 5- uzunlikka va uch karra uzunlikka sakrash; 6- yadro irg'itish; 7- nayza uloqtirish; 8- 110m ga start; 9- 100m ga start; 10- 80m ga start; 11- 20km ga start; 12- 3000m ga start; 13- marafonga start; 14- barcha masofalariga yugurish finishi; 15- 1500m ga start; 16- 200 va 5000m ga start; 17- futbol maydoni (a harfli raqamlar tegishli sport turi bo'yicha tomoshabinlar uchun o'rinalarning joylashuvini belgilaydi, masalan, 1a- balandlikka sakrash bo'yicha musobaqalarda tomoshabinlar uchun o'rinali); 18- futbol bo'yicha musobaqalarda tomoshabinlarning chegaraviy uzoqlashishi sharoitlaridan minbarlarning chegarasi.

Sport arenalarining minbarlari shaklini berilgan sig‘im va optimal ko‘rinish sharoitlariga bog‘fiq holda belgilanadi. 8.1.- rasmida stadionning sport arenasida turli xil sport turlari bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazishda tomoshabinlar uchun o‘rnlarning eng maqbul joylashishi sxemasi ko‘rsatilgan.

Shu sxemadan foydalaniib 8.2- rasmida stadionlarning sport arenalari minbarlari shakllarining keng tarqalgan yechimlari variantlari ko‘rsatilgan.



8.2.- rasm. Stadionlar start arenalarining minbarlari shaklining variantlari:


a- ko‘rinishning optimal sharoitlarini ta‘minlashga mo‘ljallangan egri chiziqli shakllar; b- soddalashtirilgan shakllar; 1- bir tomonlama; 2- ikki tomonlama; 3- uch tomonlama; 4- to‘rt tomonlama (simmetrik); 5- to‘rt tomonlama (nosimetrik); 6- ikki tomonlama (nosimetrik).

Bir tomonlama minbarlar o‘rinlar miqdori 5 mingtagacha bo‘lganda barpo etiladi (masalan, barcha masofalarga yugurish uchun finishi joylashgan yugurish yo‘lagi qismi bo‘ylab). O‘rinlar soni 50-100 ming bo‘lgan minbarlarni arenaning butun perimetri bo‘yicha joylashtirishga to‘g‘ri keladi.

Assimetrik va bir tomonlama minbarlar tomoshabinlar uchun eng yaxshi sharoitlarni ta‘minlash, relyefning xususiyatlarini hisobga olish va boshqalar uchun foydalilanildi. Ma’qul mo‘ljalga ega bo‘lgan minbarlarda (shimolga, yoki sharqqa), shuningdek, joyning tabiiy sharoitlari ularni qurishga qulaylik tug‘dirganda (tabiiy amfiteatrlar, qulay gruntlar va boshqalar) eng ko‘p o‘rin ta‘minlanadi.


Konstruksiyalarning tayanish usullariga bog'liq holda bevosita gruntu joylashgan tuproqli minbarlar va mustaqil tayanch konstruksiyalardagi minbarlar farqlanadi.

Ochiq sport inshootlari minbarlari minbarosti xonalariga yoki ochiq galereyalarga va zinapoyalarga, hינוя soyabonlariga ega bo'lishi mumkin (8.3., 8.4.- rasmlar).



8.3.- rasm. Minbarlarning konstruktiv yechimlari namunalari:

- a- Syurixdag'i osilma soyabonli temirbeton minbarlarning konkurs loyihalari;*
- b- G'arbiy Berlindagi fazoviy panjarasimon plita ko'rinishidagi po'lat soyabonli temirbeton minbarlar (rekonstruksiya); v- po'lat fermalardan osilma soyabonli temirbeton minbarlar; 1- tuzllishi; 2,3- ustunlar; 4- tirkaklar.*




8.4.- rasm. Temirbeton minbarlarning variantlari:

a- yopmasi to'lqinsimon alyuminiydan bo'lgan po'lat fermalar bo'yicha soyabonli va temirbeton elementli tayanchlari bo'lgan Mexikodagi stadion minbarlari, b- Monrealdagi Olimpiya stadionining monolit temirbeton minbarlari.

8.2.1. Tuproq qiyaliklardagi minbarlar

Tabiiy yoki sun'iy tuproq qiyaliklarida joylashgan minbarlar zinapoyali beton asosga, beton, tosh yoki yog'och ustunlarga o'tqaziladi (8.5.- rasm). Minbarlar asosining gorizontal uchastkalariga suv oqib ketishi uchun qiyalik berish zarur. Bevosita gruntda joylashgan minbarlar ko'pincha ko'kalamzorlashtirilgan yer qiyaliklarida chiroyi tarzda joylashgan yuklash va evakuatsiya qilish yo'llari bilan jihozlanadi.

Tuproqli minbarlar odatda shamol o'tkazuvchi ko'p qavatli inshootlar bilan to'ldiriladi, ularga zarur yordamchi xonalar va qurilmalar joylashtiriladi.




8.5. – rasm. Gruntli asosdagи minbarlarning konstruksiyalari:

a- kapital turdagи; b- o'shaning o'zi; soddalashtirilgan turdagи; 1- monolit temirbeton; 2- drenajlanuvchi asos; 3- yig'ma temirbeton elementlar; 4- temirbeton (tosh, beton, metall) ustunlar; 5- maxsus qorishmalar (asfalt-beton, tosh yoki beton plitalar); 6- drenajlovchi qatlam; 7- zichlashtirilgan grunt; 8- tirkak devor; 9- skameykalar uchun ustunlar (yog'och, beton va boshqalar)

Tuproqli minbarlar ko'pincha soyabonsiz barpo etiladi, lekin ularni qurish imkoniyati istisno etilmaydi. Myunxendagi Olimpiya stadioni tuproq minbar ustidagi vantli konstruksiyalar soyabonlarning o'ziga xos echimi bo'lib, unda soyabonlarni ko'taruvchi troslar balandligi 70m bo'lgan ko'priklarga mahkamlangan (8.6.- rasm).

Agar minbarning pastki qismi gruntu joylashgan bo'lsa, yuqori qismi esa temirbeton yoki boshqa konstruksiyalardan quriladi. Ayniqsa sport arenasi yer sathidan chuqurlikda joylashganda soyabonlarni minbarlarning aralash konstruksiyalarida ham qurish mumkin.



8.6.- rasm. Myunxendagi Olimpiya stadioni markaziy sport arenasi soyaboning vantli konstruksiyasi (arxitektorlar G. Beytel va G.Teygeriy):
1- Metall machtalar; 2- ko'taruvchi troslar; 3- barqarorlashtiruvchi tros.

8.2.2. Yog'och minbarlar

Yog'och minbarlar sig'imi 5000 kishigacha bo'lgan juda qisqa muddatga asosan ular vaqtincha amal qlladigan hollarda quriladi. Ularning konstruksiyasi yog'och materiallarini minbarlar buzilganidan so'ng foydalanish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

8.2.3. Temirbeton minbarlar


Konstruksiyalarga har qanday xohishdagi shaklni berish imkoniyati, mustahkamligi va yonmasligi minbarlar uchun muhim bo'lib, ularning ko'pchiligi temirbetondan qilinadi. Shuningdek, yig'ma temirbeton, ayrim hollarda zo'riqtirilgan – armaturali konstruksiyalar qo'llaniladi.

Barcha zarur xizmatchi va yordamchi xonalarni joylashtirish uchun minbarlar ostidagi bo'sh joylardan foydalanish masalasi muhim hisoblanadi. Tomoshabinlarni quyosh nurlaridan va yomg'irdan himoya qilish uchun minbarlar tomlar bilan ta'minlanadi. Tomlar odatda minbarlardan ko'rishga xalaqit bermasligi uchun konsolli qilinadi.

Temirbeton minbarlarda ko'pincha ko'p yarusli echimlar qabul qilinadi. Temirbeton minbarlarning eng oddiy konstruksiyalari bo'lib ustiga tomoshabinlarning o'rindiqlari joylashtirilgan, ustunli tizim, ko'taruvchi to'sinlar, tutib turuvchi plitalar hisoblanadi.

Barpo etilgan minbarlarning ko'pchiligidagi monolit konstruksiya qo'llanilgan bo'lib, unda ustunlar va tutib turuvchi to'sinlar o'zaro bikr biriktirilgan va romli tizimni tashkil etadi (8.7.- rasm). Qoliplarni tejash uchun minbarlardagi o'rindiqlar tayyor temirbeton elementlardan ishlaniishi mumkin.


Minbarning tomi ko'ndalang romlar tekisligida joylashgan konsol-larga ega. Bu konsollarga tom yopmasi qubbalarini tayanadi.




8.7.- rasm. Monolit temirbeton minbarlarning konstruksiyalari

Ko'p yarusli romli minbarlarning konstruksiyasi bir yarusli minbarlarnikidan ancha murakkab. Oddiy ko'rinishda ko'p yarusli minbarlar og'ma to'sin kosourlardan tashqari minbar ostidagi fazoning qavatlararo yopmalarining ko'taruvchi elementlari sifatida xizmat qilib joylashgan gorizontal to'sinlar qatoriga ega romli konstruksiya bilan tutib turiladi (*8.8.- rasm*).

Balandligi juda katta bo'lgani uchun bunday minbarlarning konstruksiyalari ko'ndalang yo'nalishida kuchli rivojlanadi va rejada juda ko'p joyni egallaydi. Shuning uchun rejada minbarlar egallaydigan maydon yuzini qisqartirish uchun gorizontal va qiya to'sinli, shuningdek, tomoshabinlar uchun o'rindiqlar joylashtiriladigan konsolli to'sinli ko'p qavatli romlarning yanada murakkab sxemalari qo'llaniladi.



8.8.- rasm. Yig'ma temirbetondan minbarlar konstruksiyasi.




8.9.- rasm. Konsolli to'sinli ko'p qavatli ko'rinishidagi minbarlar konstruksiyalari.

Minbarlar ostidagi fazo (bo'shliq) to'la ravishda xizmatchi xonalarni joylashtirish uchun mo'ljallanadi.

Romli minbarlar konstruksiyalarining o'ziga xos detallari (to'sinlar kosourlar) odatdagи temirbeton konstruksiyalar kabi armaturalanadi. Minbarlarning ustunlari to'sinlar bilan bitta bikr butun qilib biriktiriladi.

Minbarlar konstruksiyasi 15-20m dan 30-40m gacha masofada joylashgan temperatura choklari bilan ajratiladi.

Oldindan zo'riqtirilgan temirbetonning keng qo'llanilishi munosabati hilan undan minbarlar konstruksiyasida ham foydalaniladi (*8.10.-rasm*).



8.10.- rasm. Oldindan zo'riqtirilgan temirbeton qo'llanilgan minbarlar konstruksiyalari


Konsolli qismli romlarning o'rta va yuqori to'sinlari oldindan zo'riqtirilgan armaturaga ega. Yig'ma konstruksiyalarning afzalliklari bir turli elementlar ko'p miqdorda mavjud bo'lganda aymiqsa muhimdir, ular katta stadionlarning minbarlarida to'la foydalanimishi mumkin.

Temirbeton minbarlarning konstruksiyalari to'la yig'ma bo'lishi yoki monolit temirbeton qisman ishlangan bo'lishi mumkin.

Qisman yig'ma konstruksiyalarda, avvalo, tomoshabinlar o'rinnarini yig'ma qilinadi. Ko'pincha karkas to'sinlari va ustunlari yig'ma qilib ishlanadi. Poydevorlar, odatda, monolit qilinadi.


Zinalar plitasini ko'pincha kosouarlarning tishli sirtiga yotqiziladigan uchburchakli bloklardan tayyorlanadi (*8.11.-rasm*). Kosouar

bloklari o‘zaro va ustunlar bilan joyida monolitlanadigan choklar bilan bog‘lanadi.



8.11.- rasm. Zinalar plitasi va armaturalash


Minbarosti fazosi (bo‘shliqlari) ko‘pincha ochiq galereyalar va yopiq xonalar shaklida quriladi. Bunday yechimlar, ayniqsa, janubiy tumanlar uchun maqsadga muvofiqdir. Janubiy hududlarda ochiq galereyalarning qurilishi sport inshootining individual qiyofasining yaratilishiga imkon beradi (8.12.- rasm).



8.12.- rasm. Stadion markaziy sport arenasining minbarosti fazosidagi galereyalar (Tokio)

Ko'p qavatli va minbarosti fazolari zinapoyalar, passajir va yuk liftlari, eskalatorlar va boshqalar bilan jihozlanadi.

Minbarlarning tayanch konstruksiyalari sifatida zavodda tayyorlangan temirbeton yig'ma elementlardan keng foydalaniadi (8.13.-rasm). Tayanch konstruksiyalarni, shuningdek, metall to'sinlar bo'yicha ham o'rnatiladi (8.14.-rasm).




8.13.- rasm. Yig'ma temirbeton elementlardan qurilgan minbarlar:

1- kosaur; 2- tayanch; 3- minbar plitasi; 4- zinapoyani tashkil etuvchi zinalar;
5- kreslo; 6- tayanch elementi

Ostida xonalar joylashgan ochiq minbarlarning gidroizolyatsiyasi muhim muammo hisoblanadi. Minbar ostidagi xonalarning ekspluatatsion sifati va har yillik ta'mirlashga ketadigan xarakatlarning kattaligi, bu muammomi hal qilishga ko'p jihatdan bog'liqidir.

Gidroizolyatsiyani minbarlarning bevosita konstruksiyalari ustiga yotqizish tavsiya etilmaydi, chunki u tomoshabinlarning oyoqlari ostida tez buzilib ketadi. Bundan tashqari, bunday echimda yuk ko'taruvchi konstruksiyalarga mahkamlangan yig'ma elementlar va kreslolarning tayanchlari choclar o'tgan joylarda ishonchli gidroizoliyatsiyani ta'minlashi qiyin.

Minbarlarning do'ngligi ustidan gidroizolyatsiya qurishda faqat mustahkam hidrofob materiallarni (plastmassa, shlmdirilgan shisha matolar va boshqalar) qo'llash lozim.




8.14.- rasm. Temirbeton va metall kosaurlar bo'yicha yig'ma temirbeton elementlardan qurilgan minbarlarning konstruksiyalari:

a- to'g'ri to'rtburchak minbar ($N \times 6,0$ va $Nx6,0$); b- egri chiziqli minbar; v-minbarosti xonalari ustidagi yopmasi alohida konstruksiyalni minbar; g- minbar konstruksiyasini minbarosti fazosining yopmasi bo'lib xizmat qiladi; 1- minbarlarning temirbetondan qilingan yig'ma "plitalari" 2,3- temirbeton va metall kosaurlar; 4- metall stolcha; 5- sement qoplama; 6- shimdirligani shishamato, yelimlanadigan gidroizolyatsiya; 7- temirbeton plita; 8- himoya qoplami, plitkalar, armaturalangan devor; 9- polimer gidroizolyatsiya materiallari, asfaltbeton; 10- o'rnatiladigan detallar; 11- metall burchakliklar $60 \times 60 \times 60$; 14- reykalar (yog'och, plastik); 15- shveller; 16- yopmani osish uchun armatura; 17- isitgich; 18- sement qoplama (n , N - oraliqlar soni).

Minbarlarni gidrofob qo'shimchalari bo'lgan va choklari monolitlangan suv o'tkazmaydigan betonlardan, xususan, o'z-o'zini zo'riqtiradigan temirbetondan qurish ancha ishonchlidir.

8.2.4. Metall konstruksiyali minbarlar

Stadionlarning minbarlarida metall konstruksiyalar asosan ularning yuk ko'tarib turuvchi to'sini uchun, shuningdek minbarlar ustidagi tom va soyabonlarni tutib turish uchun qo'llaniladi. Minbarlarning metalldan qilingan yuk ko'taruvchi to'sini ustunlardan va ularga tira-lib turuvchi og'ma to'sinlar – kosaurlardan tashkil topadi. Ustunlar o'zaro bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishda bog'lanishlar tizimi bilan bog'lanadi. Minbarlarni tutib turuvchi ko'taruvchi konstruksiya panjarasimon shaklda ishlanishi mumkin. Zinasimon sirt temirbeton plitali konstruksiya ko'rinishida qilinadi. Ayrim hollarda minbarlarning sirti po'lat listdan qilinadi (8.15.- rasm).



8.15.- rasm. Metall konstruksiyalardan tayyorlangan minbarlar

8.2.5. Minbarlar konstruksiyasini hisoblash uchun ma'lumotlar

Minbarlarning ko'taruvchi konstruksiyalari har qanday mas'uliyatli konstruksiyalar kabi mumkin bo'ladigan barcha yuklanishlarning eng qulay bo'lganiga qo'shilishlariga hisoblangan bo'lishi kerak.

Minbarlarni hisoblashda asosiy yuklanishlar quyidagilar:

- 1- minbar elementlarining xususiy og'irligi;
- 2- tomoshabinlar tushadigan yuklanish;

3-qor yuklanishi.

Bundan tashqari qo'shimcha:

1- shamol bosimi;

2- temperatura o'zgarishlarining ta'siri;

3- tayanchlarning o'ta cho'kishi ta'siri;

Loyihalash me'yorlariga ko'ra tomoshabinlar minbarlarga tushadi-gan yuklanish 400 kg/m^2 ga teng deb olinadi.

Tomoshabinlarning minbarlarga dinamik ta'sirini hisobga olib yuklanishni 600 kg/m^2 atrofida qabul qilish to'g'riroq bo'ladi. Qor va shamol yuklanishini umumqurilish me'yorlari bo'yicha qabul qilish lozim. Seysmik hududlarda minbarlarning konstruksiyasi seysmik ta'sirlarga ham hisoblanadi.

8.2.6. Stadionlarning minbarlarini qurish

Stadionlarning minbarlarini qurish yer qazish ishlarini, monolit temirbeton konstruksiyalarini tayyorlashni, yig'ma temirbeton yoki metall konstruksiyalarini montaj qilishni talab etadi. Grunt bo'sh bo'lganda minbar poydevorlari ostiga qoziqoyoq asoslar quriladi.

Gruntli minbarlar qurishda gruntni yaxshilab zichlashtirish kerak bo'ladi.

Monolit temirbeton minbarlarni qurishda katta hajmdagi ishlar: havozalar va qoliplarni barpo etish, armaturani montaj qilish betonlash va boshqalar bajariladi.

Yig'ma konstruksiyalar minorali kranlar yordamida montaj qilinadi. Minbarlarning perimetri bo'ylab yotqizilgan yo'llar bo'yicha harakat-lanuvchi minorali kranlarning qo'llanishi maqsadga muvofiqdir.

8.3. BASSEYNLAR

8.3.1. Umumiy ma'lumotlar

Bitta yoki bir necha vannadan, shuningdek, yordamchi xonalardan tashkil topgan bino yoki inshootlar majmui basseyn deyiladi. Sport

basseynlari rejada qat'iy belgilangan shakl va o'lchamlarga ega bo'llishi kerak. Sport basseynlari usti yopiq yoki ochiq bo'ladi va har doim tomoshabinlar uchun minbarlari bo'ladi.

Isitiladigan, devorlari va yopmalari barqaror konstruksiyali bo'lgan xonada joylashgan vannalar bo'lgan basseyn yopiq basseyn deyiladi. Vannalar joylashgan xonalar basseynning asosiy zali deyiladi.

Ochiq basseynlarda vannalar ochiq hududda joylashtiriladi. Ular yozgi suvi isitiladigan, suzib chiqish yo'llari bo'lgan, shuningdek, qishga qayta yopib qo'yiladigan basseynlarga bo'linadi. Suzib chiqiladigan joy, bu – ochiq vannani issiq yechinish xonalari bilan birlashtiruvchi kanal bo'lib, u orqali shug'ullanuvchilar yechinish xonasidan vannaga va, aksincha, suzib chiqishlari mumkin.

Yozgi basseynlar yilning issiq paytlarida foydalaniladi.

Suvi isitiladigan, issiq yechinish xonalari va yechinish xonasidan vannaga suzib chiqiladigan ariqlari bo'lgan basseynlar yil bo'yi foydalaniladi, bunda vanna qishda ham, yozda ham ochiq holda qoladi. Qishda usti yopiladigan vannali basseynlar yilning issiq paytida ochiq basseyn tarzida, qishda esa yopiq basseyn tarzida foydalaniladi.

Asosiy zallari konstruksiyalari o'zgartiriladigan, bir necha minut mobaynida basseyn vannasining ustini ochish yoki yopish imkonini ta'minlovchi basseynlar barcha ob-havo sharoitiga mos basseynlar deyiladi.

Bir hududdan boshqa hududga ko'chirish mumkin bo'lgan (yig'ina-ajraluvchi konstruksiyalar majmui, yig'iluvchi-ajratiluvchi va ko'chma vannalar va boshqalar) vannalar mobil vannalar deyiladi.

O'quv-mashq qilish mashg'ulotlari va musobaqalar uchun mo'ljallangan basseynlar sport basseynlari turiga kiradi. O'quv basseynlari faqat o'quv mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan.

Aholi cho'milishi uchun mo'ljallangan basseynlar cho'milish basseynlari deyiladi.

Tor, maqsadga yo'naltirilgan vazifani bajaruvchi basseynlar ixtisoslashtirilgan basseynlar deyiladi. Bu guruhga bolalar sakrashi uchun (faqat suvg'a sakrashi uchun), cho'miladigan (faqat cho'milish uchun) va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan basseynlar kiradi.

8.3.2. Basseyн vannalarining shakli, o'Ichamlari, konstruksiyalari va jihozlari

Barcha turdagи basseynlarning asosiy inshootlari cho'milish, o'quv-mashq qilish mashg'ulotlari, suzish, suvgа sakrash va suv polosi bo'yicha musobaqalar o'tkazish uchun mo'ljallangan vannalar hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan vannalar suvgа sakrash yoki suzish va suv polosi, kattalar va bolalar uchun musobaqalar, cho'milish yoki o'quv-mashq qilish mashg'ulotlari uchun quriladi. Sanab o'tilgan suv sporti turlarining barchasi yoki bir nechta uchun mo'ljallangan vannalar universal vannalar deyiladi.

O'quv-mashq o'tkazish va namoyish qilinadigan basseynlarning vannalari shakli, odatda, rejada to'g'ri to'rtburchakli bo'ladi. Bunday rejadan chekinish sakrash uchun ixtisoslashtirilgan bo'lmalmalarni qurishda, bolalarni o'rgatishda bo'lishi mumkin.

8.3.-jadval


Rejadagi o'Ichamlar, m	Vazifasi	Bir yo'la sig'im, odam	
		Vanna bo'ylab suzish	Maksimal
50x25	Suzish, suv polosi	150	150
50x21	va suvgа sakrash	120	120
25x16	bo'yicha o'quv-mashq mashg'ulotlari	60	60
50x16	Suzish, suv polosi	90	100
50x11	va suvgа sakrash	60	100
25x11	bo'yicha o'quv-mashq mashg'ulotlari	40	50
16x8	Asosan bolalar bilan	25	32
12,5x6	suzish bo'yicha va suv polosi elementlarini	12	25
10x6	o'rganish bo'yicha o'quv- mashq mashg'ulotlari	9	20

Sport suzishi uchun oraliq masofa joylashgan vanna devorlari qat'iy ravishda vertikal va bir-biriga parallel bo'lishi kerak.

Sakrashlar uchun mo'ljallangan vannalar shakli sakrashlarning xavfsizligini ta'minlashi kerak. Odatda, vannalar rejada to'g'ri to'rtburchak shaklida quriladi, bu ulardan boshqa maqsadlarda (suzish va suv polosi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari, musobaqalar oldidan suzuvchilarning chigalyozdi mashqlari va h.) foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.


O'quv-mashq o'tkazish va namoyish qilinadigan basseynlarda vannalarning bo'ylama profili shakli talab qilinadigan chuqurlik va tubining qiyaligini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ular tashrif buyuruvchilar uchun chiqarib yuborish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak (8.16. 8.17.- rasmlar).

Vanna tubining suvni chiqarib tashlash uchun maksimal qiyaligi 0,01-0,02 (yaxshisi 0,02). Agar suvning chuqurligi 1,8m dan kam qilib qabul qilingan bo'lsa, u holda qiyalik tashrif buyuruvchilar uchun vanna tubida turish va yurish uchun qulay bo'lishi kerak (lekin 0,05dan ortiq bo'lmasligi kerak). 1,8m chuqurlikda sayozroq tomonga qisqa o'tish uchastkalari $i=0,05:0,1$ gacha qiyalikka ega bo'lishi mumkin.



8.16.- rasm. Mashq qilish va musobaqalar o'tkazish uchun vannalarning bo'ylama profili

h_1 - suvning chuqurligi (1,80m- respublika miqyosidagi musobaqalar uchun va undan yuqori; 1,20m- mahalliy musobaqalar uchun)



8.17.- rasm. Mashq qilish va musobaqalar uchun sakrash uchun minoralariga bo'lgan vannalarning profillari:

h_e - vannaning chuqurligi ($1,80\text{m}$ - respublika miqyosidagi musobaqalar uchun va undan ortiq: $1,20\text{m}$ - mahalliy musobaqalar uchun); h_e , l_1 ya l_2 - 8.4- jadvaldan aniqlanadi; l_1 ya l_2 - ushbu l_p , h_e hning kattaliklariga bog'liq holda


Suvga sakrash moslamalarisiz ixtisoslashtirilgan vannalarning profillari 8.16.- rasmida ko'rsatilgan. l_1 va l_2 kattaliklar l_p kattalikka bog'liq holda aniqlanadi.

Rasmida strelka bilan suvni oqizib chiqarish yo'nalishi ko'rsatilgan (agar suv boshqa tomonga oqib tushsa, u xolda shu yo'nalishda suv chuqurligi h_e ortib boradi). Agar turli xil vazifani bajaruvchi bir necha ixtisoslashtirilgan vannalarni qurish imkoniyati bo'lmasa, u xolda suzish, suv polosi va suvga sakrash bo'yicha o'quv-mashq o'tkazish mashg'ulotlari va musobaqalar uchun yaroqli universal vannalarni qurish tavsija etiladi (8.17.- rasm).

Ko'p maqsadli vazifalarga mo'ljallangan hasseynlarda tubi pastga tushuvchi vannalar quriladi. Ular suvga sakrash, suzishni o'rganishga boshlayotganlar va bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish uchun yaroqlidir.

Vannaning harakatlanuvchi tubi temirbeton yoki metalldan barpo etiladi (8.18.- rasm). Tubni ko'tarish va tushirish surilib chiquvchi

metall tayanchlar yordamida gidravlik domkratlar bilan amalga oshiriladi.



8.18.- rasm. Vannaning harakatlanuvchi tubi:

1- ko'tariluvchi platforma; 2- gidravlik ko'targichning vertikal shtoki; 3- suv sathi; 4- g'altakli va oshiq-moshiqli o'tish platformasi; 5- vannaning tubi; 6- g'altak; 7- oshiq-moshiq; 8- elastik ustquyma; 9- salnik.

Musobaqalar o'tkaziladigan vannaning kengligi yo'lakchalar eniga karrali bo'lishi kerak. Amaldagi qurilish me'yorlariga ko'ra, u 250sm ga teng, chetki yo'laklarining eni 300sm ga teng bo'lishi kerak. O'quvmashq o'tkazish mashg'ulotlari uchun vannalarning kengligini yo'lakchalari uchun 200sm ga teng kengligiga karrali qilib qabul qilish mumkin.

O'lchami 25m va undan ortiq bo'lgan o'quv-inashq o'tkazish vannalarining chuqurligini 0,9m deb qabul qilinadi, sakrash qurilmalari bo'lganda esa 8.4.- jadvalga ko'ra qabul qilinadi. Kichik inaktab yoshidagi bolalar uchun vannalarning chuqurligini 0,6m qilib qabul qilinadi. Start tumbalari yaqinida chuqurlik 1,8m bo'lishi kerak.

O'lchamlari 50x21x25m, chuqurligi 1,8m bo'lgan vannalar razryadli suzuvchilar, suzish va suv polosi bo'yicha musobaqalar uchun eng yaxshi sharoit yaratadi, lekin ular suzishni bilmaydigan bolalar va kattalar bilan mashg'ulotlar o'tkazishga yaramaydi. Bunday o'lcham-dagi vannalar namoyish basseynlari uchun majburiydir.

Vannalarning konstruksiyalari ularning ishonchliligini va ekspluatatsion sifatlarini ta'minlashi kerak.

Vannalar konstruksiyasining mustahkamligi vanna devorlari va tubining suv singdirmasligini saqlagan holda suv va gruntning bosimini tutib turish uchun etarli bo'lishi kerak. Agar vannalar gruntga to'liq kirgan bo'lsa, ular suv va gruntning bosimiga alohida-alohida hisoblanadi.

Konstruksiyalarning suv singdirmasligi suv oqib chiqib ketmasligi, yerosti suvlarining vannaga sizib kirmasligi ehtimolini istisno etishi, vanna konstruksiyalarining va unga yondosh xonalarning me'yorida foydalanish rejimini ta'minlashi, shuningdek, asos gruntlarining himoyasini ta'minlashi kerak. Asos gruntlarini himoya qilish agar vannaning tubi girdobli gruntda yotgan bo'lsa, ayniqsa, muhimdir.

Quvurlar suvosti yoritkichlari va start derazalari o'rnatilgan joylarda suv sizib o'tmaslikni ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, vanna tubi ostida, ayniqsa, tubining qiyaligi o'zgargan joylarda turli xil cho'kishlarni hisobga olgan holda konstruksiyalarining ishonchliligi va suv singdirib o'tkazmasligini ta'minlash muhimdir.


Vannaning konstruksiyalari mexanik ta'sirlarga (koptokning vertikal zarbalari, olinuvchi sport jihozlarini montaj qilish va h.) qarshi chidamli bo'lishi kerak.

Ochiq basseynlarda vannalar konstruksiyalarning atinosfera ta'sirlariga qarshi chidamliligi va sovuqqa bardoshligi, ayniqsa, suv sathi o'zgaradigan joylarda nihoyatda muhimdir. 8.19.- rasmida vannalarning yemirilishini o'ziga xos hollari ko'rsatilgan.

Vanna ichki sirtlari qoplamlarining mustahkamligiga yuqori talablar qo'yiladi; agar bu talabga amal qilinmagan bo'lsa, sinishlar va buzilishlar paydo bo'lib, cho'miluvchilarni shikastlantirishi mumkin.

Vanna devorlarining sirti (qirralari albatta, bo'ylamalari maqsadga muvofiq) suv sathidan kamida 1m chuqurlikka pastga va 30sm yuqoriga qat'iy vertikal bo'lishi kerak. Sirt sirpanchiq bo'lmasligi, o'tkir do'ngliklar, chiqqan joylar, chuqurchalar va teshiklar bo'lmasligi kerak, ular suzuvchi devorga tayanib burilib suzishni davom ettirishda

xalal berishi mumkin. Vanna tubi ham silliq bo'lishi, ammo sirpanchiq bo'lmasligi, chiqiqlar, do'ngliklar va chuqurchalar bo'lmasligi kerak. Vannalarning devorlari va tubi fakturasi vannani qulay yuvish va tozalash imkoniyatini ta'minlashi kerak. Vannaning ichki sirtlarining rangi ochiq tuslarda (oq. och havorang) bo'lishi maqsadga muvofiq, bu vannani to'ldirib turgan suvgaga yoqimli ko'rinishni beradi. Sport-chilarning mo'ljal olishlari qulayligi uchun suvgaga sakrash joylardagi vanna tubiga to'q rang (ko'k va boshqa) beriladi.



8.19.- rasm. Basseynlar vannalarining buzilishining o'ziga xos hollari:



a- tosh va g'isht terilgan joydan; b- xarsang tosh betondan; v- temirbetondan; g- barcha turdag'i vannalarga xos bo'lgan buzilishlar; 1- konstruksiyalardagi darzlar; 2- suv sathidagi suvoqning yorilishi; 3- himoya suvoq yoki qoplama qatlami buzilgan joyda devorlarning buzilishi.

Asos gruntlariga tayanish usullariga ko'ra basseynlar (8.20.- rasm):

- tubi gruntga tiralgan vannali;
- maxsus tayanchlar tutib turuvchi vannali;
- aralash tayanish.

опертыми днищем на грунт

смешенное опирание



Бассейны с ваннами, поддерживающими специальными опорами

8.20.- rasm. Maxsus tayanish usuli bo'yicha vannalarning turlari

Tubi bilan gruntga qisman yoki to'la tayanadigan vannalar materiallar sarfiga ko'ra ancha tejamlidir. Uning kamchiligi konstruksiyalarini ta'mirlash va qarashning qiymchiligidadir (ayniqsa vanna tubini). Shuning uchun bunday turdag'i vannalarni faqat grunt sharoitlari qulay bo'lgan joylardagina qurish lozim. Tayanchlarga o'rnatilgan vannalar chuqurlikka o'rnatilgan vannalarga qaraganda katta qurilish xarajatlarini talab etadi, ammo vannalarning konstruksiyalarini ta'mirlash uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydi.


Qo'llaniladigan materialning turiga qarab, vannalar:

- betondan, yirik toshli betondan va tosh terilgan;
- metalldan;
- temirbetondan bo'lishi mumkin.

Basseyn vannalari konstruksiyalari uchun qo'llaniladigan betoning siqilishga mustahkamligi bo'yicha sinfi V-15 dan kam bo'lmasligi kerak. Beton yaxshilab zichlangan va armaturalangan bo'lishi kerak. Vannaning tubini va devorlarini namlik singib kirishidan saqlovchi ishonchli gidroizolyatsiya katta ahamiyatga ega.


Temirbeton vannalar monolit va yig'ma-monolit konstruksiya li qilib barpo etiladi. Tubi gruntga tayangan chuqurlikka o'rnatilgan temirbeton vannalarning konstruksiyasini, odatda, to'simsiz qilib qabul qilinadi, tayanchlardagi vannalar esa to'sinli qilinadi. Temirbeton vannalar foydalanishda juda ishonchlidir, materialning sarfiga ko'ra esa u, odatda, betonli, yirik toshli betonli va tosh terilgan vannalardan tejamliroqdir.

Vertikal devorli vannalar tubidan va bir-biri bilan monolit bog'langan yoki choklar bilan ajratilgan to'suvchi devorlardan tashkil topadi. Vannaning chet qirralari yerosti suvlaridan biroz yuqorida joylashishi lozim. Vannaning yon devorlari va tubi bir butunni tashkil etadi va burchaklarida bikr tutashuvchi, karrali armaturalangan temirbeton plitalar kabi loyihalashtiriladi. Yon devorlarning va tubi plitasining qalnligi 20sm dan 30sm gacha o'zgaradi (*8.21.- rasm*).




8.21.- rasm. Temirbeton vannaning konstruksiyalari

Ochiq basseyнli vannalarning konstruksiyalari keng tarqalgan, ularda yon devorlari tubidan to'la ajratilgan (*8.22.- rasm*). Buni, bir tomonдан, temperatura o'zgarishlari, asosning notekis cho'kishlari ta'sirida, shuningdek, betonning cho'kishi va siljuvchanligi ta'sirlaridan tubning va devorlarning yanada erkin va mustaqil deformatsiyalarini ta'minlash uchun qilinadi.



8.22.- rasm. Vannaning yon devorlari tubidan to'la ajratilgan.



8.23.- rasm. Tayyor elementlardan vanna konstruksiyasi.


Ikkinci tomondan basseynlar vanna konstruksiyasining choklar bilan alohida bloklarga ajratilishi, bu konstruksiyani tayyor elementlardan yig'ib bajarishga imkon beradi (8.23.- rasm).

Yon devorlari konstruksiysi burchak profilli yoki kontrofors turidagi odatdag'i tirgak devorlardan iborat, vannaning tubini monolit yoki tayyor plita bloklardan yig'ma qilinadi.

Ochiq basseyn vannasining konstruksiyasini kamida bitta profilli chok va keyin 10-15m dan 20-30m gacha masofada joylashgan ko'ndalang choklar bilan ajratish zarur.

Chet el amaliyotida uncha katta bo'limgan basseynlar uchun vannalarning soddalashtirilgan konstruksiyalaridan keng foydalaniadi. Ulardan eng ishonchlilari zavodda tayyorlangan elementlardan qurilgan metall vannalar, torkretlash usuli bilan bajarilgan vertikal devor-

lardan tubining gorizontal sirtiga silliq o'tuvchi temirbetonli, shuningdek, ixtisoslashtirilgan firmalar ishlab chiqaradigan bloklardan tayyorlangan vannalar hisoblanadi (8.24.- rasm).




8.24.- rasm. Turli materiallardan iborat vanna devorlarining profilari:
 a- betondan; b- tosh terilgan; v- temirbetondan; g- yig'ma elementlardan; d- torkretlash usuli bilan hajarilgan temirbeton plitali; A- quyish novi detali; 1- temirbeton devor; 2- gidroizolyatsiya; 3- sementbeton devor; 4- qoplama

Beton, yirik toshli beton va tosh terilgan konstruksiylar vannani temirbetondan qurish imkonini bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Bu konstruksiyalarning temirbetonilarga nisbatan afzalligi metallni tejashda va mahalliy materiallardan foydalamish imkoniyatida. Kamchiliklari –

massasining kattaligi va konstruksiyalarning ishochliligi kam ekanligida, ayniqsa, og'ir grunt namligi sharoitlarida (ho'l, bir jinsli bo'limgan gruntlar va boshqalar) vannalarini qurishda. Konstruksiya kesimlari o'zgargan joylarda, vanna tublari qiyaliklari joyida yoki betonli, yirik toshli, tosh terilgan konstruksiyalarda asos gruntga yuklanishlarda deformatsion choklarni nazarda tutish kerak.

Keyingi yillarda vannalarini metalldan (po'lat, alyuminiy) va polimer materiallardan (8.25.- rasm) barpo qilishga urinishlar bo'ldi. Bunday vannalar temirbetonlidan 2-2,5 marta yengil, biroq po'lat vannalarini korroziyadan hlmoya qilish zarur bo'lgani uchun vannalarini alyuminiydan tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Fransiya, AQSh va boshqa mamlakatlardagi bir qator ixtisoslashtirilgan firmalar yig'ma elementlardan tayyorlanadigan vannalarini ishlab chiqaradi (8.26.- rasm). Ular zichlashtiruvchi qistirmalardan foydalangan holda boltlar bilan montaj qilinadi.




8.25.- rasm. Alyuminiyli vana (FRG):

a- reja; b- qirqim

Vannanning ichki sirtlarini pardozlash usullari va konstruksiyaning suv o'tkazmasligini ta'minlash choralarini vannalarning chidamli-

ligi va yuqori ekspluatatsion sifatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Vannalarning ichki sirtlari sement qorishma bilan suvalib silliqlanadi va temir yoki keramik plita qoplanadi. Torkret suvoq ham yaxshi sifatga ega.



8.26.- rasm. Yig‘ma elementlardan vanna (Fransiya)

Chet ellarda vannalar qalinligi 4mm bo‘lgan rulonli material bilan pardozlanadi, u gidroizolyatsiya vazifasini ham bajaradi.

Ochiq basseynlarning vannalarini pardozlash uchun sovuqqa bardoshlilik va mexanik mustahkamligi yuqori ko‘rsatkichlarga ega metlax yoki sirlangan plitani qo‘llanish lozim.

Vannalar konstruksiyalarining suv o‘tkazmasligini darzlar ochilishi, hisoblash, tegishli materiallar tanlash, maxsus eritma va betonni qo‘llanish, shuningdek, gidroizolyatsiya qurish bilan ta’milnadi.

8.3.3. Minora va tramplin qurilmalari

Minora va tramplinlar suvgaga sakrash bo‘yicha mashg‘ulotlar va musobaqalar uchun quriladi. Ular ShNK 2.08.02-09* “Jamoat binolari va inshootlari” da ko‘zda tutilgan 8.4.- jadvalda ko‘rsatilgan o‘lchamlarda barpo etiladi.

8.4.-jadval.


Sakrash qurilmalariga me'yoriy talablar

O'Ichamlari	Tramplin		Minora		
	Suv ustidan balandligi, m				
	1	3	5	7,5	10
Vannaning chuqurligi	3,4-3,8	3,8-4,0	3,8-4	4,5	4,5-5
Minora yoki tramplin chetidan masofa:					
Oldinga tubiga qarab chuqur joyida	6,0 9,0	6,0 10,25	6,0 10,25	8,0 11,0	12,0 13,5
Orqaga vannaning chuqur qismi tubi bo'yicha	1,5-1,8	1,5-1,8	1,5	1,5	1,5
Platforma o'qi bo'yicha masofa	2,5-3,0	3,50	4,25	4,5	5,25
Vannanning chetigacha qo'shni qurilmalarning o'qlari orasidagi	1,9-2,4	1,4-2,4	2,1	2,5	2,75
Platfromadan yuqoriga tom shiftigacha masofa	5,0	5,0	3,4	3,4	3,4-5,0

Eslatma: 10 metrli minora maydonchasining o'Ichamlari – 6x2,0m; 5 metrliniki – 5x2,0m; yuqoridagi maydoncha chetining pastki maydonchadan chiqib turish masofasi – 0,75-1,5m.


Ochiq basseynlarda ko'targichlar va yuqori maydonchalar shamol va noqulay ob-havo ta'siridan devorlar bilan himoyalanadi (8.27.-rasm).

Minoralarda ko'targichlarning turli xil konstruksiyalari qo'llaniladi. Masalan, Neapal shabridagi ochiq basseynda Galning uzliksiz zanjir ko'rinishdagi oddiy ko'targichdan foydalilanadi. Yuqori maydonchaga ko'tarilishini xohlagan sportchi ikki uzliksiz zanjirni biriktiruvchi horizontal maydonchaga turib olib, qo'li bilan yuqorida joylashgan xuddi shunday to'sinmi ushlab turadi.



8.27.- rasm. Leypsigdagi (GDR) ochiq basseyndagi minora:

1- ko‘targich shaxtasi; 2- zanjirni yopib turuvchi g‘ilof; 3- ko‘ndalang to‘sinlar; 4- tutqichlar




8.28.- rasm. Eng oddiy ko‘targich:

1- uzlucksiz zanjir; 2- zanjirni yopib turuvchi g‘ilof; 3- ko‘ndalang to‘sinlar; 4- tutqichlar

Kabinali va chig'irli yoki Mexikodagi Olimpiya basseynidagi kabi chiqarilgan porshenli ko'targichlar ham qo'llaniladi.

Rejada o'lchamlari $0,5 \times 0,5$ m bo'lgan sport tumbalari vannaning chet qismiga o'rnatiladi. Tumba chetining suv sathidan balandligi $0,55-0,75$ m bo'lishi kerak. Sportchilarning tumbalar ustiga chiqishini qulay qilishi uchun zinapoya va orqasi bilan suzish uchun startda tutqichlar bilan jihozlanadi. Tumbaning maydonchasi (ustki yuzasi) suv tomonga 10° qiya qilinadi. Musobaqalarda start tumbalarida start va finishni qayd qilish uchun avtomatik qurilmalar mavjud bo'ladi. Chet el amaliyotida olib qo'yiladigan start tumbalaridan ham foydalaniadi (8.29.- rasm).




8.29.- rasm. Olib qo'yiladigan start tumbasi:

1- tumbaga chiqiladigan zinapoyalar; 2- orqa bilan suzishda start uchun tutqichlar

O'quv-sport va namoyish basseynlarida vannaga kirish odatda bo'ylama devorning oralarida o'rnatilgan vertikal narvonlar ko'rinishida qilinadi (8.30.- rasm). Zinapoyalar vannaning tubigacha etkazilgan bo'ladi, bu vannani tozalashda va yuvishda qulaylik tug'diradi. Ba'zida kirish joylari maxsus uyalarga joylashtirilgan tekis zinalar ko'rinishida qilinadi. Uzunligi 25 m bo'lgan vannada esa kamida uchta

narvon o'rnatiladi. Sakrash qurilmalari bo'lgan vannalarda narvonlarni ayniqsa qulay tarzda joylashtirish zarur, chunki sportchilar mashq o'tkazish jarayonida 100 va undan ko'proq suvga sakrash mashqlarini bajarishadi, shuning uchun vannada sakrash qurilmasiga o'tish uchun ortiqcha vaqt va energiyami sarflash maqsadga muvofiq emas.

Sakrash qurilmalari guruhi ostiga vannaning butun cheti bo'ylab qo'shimcha olinuvchi narvonlar yoki zinapoyalar qurish maqsadga muvofiq bo'ladi.



8.30.- rasm. Vannaga tushish narvonlari va zaldagi qurilmalar:

a- metall narvon; b- temirbeton zinapoya; v- umumiy ko'rinish; g- chegaralovchi chiziqlarni saqlash uchun uya

Basseyn vannalarida suv sirtini suzuvchilar uchun alohida yo'lak-larga ajratish, suv polosi o'yinida maydon chegaralarini belgilash va maydon o'rtasida koptokni o'rnatish, maxsus mashq qilish uskunalarini mahkamlash va h.lar, o'rnatilgan detallar sport qurilmalarini mahkamlash uchun zarur.

Suzuvchilar uchun yo'laklarni belgilovchi suzib yuruvchi chiziqlar ni qayd qilish (mahkamlash) uchun vannalar ming chetidagi, ba'zida esa bo'ylama devorlaridagi uncha katta bo'limgan uyalarda ilgaklar o'rnatilgan bo'lib, ularga mahkamlanuvchi kallaklar joylashtiriladi.

Basseyndagi suv sirtini eni 2,5-3,0m bo'lgan yo'lakchalarga ajratuvchi suzuvchi chiziqlar pishiqliq kapron troslardan qilinib, ular to'lqin so'ndiruvchi moslamalari bo'lgan plastmassa suzgichlarning teshiklaridan o'tkaziladi. Trosning uchlariga yo'lakni tortish va troslarni vanna devorlarigacha mahkamlash uchun rezina va metall amortizatorlar mahkamlanadi. Yig'ib olingan yo'lakchalarni saqlash uchun chetki aylanib o'tish yo'laklari ostida yoki ular orqasida, masalan, sport-chilarni mukofatlash uchun doimiy minbar ostida joylashgan maxsus javonlar (tokchalar) va boshqa moslamalar qo'llaniladi (8.30.-grasm).


8.3.4. Usti yopiq basseynlar

Usti yopiq basseynlarning asosiy zallarini shakli va o'lchamlari vannalar, suvgaga sakrash qurilmalari va minbarlarning miqdori, o'lchamlari va joylashishiga ko'ra belgilanadi.

Asosiy zalda odadta bittadan uchtagacha vanna joylashtiriladi (bit-ta universal – suzish va suv polosi uchun va ikkita ixtisoslashtirilgan-suvga sakrash uchun va kichik yoshdag'i bolalar uchun).

Vannalarini zalning bo'ylama o'qi bo'ylab joylashtirilganda ancha tejamli echimlar hosil bo'ladi. Bu holda oraliq kattaligini vannalarining eni plus 3m ga teng bo'ylama aylanib o'tish yo'laklarining ikkilangan emiga teng qilib qabul qilinadi, vannaning eni esa suzuvchilar uchun alohida yo'llarning o'lchamlari va miqdoriga bog'liq bo'ladi. 8.5.-jadvalda basseynlarning asosiy zallari yopmalari oraliqlarining o'lchamlari keltirilgan.

8.5.- jadvaldag'i ma'lumotlarning ko'rsatishicha, basseynlarning QMQ 2.08.01-97. "Jamoat binolari"da nazarda tutilganidan biroz kichikroq kenglikdagi vannalarini loyihalashda zaliar oraliqlarining modul o'chovlari kattaligini 25-30% gacha kamaytirish mumkin, bu bir xil shaklga keltirilgan temirbeton to'sinlardan foydalanilganda beton sarfini 2 marta, po'lat sarfini esa har bir to'sinda 50-60% gacha kamaytiradi.



8.31.- rasm. O'zgaruvchan balandlikdagi basseyn zallarining bo'ylama va ko'ndalang kesimlari:

A- ikki tomonlama minbarlar; B- bir tomonlama minbarlar; V- bo'ylama qirqim; minbarlarning qabul qilingan sig'imi (ming o'rini): 1=0,5; 2=1,0; 3=1,0; 4=2,0; 5=1,5; 6=3,0; 7=2,0; 8=4,0; 10=5,0

Zalning balandligi basseynning vazifasiga, minbarlarning joylashishi va sig'imiga bog'liq holda qabul qilinadi. Basseyn zalining minbarlarsiz, lekin suvga sakrash qurilmalari bilan minimal balandligi 8.4.-jadval bo'yicha aniqlash mumkin. Suv polosi o'yiniga mo'ljallangan vannalar uchun zalning balandligi maydon uzunligining kamida 1/3 qismiga teng bo'lishi maqsadga muvofiq. Bolalar vannalari joylash-

gan zalning balandligi 3,0 bo'lishi yetarli, aylanib o'tish yo'llarining yuqorisi 2,0m bo'lishi inaqsadga muvofiqdir. Zalning balandligini doimiy qilib qabul qilish mumkin, bu holda u yuqorida keltirilgan qiyatlarning maksimaliga teng bo'lishi kerak. O'zgaruvchan balandlikdagi zallar esa (8.31.-rasm) ularning ichki hajmimi ancha tejaydi.

Suvga sakrash qurilmalari bilan jihozlangan minbarli va vannali zallarning balandligi ularning o'lchovlariga bog'liq. 8.32.-rasmdagi grafikdan ko'rindiki, minbarlarning sig'imi 1500 (3000) o'ringacha bo'lganda zalning balandligini aniqlash uchun hal qiluvchi masala bu 10 metrli minoraning mavjudligi, o'rnlar soni ko'proq bo'lganda minbarlarning balandligi hal qiluvchi hisoblanadi.


8.5.-jadval

Vannali basseynlar asosiy zallari yopmalari oraliqlari o'lchamlari

Yo'lak- lar soni	Yo'lak- larning kengligi, m	Chetki yo'lklalar orasidagi oraliqning kattaligi, m	Vanna- ning eni, m	Chetki model oralig'i o'lcham- lari, 3,0 m	Kichraytirilgan yo'laklar o'lchamlarida oraliq kattaligini kamaytirish	
					m	%
3	2,5*	0,5*	8,5	12,0	-	-
3	1,8**	0,3**	6,0	9,0	3,0	25
4	2,5*	0,5*	11,0	18,0	-	-
4	2,0**	0,5**	9,0	12,0	6,0	25
6	2,5*	0,5*	16,0	24,0	-	-
6	2,3**	0,5**	14,8	18,0	6,0	25
8	2,5*	0,5*	21,0	24,0	-	-


Ko'rsatilgan o'lchovlar ShNK 2.08.02-09 "Jamoat binolari va inshootlari"da tavsiya etilgan.

*Ko'rsatilgan o'lchovlarni o'quv basseynlari uchun qo'llanilishini yo'l qo'yilishi V.V. Kuybishev nomidagi MGSU ishlamalari bilan asoslangan (Moskva sh. Rossiya).



8.32.- rasm. Zal balandligining qurilmalar o'chovlariga va minbarlar sig'i-miga bog'liqligni (suratda – bir tomonlama minbarlarning sig'imi, maxrajida – ikki tomonlama minbarlarning sig'imi);
1- birinichi qatorning suv sathidan balandligi 1,8m; 2- 1,2m; 3- 0,6m

Agar minora profili minbarlar fasadiga parallel joylashgan bo'lsa, u holda suvgaga sakrash musobaqalarining ko'rinishi eng yaxshi hisoblanadi. Shuning uchun namoyish qilinadigan basseynlarda minoralar odatda vannaning chetiga quriladi, minbarlar esa vanna bo'ylab barpo etiladi. Boshqa yechimlar ham bo'lishi mumkin, masalan, sakrash qurilmalari minbarlar frontiga nisbatan ma'lum bir burchak ostida joylashgan (8.33.- rasm). Bu asosiy zalning bir devori bo'ylab joylashgan minbarlardagi ko'pchilik tomoshabinlar uchun qulay ko'rish burchagini yaratadi.




8.33.- rasm. Suvga sakrash qurilmalari basseynning asosiy zali frontiga 45° burchak ostida joylashgan (Tokio):

1- minbarlar ostidagi xonalar

Tayyorgarlik mashg'ulotlari uchun zallar KMK talablariga ko'ra vannadagi suv sathi yuzining 20-55% ga teng yuzaga ega bo'lishi kerak. Zallarning o'lchamlari basseynning vazifasi, shug'ullanuvchilar smenasi tarkibi, qurilmalarning holatini hisobga olgan holda aniqlashtiriladi.


Eng yahsbı echimlardan ikki zalli: biri sport o'yinlari, gimnastika va devorga o'rnatilgan trenajyorlar (espanderlar, sirpanuvchi o'rindiqlari bo'lgan o'rnatilgan qiya yo'naltiruvchilar, gimnastika devorlari va boshqalar) bo'lgan va ikkinchisi doimiy o'rnatilgan universal trenajyorlari, shtanga uchun chorpoysi va umumrivojlantiruvchi va maxsus mashqlar uchun boshqa barqaror qurilmalari bo'lgan basseyн hisoblanadi. Biroq ko'pchilik hollarda iqtisodiy nuqtai nazarga ko'ra

basseynda tayyorgarlik mashg'ulotlari uchun bitta zal quriladi. Bunday zalda sport o'yinlari va mashqlar uchun olib qo'yiluvchi yoki devorga o'rnatilgan qurilmali bo'sh fazomi nazarda tutish va barqaror trenajyorlar o'rnatish uchun uncha katta bo'limgan joy ajratish maqsadga muvofiq (8.34.- a rasm).



8.34.- rasm. Tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkaziladigan zallarda qurilmalarni joylashtirishga misollar:

- a- suzuvchilar va vaterpolchilar uchun zal; b- suvga sakrash uchun zal;
- 1- universal trenajyor; 2- shtanga uchun chorpoya; 3- gimnastika perekladinası;
- 4- devoriy espander; 5- darvozani tasvirlovchi shitlar; 6- basketbol shitlari;
- 7- halqa; 8- qo'l to'pi o'yini darvozalari; 9- yopmaga ko'tariladigan basketbol shiti;
- 10- 3-3.5m chuqurlikdagi porolonli chuqur va tramplin; 11- ko'zgu;
- 12- pol sathidagi batut; 13- batut (olib qo'yiladigan); 14- loping;
- 15- kreslo-lonji; 16- gimnastika devori; 18- akrobatika yo'lakchasi;
- 19- mashg'ulotlar uchun ustunlar; 20- gimnastika bruslari; 21- halqalar;
- 22- kozyol; 23- gimnastika gilami; 24- perekladina; 25- eshak




Suvga sakrovchilarning tayyorgarlik mashg'ulotlari uchun ixtisoslashtirilgan zallar katta maydoni talab etuvchi ko'chma va barqaror qurilmalar bilan jihozlanadi. Unga, masalan, porolonli chuqurlik va sakrash uchun tramplinlar yoki platformalar kiradi. Shug'ullanuvchilar ulardan porolonga sakrashadi, pol sathidagi polotnosi bo'lgan batutlar, universal trenajyorlar kiradi (8.34.- b rasm).

Basseynning asosiy zali yopmalari ko'taruvchi konstruksiyalarini chiqarishda tejamkorlik, mustahkamlikka umumiy talablarni bir-biri bilan bog'lash va shunday industrial konstruksiyalarni qo'llash kerakki, bunda yuqorida bayon qllingan mulohazalardan kelib chiqib nazarda tutiladigan zalning bo'ylama va ko'ndalang profillarining optimal yechimlarini ta'minlash kerak.

Sig'imi kichikroq bo'lgan minbarll kichik basseyн zallari yoki minbarsiz zallar uchun bir yoki ikki nishabli yopmalarni temirbeton romlar, to'sinlar yoki stropilar bo'yicha qilinadi (8.35.- rasm).


8.35.- rasmda 6m qadamli temirbeton yoki metall fermalar bo'yicha yopmali, minbarlari bir tomonlama joylashtirilgan va minorali tashqi devorga surilgan basseyн zalining echimi ko'rsatilgan.



**8.35.- rasm. Ikki nishabli yopmali basseyн (AQSh):
a- qirqimi; b- rejasи**

8.37.- rasmda Melburnda (Avstraliya) Olimpiya o'yinlarini o'tqazish uchun qurilgan metall fermalar bo'yicha yopmali basseyн tasvirlangan. 70m oraliqli yopmaning quvursimon fermalari minbarlarni va devorlar to'siqlarini ko'taruvchi og'ma metall fermaga tayana-di. Konstruksiyaning mustahkamligini oshirish uchun fermalarning bo'g'inlarida mahkamlangan va mustaqil poydevorlarga o'rnatilgan vertikal tortqich (kamar)lardan foydalanilgan. Issiq iqlimni hisobga olgan holda tomoshabinlar uchun zinapoyalar va kommunikatsiyalar asosiy zalning isitiladigan hajmidan tashqariga chiqarilgan.


Basseyn zallarining ustini yopishi uchun fazoviy yupqa devorli yopmalardan foydalaniш maqsadga muvofiq.



8.36- rasm. Yopmasi bir nishabli basseyn:


1- ruberoid qatlami; 2- sementli qoplama; 3- mineral paxta; 4- hug'dan izolyasiya; 6- temirbeton plita; 7- temirbeton serma

8.38.- rasmda orallg'i 28m bo'lgan to'lqinsimon qubba-qobiq ko'rimishidagi Sankt-Peterburgdagi (Rossiya) basseyn bosh binosining yopmasi ko'rsatilgan. Yopma karkasining romlari bo'yicha yotqizilgan temirbeton to'simlarga tayanuvchi ikkita maydonchadan montaj qilingan. Temirbeton to'simlar tiralish kuchini qabul qiladi va uni poy-devorga uzatadi.



**8.37.- rasm. Metall fermalar bo'yicha yopmasi
bo'lgan basseyн (Avstraliya):**

a- l-qavat rejasи; b- qirqim; 1- minbarlarni tashkil etuvchi og'ma metall konstruksiyalar va yopmalarni ko'taruvchi fermalar; 2- yopma fermalari; 3- tayanch konstruksiyalarning poydevorlari; 4-* vertikal metall tortqichlar; 5- tortqichlar ning poydevorlari; 6- ochiq galereyaning poli vazifasini bajaruvchi tutash bino yopmasi; 7- ochiq zinapoya (narvon); 8- vanna; 9- minora; 10- chetki vitraj; 11- kirish; 12- ma'muriyat xonasi; 13- texnik xona; 14- yechinish-kiyinish xonalari; 15- tayyorgarlik mashg'ulotlari uchun maydoncha; 16- suzish va suv polosi uchun vanna; 17- suvg'a sakrash uchun vanna.




8.38.- rasm. To‘lqinsimon egri chiziqli elementlardan iborat yopmali basseyн (me’morlar G. Yevdokimov, A. Izotka, muhandis A. Onejskiy):
1- rulonli gilam; 2- sementli qoplama; 3- armopenobeton plitalar; 4- armosementdan elementlar; 5- mineral isitkich; 6- asbestosfanera; 7- ventilyatsiya kanali (betonning keltirilgan qalnligi 6,5sm, po’lat sarfi 13,5 kg/m²; elementning massasi- 3,6t)

Havoning namligi yuqori ekanini hisobga olib, armosement elementlarning to‘lqin balandliklarida konstrukturlar ventilyatsiya kanallarini tashkil etuvchi asbofanera listlarini nazarda tutishdi. Bu hol kondensatning hosil bo‘lishini istisno qiladi. Armosementli qubbaning bir xil shaklga keltirilgan elementlari devorlarning qalnligi 30mm ga cha bo‘lgani holda 1500x1600mm o‘lchamlarga ega. Qubba-qobiqdagi betonning keltirilgan qalnligi 65mm.

Zallarning maqbul shakllarini yaratishga osma yopmalar katta imkoniyat beradi. Masalan, turli shakldagi osma yopmalar Myunxen, Mexiko va Tokiodagi Olimpiya basseynlari uchun qo’llanilgan. Tayanchlar yaqinida yopmaning osilib turuvchi konstruksiyasini ko’tarish suvgaga sakrash qurilmalari va minbarlarni hisobga olgan holda asosiy zal balandligini qanoatlantirishi mumkin (8.39.- rasm).

Tokiodagi basseyн binosi rejada oval shakliga ega. Bu minbarlarga zal markazida eng ko‘p o‘rinlarga ega bo‘lgan maqbul shaklini berish va bundan tashqari, ko‘ndalang arqonlarning tortilishimi idrok qilish uchun temirbeton konstruksiyalarining qulay shaklini hosil qilishga imkon berdi. Myunxenda Olimpiya basseyning vantli yopmasi min-


barlarning yig'ma-ajralma konstruksiyasini nazarda tutadigan bo'lsak, yopmaning tayanch ustunlari minbarlardan mustaqil ravishda joylashganini ko'ramiz (8.40.- 8.41.- rasmlar). Bunday echim tomoshabinlar soni ko'p bo'lgan musobaqalar nisbatan kamdan-kam o'tkazilgan hol-larda (Olimpiya o'yinlari va boshqalar) maqsadga muvofiqdir, shahar aholisi uchun esa ancha kaimroq sig'imga ega minbar talab etiladi.



**8.39.- rasm. Tokiodagi "Yoglar" majmuining usti yopiq basseyni:
a- umumiy ko'rinish; b- qo'shilgan reja:**


o'ngda - sokol qavati, chapda - yuqori qavati; v- bo'ylama qirqim; g- ko'ndalang qirqim; 1- asosiy vanna; 2- sakrashlar uchun vanna

Basseyn zallarida havoning yuqori namlikda bo'lishi oqibatida to'suvchi konstruksiyalarni kondensatga hisoblashda foydalanishning eng noqulay sharoitlarini hisobga olish va ventilyatsiyani nazarda tutish kerak. Bundan tashqari, konstruksiyalar ichiga bug'larning kirishi-ga qarshi alohida choralarни (yopmada bug'dan izolyatsiya qilish qatlamlari, shipni bug' o'tkazmaydigan polimer bo'yoq va boshqalar) nazarda tutish kerak.



8.40.- rasm. Myunxendagi Olimpiya majmuuning usti yopiq basseyni:

a- yerosti qavati rejası; b- start tumbalari sathidagi reja; v- basseyndan foydalananish davrida minbarlarning yuqori qavati sathidagi reja (Olimpiya o'yinlari tugagandan so'ng); g- o'shaning o'zi, o'yin vaqtida; 1- suzish va suv polosi uchun vanna; 2- suvgaga sakrash uchun vanna; 3- badan qizdirish uchun vanna; 4- suzuvchilarning o'zini tiklash uchun issiq suvli vanna; 5- suzuvchilarning o'zini tiklash uchun issiq suvli kichik vanna; 6-jamoalarning kiyinish-yechinishlari uchun xonalar; 7- erkaklar va ayollar kiyimini almashtirishlari uchun egasiz kabinalar; 8- dushxonalar; 9- hammomlar-saunalar; 11- matbuot vakillari uchun xonalar; 12- tomoshabinlar uchun xonalar; 12- umumjismoniy tayyorgarlik va badan qizdirish uchun zal; 13- dam olish va o'zini tiklash uchun xonalar; 14- hakamlar, sport federatsiyalari va ma'muriy vakillari uchun xonalar; 15- texnik xonalar; 16- barqaror minbarlar; 17- sharhlovichlarning kabinalari; 18- olib qo'yiladigan devor; 19- restoran xonalar; 20- yig'iladigan ajratiladigan minbarlar.



8.41.- rasm. Myunxendagi usti yopiq basseyn. Ko'ndalang qirqim


Usti berk basseynlarning asosiy zallarini to'suvchi konstruksiyalar uchun materiallarni tanlashda havoning yuqori namligining ta'sirini hisobga olish kerak. Xususan, zallarning konstruksiyalari uchun yog'ochdan foydalanish kondensant hosil bo'lishi mumkinligidan va chirishga qarshi singdirishlardan to'liq kafolat bo'lgandagina mumkin bo'ladi, shuningdek, yog'och konstruksiyalarning ventilyatsiyasi uchun yaxshi sharoit yaratish zarur.

Basseyynning asosiy zalida pol, devorlar va o'rnatilgan skameykalari sirtining temperaturasini me'yorida saqlash uchun bu konstruksiyalarning ichidan isitish quvurlari o'tkaziladi (8.42.- rasm).

Bir necha vannali usti yopiq basseynlarda turli vazifaga mo'ljalangan vannalarni va yordamchi xonalarni turli qavatlarda joylashtirish qabul qilingan.

Minbarli basseyn binolarida minbar ostidagi fazodagi xonalarni yoritish uchun ko'pincha ichki ko'kalamzorlashtirilgan hovlilar, sol-yariylar nazarda tutiladi.

Asosiy kirish bilan yondosh holda joylashgan ichki hovlilar dan shaxsiy avtomashinalar, mototsikllar va sportchilarning xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning velosipedlari turadigan joy uchun foydalanish mumkin.



8.42.- rasm. Shamollatiluvchi yopma va isitiladigan pol detali:

- a- shamollatiluvchi yopma; b- isitiladigan pol; 1- shag'al qatlami; 2- ruberoid; 3- 15mm li sement qoplama; 4- asbesmentli to'lqinsimon listlar; 5- mineral paxtali plitalar; 6- keramzitobeton; 7- bug' izolyatsiyasi (3 qavat ruberoid); 8- yuk ko'taruvchি plitalari; 9- qorishmali keramik plita; 10- 50mm li beton qatlami; 11- sementli qoplamaning armaturalangan to'ri ostidagi gidroizolyatsiya; 12- d=25mm quvurli shag'al-qum aralashmasi (qorishmasi) (suvni chiqarish uchun quvurlarning qiyaligini hisobga olingan qalinlik); 13- 30mm li sementli qoplama; 14- shlakobeton 150mm.

8.3.5. Ochiq basseynlar

Ochiq basseynlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda vannalar, minbarlar va pavilonlar yordamchi xonalari bilan birga joylarda erkin joylashtirilgan alohida inshootlarda bo'lishi mumkin.

Ochiq basseynlarda vannalarga iflosliklarning olib kirlishiga qarshi maxsus choralar ni nazarda tutish zarur. Shu maqsadda basseyн hududi sun'iy qoplama bilan qoplanadi, shuningdek, vannaga kirish oldidan yuviladigan moslamalar (dushlar, oyoq yuvish uchun vanna va h.) nazarda tutiladi.

Vanna atrofidagi aylanib o'tish yo'llarini yuvish uchun qulay bo'lган qattiq qoplamali qilinadi. Xuddi shunday qattiq qoplamalari (beton, qattiq asos ustidan plitkalar va h.) quruqlikdagi mashq o'tkazish maydonchalari uchun qo'llamish mumkin.

Ochiq basseynlarni rejalashtirishning erkin sharoitlari basseyн hududim kattalar yoki bolalar o'quv mashg'ulotlari va cho'milish, suzish mashg'ulotlari va suvgga sakrash faol dam olish va boshqalar uchun ixtisoslashtirilgan zonalarga aniq bo'lishga imkon beradi.


8.43.- rasmda Rimdagи "Faro Italiko" stadioni hududidagi ochiq basseyн ko'rsatilgan. Basseyн hududi aniq ikki asosiy qismga bo'lin-gan. Shimoliy qismi suzish, suv polosi va suvgga sakrash bo'yicha mala-kali sportchilar bilan musobaqalar va mashg'ulotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan. Janubiy uchastkada esa bolalar va kattalar uchun suzish maktabi hamda faol dam olish uchastkalari joylashgan. Bu hududlar o'rtaida restoran bor. Unda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilar va sport hududiga keluvchilar uchun alohida kirish joylari nazarda tutilgan.

Suzish maktabida bolalar va kattalar uchun vannalardan tashqari solyariylar, ko'kalamzorlashtirilgan maydonchalar va gimnastika sha-harchasi mavjud.

O'quv-sport mashg'ulotlari hududida uzunligi 50m va chuqurligi 1,7-2,0m bo'lган to'g'ri to'rtburchakli vanna, suvgga sakrashlar uchun kattalarga mo'ljallangan trapetsiyasimon shakldagi vanna va lift bilan jihozlangan minora bor.

Sport-mashq qilish hududidagi vannalar (8.44.- rasm) minbarlar-ning yuqori qatlamlari yer sathida bo'lishini bisobga olgan holda joy-lashtiriladi. Bu ajraluvchi minbarlarni uning yuqori qatorlariga yondosh hududlarda o'rnatishga imkon beradi, buning hisobiga tomoshabinlar uchun o'rinalar sonini ikki marta oshirish mumkin.

Minbarlarning pastki qatorlari konsolli osma ostida sportchilar uchun joylar nazarda tutilgan bo'lib, u yerdan musobaqalarning borishi yaxshi ko'rindi. Ular vannanining aylanib o'tadigan yo'lagidan balandligi 1m bo'lgan ko'k to'siq (butalar) bilan ajratilgan bo'lib, unda oyoq yuvish uchun vannachali o'tish yo'llari mavjud. Aylanib o'tuvchi yo'lak va unga yondashuvchi barcha uchastkalar keramik plita bilan qoplangan.




8.43.- rasm. Rimdag Olimpiya basseyni rejasি:

a- o'quv-sport hududi; b- bolalar uchun hudud; v- dam olish va umumiy jismiy tayyorgarlik ko'rish hududi; 1- ustti berk basseyn; 2- restoran.

Minbarosti fazosining yuqori qismida tomoshabinlar uchun yordamchi xonalar, pastki qismida ishtirokchilar uchun yordamchi xonalar joylashgan.

Basseynning bosh rejasida qurilish uchun ajratilgan uchastkaning tabiiy sharoitlaridan foydalangan holda erkin rejalashtirish (suzish maktabi) muntazam rejalashtirish (o'quv-mashq qilish hududi) muvafqaqiyatli birga qo'shib olib boriladi.



8.44.- rasm. Rimdag Olimpiya basseyni


1- asosiy vannalar; 2- ishtirokchilar uchun joylar; 3- jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilar va ma'muriyat uchun yordamchi xonalar; 4- yig'ib-ajratiladigan minbarlar o'rnatiladigan maydon; 5- tomoshabinlar uchun yordamchi xonalar

O'quv-mashq o'tkazish va namoyish qilinadigan vannalar oddiy to'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Shu bilan birga, oraliqlar bilan bog'liq bo'limgan bo'sh fazoning mavjudligi turli shakldagi va turlicha joylashgan vannalarni qo'llashga imkon beradi (8.45.- rasm).

Yil bo'yi ishlaydigan (suvi isitiladigan) ochiq basseynlardan qishin-yozin foydalilanildi. Uning xususiyatlari shundaki, ularda issiq kiyinish-echinish xonalarini ochiq vannalar bilan tutashtiruvchi suzib chiqish kanallari bo'ladi.

Tajribaning ko'rsatishicha, Moskvadagi suzib chiqish ariqlari bo'lgan basseynlardan, agar vannadagi suv temperaturasi +28°C dan past bo'lmasa, tashqi atrof havo -20°C dan yuqori bo'lganda foydalanish mumkin.

Bu turdagи basseynlardan qishda faqat cho'milish va suzish bo'yicha o'quv-mashq mashg'ulotlari uchungina foydalilanildi. Suvga sakrash bo'yicha mashg'ulotlarni havo harorati past bo'lgani uchun o'tkazib bo'lmaydi, suv polosiga esa suv ustida hosil bo'ladigan bug'xalal beradi. Shu sabablarga ko'ra basseynlarda qish fasilda tomoshabinlar ishtirokida musobaqalar o'tkazish mumkin emas.



8.45.- rasm. Ochiq basseynlar (rejalar):


- a- "Moskva", b- Festervald shahrida; 1- cho'milish uchun bo'lmalar; 2- sport suzishi va polosi uchun bo'limma; 3- suvg'a sakrash uchun bo'lim; 4- bolalar basseynlari; 5- kiyinish-echinish xonalar, dushxonalar, busetlar va boshqalar bo'lgan pavilonlar; 6- suzib chiqadigan joylar

Bunday basseynlarning vannalari ocbiq basseynlarga bo'lgan talablarini hisobga olgan holda quriladi. Yordamchi xonalar esa usti yopiq basseynlarning talablariga javob berishi kerak. Ya'ni, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilarga xizmat ko'rsatish uchun vannadan foydalanishgacha va foydalangandan keyin isitiladigan xonalar nazarda tutiladi. Suzib chiqish joylari dushxonalar yoki quruqlikda mashg'ulotlar olib borish uchun umumiylaridan ishlab chiqiladi. Suzib chiqish joylarining uzunligini kamaytirish uchun bu xonalarni vannadan uncha katta bo'limgan (2-3m) masofada joylashtirish zarur.

8.46.- rasmda suvi isitiladigan va suzib chiqish ariqlari bo'lgan, yordamchi xonalar uch tomonlama joylashgan "Chayka" (Moskva) basseyni ko'rsatilgan. Bunday yechimning afzalliklariga alohida erkaklar va ayollar oqimlariga xizmat ko'rsatishda qat'iy rioxha qilish, shuningdek, kirish bo'g'inining va umumiylar xonalarning (ma'muriyat, murabbiylar va hakamlar) kirish bo'g'ini, kiyinish-echinish xonalarini va vanna bilan yaxshi bog'langanligi hisoblanadi.

Qishda foydalaniладigan basseynlarda suzib chiqish yo'llarining shakli, o'lchamlari va joylashishi tashrif buyuruvchilar uchun zarur qulayliklarni ta'minlashi kerak.

Suzib chiqish ariqlarining kengligi 2-2,25m atrofida bo'lishi tavsiya etiladi. Eni 1,2-1,8m bo'lgan suzib chiqish joylarini ham tayyorlash mumkin, ammo bu holda tashrif buyuruvchilar chiqish yo'llari orqali suzib chiqishiariga emas, balki uning tubi bo'yicha yurib chiqishlariga to'g'ri keladi. Kattalar uchun suzib chiqish arig'idan suvning chuqurligi 0,9-1m. bolalar uchun esa 0,5-0,6m bo'lishi kerak.




8.46.- rasm. Moskvagi "Chayka" basseyni 1949-yilgacha.

a-reja; 1- kirish; 2- vestibul; 3- qayd qilish va ma'muriyat xonasi; 4- bufet; 5- dam olish xonasi; 6- murabbiylar va ma'muriyat xonalari; 7,9- hojatxonalar; 8- kiyinish-echinish xonalar; 10- dushxona; 11- suzib chiqish joylari; 12- erkaklarning kiyinish-echinish xonasi huzuridagi zal; 13- texnik xona; 14- asosiy vanna (50×21 m); 15- suvga sakrash uchun vanna; 6- basseynlardan suzib chiqishlar (bo'ylama qirqimlar); 1- pavilon; 2- suzib chiqish joyi; 3- vanna

Suzib chiqish joylari ustidagi har qanday konstruksiyalarim undagi suv sathidan 0,6-0,8m dan past joylashtirmaslik maqsadga muvofiq.

Kiyinish-echinish xonalarini tashqaridan sovuq havo kirishdan himoya qilish uchun suv sathida suzib chiqish joylariga ko'ndalang qilib egiluvchan yoki bikr to'siqlar o'rnatiladi. Pardalar ko'rinishidagi egiluvchan to'siqlar rezinadan yoki boshqa materiallardan, bikr to'siqlar esa shishabloklar, yoki shaffof plastiklardan qilinadi.



8.47.- rasm. Minskda usti yopiq va ochiq basseynlar majmui (ark. O. Ladigina, muxandis I. Zibitser):


a- umumiy ko'rinish; b- qirqim; 1- uchta vannali usti yopiq basseyn; 2- suzib chiqish joyi; 3- "morjlar" uchun vanna; 4- cho'milish uchun vanna; 5- suzishni biladiganlar uchun bo'linma

Usti yopiq va ochiq basseynlar majmui shug'ullanuvchilar uchun eng yaxshi sharoitlarni ta'minlaydi va yordamchi xonalardan va texnik jihozlardan (suvni tozalash va isitish va h.) qishin-yozin samarali foy-dalanish uchun imkon beradi. Bunday majmualar Moskvadagi "Dynamo" stadionida, Saratovda, Rimdag'i Olimpiya stadionida jihozlangan.

Bunday echimlarga misol tariqasida yana Moskvadagi suv sport saroyini, Minskdag'i usti yopiq va ochiq basseynlar majmuini keltirish mumkin (8.47.- rasm).

8.3.6. Hamma ob-havoga mo'ljallangan va mobil basseynlar

Basseynlarni o'zgartiriluvchi tashqi to'suvechi konstruksiyalar bilan barpo etish yilning istagan paytida va har qanday ob-havo sharoitida suzish mashg'ulotlari uchun qulay sharoitlar ta'minlaydi. Ammo baracha ob-havo sharoitlariga mos basseynlarni barpo etishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalani qarab chiqishda iqtisodiy omillarmi hisobga olish kerak.



8.48.- rasm. Moskvadagi basseyn yopmasining yig'iladigan-ajraladigan konstruksiyalari:

1- panjarasimon tayanch; 2- panjarasimon konsol; 3- tortqich; 4- samarali isitgich yog'och shitli devorlar; 5- rezinalangan matodan gilam; 6- uch qatlam shevelina; 7- rezinalangan mato; 8- bikr konturli metall to'r'dan shitlar ($1200 \times 2000 \text{ mm}$); 9- quvursimon sarrovlari $d=80 \text{ mm}$ (1200 mm dan oralatib);

10- ko'taruvchi konsollar

8.48.- rasmda 1957-yilda qurilgan va qishda yig‘iluvchi-ajraluvchi konstruksiyalar bilan yopiladigan Lujniki (Moskva) stadionidagi basseynning qirqimi ko‘rsatilgan. Bu shunday basseynni amaliy qurishning birinchi tajribasi edi va, tabiiyki, uni ekspluatatsiya qilish jarayonida kamchiliklari aniqlandi. Ulardan eng asosiysi konstruksiyalarini montaj, demontaj qilish va saqlash bo‘ldi, shu munosabat bilan ulardan voz kechishga to‘g‘ri keldi.

Hozirgi vaqtida issiq echinish xonalari bo‘lgan ochiq vannalarini mavsumiy ustini yopish uchun pnevmatik konstruksiyalar keng qo‘llanilmoqda.

Biroq ular ob-havoga bog‘liq holda o‘zgartirish imkoniyatini ta‘minlamaydi. Basseynlar uchun tranformatsiyalanadigan konstruksiyalarni qishi iliq va yozgi ob-havosi beqaror bo‘lgan hududlarda qo‘llash maqsadga muvofiq. O‘zgartirish 5-10 minut ichida o‘tkazilishi, barcha xonalarmi qishda va yozda foydalanimish uchun moslashtirish kerak. Basseynda jismoniy tarbiya bilan band bo‘ladigan kishilar suv sportining turli xillarida (suzish, suvg‘a sakrash) shug‘ullana olishlari, kattalar va bolalar esa cho‘milishlari maqsadga muvofiq. Buning uchun vannaning minimal zarur o‘lchamlari 16,7x8m bo‘lishi lozim. Vannani harakatlanlanuvchi tub va sakrash moslamalari bilan jihozlash lozim, basseynda bolalar uchun vanna bo‘lishi maqsadga muvofiq.


Har xil ob-havo sharoitiga mos bo‘lgan basseynlar doira va to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida sektorli, seksiyali, teleskopik, tentli va o‘zgartiriluvchi konstruksiyalarning hoshqa ko‘rinishlari bilan barpo etiladi.

Rejada dumaloq bo‘lgan har xil ob-havo sharoitiga mos basseyn ikkita buriluvchi ustiyopma sektoriga ega bo‘lib, ular zalning ichki fazosini rejada 120° burchak chegarasida va qubbali yopma qulfida taxminan 10m balandlikka ochishga imkon beradi (8.49.- rasm).

Yordamchi xonalari yopmaning qo‘zg‘almas qismi ostiga joylashtiriladi. Qubba po‘lat karkasdan va qalinligi 15sm bo‘lgan uch qavatlari plastmassa panellardan montaj qilinadi. Qurilishga taxminan 100t po‘lat kerak bo‘ladi.


Vertikal tekislikda buriladigan ustiyopma sektorlari bilan rejada dumaloq basseyн binosi (8.50- rasm), shunday afzallikka egaki, unda

zalning ichki fazosi to'la ochiladi va o'zgartiriluvchi konstruksiyalar ni yopmani demontaj qilgandan so'ng joylashtirish uchun qo'shimcha foydali maydon talab etilmaydi. Yer ustidagi qismini 10-20 min. ichida burish mumkin bo'lgan basseyen binosining (8.51.- rasm) afzalligi shundan iboratki, bunda faqat vannaning o'zigina emas, balki unga yondosh hududlar ham to'la ochiladi, lekin bunday bino katta maydonni egallaydi.




8.49.- rasm. Ichki fazosi 240° ga og'uvchi, ikki harakatlanuvchi sektorlari bo'lgan basseyen binosi:

a- reja; b- perspektiva; v- umumiy ko'rinish; 1- $25 \times 12,5\text{m}$ li vanna; 2- bolalar uchun vanna; 3- suzishni bilmaydiganlar uchun $12,5 \times 25\text{m}$ li vanna; 4- romli karkas




8.50.- rasm. Ichki fazosi to'la ochishga imkon beruvchi ustyopma sektorlari bo'lgan basseyen binosi:

a, b- ushti yopiq basseyenning umumiy ko'rinishi va rejasi; v, g.- o'shaning o'zi, ochiq basseyenniki; 1- 25×15 (33×15) li vanna; 2- $13,5 \times 12,5$ li vanna



8.51.- rasm. Yerusti qismi vertikal o'q bo'yicha 90° ga buriladigan basseyn binosi: 1- $25x10m$ li vanna

Sxemasi 8.52.- rasmda ko'rsatilgan basseyn binosi xuddi shunday afzalliklarga va kamchiliklarga ega. Massasi 50t bo'lgan po'lat karkasli va yengil panellar bilan to'ldirilgan yerusti qismini relslar bo'ylab harakatlantirish uchun ikkita elektrodvigatel talab etiladi.




**8.52.- rasm. Yerusti qismi ilgarilama suriladigan basseyn binosi:
1- $25x12,5m$ li vanna; 2- $12,5x8m$ li suzishni bilmaydiganlar uchun vanna**

Teleskopik konstruksiyadagi basseyn binolari loyihasida rejada $25x12,5$, $25x16,5m$ li va $50x21m$ o'lchamga ega universal vannalari bo'lgan, shuningdek, o'lchamlari $12,5x10m$ (suzishni bilmaydiganlar uchun va $6x6m$ (bolalar uchun) qo'shimcha vannalari bo'lgan variantlari ishlab chiqilgan (8.53.- rasm)). Ust yopmani o'zgartirish uchun 10-15min. talab etiladi. Po'lat romli karkasli ko'chma seksiyalarni (zalga 100t po'lat konstruksiyalar kerak) relslar bo'yicha quvvati $3kVt$

bo'lgan elektro dvigatelli to'rtta mator-g'ildirak yordamida ko'chirish mumkin.

8.54.- rasmda vantli fermaning pastki kamari bo'yicha yo'naltiruvchiga roliklarda konki chizig'i bo'yicha osilgan, yon qirralaridagi roliklari bilan yengil metall (sim o'ram) fermalarda joylashgan elementlarga tiralgan tentli yopmasi bo'lgan basseyn ko'rsatilgan. Vannalar zalini ochish uchun yopma zalning chetlaridan biriga yig'iladi.




8.53.- rasm. Teleskopik konstruksiyali basseyn binosi:
a- yopiq holatidagi umumiy ko'rinish; b- o'shaning o'zi ochiq holatda; v- yondon ko'rinish; I- vanna

Zalining ustida yordamchi xonalar tomoniga surlladigan va suriluvchi devorlarga ega bo'lgan yopimali basseynlar loyihalarida (8.55.-rasm) rejada o'lchamlari 25×8 va 25×10 m bo'lgan vannalarning variatlari nazarda tutilgan. O'zgartirishga faqat 4 min. vaqt talab etiladi. Basseynlarning asosiy konstruksiyalari po'lat, yelimlangan yog'och va plastmassadan loyihalashtirilgan.

Bunday yechimning afzalligi uning nisbatan oddiyligidadir: ustyopma binoning o'zgartirmaydigan karkas to'sinlari bo'yicha ko'ndalang



yo'nalishda ko'chadi, suriluvchi devorlar esa vannali zalning ichki fazosini to'liq ochishga imkon beradi. Konstruksiyaning kamchiligi karkasning yig'ilmasligidadir.



8.54.- rasm. Yopmasi tentli suriluvchi basseyн:

a- yopiq holatdagи basseynning umumiy ko'rinishi; b- ochiq holatdagи ko'rinish

Tavsiflangan sxema Fransiyada yoshlar va sport ishlari bo'yicha Davlat kotibiyatining rejasiga ko'ra ko'p sondagi basseynlarni qurish uchun umumiy loyihalarni ishlab chiqishga asos qilib olindi.




8.55.- rasm. Yopmasi yordamchi xonalar tomoniga suriladigan basseyn:
a- yopmasi siljigan; b- siljish yo'nalishi; 1- 25x10m li vanna; v- vannaning ko'rinishi

Tajribaning ko'rsatishicha, yuqorida aytib o'tilgan turdag'i basseynlarni ahollsi kamida 20 ming bo'lgan aholi punktlarida barpo qilish maqsadga muvofiq, aholisi kamroq bo'lgan aholi punktlari va mакtablar uchun bunday basseynlarni qurish va foydalanish xarajatlari juda katta bo'lar edi.

Fransiyada kichik mobil basseynlarning loyihalari yaratilgan bo'lib, ularga qilinadigan xarajatlar uncha katta bo'lмаган aholi punktlari va bolalar muassasalari uchun ma'quldir. Bunday turdag'i basseynlar bolalarni suzishga о'rgatish uchun mo'ljallanadi, chunki buming uchun 2-3 oy vaqt etarli, basseynlarning konstruksiyalari cheklangan muddatga о'rnatish uchun mo'ljallangan yig'iluvchi-ajraluvchi bo'lishi mumkin.

Fransiyada qo'llaniladigan, kichik aholi punktlari va bolalar muassasalari uchun yig'iladigan-ajraladigan usti yopiq mobil basseynlar quyidagi tafsiflarga ega: rejada vannaning o'lchamlari – 12,5x6,0m, chuqurligi 0,9m, aylanib o'tuvchi yo'laklarning eni 0,8-1,2m, rejada zalning o'lchamlari 15,3x7,2m, aylanib o'tuvchi yo'laklar ustidagi balandligi 2,5m, vanna ustida esa 2,0m. Devorlar va yopmalar yozda to'la ochiladi va qishda berkitiladi; yechinish-kiyinish xonalarining bir vaqtdagi sig'imi 20 kishi. Basseyn majmuuning xizmat qilish kafolat muddati kamida 5 yil.

Fransuz firmasi yig'iluvchi-ajratiluvchi basseynlarning ikki xil turini ishlab chiqqan: "VAM-1", shitlardan va "VAM-2" – ko'taruvchi konstruksiyalari yengil nietall rom ko'rinishida va polimer matodan ikki qavatlilik tentli yopmali yig'iladi (8.56.-rasm).



8.56.- rasm. "VAM" (Fransiya) turidagi yig'iladigan-ajratiladigan basseynlarning umumiyo ko'rinishlari (aksonometriya)

- a- "VAM-2" turidagi basseyn; b- "VAM-1" turidagi basseyn; 1- kirish; 2 va 3- echinish-kiyinish xonalari; 4- basseyn vannasiga o'tish yo'li; 5- texnik xona; 6- dushxona va hojatxona; 7- vannaning cheti sathidagi platforma; 8- aylanib o'tish yo'lakchasi; 9- basseyn vannasi; 10- vannaga kirish uchun zina (narvon); 11- devorlar karkasining yorug' shaffof to'ldirgichi; 12- qo'sh yopma; 13- bino karkasi romi.


"VAM" turidagi basseynni joylashtirish uchun sirtining qiyaligi 25 dan ortiq bo'limgan va ko'tarish qobiliyati kamida 98 kPa ($1\text{kg}/\text{sm}^2$) bo'lgan gruntli, o'lchamlari kamida $25 \times 27\text{m}$ bo'lgan yer maydoni tabab etiladi. Yig'ish ishlarni 4-6 kishidan iborat brigada 3-4 ish kunida bajaradi, ajratish ishlari esa 1 sutkada amalga oshiriladi (8.57.-rasm). Transport vositalari basseynni montaj va demontaj qilish uchun ko'tarish qurilmalariga ega.

8.3.7. Basseyн vannalarining ishlash tamoyillari

Gruntga botirilgan vannaming hisobi yuklanishlar ta'sirining ikki holati uchun amalga oshiriladi:

1. Devorga grunt tomonidan eng katta ta'sir ko'rsatish.
2. Devorga suv tomonidan eng katta ta'sir ko'rsatish.


Bunday vannalarning devorlarini hisoblash sohillardagi tirkak devorlarniki kabi amalga oshiriladi.



8.57.- rasm. "VAM" turidagi basseynni yig'ish ketma-ketligi:

a- maydoncha va detallarni yig'ishga tayyorlash; b- aylanib o'tish yo'lakchalarini va vanna karkusi tayanch elementlarini o'rnatish; v- rom ustunlarini va shamol bog'lanishlarini o'rnatish; g- yopmaning ko'taruvchi elementlarini o'rnatish; d- tentni yotqizish; e- tentni tortish va mahkamlash.

Alohiba ustunlar yoki devorlarga tiralgan basseyн vannalari ularni suv bilan to'ldirilgan hol uchun hisoblanadi, bunda uning tubiga vertikal gidrostatik bosim va yon devorlariga gorizontal bosim hisobga olinadi (8.58.- rasm).




8.58.- rasm. Alovida ustunlarga tiralgan basseyňlar vannalarini hisoblash sxemasi

Bundan tashqari, vannaning devorlari va tubi cho'zuvchi kuchlanishlar ta'siriga duch kelishini hisobga olish zarur.

8.4. TOBBOGANLAR

Sport inshootlari qatoriga suvgaga egri chiziqli tushishlari bo'lgan minoralarni ifodalovchi tobboGAN deb ataluvchi qurilmalar ham kiritiladi. TobboGANlar, odatda, temirbetonli, monolit romli konstruksiyada qilinadi (8.59.- rasm).



8.59.- rasm. TobboGAN konstruksiyasi


Nazorat savollari:

1. Sport inshootlariga qanday konstruksiyalar kiritiladi?
2. Minbarlarning konstruksiyalari qanday bo'lishi kerak?
3. Minbarning ko'taruvchi konstruksiyalari materiallari nimalardan iborat bo'ladi?
4. Stadionlarning tomlari qanday bo'lishi mumkin?
5. Stadionlarning minbarlari ostidagi bo'shliq nimaga mo'ljallanadi?
6. Stadionlarning minbarlaridagi metall konstruksiyalari nima uchun qo'llaniladi?
7. Minbarlarni hisoblashda foydalaniladigan asosiy yuklanishlar qaysilar?
8. Basseyv vannalari konstruksiyalari uchun qo'llaniladigan beton sinfi?
9. Asos gruntiga tayanish usuliga ko'ra qanday basseynlar bo'lishi mumkin?
10. Usti yopiq basseynlar konstruksiyalari qanday bo'ladi?

9. MINORA VA MACHTALAR EUL TAYANCHLARI

Baland inshootlarga radio va televidenie antennalarining tayanchlari, suv tortib oluvchi va suv bosimi minoralari, shamollatish va tutun chiqarish quvurlari, elektr uzatish liniyalari (EUL) tayanchlari kiradi.

Konstruktiv sxemasiga ko'ra ular ikkita asosiy turga ajratilishi mumkin – minoralar va machtalar. Minora deb maxsus poydevorda armatura yordamida bikr mahkamlangan baland inshootga aytildi (*9.1.- rasm*).




9.1.- rasm. Jahoning turli malakatlarida qurilgan minoralar:

a- Toronto, 550m; b- Moskva, 540m; v- Toshkent, 371m; g- Parij, 312m

Machta – baland inshoot bo'lib, uning barqaror holati tortqichlar tizimi bilan ta'minlanadi (*9.2.- rasm*). EUL minorali, machtali yoki peshtoqli inshoot hisoblanib, havo orqali o'tkaziladigan elektr uzatish liniyalarini osish uchun mo'ljallangan (*9.3.- rasm*).

Baland inshootlar asosan unga va undagi jihozlarga qo'yilgan go-rizontal shamol yuklanishlarini qabul qilishga ishlaydi. Shamol ta'siri

kuchlari faqat shamolning tezligi bosimiga emas, balki inshootning va uning ayrim elementlari shakli va o'lchamlariga bog'liq bo'ladi.




9.2.- rasm. Machtalar:

a, b, v- namunaviy machtalar (MDH) (120, 205, 400m); g- quvursimon machta (194m)

Shamol yuklanishlari inshootning yoki uning elementlarining tashqi sirtiga qo'yilgan normal bosim va uning tashqi sirtiga urinma bo'yicha yo'nalgan ishqalanish kuchlarining yig'indisi sifatida qarab chiqildi. Shamol bosimi qiymatini O'zbekiston Respublikasining shamolli hududiga bog'liq holda QMQ 2.-01.07.-97 "Ta'sir ko'rsatish yuklanishlari"ga muvofiq qabul qilinadi. Bunda joyming turiga qarab aniqلانigan balandlik bo'yicha shamol bosimining o'zgarish koeffitsienti hisobga olinadi. Shamol yuklanishl komponentlarini aniqlashda aerodinamik koeffitsientlarning tegishli qiymatlaridan foydalilanadi, bu koeffitsientlar inshootning va uning elementlari shakliga bog'liq bo'ladi. Shamol yuklanishi ularning o'rtacha pulsatsiyasini tashkil etuvchi-

lari sifatida, u inshootlarning xususiy tebranish chastotalarini hisobga oлган holda aniqlanadi.



9.3.- rasm. EUL tayanchlari:


*a- V- simon tortqichlarda; b- peshtoqli tortqichlarda; v- minorali;
g- murakkab minorali*

9.1. MINORALAR

Minoralar po'lat, alyuminiy qotishmalari va temirbeton qo'llanib barpo etiladi. Metall panjarali minoralar eng keng tarqalgan. Temirbeton minoralar kam quriladi va ularning balandligi odatda 200m dan ortmaydi. Shunga qaramay Yevropadagi eng baland (1975 yilgacha jahonda eng baland hisoblangan) Moskvadagi balandligi 540m bo'lgan Ostankino teleminorasidan zo'riqtirilgan temirbetondan qurilgan va po'lat antenna bilan tugallangan. 1975 yilda Torontoda (Kanada) qurilgan minora undan balandligi bo'yicha 10m oshadi va xuddi shunga o'xshash konstruktiv sxemaga ega (9.1.-rasm).

Toshkentdag'i televizion minora Markaziy Osiyodagi o'ziga o'xshash inshootlarning eng balandi hisoblanadi. Uning balandligi 375m tashkil etadi. Teleminora 1978-yildan boshlab 6 yil mobaynida qurildi. U 1985-yil 15-yanvarda foydalanishga topshirilgan (*9.1.- rasm*).

Kichik balandlikdagi (50...100m gacha) metal panjaralari minoralar odatda prizmatik shaklga ega (parallel belbog'li sxema). Katta balandliklarda (100 dan 300m gacha) minoralarga piramida shakli beriladi, bu ularning barqarorligi yaxshi bo'lishini va shamol yuklanishiariga yaxshi qarshilik ko'rsatishini, shuningdek, belbog'larida kuchlanishlarning nisbatan bir tekis taqsimlanishini ta'minlaydi. Panjaralari minoralarning ko'ndalang kesimi uchburchakli, kvadrat yoki ko'pburchakli bo'lishi mumkin. Minora asosi kengligining uning balandligiga nisbati 1/12



9.4.- rasm. Minoralarni hisoblashga oid:

a- to'rt qirrali, b- uch qirrali.

dan 1/6 gacha bo'lgan chegaralar da qabul qilinadi. Bunda kengligining ortilishi shamol yuklanishlari vujudga keltiradigan momentlardan belbog'larda hosil bo'luvchi kuchlanishlarning pasayishiga imkon beradi, buning natijasida esa belbog'larga va poydevorlarga material sarfi kamayadi, lekin panjara va diafragmalarga bo'lgan material sarfi ortadi.

Shamol yuklanishlari ta'sirini kamaytirish va barqaror vaziyatni ta'minlash uchun minoralar yuqori qismi shamol ta'siridan eguvchi momentlar epyurasiga muvofiq kengayib boradigan qilib loyihalanadi. Minora belbog'larining egri chiziqli shakli belbog'larida siniqlar qilishni talab etadi, bu ularning konstruksiyasini murakkablashtiradi. Shunga qaramay

balandligi 300m dan ortiq bo‘lgan minoralarning ko‘pchiligi shunday shaklga ega. Bunday shakl birinchi marta 1889-yilda Parijda Eyfel tomonidan qurilgan minorada qo‘llanilgan edi. Shunigdek, XX asrning boshida yog‘och va metall konstruksiyalardan foydalanib qurilgan original Shuxov minoralarini ham ta’kidlab o‘tish lozim. Ularning afzalliklari shundan iborat ediki, bunda egrisi chiziqli shakldagi fazoviy karkas bir xil uzunlikdagi to‘g‘ri chiziqli elementlardan yig‘ilar edi, bu ularni tayyorlash texnologiyasini soddalashtirar edi (*9.1.- rasmga qarang*).

2008-yilda qurilgan eng zamonaviy noyob inshootlardan biri Dubaydag‘i osmono‘par minora hisoblanadi, uning balandligi 818m ni tashkil etadi.

Ommaviy qurilishda piramida shaklidagi to‘rt qirrali minoralar uncha katta bo‘limgan balandliklarda va texnologik yuklanishlar kam bo‘lganda qo‘llaniladi, ko‘p qirralilari esa – balandlik yuqori bo‘lganda va qurilmalardan tushadigan yuklanish katta bo‘lganda qo‘llaniladi. Panjarali minoraning qirralari tekis shaklni ifoda etadi. Piramidasimon minoralarda belbog‘i uzunligi bo‘yicha bo‘g‘inlar orasidagi masofa yuqoriga ko‘tarilgan sari ularning kengligi kamayishiga muvosiq kamayib boradi. Belbog‘lar uchun aerodinamik sifatlari yaxshi bo‘lgani tufayli quvursimon kesimlar afzaldir. Balandligi uncha katta bo‘limgan minoralarda belbog‘lar burchakli va boshqa prokat profillaridan tayyorlanadi. Belbog‘lari quvurdan bo‘lgan minoralarda dumaloq po‘latdan oldindan zo‘riqtirilgan qiya karkasli xochsimon panjara eng ma‘qul hisoblanadi. Belbog‘lari burchakli va boshqa prokat profillardan bo‘lganda belbog‘larning hlsobdagi uzunligini kamayitish uchun zarur shprengel qo‘sishchali uchburchak v romb panjaralar qo‘llaniladi.

Minoraning belbog‘lari va panjaradagi kuchlanishlar poydevorda konsolli mahkamlangan va ko‘ndalang qo‘yilgan shamol yuklanishi va xususiy og‘irligidan hamda texnologik qurilmalardan o‘qdagi yuklanish bilan yuklangan fazoviy shakldagi (fermadagi) kabi aniqlanadi. Ularning ta’siri natijasida fazoviy fermada eguvchi moment, ko‘ndalang va bo‘ylama kuchlar vujudga keladi, ular belbog‘ va panjara sterjenlarida cho‘zuvchi va siquvchi yig‘indi kuchlanishlarni vujudga keltiradi.

Eguvchi moment va ho'ylama kuchni belbog'lar, ko'ndalang kuchni panjara qabul qiladi. To'rt qirrali minorada eng katta N_1 kuchlanish shamol yuklanishi kvadrat ko'ndalang kesimning diagonali bo'yicha yo'nalganda va ishga faqat ikkita belbog' qo'shilganda vujudga keladi (9.4.- a rasm).

$$N_1 = \frac{M}{b \cdot \sqrt{2}} \quad (9.1)$$

Bu yerda, b - yoqning rejadagi o'lchami.

Uch qirrali minorada belbog'dagi gorizontal yuklanishdan eng katta kuchlanish (9.4.- rasm)

$$N_1 = \frac{2M}{b \cdot \sqrt{3}} \quad (9.2)$$

ga teng.

Vertikal R yuklanishlardan N_2 bo'ylama kuch minoraning belbog'lari orasida ularning vertikal o'qqa α burchak ostida og'ishini hisobga olgan holda teng taqsimplanadi:

$$N_2 = \frac{P}{n} \cos \alpha \quad (9.3)$$

Belbog'da gorizontal va vertikal yuklanishlardan to'liq o'qqa kuchlanish

$$N = \pm N_1 + N_2 \quad (9.4)$$

ga teng.

Minora belidagi panjara elementlaridagi kuchlanishlarni qirrada ta'sir qiluvchi ko'ndalang kuchlarning yig'indisi bo'yicha aniqlanadi, u minoraning asosiga siqilgan va gorizontal qo'yilgan shamol yuklanishiiga ishlovchi tekis konsolli ferma kabi qaraladi. Bunda vertikal yuklanish panjarani ishga jalb qilmasdan, faqat belbog'larning siqilishini vujudga keltiradi, bu esa prizmatik minoralar uchun butunlay, piramidalni minoralar uchun esa qisman to'g'ridir.

Siqilgan elementlar kesimini tanlab olish ularning bo'ylama egilishga, cho'zilgan elementlar kesimini tanlab olish esa markaziy cho'zilishga ishslash sharoitidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Bo'g'inlarning konstruktiv qarori minoraning elementlari tanasi ning eni katta bo'lgami tufayli qurilish maydonchaslga sochilgan holda kelishini hisobga olib qabul qilinadi. Minoralarning namunali konstruksiyalarida boltlarda mahkamlanadigan flanetsli birikmalar keng qo'llaniladi. Qiya karkaslar uchdag'i fasonkalar bilan ta'minlanadi, ular konstruksiyanı montaj qilishda belbog'ning quvursimon elementlariga oldindan payvandlangan flanetslar orasida siqiladi. Dumaloq po'latdan qilingan qiya karkaslar uchi fasonkalar bilan ta'minlagan, ularga bolt o'tkazish uchun teshiklari bo'lgan juft halqa (teshik) payvandlangan. Bu bolt bilan qiya karkas belbog' va flanetsga payvandlangan fasonkaga mahkamlanadi (*9.5.- a, b rasm*).

Tananing kengligi uncha katta bo'limganda seksiyali minoralar qo'llaniladi, uning elementlari payvandlab biriktiriladi, seksiyalar esa bir-biri bilan boltlar yordamida tutashtiriladi.


9.2. MACTALAR

Machtaning konstruksiyasi uchburchakli, kvadrat yoki dumaloq kesimli tanadan va tortqichlardan iborat. Machtaning tanasini asosan prizmasimon shaklda panjarali qilib yasaladi, bunday tayyorlash, ayrim seksiyalarni qo'shib borish va tutashtirish usulida montaj qilish uchun ham qulaydir. Belbog'lar ko'pincha quvurlardan tayyorlanadi, bu esa flanetsli birikmalarni qo'llashga imkon beradi (*9.5.- v.g.d rasm*).

Uch qirrali machtalar bir-biriga rejada 120° burchak ostida joylashgan tortqichlar bilan tortiladi, to'rt qirralisi esa ikkita o'zaro perpendikulyar yo'nalishda tortiladi (*9.6.-rasm*). Machtaning balandligi bo'yicha tortqichlar hir-biriga parallel holda gorizontga 45° burchak ostida, yoki bir necha yaruslarning tortqichlar guruhini bir poydevoran yo'naltiriladi va ularni reyalar bilan bo'shatiladi (*9.7.-rasm*).


Oxirgi holatda yuqori yarus tortqichining gorizontga nisbatan chegaraviy qiyalik burchagi 60° ni tashkil etadi. Rejada tortqichlar

machta tanasi o'qiga nisbatan radial yo'naliishlarda joylashtiriladi: uchta – tananing kesimi uchburchakli va yumaloq bo'lganda, to'rtta kvadrat bo'lganda. Arqonli tortqichlarning uchlari po'lat stakanlarga ruxli yoki boshqa qotishmalar bilan quyiladi.




9.5.- rasm. Panjaralari minoralar va machtalar bo'g'inlari:

a- namunali minoraning montaj bo'g'ini; b- namunali radiomachtaning bo'g'i ni; v- namunali radiomachtaning bir qismi (qirrasi tomonidan ko'rinishi); g- EUL machta tayanchimi poydevorga mahkamlash; d- EUL machtasi tortqichini zulfinli plitaga mahkamlash.



9.6.- rasm. Uch qirrali machtadagi



9.7.- rasm. Televizion machtadagi

Radiomachtalar asosan shamol yuklanishiga va shamolning tezlik bosimi kattaliklari va temperaturalarning turli xil nisbatlarida tortqichlarning taranglanishi vertikal tashkil etuvchisiga hisoblanadi (amaldagi me'yorlarga muvofiq). Machtalar orasidagi simli antennalarning uzilishi mumkinligi ham, shuningdek, konstruksiyalar va antennalarning barcha elementlarida muz paydo bo'lishi hisobga olinadi.

Machta tanasining tortqichlar mahkamlangan joylarda eng katta elastik siljishi bu mahkamlagichlarning poydevorda joylashishining 1/100 balandligidan oshmasligi kerak. Machtaning uchi ham konsol uzunligining og'ishi 1/100 dan oshmasligi kerak.

Machtani hisoblash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda machta tanasi bikr tayanch-tortqichiarda yotuvchlari siqib-egilgan sterjen sifatida qaraladi, shu bilan birga, bo'ylama kuch konstruksiyalarning va machtalarda joylashgan qurilmaning hamda tortqichlarning reaktiv kuchlarining vertikal tashkil etuvchilari yig'indi tarzida aniqlanadi. Bu kuchlamishlarga ko'ra machta tanasi va tortqichlar kesimi tanlab olinadi, hisoblashning ikkinchi bosqichida tortqich boshlang'ich kuchlanishga ega tortilgan elastik ip (tanlangan osilib turish bilan) sifatida hisoblanadi va tortqichlar mahkamlangan joylarning mumkin bo'ladigan gorizotal siljishlari aniqlanadi. Shundan so'ng machta tanasi elastik egiluvchi tayanchlarda yotuvchi siqib egilgan sterjen sifatida hisoblanadi. Izolyatsiyalangan machtalarda tayanch bochkasimon chinni izolyatorlardan qilinadi, unga po'latdan qo'yilgan balanslangan tayanch yotqiziladi.


9.3. ELEKTR UZATISH LINIYALARI TAYANCHLARI

Elektr uzatish liniyalarida metall tayanchlar asosan yuqori kuchlanishli (220, 330, 500 kVt va undan ortiq) liniyalar uchun qo'llaniladi. Oraliqli ankerli, burchakli va oxirgi tayanchlar farq qilinadi. Oraliq tayanchlar (*9.8.- rasm*) asosan tortilgan simlarni ko'tarib turish uchun mo'ljallangan. Ular 220-330 kVt kuchlanishli liniyalar uchun 200-400m masofalarda va yanada quvvatli limiyalar uchun 400-600m

masofalarda joyning relyefiga bog'liq holda o'rnatiladi. Simlarning osilib turishi balandligi odatda yer sirtidan eng ko'p osilib turgan joygacha kamida 6-10m bo'lishi hisobida belgilanadi. Buning uchun tayanchlarning balandligi 20-40m bo'lishi kerak. 220-500 kVt liniyalar uchun oraliq tayanchlarning massasi 4-8 tonnani tashkil etadi.


Ankerli tayanchlar taxminan 5-7 ta oraliq tayanchlardan keyin qo'yiladi. Ularning asosiy vazifasi – simlar bir tomonlama uzilganda ularning tortilishini to'la qabul qilish. Ankerli tayanchlar burchak tayanchlarini aralash o'rnatish ma'quldir (9.9.-rasm). Bunday tayanchlar oraliq tayanchlardan 2-2,5 marta og'irdir.

Tayanchlarning konstruksiyalari juda xilma-xildir. Bitta tanali (bir va ikki zanjirli) va portalli tayanchlar farq qilinadi. Tortqichlardagi tayanchlar eng tejamlil tayanch turlaridandir.



9.8.- rasm. 220kVt ikki zanjirli elektr uzatish liniyasining bir tanali oraliq tayanchi

Elektr uzatish liniyalarining tayanchlarini ba'zida borish qiyin bo'lgan joylarda o'rnatishga to'g'ri keladi. Shuning uchun tayanchlarining konstruksiyalari tashish va montaj qilish uchun yengil va qulay bo'lishi kerakligi juda muhimdir. Shu munosabat bilan tayanchlarda po'latning St 3 markasidan keng foydalanish bilan birga pastlegirlangan po'latdan foydalaniladi va bundan keyin alyuminiy qotishmalari keng qo'llaniladi.



9.9.- rasm. Elektr uzatish liniyalarining portalli machtalarining tashqi ko'rinishi

Bir tanali tayanchning konstruksiyasi to'rtta tekis fermalarni tashkil etuvchi to'rtta belbog'li burchakliklar va panjaralardan bajariladi. Tayanchning hisobiylar yuklanishlari vertikal va gorizontall kuchlardan tashkil topadi. Vertikal yuklanishlar xususiy, simlarning izolyatorlar to'plami bilan birgalikdagi, gorizontal trosning va simlardagi hamda trosdagi muzlarning vaznlari yig'indisidan iborat. Vertikal yuklanishlar tayanchning belhog'lari orasida taqsimlanadi. Gorizontal yuklanishlar shamol va simlarning bo'lishi ehtimoli bo'lgan bir tomonlama uzilishi (qisman yoki to'la) yuklanishi yig'indisidan iborat. Yuklanishlarning turli xil qo'shilishlari elektr uzatish liniyalarini loyihalashning maxsus me'yorlari bilan belgilanadi.

Gorizontal yuklanishlar ta'sirida tayanchni hisoblash asosda siqib qo'yilgan konsolli chorqirra temir sifatida olib boriladi. Shu bilan birga, gorizontal yuklamish chorqirra temir o'qiga gorizontal tekislikda ta'sir qiluvchi va tayanchning buralishni vujudga keltiradi, uni ikkita tekis fermalar qabul qiladi. Bu fermalarning belbog'lari va panjaralaridagi kuchlanish oddiy usullar bilan aniqlanadi. Burovchi moment M_{kr} tekis fermalarning panjaralari qabul qiladigan ko'ndalang kuchlarni vujudga keltiradi.

Tayanchning to'g'ri to'rtburchakli kesimga ega har bir ko'ndalang kesimida burovchi momentning ta'siridan ikki just vujudga keladi (9.10. a rasm).

$$Q_1 b + Q_2 a = M_{kr} \quad (9.5)$$

Agar to'g'ri to'rtburchakli ko'ndalang kesimli tayanch yaxlit yupqa devorli berk sterjenni ifodalasa (to'g'ri to'rtburchak quvur ko'rinishida), u holda burovchi moment butun kontur bo'ylab urinma kuchlanishlar t ni vujudga keltirgan bo'lar edi. Ma'lumki, berk yupqa devorli profilda profil qalinligiga ko'paytirilgan urinma kuchlanish t = t·d pogon urinma kuchlanishini ifoda etadi. U butun kesim bo'ylab o'zgarmas va berk kontur bilan chegaralangan ikkilangan yuzaga bo'lingan buralish niomentiga teng:


$$t = td = \text{const}; \quad t = \frac{M_{kr}}{2a \cdot b} \quad (9.6)$$

ko'ndalang kuch to'g'ri to'rtburchakning har bir qirrasidagi urinma kuchlanishlar oqimini yig'adi, deb hisoblash munikin va binobarin.

$$Q_1 = ta = \frac{M_{kr}}{2b}; \quad Q_2 = tb = \frac{M_{kr}}{2a}; \quad (9.7)$$

Bu ko'ndalang kuchlanishlarga tayanchni egishdan hosil bo'ladi-gan ko'ndalang kuchlar qo'shilishi kerak. Ko'ndalang kuchlarni aniqlab, panjara elementlaridagi kuchlanishlarmi aniqlash oson.

Tayanch qirralari panjarasi uchburchakli, uchburchakli qiya karkasları bilan va qiya karkaslarsiz kesishuvchi bo'lishi mumkin (konstruksiyaning o'zgarmasligini ta'minlovchi chetki panjaralaridan boshqa). Qo'shni qirralar qiya karkaslarining kesishish nuqtalari ustma-ust tushishi (9.10.- b rasm) yoki panelning yarmiga siljigan bo'lishi mumkin (archali joylashuv, 9.10.- v rasm). Panjaraning sxemasi bitta burchaklikdan iborat belbog'ning hisobiy uzunligini aniqlashga ta'sir ko'rsatadi.



9.10.- rasm. Elektr uzatish liniyalari tayanchlarini hisoblashga oid

Qo'shni qirralarda bo'g'inlari qo'shilgan tayanchlar uchun (9.10.- b rasm) belbog'ning hisobiy uzunligi panelning l_n uzunligiga teng qilib qo'llaniladi. bunda burchaklik inersiyasining radiusi minimal qilib qabul qilinadi (o'q burchakligi tokchalariga nisbatan qiya). Qo'shni qirralarda bo'g'inlari birga qo'shilmaydigan (sig'maydigan) tayanchlar uchun (9.10.- v rasm) belbog'ning hisobiy uzunligi l_n

panel uzunligining μ koeffitsientga ko‘paytmasiga teng, ya’ni $l_n \cdot \mu$ qilib qabul qilmadi.

μ_n koeffitsient ShNK 4.02.09.04 bo‘yicha belbog‘ va qiyasining pogon bikrliklari nisbatlariga bog‘liq holda aniqlanadi va $m_n = 1\dots 1.13$ oraliqlarda bo‘ladi. Qiya karkaslar belbog‘larga bevosita yoki fasонkalar orqali payvandlanadi. Barcha montaj birikmalari bolt bilan mahkamlanishi, shu bilan birga, bitta bolt bilan biriktirish mumkin. Birikish turi ishslash sharoitining tegishli koeffitsienti bilan, shuningdek, qiya karkaslarning hisobdagagi uzunliklarini keltirish koeffitsientlari bilan hisobga olinadi (ShNK 4.02.09.-04).

9.4. MACTALARNI HISOBBLASH ASOSLARI

Machtalarni hisoblashda yuklanishlar va ta’sirlarning tegishli qo‘shilishlari qabul qilinadi.

Shamol yo‘nalishini tanlashda machtaga shamol yuklanishining boshqa yuklanishlar bilan eng noqulay qo‘shilishini hisobga olinadi. Hisoblashlarda tortqichlarning machta tanasiga bosimi ham hisobga olinadi. Muz qoplashi konstruksiyalarning barcha elementlarida, arqonlarda va antennalarda hisobga olinadi.

Ko‘ndalang kuchlar yupyurasi olingan eguvchi momentlar epyurasiga muvofiq quriladi. Tanadagi bo‘ylama kuchlar:

$$N = N_c + N_{ob} + N_v + N_t, \quad (9.8)$$

bunda N_c – tananing yuqorida yotuvchi qismi og‘irligi;

N_{ob} – quyida joylashgan qurilmaning og‘irligi;

N_v – arqonning og‘irligi;

N_t – arqonlarning taranglanishining vertikal tashkil etuvchisi.

Topilgan kuchlanishiar $M_1 Q - T$ bo‘yicha taning kesimi mustahkamlikka va chidamlilikka tekshiriladi, shuningdek choklar hisoblanadi. Oldindan belgilangan kattaliklarga bog‘liq g‘olda tanani hisoblashni arqonlarning boshlang‘ich taranglanishini borish usull bilan, momentlar epyurasini berish usuli bilan va tortqich tugunlarining siljishini berish usuli bilan amalga oshirish mumkin.

Machta elementlari kesimini quyidagi formulalar bo'yicha tayinlash mumkin:

1- Arqon uchun kuchlanish bo'yicha:

$$N_T = K \frac{R}{\sin \alpha} \leq 0,5 N_F \quad (9.9)$$

bunda N_T - shamolda turgan arqon kuchlanishi;

R- tortqich tugunidagi reaksiya;

α - tortqich oldi va tana o'qi orasidagi burchak;

N_F - arqonning uzilish kuchlanishi;

K- arqonlar soniga bog'liq koefitsient;

2- Moment bo'yicha tana uchun:

$$M = ql^2, \quad (9.10)$$

bunda q- tananing mazkur oralig'ida ko'ndalang yuklanishlar bilan bir tekis taqsimlanishning o'rtachalashhtirilgani;

1- tana uchun bo'ylama kuch bo'yicha:

$$N = 0,5 \sum n N_f \cos \alpha + N_c + N_{ab}, \quad (9.11)$$

n- yuqorida joylashgan tortqichlar somi.

Bu formulalar bo'yicha olinadigan natijalar taxminiydir va hisoblash tugallangandan so'ng aniqlasbtirishni talab etadi.

Nazorat savollari:

1. Baland inshootlarga qanday inshootlar kiradi?
2. Minora nima?
3. Machtalar va EUL tayanchlari baland inshootlarining qanday xususiyatlari bor?
4. Metall panjarasimon minoralarning shakllari.
5. Minoralarning belbog'larida va panjaralaridagi kuchlanishlar qanday aniqlanadi?
6. Minora bo'g'inlarining konstruktiv yechimi qanday qabul qilinadi?
7. Machtalarning konstruksiyasi qanday elementlardan tashkil topadi?
8. Radiomachtalar qanday kuchlanishlarga hisoblanadi?
9. Elektr uzatish liniyalarining qanday tayanchlari inavjud?
10. Tayanchning hisobdagi yuklanishlari qanday tashkil etuvchilardan iborat?

10.REZERVUARLAR VA SUV BOSIMI MINORALARI

10.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Rezervuarlar sanoatning turli xil sohalarida: transportda, qishloq xo'jaligida va boshqalarda qo'llaniladi, ammo shahar va sanoat korxonalarining vodoprovod-kanalizatsiya xo'jaligida, shuningdek, neft va neftni qayta ishlash sanoatida qo'llaniladi. Bir qator sanitariya-texnika inshootlari, masalan: metantank, tindirgich va boshqalar, shuningdek, suvni sovitish uchun basseynlar rezervuarlardan faqat vazifasi va texnologik jihozlari bilan farq qiladi. Konstruktiv jihatdan bu inshootlar o'rtasida umumiylik anchagini.

Ma'lum balandlikda rezervuarlarni o'rnatish uchun mo'ljallangan inshootlar suv bosimi minoralari deyiladi. Bu inshootlar aholi punktlarini (yoki alohida obyektlarni) suv bilan ta'minlash tizimlariga kira-di va nasos stansiyalari bo'lmaganda yoki ishlamaganda vodoprovod tarmoqlarida suv bosimini hosil qilish, suv iste'molini tartibga solish, gidravlik zarbalarini bartaraf etish va h.lar uchun xizmat qiladi.

Suv hosimi minorasining konstruktiv qismi tarkibiga rezervuar (bitta yoki hir nechta), tayanch va poydevor kiradi.

Suv bosimi minoralarining asosiy parametrlari: rezervuarning hajmi va inshootning umumi gabaritlariga ta'sir ko'rsatuvchi balandlikda uning joylashuv belgilari texnologik hisob-kitoblar asosida helgllanadi.

Suv bosimi minoralarini qurishning zamonaviy amaliyotida butun inshoot yoki uming tayanch qismi hamda poydevori temirbetondan qilinadi, rezervuar esa metalldan (aralash konstruktiv echim) tayyorlanadi.

10.1.1. REZERVUARLAR

Neft mahsulotlarining asosiy xususiyati – ularning bug'lanishi bo'lib, u rezervuar devorlariga bug'larning ichki bosimini hosil qiladi. Neft mahsulotlarining bug'lanishi ularning yo'qotishiga olib keladi.

Ularga qarshi kurashish – rezervuarlarni loyihalashdagi asosiy vazifalaridan biridir.

Bug'lari uncha katta bo'lgan elastiklikka ega bo'lgan neft mahsulotlari uchun (masalan, kerosin, gazolin va boshqalar) past bosimli rezervuarlar qo'llaniladi, bu rezervuarlarda ichki ortiqcha bosim $0,02 \text{ kgs/sm}^2$ ortiq emas, vakuum esa $0,003 \text{ kgs/sm}^2$ dan ortmaydi.

Bug' elastikligi ($0,2\text{-}0,3 \text{ kgs/sm}^2$), va vakuumi, $0,005 \text{ kgs/sm}^2$ ko'proq bo'lgan neft mahsulotlari yuqori bosimli rezervuarlarda saqlanadi.

Past bosimli rezervuar (10.1 - rasm) yassi tub, korpus va qoplama-dan iborat. Rezervuar uchun asos sifatida $20\text{-}30\text{sm}$ qalinlikdagi qum yostiqcha xizmat qiladi.




Рис. 29.1. Вертикальный резервуар низкого давления для хранения нефтепродуктов
а – общая вид; б – соединение листов корпушки; в – висячее покрытие; г – плавающее покрытие из жестких панелей, опирающихся на юбку

10.1.- rasm. Neft mahsulotlarini saqlash uchun past bosimli vertikal rezervuar:

a- umumiyoq ko'rinishi; b-g- korpus listlari birikmalari; d- osilma yopma;
e- ustunga tayanuvchi bikr panellardan iborat yopmaning rejasi

Past bosimli rezervuarlar sig‘imi 100 dan 10000m³ gacha, balandligi 5,5 dan 12,5m gacha va diametri 5,5 dan 33,5m gacha bo‘ladi. Suyuqlik massasidan juda kichik siqilishni sezuvchi tubining qalinligi konstruktiv ravishda 4 dan 6mm gacha belgilanadi. Tubning tashqi listlari qalinligini 8mm qilib qabul qilinadi.

Past bosimli rezervuarlarning qoplamasiga quyidagi variantlardan birida bajarilishi mumkin.

- Qoplama ko‘taruvchi qismi markaziy ustunga tayanuvchi bir tomonga nishabli po‘lat fermalardan iborat (*10.1.- a rasm*): fermalar bo‘yicha prokat progonlar va qalinligi 2-3mm bo‘lgan po‘lat to‘sama yotqiziladi;

- Qoplama ustunga tayanuvchi bikr panellardan qilingan (*10.1.- e rasm*);

- Osilma qoplama zont ko‘rimishidagi tayanch konstruksiyaga ega markaziy ustunga tayanadi (*10.1.- d rasm*).


Bu variantlarning hammasida ustun quvursimon kesimiga ega. Faqat cho‘zilishga ishlovchi va shuning uchun ham eng kichik massaga ega bo‘lgan osma qoplama maqsadga muvofiqroqdir.

Past bosimli rezervuarlarning qoplamlari saqlagich nafas olish klapaniga ega bo‘lib, 0,02 kgs/sm² dan ortiq bosimda bu klapan orqali bug‘lar rezervuardan tashqariga chiqadi. Bu saqlanayotgan eng qimmatbaho yengil fraksiyalarning chiqib ketishi oqibatida mahsulotlarining yo‘qotilishiga va ularning sifati yomonlashishiga olib keladi. Neft mahsulotlarining bug‘lanishini kamaytirish uchun rezervuarlar och ranglarga bo‘yaladi yoki issiqlik izolyatsiyasi qo‘llaniladi.

Neft mahsulotlarining yo‘qotilishlariga qarshi kurashning eng samarali usuli – yuqori bosimli rezervuarlarning qo‘llanilishidir (*10.2.- rasm*). Yuqori bosimli rezervuarlarning tubi va devorlari past bosimli rezervuarlar konstruksiysi kabi bo‘lib, faqat ularning devorlari bikrlik qovurg‘alari bilan kuchaytirilgan bo‘ladi. Sferotsilindrik qoplamaning karkasi bo‘lmaydi va alohida listlar bilan bajariladi. Yuqori bosimli rezervuarlarda bug‘larning bosimi 0,3 kgs/sm² bo‘lishi mumkin.

Rezervuarning qoplamasiga qoplama konstruksiysi massasi, bug‘larning ichki ortiqcha bosimi, bug‘lar tez soviganda vujudga kela-

digan vakuum, shamolning so'rib oluvchi ta'sirida bo'ladigan yuklanishlar va qor yuklanishini qabul qiladi.



10.2.- rasm. Neft mahsulotlarini saqlash uchun yuqori bosimli vertikal rezervuar

10.1.2. Rezervuarlarni hisoblash


Qoplama elementlaridagi hisobiy kuchlanishlar yuklanishlarning ikkita kombinatsiyasida aniqlanadi:

- 1) Hisoblanadigan element massasi, qor yuklanishi va vakuum;
- 2) Hisoblanadigan element massasi, bug'larning ichki bosimi va shamolning so'rishi.

Rezervuar devori suyuqlikning gidrostatik bosimidan va bug'larning bosimidan cho'ziladi. Suyuqlik sirti sathldan x chuqurlikda 1sm kenglikdagi polosaga hisobdag'i bosim (*10.3.- rasm*)

$$P_x = \gamma x n_1 + P n_2 \quad (10.1)$$

bo'jadi, bu yerda γ - suyuqlikning zichligi R- bug'larning ortiqcha bosimi; $n_1=1,1$ va $n_2=1,2$ –ortiqcha yuklanish koefitsientlari.



10.3.- rasm. Vertikal rezervuar qoplamasini hisoblashga oid

Halqa yarmining muvozanat shartidan

$$2T_x = R_x D$$

bundan $T_x = R_x D / 2$

bunda D- rezervuarning diametri.

δ qalinlikdagi rezervuarning devoridagi kuchlanish quyidagicha aniqlanadi:

$$T_x = \frac{(\gamma n_1 + P n_2) D}{2} \quad (10.2)$$

Listlarni uchma-uch chok bilan biriktirishda devorning talab etiladigan qalinligi

$$\delta = \frac{(\gamma n_1 + P n_2) D}{2mR_p}, \quad (10.3)$$

bu yerda m=0,8- ish sharoiti koefitsienti.

Agar devorning qalinligi o'zgarmas bo'lsa, u holda uni rezervuarning pastki qismi uchun aniqlanadi. Devorning qalinligi o'zgaruvchan bo'lganda balandligi 2-3m li alohida polosalar hisoblanadi.

10.1.3. Neft mahsulotlarini saqlash uchun gorizontal rezervuarlar

Gorizontal rezervuar (*10.4.- a rasm*) tsilindrishimon korpus va tubdan iborat. Yuqori qismi po'lat asosga ega bo'lgan yig'ma temirbeton ustunlar rezervuarning tayanchlari bo'lib xizmat qiladi.

Sig'imi 10 dan 150m³ gacha bo'lgan gorizontal rezervuarlarning diametri 1,4 dan 3,8m gacha va uzunligi 27m gacha bo'ladi. Bug'larning ortiqcha bosimi 18 kgs/sm² ga, vakuumi esa 0,5 kgs/sm² ga etishi mumkin.

Rezervuarning korpusi obechayka deb ataluvchi alohida seksiyalar- dan tashkil topgan. Korpus listlarini uchma-uch payvand choklari bilan biriktirish tavsiya etiladi, ammo ko'ndalang choklar uchun ustma-ust qilib tutashtirishga ruxsat etiladi. Rezervuar korpusining bikrligini ta'minlash uchun har bir obechaykani pero tarzida bukilgan burchaklardan iborat bikrlik halqalari bilan kuchaytirish ($D/\delta > 200$ bo'lganda) zarur. Rezervuarning ustunlarga tayanadigan joylarida diafragmalar o'rnatiladi (*10.4.- b rasm*). Rezervuarlarning tubi sferik, ellipsoid yoki bikr qovurg'ali yassi qilib ishlanaadi.

Gorizontal rezervuarlar odatda katta o'lchamda tayyorlanadi, ya'ni ularni tugallangan holda tashishga yo'l qo'yadigan o'lchamlarga ega bo'ladi.

Rezervuarlar ichki bosimga hisob qilinadi. Bundan tashqari, rezervuar korpusining ikki arkali to'sin sifatida ishiashida yuzaga keladigan kuchlanishlarni hisobga olish kerak (*10.4.- g rasm*). Ichki bosim ta'sirida vujudga keladigan devordagi kuchlamishlar (*10.4.- v rasm*) quyidagi formulalar bo'yicha amqlanadi:

$$T_1 = \frac{PD}{2}; \quad (10.4)$$


$$T_2 = \frac{PD}{4}, \quad (10.5)$$

bunda R- ortiqcha bosim, D va δ – rezervuar diametri va devoring qalinligi.

Egilishdagi kuchlanish:

$$I_3 = \frac{M}{W} \delta \approx \frac{4M}{\pi D^2}, \quad (10.6)$$

bunda M - eguvuvchi moment; D_{ср} - rezervuarning o'ttacha diametri.



10.4.- rasm. Neft mahsulotlarini saqlash uchun gorizontal rezervuar:

a- umumiyo'kiring; *b- tayanish joylaridagi diafragmalar;* *v- ichki bosim ta'sirida to'rdagi kuchlanishlar;* *g- rezervuarning to'sin sifatida ishlashida korpus-dagi kuchlanishlar*

Devorning mustahkamligini tekshirishda T_2 va T_3 kuchlanishlarni qo'shish zarur. Agar rezervuar korpusi listlari payvand choklari bilan biriktirilsa, u holda devorlarning qalinligi

$$\delta \geq \frac{PD}{2R_p^w} \quad (10.7)$$

$$\delta \geq \left(\frac{PD}{4} + \frac{4M}{\pi D_{st}^2} \right) \frac{1}{R_p^w} \quad (10.8)$$

chartlardan aniqlanadi.

10.2. SUV BOSIMI MINORALARI


10.2.1. Suv bosimi minoralarining konstruksiyasi

Suv bosimi minoralari suv bosimi tarmog'ida zarur bosimni vujudga keltirish va nasos stansiyalarining ishlashi to'xtaganda suv zaxirasi bilan ta'minlash uchun xizmat qiladi. Minoralar harakatlanuvchi qolipda monolit temirbetonda yoki fazoviy romli va yig'ma temirbetonda to'rli konstruksiya yoki sterjenli yig'ma ko'rinishda bajariladi. Monolit minoralardan yig'ma to'rli minoralar qiymati va materiallar sarfi bo'yicha ancha tejamli sifatida eng katta afzalliklarga ega.

Minoralardagi rezervuarlar odatda sig'imi uncha katta bo'lma ganda tubi yassi, dumaloq qilinadi va sig'imi $200m^3$ va undan ortiq bo'lqanda tubining shakli ancha murakkab qilib ishlanadi. Juda katta sig'imi ($1000m^3$ va undan ortiq) rezervuarlarga ega bo'lgan minoralar odatda rezervuarlardan yuklanishni qabul qilish uchun katta miqdordagi tashqi va ichki ustunlari bo'lgan rom turidagi to'rburchakli yoki rezervuarlar tayanadigan aylana bo'yicha va markaziy pilon bo'yicha dumaloq qilib tayyorланади. Qishi juda qattiq o'tadigan joylarda minoralar chodirlı qilib tayyorланади. Chodirlar suvni muzlab qolishdan muhofaza qilish uchungina emas, balki rezervuardan foydalanishni qulaylashtirish uchun ham kerak. Minora korpusi ochiq bo'lqanda va

chodiri bo'lmaganda bosimli – tarqatuvchi truboprovodni va rezervuarning o'zini termoizolyatsiya bilan isitish lozim.


10.5.- rasmda chodirli va qubbali tubga ega bo'lgan doiraviy rezervuari bo'lgan monolit suv bosim minorasi ko'rsatilgan. Minoraning balandligi 34m, bakniki 10m, rezervuarning sig'imi taxminan 900m^3 . Minora ko'chma qolipda barpo qilingan. Chodir bak tubi sathida chiqarilgan arkali plitaga tayanadi. Minora poydevori diametri 15m atrofida va qalinligi 0,65m bo'lgan dumaloq temirbeton plitadan iborat.




10.5.- rasm. Monolit suv bosimi minorasi.

10.6.- rasmda ochiq romli korpusli minoraga tayanuvchi Inttse rezervuari ko'rsatilgan. Rezervuar tayanch halqali to'sinidan chiqarilgan arkali plitada turuvchi temirbeton chodir bilan himoyalangan. Chodirli va konussimon qobiqlar bilan tashkil etilgan tubli Inttse rezervuari tubi qubbali rezervuardan tirash kuchlarini qobiqlari bilan o'zarosidirishi sababli tayanch halqasi hududida tortuvchi kuchlanishlarning bo'lmasligi tufayli afzallikka ega.


10.7.- rasmda temirbeton romli korpusga ega suv bosimi minorasi ko'rsatilgan. Minoraning romli tizimi yaxlit temirbeton konstruksiyasiga qaraganda ancha tejamlidir. U yig'ma temirbetonda bajarilishi ham mumkin.



10.6.- rasm. Inttse rezervuari



10.7.- rasm. Romli karkasli suv bosimi minorasi:
a- umumiy ko'rinish; b- rombsimon panel.



10.9.- rasm. Minorani shamol yuklanishiga hisoblashga doir

α ning qiymati segment yuzi uchun bog'lanishdan aniqlanadi:

$$F = \frac{N}{\sigma_{yield}} \quad (10.10)$$

$$F = \frac{\pi r^2 \alpha}{180} - \frac{1}{2} c(r - h) = \pi r^2 \frac{\alpha}{180} - r \sin \alpha (r - h) \quad (10.11)$$

Bu qoidalardan kelib chiqib, xuddi shunga o'xshash minoraning dumaloq bo'limgan, balki halqali poydevorga ega bo'lganda ag'darilishga barqarorligi tekshiriladi.

Nazorat savollari:

1. Rezervuarlar qayerda qo'llaniladi?
2. Suv bosimi minoralarning asosiy parametrlari qaysilar?
3. Past bosimli rezervuar qanday elementlardan tashkil topadi?
4. Yuqori bosimli rezervuarlardagi bug' bosimi mima?
5. Rezervuarlar qoplamasи elementlarida hisobiy kuchlanishlar qanday aniqlanadi?
6. Sig'imi 10 dan 150m³ gacha bo'lgan gorizontal rezervuarlarning o'lchamlari qanday bo'ladi?
7. Rezervuarlar qanday bosimga mo'ljallanadi?
8. Sig'imi 1000m³ va undan ortiq bo'lgan rezervuarlarning kesimi qanday shaklga ega?
9. Suv bosimi minoralari qanday kuchlanishlarga mo'ljallanadi?

11. BOZORLAR

11.1. TOSHKENT SHAHRIDA BOZORLARNING RIVOJLANISH VA SHAKLLANISH TARIXI

11.1.1. XX asr davrida

Toshkentda bugungi kunga kelib taxminan yigirmata yirik bozor faoliyat yuritadi, ularning har biri o'zi shakllanishining tarixiy davri bilan farq qiladi. Ulardan eng qadimiysi, maydoni va savdo aylanmasi bo'yicha eng kattasi Chorsu bozori hisoblanadi. O'rta asrlarda shaharning bu bosh bozori bo'g'lnlari bo'lib hisoblangan, boshqa uncha katta bo'lman bozorlar ham bo'lgan.

Toshkent bozorlari mayjud bo'lishining butun davrida ko'cha va maydon bozorlari tarmog'idan tashkil topgan ixtisoslashtirilgan shahar hududlarini ifodalagan. Bu yerda savdo rastalari, hunarmandlarning ustaxonaları, karvonsaroylar, masjidlar va, hatto, hammomlar joylashgan. Ularni qayta qurishda va grafik jihatdan aslidek qilib tiklashda har bir tarixiy davrning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan.


XIX–XX asr chegaralarida yangi Toshkentning turarjoyolarida kichikkina bozorlar vujudga kelar edi, ularning ayrimlari shaharning yirik bozorlariga – Oloy, Mirobod (sobiq Gospital), Parkent bozorlariga aylandi. Shahar hududi tuzilmasida bozorlarning joylashuvi har doim muvafaqqiyatli bo'lavermaydi, bu ularda xaridga e'tiborni kamaytiradi. Bunday bozorlar vaqt o'tishi bilan o'zining yetakchilik vaziyatini yo'qotib borgan. Masalan, Turkman bozori (Markaziy deb qayta nomlangan), yangi joyga ko'chirilgan va yirik transport chorrasidan uzoqroqda joylashib qolgan Beshyog'och bozori.

Toshkentning boshqa bozorlarida, masalan, Oloy bozorida xardorlar uchun jalb qiluvchi ko'p ylllik faoliyati davomida qaror topgan jihatlar va an'analar (sut, go'sht va meva qatorlari) saqlanib qolgan.

XIX asrning oxiriga kelib Toshkent Markaziy Osiyoning eng yirik shahri sifatida shakllandi, Chorsu bozori esa bu mintaqadagi eng katta savdo punktlarini boshqardi.

Bu yerga Rossiyadan va boshqa davlatlardan keltiriladigan yuklarning katta qismi bosh bozorning karvonsaroylariga joylashtirilar edi. Bu yerdan ular qo'shni xonliklarga, shuningdek, Turkiston o'lkasining poytaxtdan uzoqdagi shaharlariiga olib ketilar edi.

Birinchi temir yo'lning (Orenburg - Krasnovodsk) qurilishi shahar iqtisodiyotiga Rossiya va chet el banklarining mablag' kiritishini rag'batlantirdi. Yevropadagi xususiy firmalar Chorsu bozorining shimoliy qismidagi eski karvonsaroylarni, shuningdek, Mahsido'zhik ko'chasi bo'ylab yer uchastkalarini sotib olishar edi. Bu yerde Rossiya va chet el firmalarining binolari barpo etilgan edi, jumladan, Moskvaning Katta Manufakturna, "Savva Morozov va K", "Sindal" va boshqalar. Bugungi kunga kelib saqlanib qolgan shunday obyektlar qatoriga Sag'bon va Forobiy ko'chalari kesishuvidanagi bank binosini kiritish mumkin.



11.1.- rasm. Toshkent (1865y). Qo'ymas darvozasi atrofida sharqiy chekkada yangi shahar qurilishi

1867-yilda Toshkent Turkiston o'lkasining yangidan tashkil etilgan ma'muriy-hududiy okrugining markazi bo'lib qoldi. Bu tarixan qaror topgan shahar yonida Yevropa manzilgohlarining shakllana boshlashiga sabab bo'ldi (*11.1.-rasm*).

Yangi shaharning qurilishi dastlabki vaqlarda eski Toshkentning mavqeiga ta'sir ko'rsatmadı. U ko'pgina asrlar davomida qaror topgan islam an'anaları bilan, urf-odatlarga rioxaliga qilgan holda yashasha davom etdi. Rus koloniya ma'muriyati shaharning hayot tarziga aralashmas, faqat ba'zida jamoat foydalanadigan joylarni obodonlashtirar edi.

Toshkent shahri yangi qismining savdo maydoni – Voskresenskiy bozori katta ko'chaning Konstantinovskiy ko'chasi bilan kesishgan joyida (hozirgi O'zbekiston shohko'chasi) joylashgan edi. Voskresenskiy bozori stixiyali tarzda, kichik bozor sifatida paydo bo'lib, unga mahalliy aholi o'z qishloq xo'jalik mahsulotini sotish uchun olib kelar edi.

M. Kolesnikovning loyihasida (1866) bozorning yangi hududda shunday joylashuviga grafik tarzda qayd qilingan va rasman mustahkamlangan. 1874-yilda, shaharning Yevropacha qismi ancha qurilib bitka-zilgandan so'ng bozorda loyiha bo'yicha nazarda tutilgan savdo inshootlari barpo etilmay qolaverdi. 1880-yilgacha maydon juda ko'p do'konlar va spirtli ichimliklar sotiladigan joylar bilan tartibsiz ravishda to'ldirilgan edi. Bu mahalliy aholining Voskresenskiy bozorini norasmiy ravishda "Piyon-bozor" (mast-alaslar bozori") deb atashga sabab bo'ldi.

XIX–XX asr chegaralarida Toshkentning kengayib ketgan Yevropacha qismi yangi bozorlarga, ayniqsa, oziq-ovqat bozorlariga ehtiyoji ortdi. Shunday savdo massivlarining uchtasi Maxromskoy ko'chasi bilan Moskovskiy shohko'chasi kesishgan joyda tashkil etildi. Bular – Kuriniy, Zelyoniy va Kleverniy bozorlari bo'lib, u yerda qo'lida yoki uncha katta bo'lmagan ko'chma do'konlarda savdo qilinar edi.

Yakshanba kunlari bu yerda shu darajada ko'p odam to'planar ediki, bunda savdo hatto yaqin atrofdagi ko'chalarga ham yoyilar edi. Misol tariqasida Toshkentning Yevropacha qismidagi yangi qaror to-

payotgan atrof dahalarida o‘zidan o‘zi vujudga keladigan, keyinchalik esa shaharning bosh rejasiga kiritilgan bir necha uncha katta bo‘lma-gan bozorlarni ko‘rib chiqish mumkin. Bunday bozorlar qatoriga Soldatskiy (hozirgi Oloy) bozorini kiritish mumkin.

Dastlabki bosqichda (XIX asrda) uncha katta bo‘lma-gan bozor harbiy lavozimlarning quyi toifalari xizmatidan bo‘shagan sobiq harbiylar qishlog‘i ichida vujudga keldi (*11.2.- rasm*).



11.2.- rasm. XX asr holatiga ko‘ra. Yangi Toshkentning markaziy qismida bozorlar tarmog‘ining rivojlanishi

Bu yerda ko‘chaning kichik bir qismida Toshkentning shimolly hududlarida yashovchilar qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan davriy ravishda savdo qilishardi. Ular o‘z savdo qilish nuqtalarini Oloy bozori deb atashgan, buning ma’nosini harbiylar (soldatlar) bozori (Oloy – harbiy, jangchi) degan ma’noni anglatadi. Bu nom asta-sekin shu savdo tarmog‘iga mustahkamlanib qoldi va shaharning 1914–15-yillarda suratga olingen materiallaridagi kartografik hujjatlarda rasman qayd etilgan (*11.3.- rasm*).




11.3.-rasm. Yangi Toshkentning tuzilishida Oloy bozorining joylashishi

Gospital (hozirgi Mirobod) bozori 1880-yillarda harbiy gospital hududida asta-sekin qaror topdi va 1910-yilgacha mustaqil shakllangan bozor sifatida faoliyat yuritdi (11.4.- rasm).

Bozor gospital miskinlari uyining janub tomonida joylashgan edi, bu uyda urushlarda yarador bo‘lgan va shikastlangan qari askarlar, shuningdek, doimiy tibbiy yordamga muhtoj bo‘lgan past harbiy tabaqadagi boshqa shaxslar boshipana topishgan edi. Faqat 1910-yilda-gina Gospital bozori shahar Yevropacha qismi janubiy-sharqiy hududining savdo maskani deb rasman qayd etilgan edi.

Bu yerda uncha katta bo‘limgan savdo maydonchasida mahalliy aholi o‘zining bog‘ va polizlaridagi meva va sabzavotlar, go‘sht-sut mahsulotlari va boshqa hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo qilar edilar.




11.4.- rasm. XX asr boshida harbiy gospital hududida bozorning tashkil etilishi

Bozor xizmatlaridan yaqin atrofdagi turarjoy aholisi, shuningdek, gospitalning lazaretlarida davolanayotgan harbiylar foydalanishar edi (11.5.- rasm).

Parkent bozori va shahar mozori yaqinidagi bozor XIX-XX asrlar chegarasida vujudga keldi va yangi shahar sharqiy yerlaring uncha katta bo'limgan savdo hududlari bo'lib hisoblanardi. Ularning birinchisi Yunkerlar bilim yurti yaqinida, ikkinchisi mozor yaqinida joylashgan edi (11.5.- rasm). Ularning rejaviy tuzilishining o'zi xos xususiyati – to'liq barpo etilgan inshootlarning yo'qligidir. Qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosiga ko'pincha yerdagi qoplar yoki aravalarda amalga oshirilar, bu aravalalar savdo do'koniga vazifasini bajarar edi. Kechga borib bunday chetki savdo maydonlarida hech narsa qolmas va ertalab hammasi yanigidan olib kelinar edi.

Turkman bozori 1880-yillarda Toshkent qal'asida, harbiylar uchun uncha katta bo'limgan maydon ko'rinishida vujudga kelgan (11.6.- rasm). Turkman bozori nomi u joylashgan ko'chaning nomi bilan bog'liq. 1930-yilgacha bu uncha katta bo'limgan bozor bo'lib, unda qizg'in savdo faqat yakshanba kunlari bo'lar edi.



11.5.- rasm. Parkent bozori – yangi shaharning sharqiy chetki savdo hududi. XX asr boshidagi holatga ko'ra



11.6.- rasm. Turkmen bozori joylashgan hududining tuzilishi XX asr boshidagi vaziyat

Bu yerga qishloq xo'jalik va chorvachilik mahsulotlari atrofdagi qishloqlardan keltirilar, bu mahsulotlarni harhiylar va yaqin atrofdagi aholi sotib olishardi. Voskresenkiy bozori buzilgandan so'ng (1930-yillar) Turkman bozori yangi Toshkentning markaziy hududidagi bosh bozor bo'lib qoldi. O'sha vaqtarda u qayta qurildi, ancha kengaytirildi, unda savdo pavilonlari va maishiy xizmat korxonalar qurilib ishga tushirildi. Shu bilan birga aytib o'tish joizki, bozorlarning mayjud bo'lishi o'zimeng yozilmagan qonunlariga ega. 1980-yillarda bu hududda qayta qurish ishiari amalga oshirildi va bozor o'z turgan o'rnidan 150-200m ga surildi. Shundan so'ng bozor asta-sekin o'z faoliyatini to'xtatdi.

Beshyog'och bozori shu nomdagi buzilgan qal'a darvozalari yaqinida vujudga keldi va "Tatarskaya" deb nomlangan yangi qishloq aholisiga savdo xizmatini ko'rsatish uchun mo'ljallangan edi (11.7.-rasm).



11.7.- rasm. Tatarskaya slobodkasi (qishlog'i) yaqinidagi yangi Beshyog'och bozori tuzilishi XX asr boshidagi holat

1870-yillarda shaharning janubiy-sharqiy devorlari yaqinida buning etilgan qishloq (slobodka) Toshkentga mahalliy va rus mansabdolari o'rtasida tilmoch sifatida kelgan tatar-musulmonlar uchun mo'ljalangan edi.

Beshyog'och qal'a darvozasi yaqinidagi bu bozor XIX asrning boshida ham shahar atrofidagi qishloq aholisining shahartiklar bilan savdo qilishlari uchun mavjud edi.

XX asrning boshiga kelib slobodkada bir qancha uylar bo'lib Maram ko'chasi (shaharning yangi qismini) Beshyog'ochi ko'chasi bilan birlashtirib, yo'l aloqasini tashkil etdi.

Beshyog'och bozori, balki juda kam sonli bo'lgan slobodka aholisi uchungina mo'ljallanmagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bu bozorda unga yaqin joylashgan mahallalar aholisi, ayniqsa, Beshyog'och va Olmazor ko'chalarining janubiy qismidagi aholi xarid qilishar edi.

Shuni aytilib o'tish zarurki, bu bozor 1990-yillargacha ancha muvafaqiyatli faoliyat olib bordi, biroq, yuqorida aytilib o'tilganidek, uning uchun juda zarur bo'lgan transport chorrahalaridan ancha uzoqlashib qolgani sababli o'z ahamiyatini yo'qotdi.

1870-yillarning boshida Konstantinov xiyobonidan Salar daryosiga bo'lgan yerlar yarmarka uchun ajratilgan va shu bilan Yarmarka majmuini yaratish uchun asos solingan edi. Bu yerda qishloq xo'jalik mahsulotlarini, mollarni va turli xil hunarmandchilik mahsulotlarini mavsumiy sotishni bir joyga to'plash rejalashtirilgan edi (11.8.-rasm). O'sha vaqtida bu hududlarda qurilish ishlarini olib borish rejasi, shu jumladan, o'sha davrlar uchun o'lchamlari bo'yicha ancha katta karvonsaroy va yigirmadan ortiq turarjoy hovlilarini qurish loyihasi ishlab chiqilgan edi (1873-y. A.Levanov).

Bosh karvonsaroy ichki perimetri bo'yicha o'zaro usti berk galereyalar bilan bog'langan savdo xonalari, do'konlar, qurilgan hovlidan iborat bo'lgan.

XX asr boshida Orenburg – Krasnodar (Toshkent orqali) temir yo'l yotqizilishi bilan Turkiston o'lkasi va Rossiya shaharlari o'rtasida keng tovarlar almashuvi qaror topdi. Toshkentda o'lkaning bosh yuk tushirish va ortib jo'natish punkti vazifasi ko'p sonli karvonsaroylari

bilan sobiq yarmarka majmui zimmasiga yuklatildi.

Bunday qaror qabul qilish uchun birinchidan Rossiyaga jo'natil-adlgan vagonlarga yuk ortish uchun o'tish yo'llari bo'lgan ikki temir yo'l tovar stansiyalari; ikkinchidan – tovarlarni yarmarka majmuining o'nta karvonsaroyida saqlash imkonimi berdi. Toshkentning vokzalining atrof hududi XX asr boshida juda katta mintaqaning savdo-yuk tushirish va ortib jo'natish hududi bo'lib qoldi.



11.8.- rasm. Yirik yarmarka majmui shakllantirayotgan yangi shaharning janubiy-sharqiy qismi. 1981-yildagi reja

XX asrning boshida avvalgi yuz yillik davomida gullab-yashnagan eski shaharning kattaligiga ko'ra ikkinchi bozori – Yakkabozor yomon ahvolga tushib qoldi. Bu holat 1980-yillargacha faoliyat yuritgan yirik qabulqilgichning ochilishi bilan bog'liq bo'ldi (11.9 rasm).



11.9.-rasm. Jome masjidi (Chorsu bozorida) atrofidagi savdo do'konlari va hunarmandchilik sexlarining xaotik qurilgan joyi. XX asr o'rtaсидаги фотосурат

1950-yillarning boshiga kelib bozorlarning rejaviy tuzilmasi ni-hoyatda rang-barang xususiyatga ega bo'ldi. Davlat kooperativ savdo magazinlari, do'konlari, kioskalari xom g'ishtdan, ba'zida karkasli edi. Ular yaqinida zinch qator bo'lib umumiy ovqatlanish korxonalari, oshxonalar, bufetlar, salqin ichimliklar hamda yengil mahsulotlar savdosini (somsa, gumma, kabob) joylashgan edi. Xususiy tadbirkorlar dehqon va hunarmandlarga bozor maydonining ichkarisidan joy ajratilgan edi. Kolxozchilar yengil soyabonlar ostiga joylashib, qishioq xo'jalik mahsulotlari bilan savdo qilishardi. Bozor hududidan tashqarida, unga yondashgan ko'chalarda artellar va ta'mirlash sexlari korporatsiya-

si tarkibiga kiruvchi hunarmandlarning ustaxonalari yengil qurilish materiallari (yog'och, hom g'isht va toshlar) dan barpo etilgan vaqtinchalik qurilishlar ko'rimishida edi. 1950-yillarning boshida bozorning eng gavjum joylariga o'rnatiladigan kooperativ savdo do'konlari va kioskalari piyodalar o'tadigan yo'llarda betartib harakat va tiqilinchni vujudga keltirib, bozorlarda noqulayliklar tug'dirgan.

1970-yillarning oxirida Toshkentga ancha mukammal shahar bozori kerak bo'lib qoldi. Chorsu bozorining ishlab chiqilgan yangi loyihasiga ko'ra (Toshgiprogor instituti tayyorlagan) bozor hududi ni tubdan qayta qurish, bu erga metropoliten liniyasi tortib kelish va uzoq muddatga chidamli bo'lган materiallar (metall, beton, pishiq g'isht) dan yangi korpuslarni qurish nazarda tutilgan edi. Chorsu bozorining yangi barpo etilgan obyektlari (1980-yillar oxiri va 1990-yillar boshi) ochiq va berk ko'rinishidagi o'zaro bog'langan savdo pavilonlari majmuimi ifodalar edi. Bosh savdo korpusi asosining diametri 80 metr bo'lган sferik qubba shaklini oldi (*11.10.-rasm*). Bozorning avvalgisidan g'arbroyda, buzib tashlangan Kalonxona turarjoy massivi hududida yangi korpuslari qurildi. Yangi savdo majmui barpo etilishi bilan qadimgi bozormi qayta qurishning ikkinchi bosqichi tugallandi. Bu chora-tadbirlar tufayli Chorsu hududi katta qubba shaklidagi o'ziga xos asosiy belgiga ega bo'ldi, qubba bozorning turli xonalari qubbachalari bilan qo'shilib eski shaharga sharqona qiyofa baxsh etdi (*11.10.-rasm*).

Boshqa bozorlarni qayta qurish jarayoni Chorsu bozorida olib borilgan ishlarga o'xshash bo'ldi. 1960–70-yillar mobaynida Oloy, Gos-pital, Beshyog'och, Askiya va boshqa bozorlar hududi asta-sekin kengaydi. Bu yerlarda ham xuddi Chorsu bozoridagi kabi asosan davlat savdosи obyektlari qurilgan edi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanadigan xususiy sektor yengil shiypon ostidagi maxsus maydonda joylashgan edi.


1960–80-yillarda Toshkent bozorlarida kolxozi va sovxozi mahsulotlarini sotish bo'yicha ixtisoslashgashtirilgan pavilonlar mavjud edi. Bular go'sht va sut pavilonlari bo'lib, ularda shahar tashqarisidagi har bir kolxozi o'zining savdo nuqtasiga ega bo'lar edi.




11.10.- rasm. Kalonxona turarjoy massivi o'rnidagi barpo etilgan yangi Chorsu savdo majmuiming umumiyligini ko'rinishi

Bozorlar ichidagi imoratlar ularmi qayta rejalashtirish davrida vaqtinchalik xususiyatga ega edi. 1960-yilgacha savdo obyektlari mahalliy materiallardan (xom g'isht, yog'och va qamish) foydalangan holda barpo etilgan edi. 1960-yillarning oxirlaridan boshiab ko'pchilik bozorlarni qurish beton va temirbeton ustunlar, plitalar, panellar va pishiq g'ishtdan foydalangan holda industrial usulda olib borila boshladi (11.11.- rasm). Shu davrda shaharda, yangi turarjoy massivlarida qurilish me'yirlari va qoidalari talablariga muvofiq barpo etilgan, har bir savdo uchastkasini aniq zonalarga ajratilgan bozorlar paydo bo'ldi (Yunusobod, Farhod, Aviasozlar, Qoraqamish, Traktorsozlar).

Ularmi loyihalashda va barpo qilishda xizmat ko'rsatilayotgan aholi miqdori, aholining bozorga piyoda borishi qulayligi, shuningdek bozoring yirik transport chorrahasiga yaqinligi hisobga olingan. Bozorlarni joylashtirishning bunday tizimi Toshkentda katta yo'lovchi aylanmasiga transport bekatlarida savdo bo'g'inlarining butun bir taromog'ini va kichik miqdordagi yo'lovchilar bo'lgan bekatlar yaqinida kichik bozorlar tashkll etishga imkon berdi.



11.11.- rasm. Industrial usulda barpo etilgan Yunusobod turarjoy tumani bozori



11.12.- rasm. Yo'lovchilar oqimi katta bo'lgan transport bektasi yonida qulay joylashgan bozor misolida – Oloy bozori

Bozorni muvaffaqiyatli joylashtirish namunasi sifatida Oloy bozorini (*11.12.-rasm*) va puxta o‘ylangan ko‘chirish namunasi sifatida esa Mirobod (sobiq Gospital) bozorini (*11.13.-rasm*) keltirish mumkin.




**11.13.-rasm. Mirobod (sobiq Gospital) bozori – bozorni transport bekatı
hududiga puxta o‘ylangan ko‘chirish namunasi**

11.1.2. Mustaqillik yillarida bozorlarni qayta qurish

Bozor munosabatlari qaror topishining dastlabki yillaridagi qiyinchiliklar va xususiy tadbirkorlik tajribasining yo‘qligi shahardagi baracha bozorlar faoliyatida aks etdi. Shaharda davlat nazorati va tartibga solishning o‘tkinchi tizimidan ajralgan bozorlar tarmog‘ini yaratish masalasi asta-sekin hal qilina boshlandi (*11.14.-rasm*).



11.14.- rasm. Shahar hududida eng katta bozorlarning joylasbtirilishi




11.15.- rasm. Mirobod bozori. Bosh pavilon ustyopmasining ko'rinishi

Bozorlar xususiylik xarakteriga ega bo'la boshladi, bunda asosiy o'rinni tadbirkorlar va ishiab chiqaruvchilar egalladi. Qisqa muddat larda shaharning barcha bozorlari zarur oziq-ovqat mahsulotlari va kundalik ehtiyoj buyumlari bilan to'ldirildi. Bu avvalgi davr bozorlari va magazinlariga xos bo'lgan tovarlar "kamomadi" degan tushuncha yo'qoldi. Keyingi o'n besh yil mobaynida mustaqil O'zbekistonning xalq xo'jaligi barcha sohalaridagi islohotlarni hisobga olgan holda Toshkentdag'i bozorlar tubdan qayta qurildi. Qisqa inuddatlar ichida ulkan ishlar amalga oshirildi, xususan, savdo inshootlari tizimining rejaviy qurilishi, ularning bozorlar hududida funksional joylashtirilishi qayta ko'rib chiqildi. Masalan, Oloy bozorida avvalgi davlat va kolxozi savdosi obyektlarining hammasi, shu jumladan, umumi ovqatlanish inshootlari olib tashlandi. Ular o'rniغا xususiy mulkchilikni hisobga olgan holda yangi savdo binolari barpo etildi. Oloy bozori hududi ancha kengaytirildi, transport keladigan yo'llar yaxshilandi, avtomobillar to'xtash joylari jihozlandi. Bozor hududining o'zi obodonlashtirildi, uning bosh kirish qismidagi passaj turidagi usti berk pavilon uning ko'rkiga aylandi. Avvalgi davrlar an'analari takrorlandi – oraliqlari o'q-yoy bilan tugallangan ramziy kirish eshiklarining o'rnatilishi ulariga an'anaviy me'morchilikning ayrim jihatlarini berdi.

1990-yillarda sobiq Gospital bozori nomi o'zgartirildi. Uning avval joylashgan hududda transport tizimining kengaytirilishi munosabati bilan bozorning yangi joyga ko'chirilishi uning rentabilligiga ta'sir ko'rsatmadı. Yangi inshootlarga uning kirish darvozasi (11.12.-rasm) va ust yopmasining murakkab quvursimon konstruksiysi bilan o'zgacha chiroy baxsh etdi (11.13.-rasm). Magazinlar, ovqatlanish va mafishiy xizmat ko'rsatish korxonalari tarmog'i xususiy mulk hisoblanadi, bu esa aholi iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari va birinchi ehtiyoj tovarlarining asosiy turlari narxlarining barqarorligiga va raqobat muhitining yaratilishiga imkon beradi.

Chorsu bozori bo'yicha (rasmiy nomi Eski Jo'va) yorqin qubbalari va ulkan savdo pavilonlari bo'lgan tashqi jihatdan me'moriy ifodali bozorni yaratishning avvalgi rejaviy kontseptsiyasidan voz kechishga qaror qilingan edi. Uning o'rniغا amaliy jihatdan qulay, funksional

zarur va tez buniyod etiladigan inshootlarni qurish boshlandi (11.16, 11.17.- rasmlar). Ular uncha katta bo'limgan muddat foydalamishga mo'ljallangan va bundan keyin ehtimol yanada zamonaviy va mukammal savdo inshootlari bilan almashtirilar. Masalan, bosh avtoto'xtash joyidan xususiy buyum bozori, eski bozorda avval mavjud bo'lgan savdo qatorlarini yanada zamonaviy ko'rimishida takrorlovchi ochiq turdag'i savdo qatorlarini yanada zamonaviy ko'rinishda takrorlovchi ochiq turdag'i savdo qatorlari (11.17- rasmlar).



11.16.- rasm. Qadimgi Registon maydonidagi zamonaviy savdo pavilonlari



11.17.- rasm. Chorsu bozorining chiziqli joylashgan savdo pavilonlari

Chorsu bozori juda ko‘p asrlar avval ham xususiy savdogarlar so-tadigan o‘zining sharq shirinliklari, lazzatli an’anaviy ovqatlari, quruq mevalari bilan o‘ziga jalb qilib keldi va, dadil aytish mumkinki, jahonga mashhur qildi.

Hunarmandalr bozor yonidagi alohida ixtisoslashtirilgan hududda qulay joylashib, (Saqichmon ko‘chasi bo‘ylab) o‘zlarining an’anaviy hunarlarini davom ettirishmoqda.

Chorsu bozorini qayta qurish bo‘yicha eng mehnattalab ishlar qatoriga uninig o‘rta qismini obodonlashtirishni kiritish mumkin (11.18.-rasm). Bu xaridorlarga qulaylikni ta’minladi. Sobiq o‘rta asr qal’asi hududida (Ark, Eski Jo‘va) va unga yondoshgan sobiq Mahsido‘zlik ko‘chasida yirik rejaviy ishlar amalga oshirildi.

Barcha bu shaharsozlik tadbirdari Chorsu maydonidagi “Chorsu” mehmonxononasini, “Chorsu savdo markazi” supermarketini qayta qurish bilan birqalikda, yangidan barpo etilayotgan Xo‘ja Ahror Vali jome’ masjidi sobiq eski Toshkent markazining betakror qiyofasining va uning bosh yadrosi – Chorsu bozorining shakllanishiga imkon berdi.



11.18. Chorsu bozorining o‘rta qismidagi qismini obodonlashtirish. 2006 yildagi fotosurat

11.2. Usti yopiq bozorlar

Mamlakatimizda usti yopiq bozorlarni barpo qilish butun bir qator muhim masalalarni hal qilish bilan bog'liq: usti yopiq bozorlarni shaharning shaharsozlik sxemasida joylashtirish va ularning savdo markazlari bilan o'zaro aloqasi, hajmiy-rejaviy qarorlar (echimlar) usullari va ularning usti yopiq bozorlarga qo'yiladigan talablarga bog'liq holda, bozorlar binolari topologiyasi va h.lar bilan bog'liq. Bu masala-larning hammasi tasodifiy yoki zamonaviy qurilish amaliyoti oldida to'satdan paydo bo'lgan masala hisoblanmaydi, ular chuqur tarixiy ildizlarga ega.

Usti yopiq bozorlarni qurishga katta ehtiyoj hozirgi vaqtida shahrimizni qayta qurishning shaharsozlik vazifalari va ochiq bozorlarni yopiq xonalarga o'tkazishni qat'iy holda buyuruvchi sanitariya-gigienik talablar asosida vujudga kelmoqda. Bizda usti yopiq bozorlarni loyiha-lash va qurishning ma'lum tajribasi to'plangan, lekin shunga qaramay bu tajriba shu paytgacha yetarlicha o'r ganilmagan va umumlashtirilmagan, ulardan usti yopiq bozorlarni yanada takomillashtirishga imkon berishi mumkin bo'ladigan ijobiy saboqlar yo'q.

Ma'lumki, usti yopiq bozorlar – savdo qilish vazifasini bajaruvchi jamoat inshootlari – qadimgi agarlar va anjumanlar bilan bog'liq. Binolar qurilib to'ldirilgan antik shaharlarning bu ijtimoiy va savdo hayotining sahnasi hisoblanardi, shu yerning o'zida savdo ham qilinardi.

Shaharlarning rivoji va jadal sur'atlarda o'sishi jamoat binolarining yangi turi usti yopiq bozorlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Usti yopiq bozor haqida yaxshi yoritilgan va shamollatiladigan, yaxshi ko'rinaldigan savdo o'rnlari bilan jihozlangan katta savdo zali haqida tasavvur paydo bo'ladi. Usti yopiq bozorlar ko'pincha bozor xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining zarur majmui bo'lgan savdo markazlari hisoblanadi.

ADABIYOT

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. O'zbekiston. 2015.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. O'zbekiston. 2009.
3. Askarov B.A. Qurilish konstruksiyalari. Darslik. Toshkent. O'zbekiston. 1995.
4. Kasymova S.T., Shodjalilov Sh, «Gorodskie injenernye soorujeniya». Uchebnik.TASI. 2015.
5. ShNK 2.05.02 – 07 Avtomobillar yo'llari. Toshkent. 2007.
6. Yuklar va ta'sirlar. ShNK 3.06.03-08. Avtomobil yo'llari. Toshkent. 2008.
7. KMK 2.02.01-98. Bino va inshootlarni asoslari.
8. KMK 2.03.01-96 «Zilzilaviy hududlarda qurilish». Tashkent. 1997.
9. Posobie po proektirovaniyu kamennых і armokamennых konstruktsiy SNiP P-22-71. M., 1989..
10. KMK 2.03.01-96 «Beton va temirbeton konstruksiyalar». Tashkent. 1997.
11. Ashrabov A.B. i drugie «Spravochnik stroitelya» T., Mexnat, 1987.
12. «Jelezobetonnye konstruktsii» Spetsialnyy kurs (Baykov V.N., Drozdov P.F., Trifonov I.A. i dr) M., Stroyizdat. 1981.
13. Budin A.Ya., Demina G.A. «Naberejnye» spravochnoe posobie M., Stroyizdat 1979.
14. Qosimova S.T., Xodjayev S.A., Shodjalilov Sh. "Bino va inshootlarni sinash metrologiyasi". O'quv qo'llanma I, II qism, TAQI 2002, 2003.
15. Gibshman E.E. "Proektirovanie metallicheskix mostov". M., Transport, 1980.
16. Gibshman M.E. "Proektirovanie transportnyx soorujeniy". Uchebnik, M.. Transport. 1980.
17. "Peresecheniya v raznyx urovnyax gorodskix magistralej"
18. Gulyaev A.Ya. «Konstruksiya i raschet drenajnix ustroystv» M., Transport, 1980.
19. R.I. Bergen, Yu.M. Dukarskiy. «Injenernye soorujemiya» M, 1982.
20. Akselrod L.S. «Gorodskie naberejnye» M., 1952.

21. Ginsburg L.K. «Protivopoloznevye uderjivayushie konstruktsii» M., Stroyizdat. 1989.
22. Pod red. Gibshman M.E. «Mosty i stroyelnye konstruktsii» M., 1975, MADI.
23. Kudzis. Jelezobetonnye i kamennye konstruktsii. Konstruktsii promyshlennых i graqdanskix zdaniy i soorujeniy. Moskva. Vysshaya shkola. 1973.
24. Mixaylov B.P. Arxitektura metallicheskix sorrujemiy. Izdatelstvo Vsesoyuznoy akademii arxitektury. Moskva. 1938.
25. Lysogoroskiy A.A. «Gorodskie garaji i stoyanki» M, Stroyizdat, 1979.
26. K.K. Muxanov «Metallicheskie konstruktsii» M, Stroyizdat, 1979.
27. Sheshtokas. V.V. i dr. Garaji i stoyanki: Uchebnoe posobie dlya vuzov. M. Stroyizdat, 1984. 214 s.
28. Spravochnik po proektirovaniyu elementov jelezobetonnykh konstruksiy. Lopatto A.E. Kiev, izd. ob'edinenie «Vysshaya shkola». Golovnoe izd-vo, 1978. 256 s.
29. Stroyelnye konstruktsii. Uchebnik dlya vuzov. Pod red. A.M. Ovechkina I.R.L. Mailyana. Izd. 2-e pererab i dok M., Stroyizdat, 1974, 487 s.
30. Makovskiy L.V. Gorodskie podzemnye transportnye soorujeniya. M.: Stroyizdat, 1979. 472 s.
31. Reznikov N. Universalnoe zreliщno-sportivnye zały. M.: Stroyizdat, 1969. 223 s.
32. Jelezobetonnye konstruktsii. Uch. Posobie dlya vuzov. Spetsialnyy kurs. Pod obiц. Red. V.N. Baykova. Izdanie 2-e, pereab. i dop. M., Stroyizdat, 1974. 800 s.
33. S.B. Sborščikov, Yu.N. Domojilov. Texniko-ekonomicheskie osnovy ekspluatatsii, rekonstruktsii i renovatsii zdaniy. Uch. posobie. Izdatelstvo Assotsiatsii stroyelnykh vuzov. M.2007. 192 s.

X O T I M A

Shahar injenerlik inshootlari murakkab obyektlar qatoriga kiradi, ulardan ayrimlari esa noyob hisoblanadi. Ularni loyihalash, hisoblash va barpo etishda yangi zamonaviy texnik va iqtisodiy yechimlar qabul qilinadi. Bunday inshootlarning qurilishi shahrga o'ziga xos me'moriy qiyofa beribgina qolmay qurilishning umumiyligi texnikaviy ravnaqiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur darslikning mazmuni ma'lum darajada shahar injenerlik inshootlarining me'moriy-rejaviy va konstruktiv yechimlari evolyutsiyasi haqida fikrlash imkonini beradi.

Darslik ko'priklari, tunnellari, garaj va avtomobil turarjoylari, tirgak devorlar va yo'lko'priklar, sport inshootlari, minora va machtalar, elektr o'tkazish liniyalari va televizion antennalar, bozorlar va shu kabi ko'pgina asosiy shahar muhandislik inshootlarining loyihalash va hisoblash xususiyatlarini o'rganish va o'zlashtirish bo'yicha materiallar bayon etilgan. Darslikda ko'zda tutilgan zamonaviy shahar injenerlik inshootlarining texnikaviy-iqtisodiy masalalarini majmuuiy o'rganish bakalavr va magistrler uchun kerak bo'lgan bilimni shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy shahar o'zining barcha tarmoq zvenolari bilan birga be-nuqson faoliyat ko'rsatish uchun shahar injenerlik inshootlarining bir me'yorda hamda o'zaro hamohang tarzda ishlashni ta'minlash lozim.

Mamlakatimizda yildan yilga shahar xo'jaligi yangi obyektlarini qurish, borlarini remont va rekonstruksiya qilish uchun kapital mablag'lar miqdori oshib borayotganligi, shahar injenerlik inshootlari il-mining yaxshilanishidan darak beradi. Bu masalani majmuuiy yechish uchun ilmiy-texnik o'sish sohasida texnikaviy va iqtisodiy bilimlarining uyg'unligi zarur ko'rindi. Bu esa o'z navbatida shahar injenerlik inshootlarini loyihalash, qurish va ularni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish bo'yicha maxsus usullar yaratishni talab etadi.

Va niroyat ilmiy-texnik o'sish istiqbolini muntazam ko'ra bilish davr talabidir. U esa ilmiy-tadqiqot dargohlarida, oliy o'quv yurtlarida

amalga oshadi. Darslikda ko‘rilgan masalalarning nihoyatda xilma-xil ekanligiga qaramasdan ularning barchasi yagona maqsadli dasturga birlashadi va o‘z oldiga shahar injenerlik inshootlari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda umumiyligini va sharafligini vazifani qo‘yadi.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI.....	3
KIRISH	4
1. TRANSPORT INSHOOTLARI	8
1.1. TRANSPORT INSHOOTLARI TASNIFI	8
1.2. Shahar ko'priklariga bo'lgan asosiy talablar	13
1.3. ESTAKADA, YO'L KO'PRIK VA MURAKKAB TRANSPORT KESISHUVLARIGA BO'LGAN TALABLAR	17
1.4. Temirbeton estakadalarining, oraliq qurilmalari, tayanchlarining asosiy tizimlari va turlari.	25
1.5. Shahar ko'priklari va transport inshootlari arxitekturasi	28
2. SHAHAR KO'PRIKLARI.....	34
2.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR	34
2.2. YOG'OCH KO'PRIKLAR	38
2.2.1. Yog'och ko'priklarning xususiyatlari	38
2.1.2. Yog'och ko'priklarning konstruktiv tizimlari.....	41
2.3. TOSH VA BETONLI KO'PRIKLAR	43
2.4. TEMIRBETON KO'PRIKLAR.....	44
2.4.1. Materiallar va ularning tavsiflari.....	44
2.4.2. Temirbeton ko'priklarning afzallikkleri	50
2.4.3. Temirbeton ko'priklarning asosiy tizimlari	50
2.4.4. To'sinli ko'priklar. Plitali ko'priklar	54
2.4.5. Qovurg'ali oraliq inshootli ko'priklar.....	58
2.4.6. Zo'riqtirilmagan armaturali qirqimli to'sinli oraliq qurilmalarning konstruksiyalari	66
2.4.7. Armaturasi zo'riqtiriladigan ko'priklarning to'sinli bo'laklanadigan oraliqli inshootlari	74
2.4.8. Temirbeton romli ko'oriklar	86
2.4.9. Arkasimon ko'priklar	92
2.4.10. Vantli ko'priklar.....	101
2.5 METALL KO'PRIKLAR	103
2.5.1 Metall ko'priklarning asosiy tizimlari	103
2.5.2. Metall oraliq inshootlarining konstruktiv elementlari	108
2.5.3. Metall ko'priklarning qatnov qismi	110
2.5.4. Shahar ko'priklarida qatnov qism va trotuarlarni to'sish	112

2.5.5. Metall ko'priklarning qatnov qismidagi deformatsiya choklarini yopish.....	115
2.5.6. Yerosti tarmoqlarini shahar ko'priklari orqali o'tkazish	121
2.6. Toshkent shahridagi yangi yo'lo'tkazgichlar.....	123
3. SHAHAR KO'PRIKLARI VA TRANSPORT INSHOOTLARINI HISOBBLASH ASOSLARI	126
3.1 UMUMIY MA'LUMOTLAR	126
3.2. TEMIRBETON ESTAKADALAR YO'L KO'PRIKLAR VA ORALIQ INSHOOTLARINI HISOBBLASHNING XUSUSIYATLARI.	127
3.3. YUKLANISH TURLARI.....	128
3.3.1. Harakatdagi vertikal yuklanish	129
3.3.2. Gorizontal yuklamish.....	133
3.4. HISOBBLASH USULLARI TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR.....	135
4. PIYODA O'TISH YO'LLARI.....	141
4.1. PIYODALAR O'TISH YO'LLARINING ASOSIY TURLARI.....	142
4.1.1. Ko'chalardagi va ko'chaldan tashqari piyodalar o'tadigan yo'llar.....	143
4.1.2. Temir yo'l izlari ustidan piyoda o'tish yo'llari.....	154
4.1.3. Daryolar ustidan piyoda o'tadigan ko'priklar.....	156
4.2. PIYODA KO'PRIKLARINING KONSTRUKSIYALARI	160
4.2.1. Yog'och va metall ko'priklar.....	160
4.2.2. Temirbeton piyoda ko'priklari.....	166
4.3. PIYODA KO'PRIKLARINI HISOBBLASH XUSUSIYATLARI 171	180
5. YEROSTI INSHOOTLARI.....	180
5.1. SHAHARLARDA YEROSTI FAZOSIDAN FOYDALANISH 180	180
5.1.1. Yerosti qurilishining maqsadga muvofiqligi.....	180
5.1.2. Yerosti qurilishining iqtisodiy samaradorligi	182
5.2. SHAHAR TUNNELLARI.....	184
5.2.1. Yuza joylashgan avtotransport tunnellari	184
5.2.2. Yerosti magistrallari.....	195
5.2.3. Suvosti tunnellari	197

5.2.4. Tog` tunnellari	202
5.2.5. Metropoliten tunnellari	206
5.2.6. Yuza qilib o'tkaziladigan tunnellarning konstruksiyalari	210
5.2.7. Tunnellarni hisoblash tamoyillari	211
6. SHAHAR SOHILLARI	217
6.1. Umumiy ma'lumotlar.....	217
6.2. TIRGAK DEVORLARNING KONSTRUKSIYALARI	220
6.2.1. Monolit betondan va temirbetondan tirkak devorlar	220
6.2.2. Yig`ma temirbetondan tirkak devorlar.....	225
6.2.3. Ankerli va shpuntli tirkak devorlarning konstruksiyalari	231
6.3. DEFORMATSION CHOKLAR	236
6.4. SOHILDAN TUSHISH YO'LLARI	237
6.5. SOHIL ELEMENTLARINI HISOBBLASH ASOSLARI	240
6.5.1. Tirkak devorlarni hisoblash	240
6.5.2. Shpuntli va ankerli tirkak devorlarni hisoblashning xususiyatlari	
249	
6.6. SOHIL DEVORLARINI QURISH.....	256
7. GARAJLAR VA TO'XTASH JOYLARI	258
7.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR	258
7.2. AVTOMOBILLAR SAQLANADIGAN JOYLARNING	
HISOBDAGI SIG'IMI.....	259
7.3. GARAJ VA TO'XTAB TURISH JOYLARINING	
ASOSIY TURLARI	274
7.3.1. Yerosti to'xtash joylari, garajlar va majmualar	276
7.3.2. Turarjoy binolari ostidagi garajto'xtash joylari	290
7.3.3. Xo'jalik bloki yerto'lalaridagi garajto'xtab turish joylari	292
7.3.4. Rampalari tutashtirilgan garajlar.....	295
7.3.5. Rampalari ichiga o'rnatilgan garajlar	296
7.3.6. Yarimrampalni garajlar	298
7.3.7. Nishabyopmali garajlar	299
7.3.8. Nishab-vintli yopmaramampalni garajlar	301
7.3.9. Yarimmexanizatsiyalashtirilgan garajlar	304
7.3.10. Mexanizatsiyalashtirilgan garajlar	304
7.4. AVTOTO'XTASH JOYLARI	306
7.4.1. Ochiq tekis to'xtash joylari	307
7.4.2. Jamoat binolarining yerto'lalaridagi qisqa muddatli to'xtash	

joylari	307
8. SPORT INSHOOTLARI.....	309
8.1. SPORT INSHOOTLARI TASNIFI.....	309
8.2. SPORT INSHOOTLARI MINBARLARINING KONSTRUKSIYALARI	311
8.2.1. Tuproq qiyaliklardagi minbarlar	316
8.2.2. Yog'och minbarlar	318
8.2.3. Temirbeton minbarlar	319
8.2.4. Metall konstruksiyali minbarlar	325
8.2.5. Minbarlar konstruksiyasini hisoblash uchun ma'lumotlar	325
8.2.6. Stadionlarning minbarlarini qurish	326
8.3. BASSEYNLAR	326
8.3.1. Umumiy ma'lumotlar	326
8.3.2. Basseyн vannalarining shakli, o'chamlari, konstruksiyalari va jihozlari	326
8.3.3. Minora va tramplin qurilmalari	339
8.3.4. Usti yopiq basseynlar	344
8.3.5. Ochiq basseynlar	358
8.3.6. Hamma ob-havoga mo'ljallangan va mobil basseynlar	365
8.3.7. Basseyн vannalarining ishlash tamoyillari	373
8.4. TOBBOGANLAR	374
9. MINORA VA MACHTALAR EUL TAYANCHLARI.....	376
9.1. MINORALAR	378
9.2. MACHTALAR	382
9.3. ELEKTR UZATISH LINIYALARI TAYANCHLARI	385
9.4. MACHTALARNI HISOBBLASH ASOSLARI	390
10.REZERVUARLAR YA SUV BOSIMI MINORALARI	392
10.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR	392
10.1.1. REZERVUARLAR.....	392
10.1.2. Rezervuarlarni hisoblash.....	395
10.1.3. Neft mahsulotlarini saqlash uchun gorizontal rezervuarlar	397
10.2. SUV BOSIMI MINORALARI	399
10.2.1. Suv bosimi minoralarining konstruksiyasi	397
10.2.2. Suv bosimi minorasini hisoblash	403

11. BOZORLAR.....	406
11.1. TOSHKENT SHAHRIDA BOZORLARNING RIVOJLANISH VA SHAKLLANISH TARIXI	406
11.1.1. XX asr davrida	406
11.1.2. Mustaqillik yillarida bozorlarni qayta qurish.....	420
11.2.Usti yopiq bozorlar	425
Adabiyot	426
Xotima.....	428

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI

**B.X. Raximov
S.T. Qosimova
Sh. Shodjalilov**

SHAHAR INJENERLIK INSHOOTLARI

DARSLIK

«Noshir» -- Toshkent – 2019

Muharrir: *N.Norova*
Tex. muharrir: *D.Safayeva*
Rassom: *Sh.Odilov*
Sahifalovchi: *R.Xidoyatov*

Nashriyot litsenziyasi A1 254. 31.12.2014-y.

Bosishga ruxsat etildi 20.11.2019-yll. Bichimi 60x84 1/16.

«Times New Roman» garniturasi. Ofsey bosma usulda bosildi.

Shartli bosma tabog'i 28,0. Nashr bosma tabog'i 27,25. Adadi 300.

Buyurtma №34.

«Noshir» QK nashriyoti, 100020
100020, Toshkent sh., Langar ko‘chasi, 78.

«Noshir» O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma korxonasida bosildi.
100020, Toshkent sh., Langar ko‘chasi, 78.